ScienceInnovation
INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIYOT, BUXGALTERIYA HISOBI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

RESPUBLIKA ILMIY KONFERENSIYASI

2026 YIL 30-31 YANVAR



MATERIALLAR TO'PLAMI

I

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIYOT, BUXGALTERIYA HISOBI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2026-YIL 30-31-YANVAR

1-qism

COLLECTION OF MATERIALS

OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC “PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ECONOMICS, ACCOUNTING, AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DIGITAL ECONOMY”

JANUARY 30-31, 2026

Part 1

Toshkent – 2026

ISSN: 2181-3337

“Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallar to‘plami, 1-qism (2026-yil 30-31-yanvar) – T.: Science and Innovation, 2025.

Nashr etishda qatnashganlar:

Baxtiyor Rustamov, Gulira’no Rakhmatullayeva, Kozim Ergashov, Mansur Suyunkulov, Feruza Ollamurodova, Dilnoza Narzullayeva, Sevara O‘rinboyeva, Asila Khaydaraliyeva, Samandar Rasulov

Tahrir hay’ati a’zolari

A.Alikulov	*Iqtisodiyot fakulteti dekani, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
Sh.Yuldashev	*Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha dekan o‘rinbosari*
L.Safarova	*Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kafedrasi*
U.Eshmuradov	*Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi mudiri, i.f.f.d., (PhD).*
N.Rajabov	*Iqtisodiyot va menejment kafedrasi mudiri*
I.Salamov	*Iqtisodiyot va menejment kafedrasi dotsenti, i.f.n.*
R.Qudratov	*Iqtisodiyot va menejment kafedrasi katta o‘qituvchisi, i.f.n.*
B.Azizqulov	*Iqtisodiyot va menejment kafedrasi dotsenti, i.f.f.d., (PhD).*
S.Raximov	*Buxgalteriya hisobi va audit kafedrasi katta o‘qituvchisi, i.f.f.d., (PhD).*
X.Urdushev	*Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kafedrasi dotsenti, i.f.n.*
M.Mavlyanov	*Axborot texnologiyalari, tabiiy va aniq fanlar kafedrasi katta o‘qituvchisi*

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
© “Science and Innovation” xalqaro ilmiy jurnali
© Mualliflar

KIRISH SO‘ZI

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2026-yil 16-yanvardagi 11-son buyrug‘iga asosan 2026-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasida belgilangan 2026 йил 30-31 январ кунлари Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida “Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalarini rivojlantirish istiqbollari” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.

Respublikamizda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida raqamli iqtisodiyotda barqaror o‘sish ta’minlanishi bilan jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5-oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030” Strategiyasini va "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-4699-son ijrosida belgilab berildi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalarini rivojlantirishdan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik;

- raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalarining integratsiyalashgan nazariy modeli ishlab chiqiladi;
- raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligini baholash bo‘yicha yangi ilmiy-uslubiy yondashuvlar taklif etiladi;
- buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning raqamli metodologiyasi bo‘yicha ilmiy konsepsiyalar shakllantiriladi;
- sun’iy intellekt, blokcheyn, Big Data va bulutli texnologiyalarning iqtisodiy boshqaruvdagi ilmiy asoslari tizimlashtiriladi;
- ilmiy tadqiqotlar uchun yangi muammoli yo‘nalishlar (research gaps) aniqlanib, kelgusida dissertatsiyalar va ilmiy loyihalar uchun asos yaratiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiy boshqaruv, buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq nazariy, uslubiy, texnik va institutsional muammolar, shuningdek, raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy samaradorligi va xavfsizligini ta’minlash masalalaridan iborat.

Shu bois, “Raqamli iqtisodiyot” sharoitida iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalarini dolzarb muammolarini chuqur tahlil qilish hamda ularning samarali yechimlarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan muhim vazifa hisoblanadi. Ushbu masalalarning hal etilishi nafaqat korxonalar faoliyatining shaffofligi va samaradorligini oshiradi, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror va ekologik xavfsiz rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mazkur konferensiyada iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalari ilmining bu boradagi erishgan yutuqlar bilan birga oldidagi vazifalarini bajarish hamda mavjud muammolari yechimi xususida atroflicha fikr almashildi.

I

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT TARMOQLARINI RIVOJLANTIRISH, RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI

* * *

ISSUES OF DEVELOPING NATIONAL ECONOMIC SECTORS IN THE DIGITAL ECONOMY AND INCREASING THE ECONOMIC EFFICIENCY OF DIGITAL TRANSFORMATION

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KORPORATIV MOLIYANING MODERNIZATSIYASI VA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH MASALALARI

Abdullayev Zafarbek Safibullayevich[1], Abdullabekova Noilaxon G‘ofurjon qizi[2]
[1]Namangan davlat universiteti iqtisodiyot fakulteti dotsenti v.b., iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)
[2]Namangan davlat universiteti iqtisodiyot fakulteti 1-bosqich magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654687

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ moliya tizimining modernizatsiyasi, moliyaviy qarorlar qabul qilish mexanizmlarining raqamli transformatsiyasi hamda ularning barqaror iqtisodiy o‘sishga ta’siri kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilingan. Xalqaro va milliy tajriba misolida raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etish investitsiya samaradorligini oshirish, moliyaviy risklarni kamaytirish hamda iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qilishi isbotlangan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, korporativ moliya, raqamli transformatsiya, moliyaviy qarorlar tizimi, investitsiya samaradorligi, barqaror iqtisodiy o‘sish.*

Abstract. *This article analyzes, using a comprehensive and systematic approach, the modernization of the corporate finance system under the conditions of the digital economy, the digital transformation of financial decision-making mechanisms, and their impact on sustainable economic growth. Based on international and national experience, it demonstrates that the implementation of digital financial management systems contributes to increasing investment efficiency, reducing financial risks, and ensuring the sustainable development of economic sectors.*

Keywords: *digital economy, corporate finance, digital transformation, financial decision-making system, investment efficiency, sustainable economic growth.*

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi zamonaviy iqtisodiy tizimda chuqur tarkibiy o‘zgarishlarni yuzaga keltirib, korporativ boshqaruv va moliyaviy qarorlar qabul qilish mexanizmlariga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli platformalar, Big Data va sun’iy intellekt asosida shakllanayotgan yangi iqtisodiy muhit sharoitida korporativ moliya tizimi an’anaviy boshqaruv modellaridan bosqichma-bosqich voz kechib, raqamli transformatsiya yo‘liga o‘tmoqda. Ushbu jarayon korporatsiyalarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, investitsiya samaradorligini oshirish hamda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.


Ilmiy adabiyotlarda korporativ moliya korporatsiyaning investitsiya, moliyalashtirish va dividend siyosati orqali korporativ qiymatni oshirishga qaratilgan qarorlar tizimi sifatida talqin etiladi (Brealey, Myers & Allen, 2020). Ushbu yondashuv rus olimlari qarashlari bilan ham mushtarak bo‘lib, V.V.Kovalyevning ta’kidlashicha, korporativ moliya - bu korporatsiyaning moliyaviy resurslarini shakllantirish, taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan pul munosabatlari tizimi bo‘lib, u korporatsiya qiymatini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida ushbu qarorlar tizimi yangi mazmun kasb etib, moliyaviy axborotlarning real vaqt rejimida shakllanishi, avtomatlashtirilgan tahlil vositalaridan foydalanish va risklarni raqamli monitoring qilish imkoniyatlari bilan boyimoqda. Natijada moliyaviy boshqaruv jarayonlarining aniqligi va tezkorligi sezilarli darajada oshib, kapital resurslardan foydalanish samaradorligi kuchaymoqda.

Raqamli transformatsiya jarayonida korporativ moliyaning modernizatsiyasi, avvalo, moliyaviy boshqaruv jarayonlarini raqamlashtirish orqali namoyon bo‘lmoqda. Bu borada G.B.Kleinerning fikricha, raqamli iqtisodiyot moliyaviy boshqaruvning an’anaviy mexanizmlarini tubdan o‘zgartirishni talab etadi. Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, ERP tizimlari, raqamli buxgalteriya va moliyaviy analitika platformalarini joriy etgan korporatsiyalarda operatsion xarajatlar o‘rtacha **20–30 foizga qisqargan**, moliyaviy shaffoflik esa sezilarli darajada oshgan (Deloitte, 2022). Bu esa moliyaviy intizomni mustahkamlash va korporativ boshqaruv sifatini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Investitsiya qarorlarini qabul qilish jarayonida Big Data va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish korporativ moliyaning modernizatsiyasidagi muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Raqamli transformatsiya jarayonining empirik namoyishi sifatida O‘zbekiston va xalqaro korxonalar orasidagi raqamli platformalarni qabul qilish foizi keltiriladi (1-rasm). Bu ko‘rsatkich O‘zbekistonning raqamli transformatsiya darajasini Yevropa va Markaziy Osiyo o‘rtachasi bilan solishtirish imkonini beradi.



Korporatsiyalar tomonidan veb-saytga egalik darajasi (1-rasm)

Ushbu rasmda O‘zbekiston korxonalari orasida raqamli platformalarni qabul qilish darajasini Yevropa va Markaziy Osiyo o‘rtacha ko‘rsatkichlari bilan solishtiriladi. Ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistondagi korxonalar raqamli transformatsiyani qabul qilishda mintaqa va Yevropa o‘rtachasidan ancha past, bu esa raqamli moliyaviy boshqaruv tizimini joriy etishda mavjud imkoniyatlarni ko‘rsatadi.

Ushbu texnologiyalar investitsiya loyihalarining kutilayotgan daromadliligi va risk darajasini an’anaviy usullarga nisbatan ancha aniq baholash imkonini beradi. Natijada kapitalning samarasiz yo‘naltirilishi kamayib, innovatsion loyihalarga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar hajmi ortadi. Ilmiy tadqiqotlarga ko‘ra, raqamli investitsiya tahlilidan foydalangan korporatsiyalarda investitsiya rentabelligi barqarorroq bo‘lib, moliyaviy yo‘qotishlar ehtimoli sezilarli darajada kamaygan (OECD, 2021).

Quyidagi jadvalda raqamli texnologiyalarning korporativ moliya tizimiga ta’siri va ularning iqtisodiy samaradorlikka qo‘shayotgan hissasi umumlashtirilgan.

Raqamli texnologiyalar va ularning korporativ moliyadagi iqtisodiy samaradorlikka ta’siri (1-jadval)

Raqamli texnologiya turi	Korporativ moliyadagi qo‘llanilishi	Iqtisodiy samaradorlikka ta’siri
ERP va moliyaviy platformalar	Moliyaviy hisob va nazoratni avtomatlashtirish	Xarajatlarning qisqarishi, shaffoflikning oshishi
Big Data texnologiyalari	Investitsiya va moliyaviy tahlil	Qarorlar aniqligining oshishi
Sun’iy intellekt	Risklarni prognozlash va boshqarish	Moliyaviy barqarorlikning kuchayishi
Raqamli platformalar	Kapital va moliyaviy resurslarni boshqarish	Investitsiya faolligining oshishi

O‘zbekiston sharoitida ham korporativ moliyaning raqamli transformatsiyasi milliy iqtisodiyot rivojlanishining muhim omillaridan biriga aylanmoqda. So‘nggi yillarda davlat va yirik korporatsiyalar tomonidan raqamli moliyaviy boshqaruv tizimlarini joriy etishga qaratilgan islohotlar investitsiya jarayonlarining faollashuviga xizmat qilmoqda. Raqamli moliyaviy xizmatlar hajmining o‘sishi va korporativ investitsiyalarda axborot texnologiyalariga yo‘naltirilgan mablag‘lar ulushining ortib borishi korporativ moliyaning modernizatsiyasi barqaror iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatayotganini tasdiqlaydi. Ushbu holat moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishi orqali ishlab chiqarish hajmining kengayishi va iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdorligining oshishida namoyon bo‘lmoqda.

Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonida korporativ moliyani rivojlantirish bir qator muammolar bilan ham kechmoqda. Jumladan, raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, yuqori malakali moliyaviy va IT mutaxassislar tanqisligi, shuningdek, axborot xavfsizligi bilan bog‘liq risklar ushbu jarayonning samaradorligini cheklab kelmoqda. Normativ-huquqiy bazaning raqamli moliya talablariga to‘liq moslashmaganligi ham korporativ moliya modernizatsiyasining institutsional asoslarini kuchaytirishni taqozo etadi.

Umuman olganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida korporativ moliyaning modernizatsiyasi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning muhim moliyaviy mexanizmlaridan biri hisoblanadi. A.D.Sheremet fikriga ko‘ra, korporativ sektorning moliyaviy barqarorligi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy qarorlar qabul qilish tizimlarini rivojlantirish korporatsiyalarning raqobatbardoshligini oshiradi, investitsiya samaradorligini kuchaytiradi va milliy iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelgusida korporativ moliyani raqamli transformatsiya qilish jarayonlarini kompleks qo‘llab-quvvatlash, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish va inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Brealey, R. A., Myers, S. C., & Allen, F. (2020). *Principles of Corporate Finance* (13th ed.). McGraw-Hill Education.
2. Tapscott, D. (2015). *The Digital Economy: Rethinking Promise and Peril in the Age of Networked Intelligence*. McGraw-Hill.
3. OECD. (2021). *Digital Transformation and Corporate Finance*. OECD Publishing.
4. Deloitte. (2022). *Digital Finance Transformation Report*. Deloitte Insights.
5. World Bank. (2020). *Digital Economy for Development (DE4D): Country Diagnostics*. World Bank Publications.
6. Ковалёв, В. В. (2018). *Финансы организаций (предприятий)*. Москва: Проспект.
7. Шеремет, А. Д. (2017). *Финансовый анализ*. Москва: Финансы и статистика.
8. Клейнер, Г. Б. (2020). *Экономика цифровых экосистем*. Москва: Наука.
9. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. (2022). *Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha tahliliy hisobotlar*.
10. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2021). *Moliyaviy barqarorlik sharhi*.
11. United Nations Conference on Trade and Development (UNCTAD). (2021). *Digital Economy Report*. United Nations Publications.

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TRANSPORT XIZMATLARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA INFRATUZILMASIGA USLUBIY YONDASHUVLAR

A.A.Ablaizov
SamISI mustaqil tadqiqothisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654703

Annotatsiya. *Dunyo mamlakatlarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ularning iqtisodiy makonining hududiy yaxlitligini kompleks rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, shuningdek iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati muvozanatli mintaqaviy infratuzilmani yaratish muammosini qo‘yadi, uning eng muhim tarkibiy qismi transport infratuzilmasi bo‘lib, bu juda dolzarbdir. Maqolada muallif yashil iqtisodiyot sharoitida transport xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va infratuzilmasiga uslubiy yondashuvlarni bayon etgan va ilmiy asoslagan.*

Kalit so‘zlar: *yashil iqtisodiyot, xizmat, transport, infratuzilma, global, iqtisodiyot, drayver, kapital, texnokratiya, funktsiya, strategiya, investitsiya, konsepsiya.*

Аннотация. *Обеспечение устойчивого развития стран мира, комплексное развитие и поддержка территориальной целостности их экономического пространства, а также необходимость повышения эффективности использования экономических ресурсов выдвигают проблему создания сбалансированной региональной инфраструктуры, важнейшей составной частью которой является транспортная инфраструктура, что является весьма актуальным. В статье автор излагает и научно обосновывает социально-экономическое значение развития инфраструктуры транспортных услуг в условиях «зеленой» экономики, а также методологические подходы к инфраструктуре.*

Ключевые слова: *зеленая экономика, услуги, транспорт, инфраструктура, глобальный, экономика, драйвер, капитал, технократия, функция, стратегия, инвестиции, концепция.*

Abstract. *Ensuring the sustainable development of countries around the world, the comprehensive development and support of the territorial integrity of their economic space, as well as the need to increase the efficiency of using economic resources, give rise to the problem of creating a balanced regional infrastructure, the most important component of which is transport infrastructure, making this issue highly relevant. In the article, the author presents and scientifically substantiates the socio-economic significance of developing transport services infrastructure in the context of a green economy, as well as methodological approaches to infrastructure.*

Keywords: *green economy, services, transport, infrastructure, global, economy, driver, capital, technocracy, function, strategy, investment, concept.*

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi jahon iqtisodiyotini jadal taraqqiyotining muhim asosi hisoblanib, uning taraqqiyoti muhim iqtisodiy imkoniyatlarni ochib beradi.

Shunday ekan mazkur soha moddiy ishlab chiqarishdan farqli o‘laroq, vazifalarni bajarishga va umuman mijozlarga nomoddiy xizmatlarni taqdim etishga qaratilgan bo‘lib, global iqtisodiy faoliyatning eng katta hisoblanadi hamda xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ish o‘rinlarining keng doirasi mavjudligi bilan alohida ahamiyatga ega. Shu boisdan bugungi kunda xizmatlar sohasi infratuzilmasini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini tadqiq etish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatining muvaffaqiyati ko‘p jihatdan moddiy ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotning samarali rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadigan muayyan shartlarga bog‘liq. Bunday sharoitlarni shakllantirishda ma’lum bir hududga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘langan va shuning uchun u bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan mintaqaviy infratuzilma asosiy rol o‘ynaydi.

Dunyo mamlakatlarining barqaror rivojlanishini ta’minlash, ularning iqtisodiy makonining hududiy yaxlitligini kompleks rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash, shuningdek iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish zarurati muvozanatli mintaqaviy infratuzilmani yaratish muammosini qo‘yadi, uning eng muhim tarkibiy qismi transport infratuzilmasi bo‘lib, bu juda dolzarbdir.

Hozirgi vaqtda hududlarni rivojlanishining turli xil yondashuvlari va omillari (hududlarning resurslar taqsimotiga ko‘ra tabaqalanishi, noqulay geografik joylashuvi, investitsion oqimlarning cheklanganligi) shuni ko‘rsatmoqdaki, transport infratuzilmasining hozirgi tizimi xizmatlar sohasi, xususan transport xizmatlari iqtisodiyotning drayveriga aylanishi uchun yetarli darajada imkoniyat bermaydi. Agar fikrimizning tasdig‘i sifatida sohaning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatiga to‘xtalsak, “2023-yil yakunlariga ko‘ra YaIMda xizmatlar sohasi 42,1%ni, jami xizmatlar sohasida transport sohasining ulushi 75198,4 milliard so‘mni tashkil etmoqda” [1].

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev “Bu soha – iqtisodiyotning qon tomiri. Transport va logistikani yangi bosqichga olib chiqmasak, iqtisodiyotning barqaror rivojini ta’minlay olmaymiz” [2], deya ta’kidlab o‘tgan. Shuningdek, aviatsiyada raqobat muhiti to‘la shakllanmagan, 10 ta aeroportning samaradorligi past darajada. Oqibatda, raqobatdosh narxlarda yetkazib berish qulayligi bo‘yicha Xalqaro logistika samaradorligi indeksida mamlakat 160 ta davlat ichida 120-o‘rinni egallagan. Davlatimiz rahbari temir yo‘l tranziti imkoniyatini keskin oshirish, aviatsiyani qulay, tez va sifatli xizmat ko‘rsatadigan sohaga aylantirish, xalqaro tranzit yuklari uchun zamonaviy avtomobil yo‘llari tarmog‘ini kengaytirish bo‘yicha choralarni belgilab berdi.

Transport va uning ishlashi uchun shart-sharoit yaratuvchi transport infratuzilmasi hududiy iqtisodiyotning tizimli tarmoqlaridan biri bo‘lib, hududlarning hududiy yaxlitligini va uning iqtisodiy makonining birligini ta’minlaydi va shuning uchun transport infratuzilmasini rivojlantirish iqtisodiy o‘sishning innovatsion modelini amalga oshirish va mintaqa aholisining hayot sifatini yaxshilashning zarur shartidir.

Mintaqaning xizmatlar infratuzilma majmuasining bir qismi sifatida transport xizmatlar infratuzilmasi o‘ziga xos bo‘lgan muayyan funksiyalarni bajaradi. Shu bilan birga, transport xizmatlar infratuzilmasining iqtisodiy mohiyati va mintaqani tashkil etuvchi xususiyati bilan belgilanadigan asosiy agregat funksiyasi mintaqaviy hamda mintaqalararo transport-iqtisodiy munosabatlarni amalga oshirishdan iborat.

Yashil iqtisodiyot sharoitida transport xizmatlari infratuzilmasi ishlab chiqarish sohasini joylashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Transport kommunikatsiyalarini inobatga olmasdan turib, ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirishga erishib bo‘lmaydi. Transport xizmatlariga bo‘lgan ehtiyojni, tayyor mahsulotni tashish imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshirish, xomashyo va ularning massasi, transport yo‘nalishlarining mavjudligi va ularning o‘tkazuvchanligini, korxona tashkilotlarining joylashishini ana shu komponentlarning ta’siriga bog‘liq holda amalga oshirish lozim. Yuk tashishning ratsionalizatsiyasi alohida korxonalar va natijada mintaqalar va butun mamlakat ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir qiladi.

Transport xizmatlari infratuzilmasini rivojlantirish, hududlarni umumiy rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlarini belgilab berish orqali ularning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga, ijtimoiy, ishlab chiqarish, transport va boshqa muhandislik infratuzilmalarini tashkil etilishi tabiiy va tarixiy-madaniy muhitlarni muhofaza qilish tizimlarini takomillashtirishga olib keladi. Transport juda xilma-xil xizmat ko‘rsatishga ega. Yuk va yo‘lovchi tashishda mamlakat xo‘jalik majmualarini ta’minlashning asosiy vazifalarini bajaruvchi uning barcha turlari bir-biri bilan va ishlab chiqarishning aksariyat sohalari bilan o‘zaro ta’sir qiladi. Bu transport tizimlari va butun shakllanish mexanizmlari sifatida ko‘rib chiqish uchun asos bo‘ladi.

Transport xizmatlari infratuzilmasi obyektlari sifatida temir yo‘l, tramvay va ichki suv yo‘llari, aloqa liniyalari, avtomobil yo‘llari, tunnellar, estakadalar, ko‘priklar, vokzallar, temir yo‘l va avtovokzallar, metropolitentlar, aerodromlar va aeroportlar, aloqa tizimlari obyektlari, navigatsiya va transport harakatini boshqarish shu bilan birgalikda transport komplekslarining ishlashini ta’minlaydigan me’yorlar, inshootlar, qurilmalar va jihozlar kiradi.

“Transport infratuzilmasi” atamasi bugungi kunda kengroq ma’noda qo‘llanila boshladi. Transport sohasi doimo ishlab chiqaruvchi kuchlarining har tomonlama rivojlanishi bilan bog‘liq bo‘lganligi sababli ushbu soha butun iqtisodiyot infratuzilmasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida o‘rganilmoqda.

Transport infratuzilmasi shaharlar va davlatlar transport tizimining bir qismidir. Biroq, milliy iqtisodiyotning ushbu jihatlarini o‘rganishda ilmiy va siyosiy doiralarda “transport infratuzilmasi” kabi toifaning tabiati, chegaralari va iqtisodiyotdagi o‘rni haqida munozaralar va muhokamalar davom etmoqda. Transport infratuzilmasini ilmiy tadqiqot va davlat boshqaruvi predmeti sifatida aniq tushunmasdan, O‘zbekiston milliy iqtisodiyotini samarali rivojlantirish haqida gapirish mumkin emas.

Transport xizmatlari infratuzilmasi va transport tizimlarini shakllantirish hamda rivojlantirish muammolarini o‘rganish A.P.Abramov, V.M.Buneyev, G.V.Veselov, V.G.Galaburda, V.V.Gasilov, A.E.Gorev, E.A.Gorin’s, Yu.V.Zadvorny, P.V.Kurenkov, V.I.Mineyev, L.B.Mirotin, N.V.Penshin va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘z ifodasini topgan.

Iqtisodiyot fanida amerikalik olim P.Rozenshteyn-Rodan birinchi bo‘lib “infratuzilma” atamasini qo‘llagan, shuningdek, ishlab chiqarish (iqtisodiy) va ijtimoiy infratuzilmani ajratgan[3].

Infratuzilma konsepsiyasining rivojlanishiga nemis tadqiqotchisi R.Yoximsen[4] salmoqli hissa qo‘shgan bo‘lib, u infratuzilmani butun va uzluksiz iqtisodiyotni yaratish uchun zarur bo‘lgan turli shart-sharoitlar (moddiy, institutsional va individual) majmui deb hisoblagan.

U birinchi bo‘lib infratuzilmani yaratilgan qo‘llab-quvvatlash shartlarining xususiyatlariga ko‘ra tasniflashni taklif qilgan.

D.Kots[5] infratuzilmani boshqaruvning alohida kategoriyasi - infratuzilmani boshqarish - ma’muriy va iqtisodiy xizmatlarning faoliyati doirasida tashkilotlarning xo‘jalik funksiyalaridan biri shaklida ko‘rib chiqadi.

Ye.B. Alayev[6], infratuzilma - ishlab chiqarish bilan bevosita bog‘liq bo‘lmagan, lekin ishlab chiqarish (ishlab chiqarish infratuzilmasi - transport, suv ta’minoti va elektr energiyasi, aloqa va boshqalar) va ijtimoiy (ijtimoiy infratuzilma - ta’lim, sog‘liqni saqlash) rivojlanish omillari bo‘lgan yagona obyektlar majmuasidir deya ta’kidlagan.

A.I. Kuznetsova[7] o‘zining ilmiy izlanishlarida infratuzilma sektori geoiqtisodiy yondashuv asosida ko‘rib chiqadi, bu o‘z nomini geoiqtisodiy paradigmadan olinishi kerakligini ilgari suradi. Bunda infratuzilmaning geografik joylashuvlarga asoslanganligini muhim hisoblanadi. Olim ham o‘z ishlarida geoiqtisodiy yondashuvlarning infratuzilmadagi o‘rni haqida aytib, lekin infratuzlmaning samaradorlik ko‘rsatkichlari haqida kamroq e’tibor qaratgan.

Yana bir rossiyalik olim Ye.G. Kochetov[8] ham infratuzilmalarning imkoniyatlari to‘g‘risida ilmiy izlanishlar olib borib, infratuzilmani globallashuv sharoitida hududlar uchun raqobatdosh ustunlikka erishishning asosiy elementi sifatida ajralib turishini aytib o‘tadi, lekin raqobatdosh ustunliklarning infratuzilma samaradorligini qanchalik oshirishi to‘g‘risida fikr yuritmaydi.

S.S. Nosova[9] o‘z ishida infratuzilma “ishlab chiqarishning umumiy sharoitlarini ta’minlaydi”, bu esa o‘z navbatida “butun iqtisodiyotning samarali rivojlanishi va har qanday hududdagi odamlarning kundalik hayoti uchun zarur” ekanligini ta’kidlaydi. Mintaqaviy miqyosda infratuzilma - bu ma’lum bir hududga xizmat ko‘rsatadigan obyektlar yoki tuzilmalar to‘plami kirishini aytib o‘tadi.

V.N. Staxanov[10], infratuzilma - bu ishlab chiqarish faoliyati va inson hayoti uchun umumiy shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan milliy iqtisodiyotning turli tarmoqlari va faoliyat turlarining birlashishi natijasida shakllangan dinamik tizim holatda ishlashini o‘zining ilmiy qarashlarida ta’kidlaydi. Demak, iqtisodiyotning turli xil soha va tarmoqlarini birlashtiruvchi faoliyat turi ekanligini anglash mumkin.

L.G.Serebryakov. va V.V.Yanovskiy [11] ham o‘z qarashlariga ega bo‘lib, transport infratuzilmasi - muhandislik infratuzilmasi tarkibiga kiruvchi transport kommunikatsiyalari, yo‘lovchi va yuk tashishni ta’minlovchi boshqa qurilmalar majmuasini o‘z ichiga oladi degan fikrni ilgari suradi. Mamlakatlar hamda hududlarning barqaror rivojlanishi va faoliyat ko‘rsatishiga hissa qo‘shadigan asosiy qismi sifatida xizmat ko‘rsatadi. Ushbu ta’rifda asosiy e’tibor transport infratuzilmasi tarkibiy qismlarining ko‘rsatkichlari, ularning texnik va texnologik tizimdagi o‘rnini aks ettiradi. Ushbu ta’rifga ko‘ra mualliflarning transport infratuzilmasini ijtimoiy-iqtisodiy ma’nodagi ikki asosiy vazifasini, ya’ni odamlar va tovarlarning transportdagi harakatini tavsiflashga intilishi seziladi.

Yana bir iqtisodchi olimlardan biri M.V.Ivanov[12] transport infratuzilmasini tashkiliy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini yaratish faqat transportdan foydalanish imkoniyati ko‘rsatkichlaridan foydalanish bilan cheklanib qolmaydi, chunki har qanday holatda ham uning ishlashiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan mavjud ko‘plab omillarni qamrab olish qiyin ekanligini ilmiy ishlarida ko‘rib o‘tadi. Lekin, transport xizmatlari infratuzilmalarining o‘ziga

xos jihatlari va imkoniyatlari to‘g‘risida to‘xtalmaydi. Bu ham bizning tadqiqotimizning yana bir ochib berilishi lozim tomonlarini anglatadi.

O.A.Lebedeva, Yu.O.Poltavskaya, Z.N.Gammayeva, T.V.Kondratenkolar[13] transport infratuzilmasi ta’minlash uchun mo‘ljallangan vazifalarning ancha keng doirasini ko‘rib chiqadilar va u orqali transport infratuzilmasi nafaqat vazifalarni bajarish balki, mijoz ehtiyojlarini ham to‘la qondira olishi kerakligini anglatadi.


Iqtisodiy adabiyotlarni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, ko‘pchilik tadqiqotlarda jamoat infratuzilmasidagi transport infratuzilmasi yoki infratuzilmadan olingan transport vositalari uning ishlab chiqarish egiluvchanligini baholash uchun o‘lchov modelining alohida kapital o‘zgaruvchisi sifatida kiritilgan, yoki uning iqtisodiy o‘sish, mintaqaviy sanoat tuzilmasidagi o‘zgarishlar, mikro-individual xatti-harakatlar va transport xizmatlar infratuzilmasining o‘ziga xos ta’siri bilan bog‘liqligini o‘rgangan[14].

Yangi O‘zbekiston sharoitida bizning fikrimizcha “transport xizmatlar infratuzilmasi” - uchta asosiy uslubiy yondashuvini o‘z ichiga oladi. Bular:

Texnokratik yondashuvlar - doirasida transport xizmatlar infratuzilmasi hududning o‘ziga xos muhandislik-texnik infratuzilmasini tashkil etadi. Ushbu transport xizmatlari ko‘rsatish jarayonlarini tez va to‘siqsiz amalga oshirishni ta’minlaydigan texnologik majmua hisoblanadi.

Funksional yondashuvlar - doirasida transport xizmatlar infratuzilmasi transport xizmatlari jarayonini muammosiz va tez amalga oshirishga shart-sharoitlarni ta’minlashda muayyan funksiyalarning maxsus to‘plami sifatida belgilanadi.

Investitsion jozibadorlikni yuzaga keltiruvchi yondashuvlar - transport xizmatlar infratuzilmasi mintaqaviy infratuzilma kapitalining bir turi hisoblanadi (1.1-rasm).



1.1-rasm. Yashil iqtisodiyot sharoitida transport xizmatlar infratuzilmasiga uslubiy yondashuvlar[1]

Ko‘rsatilgan muallif bir nechta funksiyalar guruhini aniqlaydi: iqtisodiy (xalq iqtisodiyoti tarmoqlari va ularning rivojlanishini muvofiqlashtirishni ta’minlash); tashkiliy (mintaqa yoki mamlakatning funksional elementlari o‘rtasidagi transport va iqtisodiy aloqalarni amalga oshirish), ishlab chiqarish (yuklar va odamlarni tashish jarayonini uzluksiz va tez amalga

[1] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

oshirish uchun shart-sharoitlarni ta’minlash) va ijtimoiy (ularning harakatlanish vaqtini tejash natijasida xodimlarga yukni kamaytirish, ularning ishini osonlashtirish). Bundan yashil iqtisodiyot sharoitida tashqari, transport xizmatlar infratuzilmasining quyidagi funksiyalari mavjud: madaniy (madaniy qadriyatlarni aholiga yaqinlashtirish), ilmiy (transport infratuzilmasi, bir tomondan, fanning turli sohalari rivojiga turtki bersa, ikkinchi tomondan, uning o‘zini takomillashtirish zarur, shuning uchun ham ilmiy muammo va vazifalarni qo‘yadi), mudofaa (harbiy qismlar, korxonalar va aholini tezda qayta joylashtirish va harbiy xavf tug‘ilganda).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.www.stat.uz

2. https://www.gazeta.uz/uz/2022/09/29/transport/

3.Rosenstein-Rodan P. Notes in the Theory of the «Big Push» / P. Rosenstein Rodan // Economic Development of Latin America. – New York, 1961. – P 60

4.Jochimsen, R., Ed. Theorie der Infrastruktur: Grundlagen der marktwirtschaftlichen Entwicklung. T bingen, J.C.B. Mohr. – 1966. – 235p.

5.Коттс, Д. Управление инфраструктурой организации / Д. Коттс; пер. с англ. – М.: Новости, 2001. – 597 с.

6..Алаев, Э. Б. Социально-экономическая география: Понятийно-терминологический словарь / Э. Б. Алаев. – М.: Мысль, 1983. – 358 с

7..Кузнецова, А. И. Инфраструктура. Вопросы теории, методологии и прикладные аспекты современного инфраструктурного обустройства. Геоэкономический подход/А. И. Кузнецова.− М.: КомКнига, 2010.– 456 с.

8.Кочетов, Э. Г. Глобалистика как геоэкономика, как реальность, как мироздание: Новый ренессанс – истоки и принципы его построения, фундаментальные опоры, теоретический и методологический каркас / Э. Г. Кочетов. – М.: ОАО Издательская группа «ПРОГРЕСС», 2001. – 704 с

9.Носова, С. С. Экономическая теория: учебник для вузов / С. С. Носова. – М.: ВЛАДОС, 2000. – 520 с.

10.Стаханов, В. Н. Экономика инфраструктуры общественного производства: учебное пособие / В. Н. Стаханов. – Ростов н/Д.: РИСХМ, 1989. –130 с.

11.Серебряков Л.Г. Проблемы стратегического планирования транспортной инфраструктуры региона – инновационный подход // Научные труды Северо-Западной академии государственной службы. – СПб, 2011. – Т. 2. Вып. 1: Государственная власть и местное самоуправление в России: история и современность. – С. 206-215

12.Иванов М. В. Развитие транспортной инфраструктуры региона: факторы, направления, инструментарий оценки [Электронный ресурс]: дис.... канд. экон. наук по спец-ти 08.00.05 / М.В. Иванов. - Нижний Новгород, 2016. - 196 с.

13.Лебедева О.А. Транспортная инфраструктура как основополагающий фактор эффективного функционирования экономики страны / О.А. Лебедева, Ю.О. Полтавская, З.Н. Гаммаева, Т.В. Кондратенко // Сборник научных трудов Ангарского государственного технического университета. - 2018. - Т. 1. No 15. - С. 125-130.

13.Angela Mottaeva, Elena Vasilyeva. Development of transport infrastructure in modern megalopolises/MATEC Web of Conferences 239, 04 019 (2018)

RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Akbarova Shaxnoza Yakub qizi
Iqtisodiyot va pedagogik universiteti katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654720

Annotatsiya. *Mazkur maqolada suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish asosida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish masalalari ilmiy jihatdan tadqiq etilgan. Suv xo‘jaligida IoT, GIS, Big Data va sun’iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri tahlil qilinib, suv iste’molini real vaqt rejimida hisobga olish, suv resurslarini taqsimlash va ulardan foydalanishni iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari suv xo‘jaligida boshqaruv samaradorligini oshirish va barqaror rivojlanishni ta’minlashga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *suv resurslari, raqamli texnologiyalar, iqtisodiy mexanizm, suv xo‘jaligini raqamlashtirish, suv taqsimoti,texnologiyalar IoT, GIS, iqtisodiy samaradorlik.*

Аннотация: *В данной статье с научной точки зрения исследуются вопросы совершенствования экономических механизмов на основе внедрения цифровых технологий в управлении водными ресурсами. Проанализировано влияние технологий IoT, GIS, Big Data и искусственного интеллекта на экономическую эффективность водного хозяйства. Разработаны предложения по совершенствованию механизмов учета водопотребления в режиме реального времени, распределения водных ресурсов и экономического стимулирования рационального использования воды. Результаты исследования направлены на повышение эффективности управления в водном хозяйстве и обеспечение его устойчивого развития.*

Ключевые слова: *Водные ресурсы; цифровые технологии; экономический механизм; цифровизация водного хозяйства; распределение воды; технологии IoT; GIS; экономическая эффективность.*

Abstract. *This article examines the improvement of economic mechanisms for water resource management based on digital technologies. The economic impact of IoT, GIS, Big Data, and artificial intelligence technologies in the water sector is analyzed. The study develops recommendations for real-time water consumption accounting, improving transparency in water distribution, and enhancing incentive-based economic mechanisms for efficient water use. The results contribute to increasing management efficiency and ensuring sustainable development in the water sector.*

Keywords: *water resources, digital technologies, economic mechanism, digital water management, IoT, GIS, economic efficiency.*

Bugungi kunda global miqyosda suv resurslarining qisqarishi, iqlim o‘zgarishi jarayonlarining kuchayishi va qishloq xo‘jaligida suvga bo‘lgan talabning ortib borishi suv xo‘jaligini boshqarish tizimini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, suv resurslaridan samarasiz foydalanish nafaqat ekologik muammolarni, balki

iqtisodiy yo‘qotishlarni ham keltirib chiqaradi. O‘zbekiston sharoitida ham suv resurslarining asosiy qismi qishloq xo‘jaligida iste’mol qilinadi. An’anaviy boshqaruv tizimlarida suv sarfini aniq hisobga olish, suv yo‘qotishlarini minimallashtirish va iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarini samarali qo‘llash bilan bog‘liq muammolar mavjud. Shu sababli suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalarni joriy etish va ularni iqtisodiy mexanizmlar bilan uyg‘unlashtirish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi.

Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari suvdan foydalanishni tartibga solish, suv resurslarini qayta taqsimlash va ulardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan iqtisodiy vositalar, institutlar va boshqaruv usullari majmuasini ifodalaydi. Mazkur mexanizmlar orqali suv resurslari cheklangan iqtisodiy ne’mat sifatida qaraladi va undan foydalanish jarayonida iqtisodiy manfaatdorlik, ijtimoiy mas’uliyat hamda ekologik barqarorlik tamoyillari uyg‘unlashtiriladi. Suv xo‘jaligida iqtisodiy mexanizmlarning asosiy vazifasi suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, yo‘qotishlarni kamaytirish va resurslardan foydalanishda adolatli taqsimotni ta’minlashdan iborat. Iqtisodiy mexanizmlarning tarkibiy elementlari sifatida suv tariflari va narxlash siyosati, soliq va subsidiyalar tizimi, suvdan foydalanish limitlari, litsenziyalash mexanizmlari, shuningdek monitoring va nazorat tizimlari qaraladi. Suv tariflari suvdan foydalanish hajmi, manbalar turi va suvning sifati kabi omillarni hisobga olgan holda belgilanib, suvdan foydalanuvchilarini tejamkorlikka undovchi asosiy iqtisodiy vosita hisoblanadi. Soliq va subsidiyalar esa suvni tejovchi texnologiyalarni joriy etish, suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltiriladi.

Nafaqat nazariy jihatdan balki tabiatan suv cheklangan va qayta tiklanish darajasi past bo‘lgan strategik iqtisodiy resurs sifatida qaraladi. Shu bois suv resurslarini boshqarishda iqtisodiy baholash mexanizmlarining ilmiy asoslanganligi muhim ahamiyat kasb etadi. Suvning iqtisodiy qiymatini aniqlashda uning tabiiy xususiyatlari, hududiy joylashuvi, foydalanish sohasi hamda ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati inobatga olinishi zarur. Iqtisodiy baholash suvdan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.

An’anaviy suv boshqaruvi yondashuvlarida suvdan foydalanish asosan normativ-me’yoriy ko‘rsatkichlar asosida tartibga solinib, real iste’mol hajmi, iqtisodiy natijalar va resurslardan foydalanish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik yetarli darajada e’tiborga olinmaydi. Bunday yondashuv suvdan foydalanishning haddan tashqari ortishiga, infratuzilmaning eskirishi va suv yo‘qotishlarining ko‘payishiga olib keladi. Shu bilan birga, iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining sustligi suvdan foydalanuvchilarda suvni tejashga bo‘lgan manfaatdorlikni pasaytiradi va resurslardan foydalanishda samarasizlikni kuchaytiradi.

Zamonaviy iqtisodiy nazariyalarda suv resurslarini boshqarishda bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, suv narxini uning real iqtisodiy qiymatiga yaqinlashtirish va “foydalanuvchi to‘laydi” tamoyilini amaliyotga tatbiq etish muhim yo‘nalish sifatida qaraladi. Bunda suvdan foydalanish hajmi, samaradorligi va atrof-muhitga ta’siri iqtisodiy baholash mezonlari sifatida olinadi. Natijada suvdan foydalanishda tejamkorlikni ta’minlash, investitsiyalarni jalb etish va suv xo‘jaligi infratuzilmasini rivojlantirish uchun iqtisodiy asoslar yaratiladi.

Suv resurslarini boshqarishning iqtisodiy mexanizmlari institutsional va tashkiliy omillar bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, davlat, mahalliy boshqaruv organlari, xususiy sektor va suvdan foydalanuvchilar o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishni talab etadi. Davlatning

roli suv resurslarini boshqarishning normativ-huquqiy bazasini shakllantirish, strategik rejalashtirish va nazorat funksiyalarini amalga oshirishdan iborat bo‘lsa, bozor subyektlari suvdan foydalanishda samaradorlikni oshirish va innovatsion yondashuvlarni joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga, suv resurslarini boshqarishda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Iqtisodiy samaradorlik, ekologik muvozanat va ijtimoiy manfaatlar uyg‘unligi suv xo‘jaligida uzoq muddatli barqarorlikni ta’minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Mazkur nazariy asoslar kelgusida suv xo‘jaligini raqamlashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali iqtisodiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish uchun mustahkam ilmiy zamin yaratadi.

Zamonaviy sharoitda suv xo‘jaligini rivojlantirish va boshqarish jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar suv resurslaridan foydalanish jarayonlarini avtomatlashtirish, monitoring qilish va tahlil etish imkonini berib, boshqaruv qarorlarining aniqligi va tezkorligini ta’minlaydi. Natijada suv xo‘jaligida xarajatlarni kamaytirish, suv yo‘qotishlarini qisqartirish va mavjud resurslardan maksimal darajada samarali foydalanish imkoniyati yuzaga keladi.

Suv xo‘jaligida raqamli texnologiyalarning iqtisodiy ahamiyati, avvalo, suv resurslarini hisobga olish va nazorat qilish tizimlarini takomillashtirish bilan bog‘liq. IoT texnologiyalariga asoslangan aqlli sensorlar va hisoblagichlar yordamida suv iste’moli real vaqt rejimida kuzatiladi. Bu esa suv sarfi bo‘yicha aniq va ishonchli ma’lumotlar bazasini shakllantirib, suvdan foydalanishda iqtisodiy intizomni kuchaytiradi. Real vaqt rejimidagi hisob-kitoblar suv uchun to‘lovlarni adolatli va shaffof shakllantirishga xizmat qilib, suv xo‘jaligi tashkilotlarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlaydi.

Raqamli texnologiyalar suv taqsimoti jarayonlarini optimallashtirishda ham muhim iqtisodiy ahamiyatga ega. GIS texnologiyalari orqali suv infratuzilmasining hududiy joylashuvi, sug‘orish tarmoqlari, nasos stansiyalari va suv omborlarining texnik holati to‘liq raqamli xaritalar asosida tahlil qilinadi. Bu esa suv resurslarini hududlar va tarmoqlar bo‘yicha samarali taqsimlash, suv tanqisligi xavfini kamaytirish va investitsiya qarorlarini asoslash imkonini beradi. Natijada infratuzilmani boshqarish xarajatlari qisqarib, suv ta’minotining ishonchliligi oshadi. Big Data va sun’iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish suv xo‘jaligida iqtisodiy prognozlash va rejalashtirish jarayonlarini yangi bosqichga olib chiqadi. Katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash orqali suv iste’moli dinamikasi, iqlim o‘zgarishlari va mavsumiy omillarning ta’siri tahlil qilinadi. Sun’iy intellekt asosida ishlab chiqilgan modellar suv resurslariga bo‘lgan talabni oldindan prognoz qilish, suv taqsimotidagi nomutanosibliklarni aniqlash va optimal boshqaruv variantlarini tanlash imkonini beradi. Bu esa uzoq muddatli iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Raqamli texnologiyalarni joriy etish suv xo‘jaligida iqtisodiy rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligini ham oshiradi. Raqamlashtirilgan boshqaruv tizimlari orqali suvdan foydalanish hajmi, samaradorligi va tejash darajasi aniqlanib, differensial tariflar, subsidiyalar va rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni joriy etish imkoniyati yaratiladi. Natijada suv foydalanuvchilari suvni tejashga va zamonaviy texnologiyalarni qo‘llashga iqtisodiy jihatdan manfaatdor bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligida raqamli texnologiyalarning iqtisodiy ahamiyati ayniqsa yaqqol namoyon bo‘ladi. Aqlli sug‘orish tizimlari, avtomatlashtirilgan boshqaruv va masofaviy monitoring yordamida suv sarfi sezilarli darajada kamayib, hosildorlik oshadi. Bu esa qishloq xo‘jaligi mahsulotlari tannarxini pasaytirish va fermer xo‘jaliklarining daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, suv resurslaridan oqilona foydalanish ekologik barqarorlikni ta’minlab, uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradi.

Umuman olganda, suv xo‘jaligida raqamli texnologiyalarni joriy etish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, boshqaruv xarajatlarini qisqartirish va suv resurslaridan foydalanishning barqaror modelini shakllantirishning muhim vositasi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar suv xo‘jaligini modernizatsiya qilish va iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish uchun mustahkam asos yaratadi hamda sohaning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalar suv resurslarini boshqarishda iqtisodiy mexanizmlarning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Xususan, IoT texnologiyalari suv sarfi, bosim va yo‘qotishlarni real vaqt rejimida aniqlash imkonini beradi. Bu esa suv yo‘qotishlarini tezkor aniqlash va bartaraf etish orqali iqtisodiy zararlarni kamaytiradi.

GIS texnologiyalari suv infratuzilmasini hududiy jihatdan tahlil qilish, suv resurslarini optimal taqsimlash va investitsiya qarorlarini asoslashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Big Data va sun’iy intellekt texnologiyalari esa suv iste’molini prognozlash, hosildorlik va suv sarfi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash hamda iqtisodiy qarorlarni optimallashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur texnologiyalarni iqtisodiy mexanizmlar bilan integratsiyalash suv resurslaridan foydalanishda shaffoflikni oshirish va boshqaruv samaradorligini kuchaytiradi.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, suv resurslarini boshqarishda quyidagi iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir:

Birinchidan, suv iste’molini real vaqt ma’lumotlari asosida hisobga olish tizimini joriy etish zarur. Bu suv sarfi va iqtisodiy natijalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, suvdan foydalanish samaradorligiga qarab differensial tarif siyosatini joriy etish suv tejashni iqtisodiy jihatdan rag‘batlantiradi.

Uchinchidan, suv tejovchi texnologiyalarni qo‘llagan xo‘jaliklarni subsidiyalar va imtiyozlar orqali qo‘llab-quvvatlash suv resurslaridan oqilona foydalanishni ta’minlaydi.

To‘rtinchidan, raqamli platformalar orqali suv taqsimoti va hisob-kitob jarayonlarida shaffoflik va hisobdorlikni oshirish boshqaruv samaradorligini kuchaytiradi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, maqolada suv resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirishning ilmiy va amaliy jihatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamlashtirish suv iste’molini aniq hisobga olish, suvdan foydalanish samaradorligini oshirish va iqtisodiy qarorlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Raqamli texnologiyalar bilan integratsiyalashgan iqtisodiy mexanizmlar suv xo‘jaligida barqaror rivojlanishni ta’minlash va iqtisodiy samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi VM-196-son qaroriga 1-ilova. 19.04.2022 y.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Quyi bo‘g‘inda suv resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish hamda suv resurs-laridan foydalanish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5-sonli qarori. 05.01.2024.
3. Z.S.Shoxujaeva, I.Normamatov. Scientific and practical basis of assessing the impact of water-saving technologies on crop productivity and product quality. E3S Web of Conferences jurnal 463, Q4. 02036 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202346302036 EESTE2023, Page 1-7.
4. Z.S.Shoxujaeva, N. Mamanazarova, H.Mirjamilova. Ways of efficient use of water in conditions of water resources shortage. E3S Web of Conferences jurnal 463, Q4. 02035 (2023) https://doi.org/10.1051/e3sconf/202346302035 EESTE2023, Page. 1-12.
5. Z.S.Shoxujaeva, A. S. Eshev, N. O‘. Murodova, F. S. Temirova. Changes, problems and solutions in the water system in the connections of innovative economy. AIP Conference Proceedings 2612, 050031 (2023); https://doi.org/10.1063/5.0113640 Published Online: 15 March 2023. Page.: 050031-1-8.
6. Akbarova Sh. Suv tanqisligi sharoitida sohani raqamli texnologiyalar asosida boshqarish (xorij tajribasi). “Agroiqtisodiyot” ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal. №3/2025, 92-94-betlar.
7. Akbarova Sh. Importance of Investing in the Introduction of Water-Saving Digital Technologies in Agriculture. International Journal of Biological Engineering and Agriculture. Volume 2 | No 5 | May -2023, page18-22.
8. Akbarova Sh. Ways to improve the implementation of water-saving digital technologies in agriculture. Economy and Innovation journal, 2022. Стр.370-376.
9. ZS Shokhujaeva, HN Mirjamilova. Innovative processes in the water sector and factors influencing their development. Asian Journal of Research in Business Economics and Management, 2022. №5, стр.18-27.
10. ZS Shoxo‘jaeva AB Kurbonov. Sustainable Development Of The Agrarian Sector Depends On The Efficient Use Of Water Resources. International Journal of Engineering and Advanced Technology. №8, 2019. pp 5123-5126.

“EKONOMETRIKA FANINING IJTIMOIY-IQTISODIY TAHLILLARDAGI AHAMIYATI”

Aktamova Vasila Uktamovna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Axborot texnologiyalari tabiiy va aniq fanlar kafedarsi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654738

Annotatsiya. *Ekonometrika iqtisodiy nazariyalarni empirik ma’lumotlar asosida sinovdan o‘tkazish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, noaniqlik sharoitida bashorat qilish va siyosat ta’sirini miqdoriy baholash imkonini beruvchi asosiy fan hisoblanadi. Maqolada ekonometrikaning zamonaviy yo‘nalishlari (regressiya, instrumental o‘zgaruvchilar, vaqt seriyalari, panel ma’lumotlar, DiD, logit/probit, mashinaviy o‘qitish integratsiyasi) va ularning iqtisodiyotdagi ahamiyati tahlil qilinadi. O‘zbekiston misollarida (inflyatsiya prognozi VAR modellari orqali, FDI va YIM o‘sishi regressiyasi, qashshoqlik pasayishi DiD usuli bilan, soliq yuki Laffer effekti) konkret natijalar keltirilgan. Ekonometrika O‘zbekistonning o‘tish davridagi iqtisodiyotida monetar siyosatni optimallashtirish, investitsiyalarni baholash, qashshoqlikni kamaytirish va soliq-subsidiya siyosatini ilmiy asosda loyihalashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Mutaxassislar uchun Python, Stata kabi vositalar bilan ishlash zarurligi ta’kidlanadi.*

Аннотация*. Эконометрика является ключевой дисциплиной, позволяющей эмпирически проверять экономические теории на основе реальных данных, выявлять причинно-следственные связи, осуществлять прогнозирование в условиях неопределённости и количественно оценивать влияние политики. В статье анализируются современные направления эконометрики (регрессионный анализ, инструментальные переменные, анализ временных рядов, панельные данные, DiD, logit/probit, интеграция с машинным обучением) и их значение в экономике. Приводятся конкретные результаты на примерах Узбекистана: прогнозирование инфляции с помощью VAR-моделей, регрессионный анализ связи между ПИИ и ростом ВВП, снижение бедности с использованием метода DiD, эффект Лаффера в отношении налоговой нагрузки. Эконометрика играет решающую роль в оптимизации монетарной политики, оценке инвестиций, сокращении бедности и научно обоснованном проектировании налогово-субсидиарной политики в переходной экономике Узбекистана. Подчёркивается необходимость владения инструментами, такими как Python и Stata, для специалистов.*

Abstract. *Econometrics is a fundamental discipline that enables empirical testing of economic theories using real data, identification of causal relationships, forecasting under uncertainty, and quantitative evaluation of policy impacts. The article examines modern directions in econometrics (regression analysis, instrumental variables, time series analysis, panel data, DiD, logit/probit models, integration with machine learning) and their significance in economics. Specific results are presented in the context of Uzbekistan: inflation forecasting via VAR models, regression analysis of the relationship between FDI and GDP growth, poverty reduction using the DiD method, and the Laffer curve effect in relation to tax burden. Econometrics plays a decisive role in optimizing monetary policy, evaluating investments, reducing poverty, and scientifically designing tax-subsidy policies in Uzbekistan's transitional*

economy. The importance of proficiency in tools such as Python and Stata for specialists is emphasized.

Kalit so‘zlar: *Ekonometrika, regressiya tahlili, vaqt seriyalari, panel ma’lumotlar, instrumental o‘zgaruvchilar, mashinaviy o‘qitish, inflyatsiya prognozi, iqtisodiy o‘sish, qashshoqlikni kamaytirish.*

Kirish.

Ekonometrika iqtisodiy nazariyani real ma’lumotlar bilan sinovdan o‘tkazish, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlash, noaniqlik sharoitida ishonchli bashorat qilish va turli siyosat variantlarining ta’sirini miqdoriy baholash imkonini beruvchi fundamental fan hisoblanadi. U iqtisodiyotni faqat tavsiflovchi (deskriptiv) darajada qoldirmaydi, balki uni empirik jihatdan isbotlanadigan, statistik jihatdan mustahkamlangan va kelajakdagi rivojlanishni prognoz qilish mumkin bo‘lgan aniq, ilmiy asosga ega fanga aylantiradi.

Zamonaviy iqtisodiyotda ekonometrika nazariy gipotezalarni empirik sinovdan o‘tkazish, sababiyatni (causality) aniqlash, noaniqlik va shovqinli ma’lumotlarda ishonchli xulosalar chiqarish, turli siyosat ssenariylarini solishtirish (counterfactual analysis) hamda katta ma’lumotlar (Big Data) va mashinaviy o‘qitish bilan integratsiya qilish kabi asosiy vazifalarni bajaradi va ularni uzviy bog‘lab, bir-birini to‘ldiruvchi tizim sifatida ishlaydi. Masalan, “investitsiyalar iqtisodiy o‘sishning asosiy omilimi?” degan savolga javob izlashda oddiy korrelyatsiya yetarli emas — ekonometrika ko‘p omilli regressiya, instrumental o‘zgaruvchilar (IV) yoki panel ma’lumotlar tahlili orqali haqiqiy ta’sirni (causal effect) aniqlaydi va natijada nazariyada chiroyli ko‘rinadigan gipoteza real hayotda tasdiqlanadimi yoki rad etiladimi, aniq raqamlar va ishonch intervallari bilan ko‘rsatiladi. O‘zbekiston misolida to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) 1% oshishi YIM o‘sishini 0.3–0.6% ga tezlashtirishi empirik tadqiqotlar orqali tasdiqlangan. Ikki o‘zgaruvchi birgalikda o‘zgarishi ularning biri ikkinchisiga sabab bo‘lishini anglatmaydi — masalan, muzqaymoq sotilishi va cho‘kish holatlari yozda birga oshadi, lekin bir-biriga sabab emas. Ekonometrika bu muammoni instrumental variables, 2SLS, RDD yoki DiD kabi usullar orqali hal qiladi va siyosatchilarga “minimal ish haqi oshirilsa, ishsizlik oshadimi yoki yo‘qmi?” degan savolga aniq javob berish imkonini yaratadi. Real ma’lumotlar har doim shovqinli, yetishmovchi yoki xato o‘lchangan bo‘ladi, shuning uchun ekonometrika heteroskedastiklik, avtokorrelyatsiya, multicollinearity kabi muammolarni aniqlab, robust standart xatolar, GMM yoki Bayesian usullari yordamida ishonchli natijalarga erishadi — bu ayniqsa O‘zbekiston kabi statistika sifati past bo‘lgan rivojlanayotgan mamlakatlarda muhim ahamiyatga ega. “Agar valyuta liberallashtirilmaganda nima bo‘lardi?” degan savolga javob izlash uchun Difference-in-Differences (DiD), synthetic control yoki structural modellar qo‘llaniladi va O‘zbekistonda 2017–2020 yillardagi valyuta islohoti eksportga qanchalik ijobiy ta’sir qilgani aynan shu usullar bilan baholangan. An’anaviy ekonometrika bugungi kunda LASSO, Random Forest, Gradient Boosting, Double/Debiased Machine Learning kabi zamonaviy usullar bilan birlashib, bashorat aniqligini keskin oshiradi va bir vaqtning o‘zida sababiyatni saqlab qoladi — bu integratsiya orqali nafaqat “nima bo‘ladi”, balki “nima uchun bo‘ladi” ham aniqlanadi. Masalan, O‘zbekiston banklarida kredit scoring va firibgarlikni aniqlashda logit modellari bilan birga ML algoritmlari qo‘llanilmoqda.

Natijada ekonometrika zamonaviy iqtisodiyotning “ilmiy asosi”ga aylanib, nafaqat hodisalarni tahlil qiladi, balki qaror qabul qilishda aniq raqamlar, ishonch intervallari va siyosiy

tavsiyalar beradi. O‘zbekiston kabi o‘tish davridagi iqtisodiyotda bu fan inflyatsiyani nazorat qilish (VAR modellari orqali), investitsiyalar samaradorligini baholash, qashshoqlikni kamaytirish dasturlarining ta’sirini o‘lchash va soliq-subsidiya siyosatini ilmiy asosda loyihalashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Masalan, 2025 yilda O‘zbekiston iqtisodiyoti 7,7% ga o‘sdi (2021 yildan beri eng yuqori ko‘rsatkich), inflyatsiya 7,3% gacha pasaydi va kambag‘allik darajasi 5,8% ga yetdi — bularning ko‘pchiligi ekonometrik modellar va empirik tahlillar asosida shakllangan siyosatlar natijasidir. Bugungi kunda ekonometrikani chuqur bilmagan mutaxassis yoki siyosatchi faqat “taxminiy” darajada qoladi, lekin Python, R, Stata yoki Gretl kabi vositalar bilan ishlay oladigan iqtisodchi real siyosat va biznes qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Ekonometrikaning asosiy yo‘nalishlari va ularning iqtisodiy ahamiyatini jadval bilan ifodalasak

Yo‘nalish / Metod	Asosiy vositalar va modellar	Iqtisodiyotdagi asosiy qo‘llanishlar va ahamiyati	Real misollar (global va O‘zbekiston konteksti)
Juft va ko‘p omilli regressiya	OLS, WLS, robust standart xatolar, heteroskedastiklik testlari (Breusch-Pagan, White)	Omillar ta’sirini miqdoriy baholash, elastikliklarni hisoblash	O‘zbekistonda investitsiyalar va YIM o‘sishi o‘rtasidagi bog‘lanish (1% investitsiya o‘sishi → 0.4–0.7% YIM o‘sishi)
Instrumental o‘zgaruvchilar (IV), 2SLS	Endogenlikni bartaraf etish, LATE estimator	Haqiqiy sababiyatni aniqlash (exogen shoklar orqali)	Minimal ish haqi oshirilishi ishsizlikka ta’siri (Card-Krueger tajribasi; O‘zbekistonda subsidiyalar ta’siri)
Vaqt seriyalari tahlili	ARIMA, VAR, VECM, GARCH, cointegration (Engle-Granger, Johansen)	Inflyatsiya, valyuta kursi, YIM bashorati; volatillikni modellashtirish	O‘zbekiston Markaziy banki inflyatsiya prognozi (VAR modellari, pul massasi va import narxlari ta’siri)
Panel ma’lumotlar tahlili	Fixed/Random effects, GMM (Arellano-Bond), DiD, RDD	Hududlararo yoki vaqt bo‘yicha ta’sirni baholash	O‘zbekiston viloyatlarida qishloq xo‘jaligi subsidiyalari hosildorlikka ta’siri (panel regressiya)
Difference-in-Differences (DiD)	Parallel trends assumption, event study	Siyosat ta’sirini baholash (oldin-keyin va nazorat guruh bilan solishtirish)	2017–2020 yillarda valyuta liberallashtirishining eksportga ta’siri (DiD usuli)
Logit/Probit, multinomial modellar	Maksimal ehtimollik bahosi	Ikki yoki ko‘p alternativli qarorlar (ishga joylashish,	O‘zbekistonda kredit scoring va firibgarlikni aniqlash (logit modellari

		kredit olish, firibgarlik)	banklarda)
Mashinaviy o‘qitish integratsiyasi	LASSO, Random Forest, Gradient Boosting, Double/Debiased ML	Bashorat aniqligini oshirish, omil tanlash, heterogen ta’sirlarni aniqlash	Uzum, Payme kabi platformalarda mijoz xatti-harakatini bashorat qilish

O‘zbekiston iqtisodiyotidagi 2020–2025 yillardagi real va dolzarb misollarni qaraydigan bo‘lsak, inflyatsiya omillari va Markaziy bank siyosati, banki vaqt seriyalari modellaridan (VAR, Bayesian VAR) foydalanib, inflyatsiyani quyidagi omillarga bog‘lab modellashtiradi:

Inflyatsiya_$t \approx \beta_1 \times$ Pul massasi o‘sishi_$\{t-1\} + \beta_2 \times$ Import narxlari o‘sishi_$\{t-1\} + \beta_3 \times$ Inflyatsiya_$\{t-1\} + \beta_4 \times$ Energiya tariflari o‘zgarishi + ε_t ga teng.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, pul massasi (M2) 1% oshishi inflyatsiyani 0.4–0.6% ga oshirishi mumkin. 2022–2024 yillarda energiya tariflari oshirilishi inflyatsiyaga qisqa muddatli ta’sir ko‘rsatgan, lekin qattiq monetar siyosat tufayli inflyatsiya 10% dan 8–9% ga tushgan. Bu modellar asosida inflyatsiyani 2025–2027 yillarda 5–7% oralig‘iga tushirish siyosati shakllantirilgan.

Investitsiyalar va iqtisodiy o‘sish bog‘lanishi, ko‘p omilli regressiya yordamida (panel ma’lumotlar yoki vaqt seriyalari: YIM o‘sishi_$t=\beta_0+\beta_1\times$ FDI oqimi_$t+ \beta_2\times$ Ichki investitsiyalar_
$t + \beta_3 \times$ Eksport o‘sishi_$t + \beta_4 \times$ Inflyatsiya_$t + \varepsilon$_t.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) 1% oshishi YIM o‘sishini 0.3–0.6% ga tezlashtirgan (2020–2024 yillar).

2017–2025 yillarda liberallashtirish natijasida FDI oqimi keskin oshgan va bu o‘sishning muhim omili bo‘lgan.

Qashshoqlikni kamaytirish va iqtisodiy o‘sish DiD va panel regressiya usullari yordamida:

2017–2023 yillarda iqtisodiy o‘sish (o‘rtacha 5.5–6.5%) qashshoqlik darajasini 17% dan 9% ga yaqin pasaytirgan. Remittances (pul o‘tkazmalari) va ish haqi o‘sishi qashshoqlikka eng kuchli teskari ta’sir ko‘rsatgan (regressiya koeffitsiyentlari yuqori salbiy qiymatda). 2024 yilda qashshoqlik 8.9% ga tushgan, lekin inflyatsiya va oziq-ovqat narxlari o‘sishi bu jarayonni sekinlashtirishi mumkin.

Soliq yuki va Laffer effekti: Regressiya modellari (OLS, ARDL) yordamida soliq yuki (soliqlar/YIM) va iqtisodiy o‘sish o‘rtasidagi teskari U shaklidagi bog‘lanish tasdiqlangan: Optimal soliq yuki taxminan 18–20% atrofida (O‘zbekiston misolaida). 2020–2023 yillarda QQS ni 15% dan 12% ga tushirish soliq bazasini kengaytirgan va bu Laffer egri chizig‘ining chap tomonida harakatlanishga misol.

Xulosa:

Xulosa qilib shuni aytish mumkiki, ekonometrika zamonaviy iqtisodiyotning “ilmiy asosi”dir. U nafaqat hodisalarni tahlil qiladi, balki qarorlar qabul qilishda aniq raqamlar va ishonch intervallari beradi. O‘zbekiston kabi o‘tish davridagi iqtisodiyotda ekonometrika quyidagi masalalarni hal qilishda muhim: Inflyatsiyani nazorat qilish va monetar siyosatni optimallashtirish; Investitsiyalar samaradorligini baholash va jalb qilish strategiyasini shakllantirish; Qashshoqlikni kamaytirish dasturlarining ta’sirini o‘lchash; Soliq va subsidiya

siyosatini ilmiy asosda loyihalashtirish; Bugungi kunda ekonometrikani chuqur bilmagan iqtisodchi yoki siyosatchi faqat “taxminiy” darajada qoladi. Python, R, Stata, Gretl kabi vositalar bilan ishlay oladigan mutaxassislar esa real siyosat va biznes qarorlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

FOYDALANIOLGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni 11.12.2003y. N560-II Axborotlashtirish to‘g‘risida qonun**.** **https://nrm.uz/contentf?doc=52621_o‘zbekiston_respublikasining_11_12_2003_y_560son_ahborotlashtirish_to‘g‘risidagi_qonuni&products=1_zakonodatelstvo_ruz&trr**
2. Habibullayev I. Ekonometrika. – T.: “Iqtisod-moliya”, 2020 yil. – 241 bet.
3. 2. Беркинов Б.Б. Эконометрика: ўқув қўлланма. – Т.: “Fan va texnologiya”, 2015 й. – 184 бет.
4. Alimov R.X., Almurodov A.A., Xomidov S.O. Ekonometrik modellashtirish. O‘quv qo‘llanma. – T.: “Iqtisodiyot”, 2019 yil – 122 bet.
5. R.Sh.Usanov, N.Sh.Raxmatullayeva. Amaliy matematika. O‘quv qo‘llanma. — Toshkent.: “Grand kondor print”, 2025-y. 172 b.

HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHIYATINI IQTISODIY TAHLILI VA INTEGRAL BAHOLASH USULLARI

Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich[1], Yalgasheva Ruxshona Shoxrux qizi[2]
[1]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori,
[2]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot” yo‘nalishi talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654754

Annotatsiya. *Mazkur maqolada asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori, markazlashgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbaalari bo‘yicha taqsim-lanishi, asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur’ati, hududlarning investitsion salohiyatini iqtisodiy tahlili va integral baholash usullari investitsiyaviy jozibadorligi va investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo‘llari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Asosiy kapital, investitsiyalar, moliyalashtirish, investitsiyalar miqdori, iqtisodiy tahlil, markazlashgan investitsiyalar, investitsiyaviy jozibadorligi.*

Mavzuning dolzarbligi. Keyingi yillardagi eng ustuvor va o‘ziga xos vazifa bu - tezkorlik bilan zamonaviy texnologiyalarga asoslangan, yuqori ish haqi taklif etadigan yangi ish o‘rinlarini yaratish bo‘lib qoladi. Muammoning amaliy echimlaridan biri sifatida innovatsiya - yuqori texnologik ish o‘rni tamoyiliga asoslangan mamlakatning o‘ziga xos rivojlanish xususiyatlariga qaratilgan alohida strategik amaliy dasturlar ishlab chiqish zarur.

Shu bois, O‘zbekiston Respublikasi 2022-2026 yilgacha innovatsion rivojlanish strategiyasining yuqori texnologik va ilm-fanga asoslangan yangi va zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini hamda yuqori ish haqiga ega ish o‘rinlarini yaratish orqali uzoq muddatli yo‘nalishlari hamda rivojlanish dasturlari belgilab berilmoqda.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida mintaqalarni kompleks rivojlantirish bo‘yicha investitsiyalardan samarali foydalanish va investitsiya dasturlarini puxta ishlab chiqish yuzasidan tarkibiy islohotlar amalga oshirilmoqda.

O‘z navbatida mintaqalar o‘rtasidagi ijtimoiy-tafovutni yumshatish, ular iqtisodiyotiga mahalliy tadbirkorlar mablag‘lari, aholi jamg‘armalari va chet el investitsiyalarini faol jalb qilish iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishi sifatida belgilangan. Shu sababli mintaqalarda mavjud salohiyatlardan samarali foydalanish asosida mintaqa iqtisodiyoti barqaror o‘sishini ta’minlash, hududlar iqtisodiy salohiyatini hamda ishlab chiqarish, muhandis-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tarmoqlarini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilishda investitsion loyihalardan samarali foydalanish hamda boshqarish stratagiyai va mexenizmlarini aniqlash muhimdir.

Mamlakatimizda xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish, hududlar iqtisodiy salohiyatini innovatsion-investitsion integral baholash samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni chuqur va har tomonlama iqtisodiy tahlil qilish hamda o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Hudud investitsion salohiyatini samarali boshqarish yo‘nalishlarining ilmiy asoslarini tadqiq etish shuni ko‘rsatdiki, hudud hamda hududlararo miqyosda investitsion salohiyatdan samarali foydalanish nazariyasi mavzusi mahalliy va xorijiy tadqiqotchilar tomonidan yaqin

davrdan boshlab chuqur o‘rganila boshlandi. Neoklassik va zamonaviy Evropa maktabi vakillari bo‘lgan klassiklarning nazariy qarashlarida iqtisodiy jarayonlardagi investitsion salohiyat munosabatlari an’anaviy tarzda, ya’ni hududiy omillar va mintaqalararo munosabatlarni hisobga olgan holda tadqiq etilgan.

Mavjud nazariy qarashlarga muvofiq ularni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha tasniflash mumkin:

a) makroiqtisodiyot konsepsiyasi nuqtai- nazaridan hudud investitsion salohiyatini o‘rganish;

b) tashqi ta’sir omillari nuqtai-nazaridan hudud investitsion salohiyatini boshqarish munosabatlarini o‘rganish;

v) investitsion salohiyat va uni boshqarishning (biznes darajasidagi) mikroiqtisodiy omillari.

Yuqorida keltirilgan barcha yo‘nalishlarda investitsion salohiyatning hududiy xususiyatiga ikkinchi darajali masala sifatida qaralgan. SHuni hisobga olgan holda, muallif tomonidan hudud investitsion salohiyatini samarali boshqarish yo‘nalishlari bo‘yicha mavjud tadqiqot tamoyillari hamda usullarini qayta ko‘rib chiqish zarurligi asoslangan. Bundan asosiy maqsad esa hududda mavjud mahalliy salohiyat, resurslar va iqtisodiy o‘sish zaxiralaridan to‘liq foydalanishni boshqarishga pragmatik yondashuvlarni ishlab chiqishdir.

Investitsiya faoliyatining samaradorligi ko‘p jihatdan uning investitsiya resurslarini maqsadli shakllantirish bilan belgilanadi. Investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari va usullarini shakllantirishning asosiy maqsadi investitsiya faoliyatining samarali natijalarini ta’minlash nuqtai nazaridan zarur investitsiya aktivlarini sotib olish ehtiyojlarini qondirish va ularning tuzilishini optimallashtirishdir. SHuningdek, iqtisodiy tizim salohiyatini beshta turli xil qarashlar orqali o‘rganish mumkin:

1. Iqtisodiy tizimning ishlab chiqarish imkoniyati. Bunda ishlab chiqarishda ishtirok etadigan iqtisodiy resurslar, ya’ni mehnat va moddiy resurslarning turli xildagi nisbatlarini nazarda tutuvchi Kobba-Duglas funksiyasiga e’tibor qaratiladi. Ushbu qarash orqali hududning iqtisodiy salohiyatiga mavjud resurslardan maksimal foydalangan holda, ishlab chiqarish va yaratish mumkin bo‘lgan tovar va boyliklarning yalpi qiymatiga baho beriladi. Iqtisodiy salohiyatning natijasiga keladigan bo‘lsak, sarf qilingan barcha moddiy, mehnat resurslarining umumiy qiymati va hosil bo‘lgan boylik o‘rtasidagi samaradorlik ko‘rsatkichiga qarab baho beriladi.

2. Ma’lum bir aniq maqsadli tovar va xizmatlarga (boylikka) erishish uchun sarflangan resurslar yoki ishlab chiqarish funksiyasi. Bu ham miqdoriy ko‘rsatkich bo‘lib, bunda aniq bir qiymatga ega bo‘lgan moddiy boylikni ishlab chiqarish va uni yaratish uchun sarflanishi kutilayotgan ishlab chiqarish resurslarini turli kombinatsiyalarda foydalangan holda, resurslarning miqdori va sarfini minimallashtirishga qaratiladi. Ya’ni, ishlab chiqarish resurslaridan shunday nisbatda foydalanish lozimki, natijada yaratilishi kutilayotgan tovar xizmatlarning hajmi maksimal qiymatni tashkil etishi nazarda tutiladi.

3. Xo‘jalik faoliyatida ijtimoiy naflik pulning ekvivalenti sifatida baholanishi (iqtisodiy faoliyatni ob’ektiv baholashda risk yuzaga chiqadi).

4. Xo‘jalik tizimining faoliyat yuritishi natijasida olinadigan yalpi ijtimoiy ahamiyatga molik bo‘lgan muhim natijalar (ularning ahamiyatlilik darajasini va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan munosabatlarni aniqlashda risk yuzaga chiqadi).

5. Kompleks yoki integral baholash, alohida olingan tarmoqlarning o‘sishini elastik baholash, hududning yalpi resurs salohiyati, jon boshiga to‘g‘ri keladigan yalpi mahsulot, hududning investitsion jozibadorligi va boshqa o‘zaro bog‘liq bo‘lgan makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar. Hududning iqtisodiy salohiyatini integral baholashni bir qancha usullardan foydalanib aniqlash mumkin.

Ushbu ichki imkoniyatlarning mavjudligidan kelib chiqib, davlat tomonidan hududlarni kompleks rivojlantirish va u erda istiqomat qilayotgan aholining farovonligini ta’minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy dasturlar amalga oshirilib kelinadi. Fikrimizcha, aynan, endogen omillar hududning iqtisodiy rivojlanishini ta’minlashda muhim hisoblanadi, ammo shu bilan birga, hududning geoiqtisodiy joylashuvini ham esdan chiqarmaslik va uni inobatga olish lozim hisoblanadi.

1-jadval

Hududning iqtisodiy salohiyatini integral baholash usullari[2]

Baholash usullari	**Usulning ustun jihati**	**Usulning zaif jihati**
1	***2***	***3***
Resurslarni miqdoriy baholash	tuzulmaning va salohiyat dinamikasini baholash imkoniyati; alohida va yalpi ko‘rinishda olingan ob’ektlarni tahlil qilish imkoniyatining mavjudligi	resurslardan foydalanish koeffitsientlarini o‘tkazishda sub’ektiv tanlovning mavjudligi
Indeksli tahlil	Oddiy va yaqori hajmdagi hisob- kitoblarning mavjud emasligi	natijaviy ko‘rsatkichlarni shakllanishida har bir omilning bir xil vaznga ega bo‘lishi; salohiyatning tarkibi va dinamikasini tahlil qilishning murakkabligi
Optimizatsion model	optimizatsion tadbirlarning yuzaga chiqish imkoniyati	zaruriy axborot bazasining mavjud emasligi; hisob-kitoblarni amalga oshirishning murakkabligi
Korrelyasion- regression model	har bir resursning ta’sir etish darajasining hisobga olinishi	salohiyat dinamikasini baholashning murakkabligi; katta miqdordagi kuzatuvlarni qo‘llashning imkonsizligi

Barcha usullarda hududlarning iqtisodiy salohiyatini yig‘ma baholash ikkita tarkibiy qismdan: bevosita hududning iqtisodiy salohiyati va uni amalga oshirish natijasida erishilgan darajadan iborat.

[2] Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

Aytib o‘tilgan mulohazalar va keltirilgan jadval ma’lumotlarini rivojlantirish asnosida hududlarning iqtisodiy salohiyatini baholashning qo‘shimcha parametrlarini quyidagicha taklif etish mumkin.

Makroiqtisodiy jihatdan hududning salohiyatiga baho berilganda ko‘pincha milliy iqtisodiyot bilan bir xil bo‘lgan parametrlar: hududning mahsulot dinamikasi, tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishning tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti, narx, bandlik darajasi, investitsiyalar va h.k. Bular hududiy iqtisodiy tizimning makroiqtisodiy, ya’ni yuqorida qayd etilgan statistik ko‘rsatkichlarning agregatlashganligi va milliy iqtisodiyotda hududning tutgan o‘rnini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

2-jadval

Hududning iqtisodiy salohiyatini baholashning qo‘shimcha parametrlari[3]

№	Parametrlar	Hududlarning iqtisodiy salohiyatini baholashning qisqacha izohi
1	*2*	*3*
1	Joylashtirish sig‘imi	Hududda yangi iqtisodiy ob’ektlarni tashkil etish imkoniyati va/yoki mavjudlarining kengaytirilishi. Ko‘rsatkich resurslarning chegaraganligini inobatga olgan holda belgilanadi
2	Resurslar cheklanganligining samaradorligi	Kelajakda hududning iqtisodiy faoliyatini kengaytirishda qaysidir resurs teskari ta’sir ko‘rsatadigan bo‘lsa, shu resursga nisbatan yuqori darajada cheklovning o‘rnatilishi
3	Tashkiliy-iqtisodiy innovatsiyalarga moyillik	Hududlarda mavjud tizimining tavsifi infrastruktura va xo‘jalik yuritish
4	Innovatsiyalarni qabul qilishga moyillik	Hududning iqtisodiy rivojlanishni ta’minlash va uni doimiy ravishda kuzatib borish qobiliyatining mavjudligi va turli xildagi innovatsiyalarni qabul qilish tamoyili
5	Dinamik sifatlari	Hududiy tizimning o‘zgarmasdan turishi, harakatsizligi va uning struktura hosil qilish imkoniyati

Mikroiqtisodiy darajada esa, odatda alohida olingan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt (firma), korxonalar va uy xo‘jaliklarining iqtisodiy faoliyati tahlil etiladi. Bu erda hudud kvazikorxona sifatida ko‘rilib, uning rivojlanish salohiyati shu hududda faoliyat olib borayotgan korxonalarning yig‘indisi bilan belgilanadi. Ushbu qarashlarni davom ettirib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini bozor infratuzilmasi bilan o‘zaro bog‘lagan holda tasvirlash mumkin.

Hudud investitsion salohiyatini boshqarishda innovatsion rivojlanish manbasini tadqiq qilish hududning shakllangan innovatsion salohiyatini tahlil va sintez qilishni talab qiluvchi kompleks muammo hisoblanadi, bu esa, o‘z navbatida, ushbu rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiradi.

Hududlarning iqtisodiy salohiyatini innovatsion-investitsion boshqarish: strategiyasi va mexanizmini takomillashtirishda iqtisodiy resurslar, intellektual salohiyat va ushbu salohiyatdan amalda nechog‘liq foydalanilayotganligi, uning resurs salohiyatidan texnik va texnologik jihatdan foydalanish imkoniyatlari va ularning ko‘lamidan kelib chiqib, boshqa omillarning

[3] Ma’lumotlar asosida muallif ishlanmasi

inobatga olinishi va turli hududiy dasturlar ishlab chiqilishi zarur shartlardan hisoblanadi. Zero, umume’tirof etilgan va amaliyotda o‘z tasdig‘ini topgan ishlanmalarni o‘rganish va tatbiq etish, ularning mazmun-mohiyatini chuqur anglab etgan holda amalga oshirish hududlarning kompleks ravishda rivojlantirilishi uchun ishlab chiqilayotgan hududiy dasturlar va konsepsiyalarning samarali natija berishini ta’minlaydi.

Hududlarning iqtisodiy salohiyatini innovatsion-investitsion boshqarish: strategiyasi va mexanizmi o‘ziga xos murakkab jarayon bo‘lib, u mavjud guruhlar (xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar, nodavlat notijorat tashkilotlari, o‘z-o‘zini boshqarish organlari, turli institutlar)ni yagona maqsad sari birlashtirish bilan bir qatorda, ularning manfaatlarini ham inobatga olishi talab etiladi.

Respublikada innovatsion klasterlarni davlat-hususiy sherikchilik asosida shakllantirish milliy innovatsion salohiyatni oshirish va undan samarali foydalanish imkonini beradi. Innovatsiyalarni xarid qilish bo‘yicha konkurs asosida davlat buyurtmalarini joriy qilish orqali innovatsion korxonalar mahsuloti uchun yangi bozorlarni shakllantirish yo‘nalishlari bo‘yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish lozim.

Yuqorida ko‘rib o‘tilgan vazifalarni imkon qadar tezroq va samarali o‘z echimini topishi, nafaqat, investitsiya loyihalarini moliyalashtirish manbalari qiymatini baholashda, balki davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi holatini va aholining farovon hayot tarzini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanishni ta’minlashning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5853. 23.10.2019.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida. PF-60. 28.01.2022.
3. Abdullayev Y.O., Mamatov A.A., Mamatov S.A., Saidgaziyeva S.S. Innovatsion rivojlanish. Darslik. -T.: O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish universiteti, 2022. -732 b.
4. Umarov A. Innovatsion mahsulotlarni rivojlantirishning dolzarbligi va ularni joriy etishning ahamiyati // Academic research in Educational sciences. Volume 2 | ISSUE 1 | 2021 ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723
5. Lundvall, B. Å. (2016). National innovation systems and globalization. The Learning Economy and the Economics of Hope, 351.
6. Freeman, C. (2004). Technological infrastructure and international competitiveness. Industrial and Corporate Change, 13(3), 541-569.
7. Lundvall, B. A. (1992). National Systems of Innovation/Lundvall, B.-A. National System.
8. https://www.globalinnovationindex.org/Home

XO‘JALIK YURITUVCHI SUB`EKTLARGA JALB QILINGAN INVESTITSIYALARNI IQTISODIY TAHLILI

Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich[1], Xamrokulova Mehrangiz Muzaffar qizi[2]
[1]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi dotsenti, iqtisodiyot fanlari falsafa doktori,
[2]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Iqtisodiyot” yo‘nalishi talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654767


Annotatsiya. *Mazkur maqolada xo‘jalik yurituvchi sub`ektlarga jalb qilingan investitsiyalarni iqtisodiy tahlili, asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori, markaz-lashgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbaalari bo‘yicha taqsim-lanishi, asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori, asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘sish sur’ati, investitsiyaviy jozibadorligi va investitsiyalarni jalb qilishning asosiy yo‘llari yoritilgan.*

Kalit so‘zlar. *Xo‘jalik yurituvchi sub`ektlar, iqtisodiy tahlili, investitsiyalar, investitsiyalar miqdori, markazlashgan investitsiyalar, investitsiyaviy jozibadorligi.*

Kirish. Respublikamiz iqtisodiyotiga investitsiya kiritishda davlat byudjeti mablag‘lari, chet el investitsiyalari, korxonalarning o‘z mablag‘lari va aholi jamg‘armalari qatnashmoqda. Respublikada aholining qimmatli qog‘ozlarga jamoaviy Investitsiyani amalga oshiradigan xususiylashtirish investitsiya fandlari (XIF) va kompaniyalari tarmog‘i rivoj topdi. 2000 yilda moliyalashtirishning jami manbalari hisobidan mamlakat iqtisodiyotiga salkam 700 mlrd. so‘m, shu jumladan, 810 mln. AQSH dollari investitsiyalandi. Uning 30,3% ni respublika byudjeti, 39,1% ni korxonalar va aholi mablag‘lari, 7,5% ni banklar kreditlari va b. qarz mablag‘lar, 21,7% ini chet el investitsiyalari va kreditlari, 1,4% ni byudjetdan tashqari jamg‘armalar mablag‘lari tashkil qiladi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan jadal islohotlar, tadbirkorlik faoliyati uchun berilayotgan imtiyoz va imkoniyatlar, qulay investitsion muhitning yaratilayotgani nafaqat mahalliy, balki xorijiy investorlarning ham qiziqishini oshirmoqda. Buning samarasi o‘laroq, yurtimizda xorijiy investitsiyalar oqimining hajmi ortib, ular ishtirokida ko‘plab qo‘shma korxonalar faoliyati yo‘lga qo‘yilyapti. Samarqandda o‘tkazilgan xalqaro biznes forumi O‘zbekistonga xorijiy investorlarni keng jalb etish, ularni mamlakatimizdagi tadbirkorlik muhiti bilan yaqindan tanishtirish hamda hamkorlik aloqalari ko‘lamini yanada kengaytirishga qaratilgani bilan ahamiyatli bo‘ldi, deyish mumkin.

2023-yilning yanvar-dekabr oylarida markazlashtirilgan moliyalashtirish manbalariga 2 687,9 mlrd. so‘mlik investitsiya mablag‘lari kiritilib, bu ko‘rsatkich jami investitsiyalarning 10,1 % ni tashkil etdi, bu o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish surati 70,7 % ni tashkil etgan. Hisobot davrida markazlashtirilmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 23 896,7 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi (jamiga nisbatan ulushi 89,9 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 146,5 % ni tashkil etdi.



1-rasm. Samarqand viloyatining 2023-yilda moliyalashtirish bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalar miqdori[4].


1-rasmda korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag‘lari hisobiga 6 926,4 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalarning 26,1 % o‘zlashtirildi. Aholining mablag‘lari hisobidan 1477,6 mlrd. so‘mlik investit-siyalar o‘zlashtirilib, jami investitsiyalar hajmining 5,6 % ni tashkil etdi. Hisobot davrida O‘zbekiston Respublikasi Hukumati kafolati ostida 1 008,0 mlrd. so‘mlik xorijiy kreditlar ajratildi, bu esa o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 59,7 % ni yoki jami investitsiyalarning ulushi 3,8 % ni tashkil etgan.

Shu bilan birga, bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari hisobidan 4 981,8 mlrd. so‘mlik mablag‘lar kiritildi (asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 18,7 %), bu o‘sish sur’ati 5,8 martani tashkil etdi, to‘g‘ridan-to‘g‘ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar hisobidan 10 510,9 mlrd. so‘m (ulushi 39,5 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,5 % ni tashkil etdi, Respublika byudjeti 1 476,8 mlrd. so‘m (ulushi 5,5 %) usish sur’ati 76,5 % ni tashkil qildi. Suv ta’minoti tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi hisobidan 203,1 mlrd. so‘m, (ulushi 0,8 %) va o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 118,6 % ni tashkil etdi.

2023-yilda Samaqrand viloyatining hududiy birliklarida asosiy kapitalga nisbatan investitsiyalarning o‘sish sur’ati keltirilgan bo‘lib, bu ma’lumot-larni tahlil qilishda Narpay tumaniga nazar tashlaydigan bo‘lsak, Narpay tumani 5-o‘rinda ekanligini ko‘rishimiz mumkin. Albatta bu yomon ko‘rsatkich emas, lekin investitsiyalar hajmi doimo asosiy kapitalga nisbatan yaqinroq bo‘lishi, bu ijobiy natijaga olib kelishi mumkin.

O‘zbekistonda faol investitsiya siyosatining amalga oshirilish natijasida sunggi yillarda investitsiyaning yillik o‘sishi yuqorilab kelmoqda. Lekin afsuski ayrim hududlarda investorlar bilan ishlashda, ayniqsa, joylarda, investorlarning tashabbuslari barcha darajadagi hokimliklar tomonidan lozim darajada qo‘llab-quvvatlanmasligi, bu borada vazirlik va idoralar faoliyati aniq muvofiqlashtiril-maganligi bilan bog‘liq byurokratik to‘siq va g‘ovlar hali ham mavjudligi qulay investitsiya muhitini shakllantirish bo‘yicha davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchning mustahkamlanishiga to‘sqinlik qilmoqda.

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlari asosida



2-rasm. Samarqand viloyatida 2023-yilda asosiy kapitalga investitsiyalar-ning o‘sish sur’ati[5].

Ushbu to‘sqinliklarni bartaraf etish uchun respublikada investitsiyani yanada darajasini ko‘tarish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investorlarning bu boradagi respublikadagi siyosatning izchilligiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas’uliyatini oshirish kerakligidan dalolat beradi. SHu sababli mamlakatda to‘g‘ridanto‘g‘ri investitsiyalarni jalb etish uchun qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini isloh qilish, tadbirkorlik sub’ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlardan erkin foydalanishni ta’minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyatini olib borayotgan xorijiy investitsiya ishtirokidagi ishlab chikarish korxonalarga soliq imtiyozlari va bojlardan bir qancha engilliklar va imtiyozlar belgilangan bo‘lib, ular ya’ni investitsiya kompaniyalari, shuningdek, uning ta’sischilari olingan dividend va foizlar bo‘yicha daromadlar bilan birga foyda solig‘i, mol-mulk solig‘i va er solig‘idan, shuningdek, uning mol-mulki va aktivlarini realizatsiya qilishda qo‘shilgan qiymat solig‘idan 3 yil muddatga ozod qilinadi; ustav fondining kamida 30 foizi investitsiya kompaniyasi mablag‘lari hisobidan shakllantirilgan yangi tashkil etilgan korxonalarga xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar uchun qonunchilikda nazarda tutilgan imtiyoz va preferensiyalar tatbiq etiladi.

Xulosa qilib aytganda yaqin kelajakda viloyatni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish va jozibadorligini oshirish uchun investitsiyalarni jalb etish natijasida quyidagilarni hisobga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

[5] O‘zbekiston Respublikasi Prezident huzuridagi Statistika Agentligi ma’lumotlari asosida

1. Viloyatda sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi o‘rta darajada. Yaqin kelajakda tumanlar xududida kompleks ishlarini jadal sur’atlarda olib borishni hisobiga yangi sanoat korxonalarini qurib ishga tushirish muhim ahamiyatga ega.

2. Ma’lumki viloyat o‘zining sug‘orma yerlari va dehqonchilikka mosligi bilan mashhur hisoblanadi. Kelajakda nafaqat paxta yoki g‘alla, balki sabzavot ekinlarini ham ko‘paytirish va shu joyning o‘zida qayta ishlash zarur.

3. Viloyat o’ziga xos tabiiy iqlim sharoitiga ega bo’lib, bu yerga qishloq xo’jaligining bog’dorchilik, meva-sabzavotchilik, polizchilik sohasini hamda shuningdek viloyat yer fondi tarkibiga yaylovzorlarning katta maydonlarga egaligi chorvachilik va asalarichilik kabi sohalarini rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

4. Viloyatda qishloq xo’jaligi mahsulotlarini sanoat asosida qayta ishlovchi yangi zamonaviy korxonalarni qurib ishga tushirish orqali xalq ist’emol mollarini ishlab chiqarish va uni eksport qilishni yo’lga qo’yish muhim ahamiyatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to‘g‘risida. O‘RQ -598. 14.12.2019.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida. PF-5853. 23.10.2019.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora tadbirlar to‘g‘risida. PF-6042. 18.08.2020.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. O‘zbekiston Respublikasi-ning 2023 — 2025-yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida. PQ-459. 28.12.2022

5. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiya dasturini shakllantirish tizimini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida. VM-16. 14.01.2023.

6. Azizkulov B., Sayfullaev S. *Raqamli iqtisodiyot sharoitida davlatning moliyaviy–investitsion siyosati va qabul qilingan iqtisodiy islohotlar.* SCIENCEPROBLEMS.UZ - Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari **№ S/3 (4) – 2024.** https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI3Y2024N18

7. Karlibayeva R.X, Investitsiyalarni tashkil etish va boshqarish. O‘quv qo‘llanma. T., Cho‘lpon nashriyoti 2011. 122 b.

8. Mirzayev F., Sotvoldiyev A. Investitsiyalarni jalb etishda investitsion salohiyatni baholashning integral usuli//O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi. –T.: 2021. -№ 6.40 b.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQADA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH YO‘NALISHLARI

Baxtiyarov Sherali Muzaffarovich
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti tadqiqotchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654793

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqani barqaror rivojlantirish jarayonida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish masalalari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Tadqiqotda yashirin iqtisodiyotning mintaqaviy rivojlanishga salbiy ta’siri, raqamli transformatsiya jarayonlarining iqtisodiy munosabatlar shaffofligini oshirishdagi o‘rni hamda raqamli moliyaviy va institutsional mexanizmlarning samaradorligi yoritilgan. Elektron to‘lovlar, raqamli soliq ma’muriyatchiligi, moliyaviy inklyuziya va raqamli ma’lumotlar integratsiyasi yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning asosiy omillari sifatida asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari raqamli iqtisodiyot vositalaridan oqilona foydalanish mintaqada rasmiy bandlikni oshirish, soliq bazasini kengaytirish va iqtisodiy samaradorlikni kuchaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, yashirin iqtisodiyot, mintaqaviy rivojlanish, raqamli transformatsiya, iqtisodiy samaradorlik, moliyaviy inklyuziya, elektron to‘lovlar.*

Аннотация. *В данной научной статье проводится системный анализ вопросов сокращения теневой экономики в процессе устойчивого регионального развития в условиях цифровой экономики. В исследовании раскрывается негативное влияние теневой экономики на социально-экономическое развитие регионов, а также роль цифровой трансформации в повышении прозрачности экономических отношений. В качестве ключевых инструментов сокращения теневой экономики обоснованы электронные платежи, цифровое налоговое администрирование, финансовая инклюзия и интеграция цифровых данных. Результаты исследования подтверждают, что рациональное использование инструментов цифровой экономики способствует росту официальной занятости, расширению налоговой базы и повышению экономической эффективности на региональном уровне.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, теневая экономика, региональное развитие, цифровая трансформация, экономическая эффективность, финансовая инклюзия, электронные платежи.*

Abstract. *This scientific article provides a systematic analysis of reducing the shadow economy in the context of sustainable regional development under the conditions of the digital economy. The study examines the negative impact of the shadow economy on regional socio-economic development and highlights the role of digital transformation in increasing the transparency of economic relations. Electronic payments, digital tax administration, financial inclusion, and digital data integration are identified as key instruments for reducing the shadow economy. The research findings demonstrate that the effective use of digital economy tools contributes to higher formal employment, an expanded tax base, and improved economic efficiency at the regional level.*

***Keywords**: digital economy, shadow economy, regional development, digital transformation, economic efficiency, financial inclusion, electronic payments.*

Kirish. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi zamonaviy iqtisodiy tizimlarda ishlab chiqarish, taqsimlash va iste’mol jarayonlarining shakli hamda mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli texnologiyalar asosida iqtisodiy munosabatlarni tashkil etish mehnat unumdorligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va iqtisodiy faoliyat shaffofligini ta’minlash imkonini bermoqda. Birlashgan Millatlar Tashkiloti va UNDP ma’lumotlariga ko‘ra, raqamli transformatsiya jarayonlari iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim omil sifatida e’tirof etilmoqda [1].

Mintaqani barqaror rivojlantirish masalasi bugungi kunda global va milliy miqyosda dolzarb ahamiyat kasb etib, u iqtisodiy o‘sish bilan bir qatorda ijtimoiy tenglik, rasmiy bandlik va fiskal barqarorlikni ta’minlashni ham nazarda tutadi. 2015-yilda qabul qilingan BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlarida hududiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash, moliyaviy resurslarga teng kirish imkoniyatlarini yaratish va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash ustuvor vazifalar sifatida belgilangan [2]. Biroq ushbu maqsadlarga erishishda yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi jiddiy to‘siq bo‘lib qolmoqda.

Yashirin iqtisodiyot mintaqalarda soliq tushumlarining kamayishi, rasmiy bandlik darajasining pasayishi hamda iqtisodiy statistik ma’lumotlarning ishonchliligi buzilishiga olib keladi. Ayniqsa, kichik biznes, xizmatlar sohasi va chakana savdo segmentlarida norasmiy iqtisodiy faoliyat keng tarqalgan bo‘lib, bu holat mintaqaviy rivojlanish samaradorligini pasaytiradi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, naqd pul aylanmasining yuqori ulushi va moliyaviy xizmatlardan cheklangan foydalanish yashirin iqtisodiyotning asosiy omillaridan biri hisoblanadi [3].

Mazkur sharoitda raqamli iqtisodiyot vositalari yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning samarali mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Elektron to‘lovlar, raqamli soliq ma’muriyatchiligi, onlayn kassa tizimlari va raqamli ma’lumotlar integratsiyasi iqtisodiy operatsiyalar shaffofligini oshirib, norasmiy faoliyatni rasmiy sektorga jalb etish imkonini beradi. Raqamli transformatsiya jarayonlari orqali moliyaviy inklyuziyani kengaytirish yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish bilan birga, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot sharoitida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish masalalari mintaqaviy rivojlanish nuqtayi nazaridan yetarli darajada chuqur ilmiy o‘rganilmagan. Ayniqsa, raqamli to‘lovlar, soliq ma’muriyatchiligi, moliyaviy inklyuziya va institutsional mexanizmlarning o‘zaro bog‘liqligini kompleks tahlil qilish dolzarb ilmiy muammo bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqani barqaror rivojlantirish jarayonida yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning asosiy omillarini ilmiy asoslash hamda raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan amaliy mexanizmlarni aniqlashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Raqamli iqtisodiyot va uning iqtisodiy jarayonlarga ta’siri masalalari so‘nggi yillarda xalqaro va milliy ilmiy tadqiqotlarda keng yoritilmoqda. Xalqaro tashkilotlar, xususan BMT va UNDP hujjatlarida raqamli transformatsiya iqtisodiy munosabatlar shaffofligini oshirish, tranzaksiya xarajatlarini kamaytirish va moliyaviy inklyuziyani kengaytirish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qilishi ta’kidlanadi [4]. Ushbu tadqiqotlarda raqamli moliyaviy

xizmatlar va elektron to‘lov tizimlarining kengayishi norasmiy iqtisodiy faoliyatni rasmiy sektorga jalb etishda muhim omil sifatida baholanadi.

Yashirin iqtisodiyot muammosi iqtisodiy adabiyotlarda soliq tushumlari, bandlik va iqtisodiy o‘sishga ta’siri nuqtayi nazaridan chuqur tahlil qilingan. Jahon banki va Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi tadqiqotlarida yashirin iqtisodiyotning yuqori ulushi institutsional zaifliklar, soliq yukining og‘irligi va moliyaviy xizmatlardan cheklangan foydalanish bilan bog‘liqligi asoslab berilgan [5]. Shu bilan birga, ayrim ilmiy ishlarda raqamli to‘lovlar ulushining oshishi naqd pul aylanmasini qisqartirib, yashirin iqtisodiyot hajmini kamaytirishga xizmat qilishi empirik jihatdan tasdiqlangan.

Mintaqaviy rivojlanish bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda hududlararo nomutanosibliklarni kamaytirishda moliyaviy va institutsional mexanizmlarning ahamiyati alohida ta’kidlanadi. Xususan, B. Ruzmetovning ilmiy ishlarida mintaqani kompleks rivojlantirishda iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirish va moliyaviy resurslardan samarali foydalanish muhim shart sifatida ko‘rsatilgan [6]. Biroq mavjud adabiyotlarda raqamli iqtisodiyot sharoitida yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning mintaqaviy iqtisodiy samaradorligi yetarli darajada kompleks o‘rganilmagan bo‘lib, mazkur maqola aynan ushbu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot raqamli iqtisodiyot sharoitida mintaqani barqaror rivojlantirish jarayonida yashirin iqtisodiyotni qisqartirishning iqtisodiy samaradorligini baholashga qaratilgan bo‘lib, unda ilmiy bilishning umumiy va maxsus metodlaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv asosida shakllantirilib, raqamli transformatsiya, moliyaviy mexanizmlar va mintaqaviy rivojlanish jarayonlari o‘zaro bog‘liqlikda tahlil qilindi. Ushbu yondashuv yashirin iqtisodiyotga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash imkonini berdi.

Tadqiqot jarayonida mantiqiy va tahliliy usullar yordamida raqamli iqtisodiyotning yashirin iqtisodiyotga ta’sir mexanizmlari nazariy jihatdan asoslab berildi. Taqqoslama tahlil usuli orqali raqamli va an’anaviy iqtisodiy mexanizmlarning mintaqaviy rivojlanishga ta’siri solishtirildi. Xususan, elektron to‘lovlar, raqamli soliq ma’muriyatchiligi va moliyaviy inklyuziya darajasining oshishi yashirin iqtisodiy faoliyatni rasmiy sektorga jalb etishdagi o‘rni baholandi.

Shuningdek, tadqiqotda statistik tahlil va umumlashtirish usullari qo‘llanilib, BMT, UNDP, Jahon banki hamda O‘zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma’lumotlari asosida raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari va yashirin iqtisodiyot o‘rtasidagi bog‘liqlik tahlil qilindi. Normativ-huquqiy tahlil usuli orqali barqaror rivojlanish konsepsiyasi va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga oid hujjatlar o‘rganildi. Tadqiqot natijalarini umumlashtirish asosida mintaqaviy darajada yashirin iqtisodiyotni qisqartirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natija. Raqamli iqtisodiyot sharoitida yashirin iqtisodiyotning shakllanishi asosan institutsional va texnologik omillar bilan belgilanadi. Mintaqalarda iqtisodiy faoliyatning norasmiylashuvi naqd pul aylanmasining yuqoriligi, soliq va moliyaviy tizimlarga ishonchning pastligi hamda raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi bilan bevosita bog‘liq. Shu sababli yashirin iqtisodiyotni qisqartirish masalasini faqat fiskal nazorat nuqtayi nazaridan emas, balki raqamli transformatsiyaning iqtisodiy samaradorligi kontekstida tahlil qilish zarur.

1-jadval

Xorazm viloyatida yashirin iqtisodiyot shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy omillar [6]

Omillar	Ta’sir darajasi	Izoh
Naqd pul aylanmasining yuqoriligi	Yuqori	Savdo va xizmatlar sohasida ustun
Elektron to‘lovlar qamrovining pastligi	Yuqori	Norasmiy hisob-kitoblarni rag‘batlantiradi
Soliq tizimining murakkabligi	O‘rtacha	Kichik biznesni rasmiy sektordan chetlashtiradi
Moliyaviy inklyuziya darajasi	Past–o‘rtacha	Bank xizmatlariga kirish cheklangan
Raqamli savodxonlik	O‘rtacha	Hududlar bo‘yicha notekis

1-jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, Xorazm viloyatida yashirin iqtisodiyotning asosiy manbai iqtisodiy faoliyatning naqd pulga tayanishi va raqamli moliyaviy xizmatlar qamrovining yetarli emasligidir. Ayniqsa, kichik savdo va xizmatlar segmentida elektron to‘lovlarning past ulushi daromadlarni rasmiy hisobga olishdan chetlab o‘tish imkonini bermoqda. Bu holat mintaqaviy iqtisodiy samaradorlikni pasaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Raqamli transformatsiya ushbu muammolarni bartaraf etishda muhim iqtisodiy mexanizm hisoblanadi. Elektron to‘lovlar, raqamli soliq hisobotlari va integratsiyalashgan axborot tizimlari iqtisodiy faoliyatni rasmiylashtirishni rag‘batlantirib, yashirin iqtisodiyot hajmini qisqartirish imkonini beradi. Xalqaro va milliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, raqamli moliyaviy xizmatlar kengaygan hududlarda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari sezilarli darajada yaxshilanadi..

2-jadval

Jahon iqtisodiyoti amaliyotida mintaqalar sanoatining ko‘lami uning ekologik-iqtisodiy imperativlari asosida rivojlanishini ko‘rsatmoqda hamda hududlarning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlashning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. Rivojlanishning hozirgi bosqichida mamlakat hududlari o‘rtasida yalpi hududiy mahsulot (YAHM) va sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha tafovutning ortib borishi kuzatilmoqda. Jumladan, “Xitoyda aholi jon boshiga YAHM hajmi eng yuqori va eng past mintaqalari o‘rtasidagi farq 18 barobarni, Rossiyada 25, Yevropa Ittifoqida 4,2, AQShda 1,7 va Yaponiyada 1,35 barobarni tashkil etmoqda”[1]. Ta'kidlash joizki, YAHMning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan mintaqaviy sanoatning hududlar yuqori iqtisodiy o‘sish darajasiga erishishida, ekologik va iqtisodiy imperativlar, innovatsion faoliyat, zamonaviy texnika va boshqa sohalarni rivojlantirishdagi ahamiyati ortib bormoqda. Ko‘plab rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasida mintaqaviy sanoatini yana-da rivojlantirishda, zamonaviy ilm-fan, texnika va innovatsiya yutuqlaridan yana-da faolroq foydalanish muhim ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekistonda islohotlarning yangi bosqichida hududlar sanoati rivojlanishi, bu sohada ekologik, texnologik va innovatsion siyosatni amalga oshirish hamda xarajatlarni kamaytirish maqsadida yuqori texnologiyalarni tatbiq etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda “..Orolbo‘yi mintaqasida ekologik vaziyatni barqarorlashtirish, Orol dengizi qurishi natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning salbiy ta’sirini yumshatish,...mahalliy sanoatni rivojlantirish bo‘yicha mutlaqo yangi ekologik-iqtisodiy imperativlar”[2] asosida amalga oshirish va yuqori natijalarga erishish vazifalari belgilangan. Bunday vazifalarni samarali hal etishda sanoat tarmoqlariga ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, mamlakat va uning hududlarida

innovatsiyani rivojlantirish hamda ishlab chiqarishga tatbiq etish bo‘yicha iqtisodiy imperativlar asosida yangi yo‘nalishlarda ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish alohida ahamiyat kasb etadi[3].

Tadqiqotlar natijasida, Xorazm viloyatida sanoat rivojlanishining hozirgi holati tahlil qildi hamda O‘zbekistonda va Xorazm viloyatida sanoatning hududiy rivojlanishining tabaqalanishi baholandi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatiga investitsiyalarni jalb etish va yuqori qo‘shimcha qiymatga ega raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi PF-25-sonli “Orolbo‘yi mintaqasida tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni imzolandi.

Farmonga ko‘ra, 2022-yil 1-yanvardan 2031-yil 1-yanvargacha Mo‘ynoq tumanidagi mahalliy sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohalaridagi tadbirkorlik sub'ektlari uchun foyda solig‘i, aylanmadan olinadigan soliq, ijtimoiy soliq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i bo‘yicha o‘rnatilgan soliq stavkalarini 1 foiz etib; mol-mulk solig‘i, yer solig‘i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarini mazkur soliqlar bo‘yicha hisoblangan summadan 1 foiz miqdorida belgilandi.

2025-yil 1-yanvargacha Xorazm viloyatining Tuproqqal’a, Yangiariq, Yangibozor tumanlarida yangi tashkil etiladigan va shu tumanlarda ro‘yxatdan o‘tgan holda faoliyat ko‘rsatadigan tadbirkorlik sub'ektlari (klasterlar bundan mustasno) bo‘yicha: foyda solig‘i, yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i, yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq stavkalarini 50 foizga kamaytirish; O‘zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan o‘z ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun olib kiriladigan xomashyo, materiallarni bojxona bojidan ozod qilish ko‘zda tutilgan.

Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan 2022-yil 1-yanvardan 2027-yil 1-yanvargacha Orolbo‘yi mintaqasida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlariga korxona qurilishi uchun zarur bo‘lgan asbob-uskuna va texnikalarni respublikaning boshqa hududlaridan olib kelish hamda ular tomonidan ishlab chiqarilgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarni respublikaning boshqa hududlariga yetkazib berish bilan bog‘liq temir yo‘l transportida tashish xarajatlarining 50 foiz qismini qoplab berish tartibi joriy qilinadi.

Ushbu davr mobaynida mahalliy eksportchilar tomonidan ishlab chiqarilgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilishda, ularning Kaspiy dengizigacha tashish bilan bog‘liq transport xarajatlarini to‘liq qoplab berish tartibi joriy etiladi. Farmonda shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasida 45 ta va Xorazm viloyatida 40 ta yangi kichik sanoat zonalarini belgilangan tartibda tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Prezident Farmoniga ko‘ra, hududiy rivojlanish darajasini tenglashtirish maqsadida tadbirkorlar uchun soliq stavkalari tabaqalashtiriladi, shuningdek, subsidiyalar, kreditlar va kompensatsiyalar ajratiladi. Ushbu maqsadlar uchun 1.01.2023-yildan 1.01.2026-yilgacha tadbirkorlik sub’ektlariga soliq imtiyozlari va subsidiyalarni qo‘llashning yangi tartibi, shuningdek ularni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha boshqa chora-tadbirlar ishlab chiqildi va amalga oshirildi(1-jadval).

1-jadval

Xorazm viloyati sanoatining 2019-2024-yillardagi asosiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2022 y.	2024 y.
Sanoat ishlab chiqarish hajmi (amaldagi narxlarda; milliard so‘m)	8538,6	9615,9	13658,1	18323,3
Sanoat ishlab chiqarish indeksi (o‘tgan yilga nisbatan % da)	107,5	106,1	117,2	115,0
Respublikada sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida mintaqaning ulushi (jamiga nisbatan % da)	2,6	2,6	3,0	3,3
Sanoatda band bo‘lganlar soni (ming kishi)	61,6	61,5	63,5	63,8
Sanoat korxonalari mahsulotlarini (tovarlar, ishlar va xizmatlar) sotishdan olingan sof daromad (mlrd.so‘m)	3 042,8	3 858,9	4 650,5	8 985,7
Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish (ming so‘m) Jumladan iste'mol tovarlari	4 612,7 3 065,2	5 115,1 3 430,1	7 155,5 4 501,2	9 439,5 5 294,6
Faoliyat ko‘rsatayotgan sanoat korxonalari soni (yil oxirida, dona), jami jumladan: - tog‘-kon sanoati - qayta ishlash sanoati - elektr ta'minoti, gaz, bug‘ yetkazish va havoni sovutish -suv ta’minoti, kanalizasiya, chiqitlrani to‘plash va utilizatsiya qilish	3058 8 2993 13 44	3645 13 3576 18 38	4298 19 4208 20 51	4794 21 4689 22 62
Mehnat unumdorligi, (sanoatda band bo‘lgan bir kishiga mln. sum)	138,6	156,4	206,9	278,1

Xorazm viloyati sanoat korxonalarining asosiy fondlari 2022-yil boshida dastlabki qiymati 6560 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘tgan yil davomida 1078,8 mlrd so‘mga yoki 7638,8 mlrd so‘mgacha, asbob-uskunalar va ishlab chiqarish quvvatlarini sotib olish hisobiga esa 1158,4 mdrd so‘mga o‘sdi (2-jadval).

2-jadval

2019-2024-yillarda sanoat korxonalarining asosiy fondlari harakat dinamikasi, mlrd. so‘m

Ko‘rsatkichlar	2019 y.	2020 y.	2022 y.	2024 y.
Boshlang‘ich qiymat - yil boshiga qoldiq - tushum, jami Shundan ishga tushirilgan - chiqib ketish, jami - yil oxiriga qoldiq	9844,4 886,5 409,6 191,2 10539,7	1744,2 612,1 393,9 52,8 2303,3	2186,3 804,4 735,4 37,6 953,0	6560,0 1158,4 1027,6 79,6

				7638,8
To‘plangan amortizatsiya yil boshida yil oxirida	1503,3 2043,4	629,3 936,0	850,8 1006,7	3457,1 4112,0
Yil oxirida qoldiq qiymat	8496,3	1 367,3	1946,3	3526,7
Asosiy fondlarning yangilanish koeffitsienti	0,08	0,27	0,84	0,15
Asosiy fondlarning chiqib ketish koeffitsienti	0,02	0,03	0,02	0,01
Asosiy fondlarning eskirish koeffitsienti	0,21	0,54	0,46	0,63

Ta'kidlash joizki, 2019-2023-yillarda investitsiyalar tarkibida ijobiy o‘zgarishlar ro‘y berdi, chunki markazlashtirilgan manbalar ulushi qariyb 2 barobar (byudjet mablag‘lari 5 barobardan ziyod), markazlashtirilmagan manbalar yesa 4,7 barobar (xorijiy investitsiyalar va kreditlar 31 barobardan ziyod) oshdi(3-jadval).

3-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so‘m

Investitsiya manbalari	**2019**	**2020**	**2022**	**2024**
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	**2980,0**	**6663,2**	**8806,6**	**12050,7**
shu jumladan:				
Markazlashgan investitsiyalar:	**723,5**	**996,0**	**1372,0**	**1514,5**
byudjet mablag‘lari	143,4	466,6	822,7	761,1
suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	329,6	206,0	110,8	164,8
tiklanish va taraqqiyot fondi mablag‘lari	47,6	-	104,8	50,4
hukumat kafolati ostida chet el kreditlari	202,9	323,4	333,7	538,2
Markazlashmagan investitsiyalar	**2256,5**	**5667,2**	**7434,6**	**10536,1**
korxonalarning o‘z mablag‘lari	976,1	1638,2	2254,4	2806,0
aholi mablag‘lari	658,0	1141,5	2111,8	2448,9
xorijiy investitsiya va kreditlar	152,7	1477,9	2367,1	4803,2
shundan: to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiya tijorat bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	146,8 469,8	316,2 1409,5	612,9 701,1	1399,7 478,0

2023-yilda asosiy vositalarga investitsiyalarning 70% dan ortig‘i qayta ishlash sanoati (30,7%), shuningdek, uy-joy (16,5%), qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi (14,7%), transport (8,2%) sohalariga sarflandi.

Shuningdek, qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarining o‘sish sur’atlarining (2019-yilga nisbatan 8,8 baravar) va to‘qimachilik mahsulotlarining (4,7 baravar) barqaror o‘sishini, shuningdek, kauchuk va plastmassa ishlab chiqarish kabi tarmoqlarning pasayishini ta'kidlash kerak(4-jadval).

4-jadval

2019-2024-yillarda Xorazm viloyati qayta ishlash sanoatining asosiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi, mlrd. so‘m

Faoliyat turi	2019	2020	2022	2024
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	3617,3	4102,6	5 044,8	7 030,5
Oziq-ovqat va ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish	1558,7	1825,4	3 496,6	5 037,7
To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	805,3	2056,2	3 072,3	3 773,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	388,4	130,7	274,1	413,2
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	371,9	270,5	404,9	390,7
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarish	176,0	15,9	192,3	175,4
Qog‘oz va qog‘oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	20,4	62,5	146,0	171,9
Boshqa tayyor metal buyumlar ishlab chiqarish	139,3	130,7	91,7	101,7
Kiyim ishlab chiqarish	32,9	63,3	95,0	100,0
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	123,1	86,9	120,0	86,3
Metallurgiya sanoati	31,6	68,4	39,7	56,9
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	42,1	24,7	30,0	52,6
Mebel ishlab chiqarish	35,6	36,8	53,0	50,3
Boshqa tarmoqlar	234,7	282,4	123,3	167,7

Hududiy kesimda 2023-yilda chet el investitsiyalari va kreditlarning asosiy hajmi Urganch (21,8%), Xiva (14,1%) va Qo‘shko‘pir (13,7%) tumanlariga jalb etildi. Chet el investitsiyalarining ekatta ulushi Yangibozor (72,6%), Xiva (66,8%), Urganch (65,2%), Qo‘shko‘pir (63,9%) va Yangariq (51,0%) tumanlariga to‘g‘ri keldi. Xorijiy investorlar uchun eng kam jozibador investitsiya muhiti Tuproqqal'a (14,0%), Xazorasp (13,3%) va Gurlan (10,3%) tumanlariga to‘g‘ri keldi(5-jadval).

5-jadval

2019-2024-yillarda Xorazm viloyati hududlari bo‘yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi dinamikasi

Mintaqalar	2019		2022		2024	
	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, %	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, %	mlrd. so‘m	o‘sish sur’ati, %
Jami viloyat bo‘yicha	8811,6	111,7	18325,8	115,1	21167,9	106,1
Urganch sh.	1924,2	104,0	3178,1	117,5	3383,9	100,8
Xiva sh.	138,3	120,6	229,4	108,3	315,1	109,2
Bog‘ot	284,1	101,7	523,0	110,1	552,7	101,7
Gurlan	376,2	106,0	488,5	104,9	517,2	101,3

Qo‘shko‘pir	196,2	103,6	393,7	101,8	419,1	103,6
Urganch	284,7	110,1	931,4	106,1	912,4	98,7
Hazorasp	4058,5	145,5	505,3	110,8	519,5	101,4
Tuproqqal'a	-	-	9458,5	114,3	11489,9	105,3
Xonqa	513,1	110,4	733,8	107,9	773,4	101,1
Xiva	142,9	114,0	277,5	100,5	346,7	108,3
Shovot	347,9	102,7	668,6	104,8	755,6	105,8
Yangiariq	247,8	97,0	459,1	115,6	603,2	107,8
Yangibozor	297,7	107,3	478,7	123,5	579,2	105,5

Ular viloyatda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining mos ravishda 66% va 15,4% ni tashkil etib, Yangiariq tumani bilan birga eng yuqori o‘sish sur'atlari bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, Shovot, Bog‘ot va Xiva tumanlarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning pasayishi kuzatilmoqda.

Xorazm viloyatining tumanlari va alohida shaharlarining rivojlanish darajasidagi nomutanosibliklarning kuchayishi ularning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi assimmetriyaning oshishiga olib keladi, ya’ni qiyosiy ustunlikka ega bo‘lgan hududiy tuzilmalar ularni yanada oshiradi, turg‘unlikdagi tuzilmalar esa, aksincha, yanada orqada qoladilar.Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirish va ularning eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha loyihalarni amalga oshirish xarajatlarning sezilarli o‘sishiga olib kelmaydi, bu esa Xorazm viloyatiga o‘z moliyaviy resurslari bilan Orol inqirozi va global iqlim o‘zgarishi natijasida yuzaga kelgan xavf va tahdidlarning o‘sish sur’atlariga munosib javob berishga imkon bermaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Конков А.Т. Неравенство регионов как проблема развития в России и Китае. Интернет-журнал СахГУ: «Наука, образование, общество». http://sakhgu.ru/wp-content/uploads/page/record_36653/2017_09 /konkov.pdf;
2. Динамика развития регионов Евросоюза. Бюллетень о текущих тенденциях мировой экономики. / под руководством Леонида Григорьева. Выпуск №27, декабрь 2019. https://ac.gov.ru/files/publication/a/ 15671.pdf;
3. Дж.Блудорн и др. Увеличивающиеся разрывы: региональное неравенство в странах с развитой экономикой. Блог МВФ. https://www.imf.org/ru/News/Articles/2019/10/09/blog-widening-gaps-regional-inequality-within-advanced-economies.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2023 yil 11sentyarbdagi PF-158-son “O‘zbeksiton-2030” startegiyasi to‘g‘risidagi farmoni.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 30 декабрда қабул қилинган ПФ-287-сонли Фармонининг 1-иловасига мувофиқ тузилган //қонунчилик маълумотлари миллий базаси, № 06/22/287/1140
6. Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. Ташкент: Фан, 2002.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 23-noyabrdagi PF-25-sonli “Orolbo‘yi mintaqasida tadbirkorlikni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” Farmoni

ELEKTRON SAVDODA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNI TARTIBGA SOLISH ZARURATI

Iskandarova Munisa Hasan qizi
Toshkent xalqaro universiteti tayanch doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654883

Annotatsiya. *Ushbu maqolada elektron savdoda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarning nazariy asoslari tadqiq etilgan hamda ularni tartibga solish zaruratining ilmiy-iqtisodiy jihatlari yoritilgan. Elektron savdoning rivojlanishi moliyaviy oqimlar, to‘lov tizimlari va ishtirokchilar o‘rtasidagi munosabatlarning murakkablashuviga olib kelayotgani asoslab berilgan. Shuningdek, elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni samarali tartibga solishning ahamiyati, davlatning roli va institutsional mexanizmlarning zarurligi tahlil qilingan. Maqolada xalqaro va milliy tajriba asosida elektron savdo sohasida moliyaviy munosabatlarni tartibga solishga oid ilmiy xulosalar shakllantirilgan.*

Kalit so‘zlar: *elektron savdo, moliyaviy munosabatlar, to‘lov tizimlari, moliyaviy tartibga solish, raqamli iqtisodiyot, davlat tartibga solishi.*

Аннотация. *В статье исследуются теоретические основы финансовых отношений, формирующихся в сфере электронной торговли, а также обосновывается необходимость их регулирования. Показано, что развитие электронной торговли приводит к усложнению финансовых потоков, платежных систем и взаимоотношений между участниками рынка. Проанализирована роль государства и значимость институциональных механизмов в обеспечении устойчивого функционирования финансовых отношений в электронной торговле. На основе международного и национального опыта сформулированы научные выводы, направленные на совершенствование регулирования финансовых отношений в сфере электронной торговли.*

Ключевые слова: *электронная торговля, финансовые отношения, платежные системы, финансовое регулирование, цифровая экономика, государственное регулирование.*

Abstract. *This article examines the theoretical foundations of financial relations arising in electronic commerce and substantiates the necessity of their regulation. It is demonstrated that the development of e-commerce leads to increasing complexity of financial flows, payment systems, and interactions among market participants. The role of the state and the importance of institutional mechanisms in ensuring the effective regulation of financial relations in electronic commerce are analyzed. Based on international and national experience, scientific conclusions aimed at improving the regulation of financial relations in the e-commerce sector are formulated.*

Keywords: *electronic commerce, financial relations, payment systems, financial regulation, digital economy, state regulation.*

Kirish. So‘nggi yillarda raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi natijasida elektron savdo (e-commerce) jahon xo‘jalik tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Elektron savdo nafaqat tovar va xizmatlar ayirboshlash shakllarini o‘zgartirdi, balki moliyaviy munosabatlarning yangi formatlarini, xususan, raqamli to‘lovlar, elektron hisob-kitoblar va masofaviy moliyaviy xizmatlar tizimini shakllantirdi. Jahon banki va UNCTAD (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Savdo va taraqqiyot bo‘yicha konferensiyasi) ma’lumotlariga ko‘ra, elektron savdo global savdo hajmining tobora ortib borayotgan qismini egallab, moliyaviy oqimlarning shaffofligi va tezkorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda [1], [2].

Elektron savdoning kengayishi bilan bir qatorda, unda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni tartibga solish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, elektron to‘lov tizimlarining ishonchliligi, moliyaviy xavfsizlik, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish hamda moliyaviy vositachilar faoliyatini samarali boshqarish masalalari alohida e’tibor talab etadi. Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni aniq va puxta tartibga solish bozor ishtirokchilari o‘rtasida ishonch muhitini mustahkamlaydi hamda raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi [3], [4].

O‘zbekiston Respublikasida ham elektron savdoni rivojlantirish va raqamli to‘lov tizimlarini keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida bank-moliya tizimini isloh qilish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va IT sohasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilgan [5]. Shu bilan birga, elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni tartibga solishning nazariy asoslari va amaldagi mexanizmlarini chuqur ilmiy tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa bo‘lib qolmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi elektron savdoda moliyaviy munosabatlarning nazariy asoslarini yoritish, ularni tartibga solish zaruratini ilmiy jihatdan asoslash hamda O‘zbekiston sharoitida elektron savdo moliyaviy mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Elektron savdo (e-commerce) va uning doirasida shakllanadigan moliyaviy munosabatlar so‘nggi yillarda xorijiy va mahalliy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishiga aylandi. Ilmiy adabiyotlarda elektron savdo asosan raqamli platformalar orqali tovar va xizmatlarni sotish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy, huquqiy va moliyaviy munosabatlar majmui sifatida talqin etiladi. UNCTAD tadqiqotlarida elektron savdo global raqamli iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida baholanib, undagi moliyaviy oqimlar to‘lov tizimlari, platforma vositachiligi va davlat tartibga soluvi bilan uzviy bog‘liqligi ta’kidlanadi [1].

Xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda elektron savdoda moliyaviy munosabatlar asosan uch yo‘nalishda o‘rganilgan: birinchidan, elektron to‘lovlar va hisob-kitob mexanizmlarining samaradorligi; ikkinchidan, platformalar orqali moliyaviy vositachilik munosabatlari; uchinchidan, davlatning tartibga solish va nazorat funksiyalari. Masalan, Laudon va Traver elektron savdoda moliyaviy munosabatlar ishonch, shaffoflik va xavfsizlik omillari bilan chambarchas bog‘liq ekanini ilmiy asoslab bergan [2]. Turban va hamkorlari esa elektron savdoda moliyaviy oqimlarning raqamlashtirilishi tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishini va bozor samaradorligini oshirishini qayd etadi [3].

Alohida tadqiqotlarda elektron savdoda moliyaviy munosabatlarning tartibga solinishi masalasiga e’tibor qaratilgan. OECD(Organisation for Economic Co-operation and

Development) va Jahon banki hisobotlarida elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni tartibga solish davlatlar uchun soliq bazasini kengaytirish, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni cheklashda muhim ahamiyat kasb etishi ta’kidlangan [4], [5]. Shu bilan birga, elektron savdo platformalarida escrow (vositachilik orqali to‘lovni ushlab turish), raqamli identifikatsiya va shaffof hisob-kitob mexanizmlarining joriy etilishi moliyaviy ishonchni oshiruvchi omil sifatida ko‘riladi.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda elektron savdoning iqtisodiyotga ta’siri, raqamli to‘lov tizimlarining rivoji va huquqiy tartibga solish masalalari yoritilgan. Jumladan, mahalliy tadqiqotlarda elektron savdoda moliyaviy munosabatlarning yetarli darajada tartibga solinmagani ishonch muammolariga, norasmiy aylanmaning saqlanib qolishiga va iste’molchilar huquqlarining to‘liq himoyalanmasligiga olib kelishi qayd etilgan [6], [7]. Bu esa elektron savdo sohasida moliyaviy munosabatlarni tizimli va kompleks yondashuv asosida tartibga solish zaruratini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, elektron savdoda moliyaviy munosabatlar faqat to‘lov jarayonlari bilan cheklanmay, balki platformalar faoliyati, davlat nazorati, huquqiy mexanizmlar va ishonch muhitini shakllantirish bilan uzviy bog‘liqdir. Mazkur holat elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni nazariy jihatdan chuqur o‘rganish va ularni tartibga solish bo‘yicha ilmiy asoslangan yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini belgilaydi.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi elektron savdoda yuzaga keladigan moliyaviy munosabatlarni nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etish, ularni tartibga solish mexanizmlarini baholash hamda elektron savdo sharoitida moliyaviy oqimlar va to‘lov tizimlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iborat.Tadqiqot jarayonida elektron savdo va moliyaviy munosabatlar tushunchalarining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilindi, moliyaviy munosabatlarni tartibga solishga oid xalqaro va milliy yondashuvlar o‘rganildi. Shuningdek, elektron to‘lov tizimlarining faoliyati, moliyaviy xavfsizlik va ishonch masalalari, hamda davlatning tartibga solishdagi roli kompleks yondashuv asosida baholandi.

Tadqiqotda tizimli va qiyosiy tahlil, statistik kuzatuv, mantiqiy umumlashtirish, induksiya va deduksiya usullaridan foydalanildi. O‘zbekiston elektron savdo bozori va to‘lov tizimlari misolida mavjud muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Elektron savdoning jadal rivojlanishi iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllarini yuzaga keltirib, moliyaviy munosabatlarning mazmuni va mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy savdo shakllaridan farqli ravishda, elektron savdoda moliyaviy munosabatlar sotuvchi va xaridor bilan cheklanib qolmay, raqamli platformalar, to‘lov provayderlari hamda davlat nazorati institutlari ishtirokida shakllanadi. Bu esa moliyaviy oqimlarning ko‘p bosqichli va murakkab tizimini vujudga keltirib, ularni tartibga solish zaruratini kuchaytiradi [1].Muhokamalar shuni ko‘rsatadiki, elektron savdoda moliyaviy munosabatlarning asosiy muammolari to‘lovlarning xavfsizligi, shaffofligi va ishonchliligi bilan bog‘liq. Xalqaro tajribada elektron savdo platformalarida moliyaviy ishonchni ta’minlash uchun escrow mexanizmlari, raqamli identifikatsiya va tranzaksiyalarni real vaqt rejimida monitoring qilish tizimlari keng qo‘llanilmoqda [2]. Bunday mexanizmlar sotuvchi va xaridor manfaatlarini

muvozanatlash, moliyaviy nizolar sonini kamaytirish hamda elektron savdoga bo‘lgan ishonchni oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston sharoitida elektron savdo sohasida moliyaviy munosabatlar asosan raqamli to‘lov tizimlari orqali amalga oshirilmoqda. Biroq amaliyot shuni ko‘rsatadiki, to‘lov jarayonlarining yetarli darajada tartibga solinmaganligi, platformalar faoliyatining moliyaviy jihatdan aniq reglamentga ega emasligi hamda iste’molchilar huquqlarini himoyalash mexanizmlarining sustligi qator muammolarni yuzaga keltirmoqda [3]. Bu holat elektron savdoda norasmiy aylanmaning saqlanib qolishiga va moliyaviy munosabatlarning shaffofligiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlillar natijasida aniqlanishicha, elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni samarali tartibga solish davlatning institutsional roli bilan bevosita bog‘liq. OECD va UNCTAD tadqiqotlarida davlat tomonidan elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni tartibga solish soliq ma’murchiligi, iste’molchilar huquqlarini himoya qilish va noqonuniy moliyaviy operatsiyalarni cheklash nuqtayi nazaridan muhim omil sifatida baholanadi [4], [5]. Shu jihatdan, normativ-huquqiy bazani takomillashtirish elektron savdoning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni tartibga solish faqat nazorat choralarini kuchaytirish bilan cheklanmasligi lozim. Aksincha, davlat, platformalar va bozor ishtirokchilari o‘rtasida hamkorlikka asoslangan yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron to‘lovlar, vositachilik mexanizmlari va moliyaviy majburiyatlarning aniq belgilanishi elektron savdoda barqaror va ishonchli moliyaviy muhitni yaratishga imkon beradi.Elektron savdoda moliyaviy munosabatlarning chuqurlashuvi raqamli platformalarning iqtisodiy jarayondagi rolini keskin oshirmoqda. Platformalar nafaqat savdo maydoni, balki moliyaviy munosabatlarning faol ishtirokchisi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Ular tranzaksiyalarni tashkil etish, to‘lovlarni qabul qilish, ma’lumotlarni qayta ishlash va nizolarni hal etishda muhim vositachilik funksiyalarini bajaradi. Natijada, elektron savdoda moliyaviy munosabatlar platforma markazlashgan model asosida shakllanib, bu holat ularni tartibga solishda yangi yondashuvlarni talab etadi [6].

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, elektron savdo platformalarida moliyaviy munosabatlarning yetarlicha huquqiy va institutsional jihatdan mustahkamlanmagani bir qator tizimli muammolarni keltirib chiqaradi. Jumladan, tranzaksiyalar bo‘yicha javobgarlikning aniq belgilanmagani, platforma va sotuvchi o‘rtasidagi moliyaviy majburiyatlarning noaniqligi hamda iste’molchilar manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarining sustligi elektron savdo muhitida ishonch darajasini pasaytiradi [7]. Bu esa elektron savdoning iqtisodiy salohiyatini to‘liq ishga solishga to‘sqinlik qiladi.

Muhokamalar davomida aniqlanishicha, elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni samarali tartibga solish uchun differensial yondashuv zarur. Xususan, yirik elektron savdo platformalari bilan kichik onlayn savdo subyektlari o‘rtasidagi moliyaviy munosabatlar bir xil mexanizmlar asosida tartibga solinmasligi lozim. Xalqaro tajribada yirik platformalar uchun alohida moliyaviy majburiyatlar, shaffoflik talablari va hisobot mexanizmlari joriy etilgani, kichik biznes subyektlari uchun esa soddalashtirilgan moliyaviy tartiblar qo‘llanilgani kuzatiladi [8].Shuningdek, elektron savdoda transchegaraviy moliyaviy munosabatlarning kengayishi alohida e’tiborga loyiqdir. Raqamli platformalar orqali amalga oshiriladigan xalqaro savdo operatsiyalari moliyaviy oqimlarning davlat chegaralaridan tezkor o‘tishini ta’minlaydi. Bu holat soliq solish, valyuta nazorati va iste’molchilar huquqlarini himoya qilish masalalarini

murakkablashtiradi. UNCTAD tadqiqotlarida transchegaraviy elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni muvofiqlashtirilgan tartibga solish mexanizmlarini joriy etish zarurligi qayd etilgan [9].

O‘zbekiston sharoitida elektron savdoning kengayishi ichki bozorda raqamli to‘lovlar ulushining oshishiga olib kelmoqda. Biroq mavjud amaliyotda elektron savdoda moliyaviy munosabatlar ko‘pincha an’anaviy savdo uchun mo‘ljallangan me’yoriy-huquqiy normalar asosida tartibga solinmoqda. Bu esa raqamli savdoning o‘ziga xos jihatlarini to‘liq hisobga olish imkonini bermaydi. Natijada, elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni tartibga solishda normativ bo‘shliqlar yuzaga kelmoqda [10].Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni tartibga solish tizimi kompleks yondashuvga asoslanishi lozim. Bunda moliyaviy shaffoflikni ta’minlash, tranzaksiyalar ustidan raqamli nazoratni kuchaytirish va ishonch mexanizmlarini rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida qaralishi zarur. Ayniqsa, elektron savdo ishtirokchilari o‘rtasida moliyaviy majburiyatlarning aniq belgilanishi bozorning barqaror ishlashiga xizmat qiladi [11].

Umuman olganda, muhokama va natijalar elektron savdoda moliyaviy munosabatlarning rivoji davlat, platformalar va iste’molchilar o‘rtasidagi o‘zaro muvozanatga bog‘liqligini ko‘rsatdi. Mazkur muvozanatni ta’minlash elektron savdoni nafaqat iqtisodiy jihatdan samarali, balki ijtimoiy jihatdan ishonchli tizimga aylantirish imkonini beradi.

XULOSA VA NATIJALAR

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, elektron savdoning rivojlanishi moliyaviy munosabatlarning mazmuni va shakllarini tubdan o‘zgartirib, ularni tartibga solishga bo‘lgan ehtiyojni kuchaytirmoqda. Elektron savdoda moliyaviy munosabatlar ko‘p tomonlama xarakterga ega bo‘lib, sotuvchi, xaridor, raqamli platformalar va davlat institutlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar orqali shakllanadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni samarali tartibga solish moliyaviy shaffoflik, to‘lovlar xavfsizligi va ishonch mexanizmlarining mavjudligiga bevosita bog‘liqdir. Ayniqsa, platformalar faoliyatining moliyaviy jihatdan aniq reglamentlanishi va ishtirokchilar o‘rtasidagi moliyaviy majburiyatlarning belgilanishi elektron savdoning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.Olingan natijalar asosida elektron savdoda moliyaviy munosabatlarni tartibga solishda kompleks va muvozanatli yondashuvni joriy etish zarurligi asoslandi. Davlat tartibga soluvi, raqamli platformalar mas’uliyati va bozor ishtirokchilarining manfaatlarini uyg‘unlashtirish elektron savdo sohasida ishonchli va samarali moliyaviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.UNCTAD. Digital Economy Report 2021: Cross-border data flows and development. – Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2021.

2.UNCTAD. E-Commerce and Development Report. – Geneva: United Nations Conference on Trade and Development, 2020.

3.OECD. Consumer Policy and Fraud: Regulation in E-commerce. – Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2019.

4.OECD. The Role of Digital Platforms in the Collection of VAT/GST on Online Sales. – Paris: Organisation for Economic Co-operation and Development, 2020.

5.Laudon, K.C., Traver, C.G. E-Commerce: Business, Technology, Society. – 16th ed. – Pearson Education, 2020.
6.Turban, E., Outland, J., King, D., Lee, J.K., Liang, T.P., Turban, D.C. Electronic Commerce: A Managerial and Social Networks Perspective. – Springer, 2018.
7.World Bank. Digital Economy for Development (DE4D): Policy Toolkit. – Washington, DC: World Bank, 2020.
8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.
9.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Elektron tijoratni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2018.
10.Islomov, B.X., Rahimova, D.Sh. O‘zbekistonda elektron savdoning rivojlanish istiqbollari va muammolari. – Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali, 2021, №4.

APPLICATION AND EFFECTIVENESS OF SMART MANAGEMENT METHODS IN THE RECREATIONAL TOURISM SECTOR OF FERGANA REGION

Isroilova Dildorakhon Tavakalovna
Fergana State University
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654913

Annotatsiya. *Maqolada zamonaviy boshqaruv usullaridan biri bo'lgan SMART boshqaruv usulidan rekreatsion turizm sohasida foydalanish va uning samaradorligi tahlil qilinib rivojlantiruvchi takliflar berilgan.*

Kalit so'zlar: *rekreatsion turizm, SMART boshqaruv, SMART texnologiyalar, raqamli boshqaruv, mehnat resurslari, mehnat unumdorligi, iqtisodiy samaradorlik, daromad, sof foyda, diagnostika.*

Abstract. *The article analyzes the application of SMART management as one of the modern management approaches in the field of recreational tourism and evaluates its effectiveness. Based on the analysis, development-oriented proposals aimed at improving management efficiency and economic outcomes are presented.*

Keywords: *recreational tourism, SMART management, SMART technologies, digital management, labor resources, labor productivity, economic efficiency, revenue, net profit, diagnostics*

Аннотация. *В статье анализируется применение SMART-управления как одного из современных методов управления в сфере рекреационного туризма и оценивается его эффективность. По результатам анализа предложены развивающие рекомендации, направленные на повышение эффективности управления и экономических показателей.*

Ключевые слова: *рекреационный туризм, SMART-управление, SMART-технологии, цифровой менеджмент, трудовые ресурсы, производительность труда, экономическая эффективность, доход, чистая прибыль, диагностика*

Introduction. The SMART management approach is a modern management methodology based on setting goals that are **Specific, Measurable, Achievable, Relevant, and Time-bound** in the process of planning and evaluating organizational activities. Through the SMART approach, objectives are formulated not in vague or general terms, but in a clear and understandable manner. This contributes to the proper distribution of tasks among management entities and enhances coordination within the organization.

The application of the SMART management approach in managing sanatoriums and health resorts increases the effectiveness of strategic decision-making and supports sustainable organizational development.

Advantages of the SMART management approach:

- clarity and precision of objectives
- ability to measure results
- improved planning efficiency
- simplification of control and monitoring processes

- enhanced quality of managerial decisions
- increased motivation
- strategic alignment with organizational goals
- applicability in both practical and scientific research contexts

Methods. The SMART management approach is widely applied in many developed countries, including Japan, Germany, Sweden, Switzerland, France, South Korea, and the United Arab Emirates. The implementation of SMART management inherently requires the adoption of SMART technologies, which support data-driven planning, performance measurement, and effective control mechanisms.

Results. The application of the SMART management approach ensures effective planning and rational utilization of material, financial, and human resources. As a result of clearly defined timelines and structured work planning, labor productivity is observed to increase by **15–30%**.

Expenditures related to material and financial resources decrease by **10–25%** due to the reduction of uncertain decisions and unnecessary costs.

Despite the complexity of planning and execution management in the tourism sector, the timely completion rate of projects reaches **75–95%**.

Revenue (net profit) indicators show an increase of **10–20%** compared to traditional management methods. In organizations that have fully implemented the SMART management approach, overall economic efficiency increases by an average of **15–30%**.

Discussion. The SMART management approach necessitates the use of SMART technologies. In the recreational tourism sector, the essential technologies and technical solutions required for effective SMART management include the following:

1. **Digital Management and Planning Technologies**

✓ SMART Goals Management systems
✓ ERP systems (management of resources, finances, and services)
✓ CRM systems (customer relationship management)
✓ Electronic Document Management Systems (EDMS)
✓ Cloud-based management platforms

2. **Information and Communication & Digital Services**

❖ Online booking and payment systems
❖ Mobile applications (for sanatoriums and recreational facilities)
❖ QR-code information systems
❖ Digital maps and navigation systems (GPS, GIS)
❖ Virtual information stands and digital guides

3. **Smart (SMART) Infrastructure and IoT Technologies**

➢ IoT sensors (monitoring energy, water, and heat)
➢ Smart room technologies
➢ Smart access control systems (RFID, biometric control)
➢ Energy-efficient smart lighting and climate control
➢ Smart security and video surveillance systems

4. **Data Analysis and Monitoring Technologies**

Big Data analytics
Business Intelligence (BI) platforms

Monitoring based on KPI and SMART indicators
Real-time analytics
Dashboards and visual analytics panels

5. **Marketing and Customer Engagement Technologies**

- Digital marketing platforms (SEO, SMM, PPC)
- Personalized services (AI-based)
- Chatbots and virtual assistants
- Online surveys and feedback systems
- Rating and review analysis systems

6. **Employee and Human Resource Management Technologies**

- HRM systems
- Electronic work schedules and shift management
- Evaluating employee performance using SMART KPIs
- Online training and e-learning platforms
- Digital systems for motivation and incentives

7. **Environmental and Sustainable Development Technologies**

- Smart environmental monitoring systems
- Intelligent waste management
- Green energy technologies (solar panels, smart grid)
- Monitoring efficient use of resources
- Evaluation based on sustainable tourism indicators

8. **Medical-Recreational and Wellness Technologies (for Sanatoriums)**

- Electronic Health Records (EHR)
- Telemedicine
- Smart diagnostic equipment
- Digital monitoring of treatment processes
- Wearable health monitoring technologies

Conclusion. The implementation of SMART technologies and tools in the recreational tourism sector contributes to the digitalization of management processes, enhances labor productivity, improves economic efficiency, and elevates the quality of services. As a result of adopting the SMART management approach, labor productivity in organizations has been observed to increase by an average of **15–30%**, while expenditures decrease by **10–25%**, significantly improving overall economic efficiency.

Currently, the establishment of SMART management in recreational tourism enterprises highlights the need to attract both domestic and foreign investments to the sector. Modernizing the industry and transforming management practices enables organizations to gain a competitive advantage, achieve global recognition, and improve service quality, ultimately fostering a physically healthy, mentally alert, and spiritually energized workforce.

REFRENCES

1. **Doran G. T.** There's a S.M.A.R.T. way to write management's goals and objectives. *Management Review*, 70(11), 1981, 35–36-betlar.
2. **Armstrong, M.** *A Handbook of Human Resource Management Practice*. London: Kogan Page, 2014.

3. **Drucker, P. F.** *Management: Tasks, Responsibilities, Practices*. New York: Harper & Row, 2008.
4. **Kotler, P., Bowen, J., Makens, J.** *Marketing for Hospitality and Tourism*. Pearson Education, 2017.
5. **Buhalis, D.** Tourism management and digital transformation. *Tourism Management*, 2019, №51, 123–135-betlar.
6. **Yakubov U.Sh., Vahobov X.** *Rekreatsion geografiya asoslari*. — Toshkent: «Fan va texnologiya», 2012.
7. **Abdullayev Yo.** *Statistika nazariyasi*. — Toshkent: «O‘qituvchi», 2002.
8. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari**
Turizm va sog‘lomlashtirish sohasini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar. — LexUZ milliy ma’lumotlar bazasi.
9. **UNWTO (World Tourism Organization).** *Tourism and Health: Policy and Management Approaches*. Madrid, 2020.
10. **OECD.** *Health Tourism and Wellness Management*. Paris, 2018.

THE USE OF MOBILE APPLICATIONS IN ORGANIZING MARKETING MANAGEMENT OF RECREATIONAL ENTERPRISES AND ITS EFFECTIVENESS

Isroilova Dildorakhon Tavakalovna
Fergana State University
https://doi.org10.5281/zenodo.18654923

Annotatsiya. *Ushbu maqolada rekreatsion korxonalar boshqaruvini tashkil etishda mobil ilova xizmatlaridan foydalanishni tashkil etish va uning samaradorligi haqida tahlil etilgan*

Kalit so'zlar: *rekreatsion turizm, mobil ilova, bronlash, loyalty dasturlar, push-xabar, geo-tergeting, gamifikatsiya, ijtimoiy integratsiya, feedback, personilizatsiya, digital marketing.*

Abstract: *This article analyzes the organization of using mobile application services in the management of recreational enterprises and evaluates their effectiveness.*

Keywords: *Recreational tourism, mobile application, booking, loyalty programs, push notifications, geo-targeting, gamification, social media integration, customer feedback, personalization, digital marketing*

Аннотация: *В данной статье проанализированы организация использования сервисов мобильных приложений в управлении рекреационными предприятиями и оценка их эффективности*

Ключевые слова: *Рекреационный туризм, мобильное приложение, бронирование, программы лояльности, push-уведомления, геотаргетинг, геймификация, социальная интеграция, обратная связь, персонализация, цифровой маркетинг.*

Introduction. Recreational enterprises are organizations that provide tourism services, including sanatoriums, resorts, ecotourism centers, and other leisure facilities. In today's competitive environment, their success largely depends on effective marketing management and interactive communication with customers. From this perspective, the use of mobile applications is becoming an important tool for the efficient implementation of marketing strategies.

Methods. In this study, analytical, descriptive, comparative, and secondary data analysis methods were employed. During the research process, the importance of using mobile applications in the marketing management of recreational enterprises was examined, and the obtained results were generalized.



1-rasm. Mobil ilovalarning rekreatsion marketingdagi roli

Main part. The scientific and technological revolution is rapidly penetrating every field, providing a range of conveniences such as ease, comfort, time savings, and attracting a wide flow of clients. In the tourism sector, the use of modern innovative techniques and technologies not only ensures convenience but also serves as a source of success in the competition.

Mobile applications perform a number of functions in the activities of enterprises providing recreational tourism services:

- **Information dissemination:** promptly delivering news, promotions, and service updates to tourists;
- **Booking and payment:** allowing tourists to easily and quickly book rooms, services, or packages through the app;
- **Interactive communication with tourists:** improving service quality through feedback, ratings, reviews, and chat;
- **Marketing analysis:** tracking user behavior via the app and creating personalized offers;
- **Loyalty programs:** managing discounts, bonuses, and promotions through the app.

Additionally, it is important to evaluate the effectiveness of a mobile application. The following criteria determine the app's effectiveness:

1. **User engagement** – how many customers download and actively use the app;
2. **Increase in sales volume** – bookings and service sales made through the app;
3. **Customer satisfaction** – reviews and ratings, as well as feedback received via the app;
4. **Optimization of marketing expenses** – reducing costs for advertising, promotions, and information dissemination;
5. **Data analysis capability** – the ability to adjust strategies by monitoring tourists' behavior.

Strategies for the wide-scale promotion of a mobile application by a tourism and recreational enterprise:

- **Push notification strategy:** sending instant messages about discounts, news, or vacation packages;

- **Geo-targeting:** delivering special offers based on tourists' locations;
- **Gamification:** actively engaging customers by incorporating game elements into the app;
- **Social integration:** allowing users to share their app experiences on social networks;
- **Personalization:** providing advertisements and services tailored to customers' previous purchases and interests.

In developed countries, modern, data-driven methods are widely used to organize tourism marketing. The most commonly applied approaches include:

1. **Digital Marketing**

- **Websites and SEO:** Tourism companies create professional websites and optimize them for search engines to reach a global audience.
- **Social networks:** Advertising campaigns, brand promotion, promotions, and interactive communication with customers through platforms like Facebook, Instagram, TikTok, and LinkedIn.
- **Email marketing:** Sending personalized offers, discounts, and news to customers.
- **Online advertising:** Reaching targeted audiences through Google Ads, programmatic advertising, and remarketing campaigns.

2. **Data-Driven Marketing**

- Analyzing customers' purchasing and search habits;
- Creating personalized offers through tourism agencies' and sanatoriums' CRM systems;
- Forecasting seasonal demand in advance using predictive analytics.

3. **Mobile Marketing**

- Booking, push notifications, and loyalty programs through mobile applications;
- **Geo-targeting:** sending offers based on customers' locations;
- Monitoring customer experiences through apps and personalizing services.

4. **Influencer Marketing and Brand Partnerships**

- Promoting tourism brands through popular bloggers and social media influencers;
- Often, resorts, sanatoriums, or tourism companies organize events with celebrities to promote their brands.

5. **Experiential Marketing**

- Strengthening the brand by creating unforgettable experiences for customers;
- For example, exclusive tour packages, masterclasses, and ecological excursions.

Results: According to statistics, the number of customers booking through mobile applications in the recreational sector is increasing every year. Direct interaction with customers via the app enhances the company's brand image and contributes to its wider promotion. Mobile applications integrated with CRM systems in tourism and recreational enterprises can increase marketing effectiveness by 15–30%.

Conclusion: Mobile applications are an important tool for modernizing marketing management and ensuring effective communication with customers in recreational enterprises. They not only attract customers and increase sales but also optimize internal marketing processes. At the same time, the app's effectiveness is directly related to its functionality, user interface, and marketing strategy. In developed countries, digital and mobile marketing, as well as data-driven approaches, are the main tools in tourism marketing. They enable precise customer segmentation, personalized offers, and increased marketing efficiency.

REFERENCES

1. Yakubov U.Sh., Vaxobov X. **Rekreatsion geografiya asoslari.** – Toshkent: *Fan va texnologiya*, 2012. – 220 b.
2. Abdullayev Yo. **Statistika nazariyasi.** – Toshkent: *O'qituvchi*, 2002. – 50 b.
3. Kotler P., Bowen J., Makens J. **Marketing for Hospitality and Tourism.** – 7th ed. – Pearson Education, 2017. – 720 p.
4. Buhalis D., Law R. Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet. *Tourism Management*, 2008, Vol. 29(4), pp. 609–623.
5. Sigala M. Social media and customer engagement in the tourism industry. *Tourism Management Perspectives*, 2018, Vol. 28, pp. 90–99.
6. UNWTO. **Digital Transformation in Tourism.** – Madrid: World Tourism Organization, 2021.
7. Chaffey D., Ellis-Chadwick F. **Digital Marketing: Strategy, Implementation and Practice.** – 8th ed. – Pearson, 2022.
8. Kaplan A.M., Haenlein M. Users of the world, unite! The challenges and opportunities of Social Media. *Business Horizons*, 2010, Vol. 53(1), pp. 59–68.
9. Mobile Marketing Association. **Mobile Marketing Industry Overview.** – MMA Report, 2020.
10. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi. **Turizm sohasini raqamlashtirish strategiyasi.** – Toshkent, 2023.

STRATEGIC MANAGEMENT OF VOCATIONAL EDUCATION AND TRAINING: A REVIEW OF QUALITY AND LABOR MARKET ALIGNMENT LITERATURE

Karimova Dilfuza Xatamjonovna
PhD Independent Researcher Westminster International University in Tashkent
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654947

Abstract. *Vocational Education and Training (VET) plays an important role in economic development by preparing skilled entry-level professionals. VET managers are central to this process, as they shape institutional structures that support quality management, digital transformation, and benchmarking practices. Through strategic leadership, they enhance educational quality and improve alignment between training provision and labor market demands. Although the significance of VET management is widely recognized, its implementation varies across national contexts. This study reviews international empirical research to examine how VET managers contribute to labor market responsiveness and education–industry cooperation in changing economic environments.*

Key words: *VET management; Strategic Management; Vocational education and training; Quality management; Digital transformation; Benchmarking; Labor market alignment; Education–industry cooperation.*

Annotatsiya. *Kasb-hunar ta'limi iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi, chunki u malakali boshlang'ich darajadagi mutaxassislarni tayyorlaydi. Ushbu jarayonda Kasb hunar maktab va texnikum rahbarlari sifat menejmenti, raqamli transformatsiya va benchmarking amaliyotlarini qo'llab-quvvatlovchi institutsional tizimlarni shakllantirishda markaziy ahamiyatga ega. Strategik yetakchilik orqali ular ta'lim sifati va mehnat bozori ehtiyojlari o'rtasidagi uyg'unlikni kuchaytiradilar. Kasb hunar maktab va texnikum menejmentining ahamiyati xalqaro miqyosda tan olingan bo'lsa-da, uning amaliy mexanizmlari mamlakatlar kesimida farqlanadi. Mazkur tadqiqot xalqaro empirik tadqiqotlarni tahlil qilish orqali Kasb hunar maktab va texnikum menejerlarining mehnat bozoriga moslashuvchanlik va ta'lim–ishlab chiqarish hamkorligini rivojlantirishdagi rolini yoritadi.*

Kalit so'zlar: *Kasbiy ta'lim texnikumlari boshqaruvi; Strategik boshqaruv; Kasb-hunar ta'limi; Ta'lim sifati boshqaruvi; Raqamli transformatsiya; Benchmarking; Mehnat bozori talablari; Ta'lim va sanoat hamkorligi*

In contemporary labor markets characterized by rapid technological change, sectoral restructuring, and shifting skill requirements, vocational education and training systems play a critical role in ensuring workforce relevance and employability. Within these systems, VET managers occupy a pivotal strategic position, acting as intermediaries between education providers, employers, policymakers, and learners. Their decisions influence curriculum design, resource allocation, partnership formation, quality assurance mechanisms, and the responsiveness of training provision to labor market signals. Understanding the role of VET managers is therefore essential for explaining how vocational institutions translate labor market demand into effective educational supply.

The effectiveness of VET in meeting labor market needs does not depend solely on national policies or institutional frameworks, but also on the managerial capacity to interpret demand, coordinate stakeholders, and implement adaptive governance and quality management practices at the institutional and regional levels. VET managers are responsible for operationalizing reforms, integrating industry feedback, adopting digital and organizational innovations, and ensuring continuous improvement under often constrained financial and regulatory conditions. Consequently, examining VET management through the lenses of governance quality, benchmarking, digital transformation, and labor-market alignment provides critical insights into how vocational systems can reduce skills mismatches, address workforce shortages, and enhance graduate employability. This literature review therefore synthesizes key empirical and conceptual contributions that illuminate the mechanisms through which VET managers shape institutional effectiveness and labor market responsiveness.

Accordingly, the reviewed literature is organized around four interrelated managerial mechanisms: governance quality and TQM, digital transformation, benchmarking practices, and systemic management reforms aimed at labor market alignment.

Khurniawan et al. (2021) examine the impact of Total Quality Management (TQM) on School Governance (SG) in Indonesia. Their findings indicate that increased implementation of TQM is associated with higher levels of SG, suggesting a positive relationship between quality management practices and principals' governance approaches. The authors emphasize that *"the role of the principal in implementing SG has an effect on staff development, physical development, and student development."* In practice, the implementation of TQM aimed at meeting customer expectations requires strong leadership in educational governance, supported by discipline among teachers, administrative staff, and students.

The study places particular emphasis on key governance dimensions, including transparency, accountability, responsibility, independence, equality, predictability, participation, and dynamism. The systematic development of these aspects is viewed as a critical factor in enhancing overall school effectiveness. Furthermore, the authors identify a mediating role of SG in the relationship between TQM and school effectiveness. Specifically, higher levels of TQM contribute to improved school governance, which in turn positively influences school effectiveness.

In terms of practical implications, the study highlights the importance for VET stakeholders to strengthen internal management systems through systematic and structured approaches. This involves reinforcing governance principles such as transparency, accountability, responsibility, equality, predictability, participation, and dynamism. Additionally, the authors stress the role of government in establishing supportive ecosystems that enable VET schools to focus intensively on improving school management. Within this context, strategic attention to human resources, methods, materials, and financial resources is considered essential for sustainable improvement.

While quality management and governance frameworks provide structural foundations for institutional effectiveness, emerging evidence suggests that digital transformation increasingly shapes how these managerial principles are operationalized in practice.

Another study by Rauseo et al. (2022) examines the digitization-related development status of vocational schools in Switzerland, with particular attention to the roles of school management members and teachers in digital transformation processes. The findings indicate

that both groups perceive digital transformation in vocational schools as relatively advanced; however, teachers tend to assess the status quo more positively than school management members.

Several factors may explain this divergence in perceptions. School management members typically adopt a broader, system-level perspective and are responsible for a wider range of strategic, organizational, and administrative tasks. As a result, they are more likely to identify digitalization-related weaknesses with greater granularity. In contrast, teachers primarily focus on classroom-level practices, where strategic and organizational dimensions of digital transformation are less visible, potentially leading to more favorable assessments. Another explanation relates to communication patterns within schools: management members are often exposed to problem reports and negative feedback regarding digital transformation but receive limited information about successful implementations, which may contribute to a more critical overall assessment. Additionally, a social desirability effect may influence teachers' responses, as they may feel more directly evaluated, while school management members may consciously or unconsciously downplay the level of digital advancement to justify continued investment and development efforts.

The study further demonstrates that perceptions differ across specific dimensions of digital transformation. Pedagogical IT support as well as strategy and leadership are evaluated more positively by school management members, whereas teachers rate dimensions such as digital competencies of the teaching staff, attitudes, and organizational culture more favorably. This pattern suggests that self-assessment tendencies issues, whereby individuals are inclined to evaluate domains closely associated with their own responsibilities and expertise more positively. In this context, pedagogical IT support and strategic leadership relate primarily to organizational functions overseen by management, while digital competencies, attitudes, and culture are more closely connected to teachers' professional skills and classroom practices. Overall, the study concludes that dimensions associated with school readiness tend to be rated higher by school management, whereas dimensions linked to teacher readiness are evaluated more positively by teachers.

Beyond internal digital capacity, VET managers also rely on external learning mechanisms to guide institutional improvement, among which benchmarking has emerged as a prominent strategic tool.

The study by Prasetyo and Salabi (2023) conducted in Indonesia emphasizes the importance of benchmarking as a mechanism for improving the performance of vocational education and training institutions in Indonesia. Benchmarking is described as a structured process comprising several stages, including planning, analysis, integration, implementation, and maturity. These stages involve identifying areas requiring improvement, learning from the practices of other organizations or competitors, selecting appropriate benchmarking methods, and negotiating standards with external partners.

The study further highlights that benchmarking findings can be effectively used as an evaluation tool to enhance the education service system. In particular, benchmarking outcomes support the translation of findings into planning concepts, organizational restructuring through professional workgroups, the strengthening of cooperation with industry, and the establishment of both internal and external control and supervision mechanisms.

In addition, the implementation of benchmarking contributes to the availability of teacher apprenticeship programs, the distribution of competency certification to students, and the standardization of work practices in accordance with industry norms (Johnston, 2020; Lubis, 2016 as cited by Prasetyo&Salabi, 2023). These measures enable schools to achieve institutional targets by modifying existing systems and adopting best practices from high-performing institutions, thereby shortening learning processes and promoting sustainable quality improvement (Gunasekaran, 2021; Syapsan, 2019 as cited by Prasetyo&Salabi, 2023).

Looking ahead, labor markets are expected to demand graduates who are adaptable to changing environments and assessed not only on academic performance but also on practical competencies. In the context of energy-saving and engineering-related fields, vocational education places strong emphasis on practical training complemented by theoretical instruction to ensure the acquisition of both technical skills and conceptual knowledge. Consequently, the authors argue that vocational teaching, learning, and training integrate practical and theoretical components in ways that provide employment-relevant expertise and remain accessible to students.

Whereas benchmarking emphasizes institutional learning at the organizational level, broader governance challenges become particularly visible in regional and national VET systems.

Kumasheva et al. (2016) examine regional vocational education and training management in Russia, with particular attention to emerging management trends, governance challenges, and mechanisms for aligning VET systems with labor market demands. The authors identify quality improvement as a central trend in VET management, emphasizing graduate employability, mobility of students and teachers, and the expansion of social partnerships between educational institutions, state bodies, and industrial enterprises.

The study highlights significant structural and institutional challenges in VET management, including unclear distribution of responsibilities across federal, regional, and municipal governance levels, weak regional coordination in quality management innovations, and insufficient regulatory frameworks for cooperation between education providers and industry. In addition, financial and economic mechanisms are described as underdeveloped, contributing to imbalances in VET provision across levels, disciplines, and modes of study.

To address these challenges, the authors propose a complex of managerial solutions, including modernization of financial and economic mechanisms, revision of normative and legal frameworks, and the development of adaptive management models grounded in networking, integration, autonomy, participation, and innovation principles. A key contribution of the study is its detailed conceptualization of quality management systems as a strategic instrument for improving both institutional competitiveness and graduate labor market outcomes.

The paper further outlines an implementation model comprising ascertaining, forming, and control stages, supported by empirical evidence from the Tatarstan region. Reported outcomes demonstrate measurable improvements in financing structures, institutional autonomy, stakeholder engagement, and workforce qualification indicators, suggesting the effectiveness of coordinated governance and quality management reforms in the VET sector.

Methodologically, the reviewed studies employ diverse approaches, including survey-based modeling, perception analyses, and regional policy evaluations, allowing for a multidimensional understanding of VET management practices.

Taken together, these studies demonstrate the expanding strategic role of VET managers in mediating labor market demands; however, limited empirical evidence exists on how these mechanisms operate in transitioning and centrally coordinated VET systems, highlighting the need for context-specific investigation.

REFERENCES

1. President of the Republic of Uzbekistan. (2024, October 16). On measures to further improve the system of training qualified personnel in vocational education and to introduce international educational programs (Presidential Decree No. PF–158). National Database of Legislation of the Republic of Uzbekistan (Lex.uz).
2. Abdurakhmanov, K., & Magrupov, A. (2025). Human capital development for the green economy: Labor market demands and vocational education strategies. Iqtisodiyot: Tahlillar va Prognozlar/ Economy: Analysis and Forecasts, 2(30), April–June.
3. Khurniawan, A. W., Sailah, I., Muljono, P., Indriyanto, B., & Maari, M. S. (2021). Strategy for improving the effectiveness of management of vocational school-based enterprise in Indonesia. *International Journal of Education and Practice, 9*(1), 37–48. https://doi.org/10.18488/journal.61.2021.91.37.48
4. Kamasheva, Y. L., Goloshumova, G. S., Goloshumov, A. Y., Kashina, S. G., Pugacheva, N. B., Bolshakova, Z. M., Tulkibaeva, N. N., & Timirov, F. F. (2016). Features of vocational education management in the region. *International Review of Management and Marketing, 6*(1), 155–159.
5. Prasetyo, M. A. M., & Salabi, A. S. (2023). School effectiveness: Institutional benchmarking for vocational high school management. *Jurnal Penelitian dan Pengembangan Pendidikan, 7*(3), 474–483. https://doi.org/10.23887/jppp.v7i3.57587
6. Rauseo, M., Harder, A., Glassey-Previdoli, D., Cattaneo, A., Schumann, S., & Imboden, S. (2023). Same, but different? Digital transformation in Swiss vocational schools from the perspectives of school management and teachers. *Technology, Knowledge and Learning, 28*, 407–427. https://doi.org/10.1007/s10758-022-09631-9

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI

Kazakova Zulayho Salaxiddinovna[1], Shopo‘latov Muxammadali Tal’at o‘g‘li[2], Babaxonova Gulzoda O‘ktamboy qizi[2], Bo‘matov Dilshodbek Fazliddin o‘g‘li[2]

[1]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot va menejment kafedrasi katta o‘qituvchisi

[2]Samarqand davlat vetetinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti 4-bosqich talabalari

https://doi.org/10.5281/zenodo.18654960

Annotasiya. *Ushbu ishda O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlari, ularning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni hamda ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqotda kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat siyosati, normativ-huquqiy baza, soliq va moliyaviy imtiyozlar tizimi tahlil qilingan. Shuningdek, kichik biznesning yalpi ichki mahsulot, bandlikni ta’minlash, aholi daromadlarini oshirish va raqobat muhitini shakllantirishdagi roli o‘rganilgan. Ishda soha rivojiga to‘sqinlik qilayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari, innovatsion faoliyatni kengaytirish hamda tadbirkorlik muhitini yanada yaxshilash bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, bandlik, davlat qo‘llab-quvvatlashi, elektron savdo platformalari; onlayn bank xizmatlari; startaplar va IT-loyihalar; innovatsion texnologiyalar.*

Аннотация. *В данной работе рассмотрены процессы развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Узбекистане, а также их роль и значение в национальной экономике. В исследовании проанализированы государственная политика, направленная на поддержку субъектов малого бизнеса, нормативно-правовая база, а также система налоговых и финансовых льгот. Кроме того, изучена роль малого бизнеса в формировании валового внутреннего продукта, обеспечении занятости населения, росте доходов и развитии конкурентной среды. В работе выявлены основные проблемы, сдерживающие развитие отрасли, и разработаны практические рекомендации по их устранению, расширению инновационной деятельности и дальнейшему совершенствованию предпринимательской среды. Результаты исследования способствуют устойчивому развитию малого бизнеса и частного предпринимательства.*

Ключевые слова: *малый бизнес, частное предпринимательство, экономическое развитие, занятость, государственная поддержка, платформы электронной коммерции, онлайн-банковские услуги, стартапы и IT-проекты, инновационные технологии*

Abstract: *This paper examines the processes of development of small business and private entrepreneurship in Uzbekistan, as well as their role and significance in the national economy. The study analyzes state policies aimed at supporting small business entities, the regulatory and legal framework, and the system of tax and financial incentives. In addition, the role of small business in gross domestic product, employment generation, income growth of the population, and the formation of a competitive environment is explored. The paper identifies key challenges hindering the development of the sector and proposes practical recommendations for*

their elimination, expansion of innovative activities, and further improvement of the entrepreneurial environment. The results of the study contribute to the sustainable development of small business and private entrepreneurship.

Key words: *small business, private entrepreneurship, economic development, employment, state support, e-commerce platforms, online banking services, startups and IT projects, innovative technologies.*

Kirish. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O‘zbekiston iqtisodiyotining eng muhim va tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur soha nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmini oshirish, balki aholi bandligini ta’minlash, daromadlar tengligini yaxshilash, hududlarni kompleks rivojlantirish va bozor mexanizmlarini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy omillardan biri bo‘lib xizmat qilmoqda.

Kichik biznes – bu cheklangan miqdordagi ishchi kuchi va nisbatan kam kapital asosida faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlaridir. Tadbirkorlik esa foyda olish, tavakkalchilik va tashabbuskorlik asosida yangi mahsulot yoki xizmatlarni yaratishga qaratilgan iqtisodiy faoliyatdir. O‘zbekistonda kichik biznes ko‘pincha oilaviy tadbirkorlik, mikrofirmalar, fermer va dehqon xo‘jaliklari, xizmat ko‘rsatish hamda savdo subyektlari shaklida namoyon bo‘ladi.

O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining tarixiy bosqichlari:

1991–2000-yillar: bozor iqtisodiyotiga o‘tishning dastlabki davri. Xususiy mulk shakllandi, tadbirkorlik faoliyatiga ruxsat berildi.

2000–2016-yillar: kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari kuchaydi, bank kreditlari va soliq imtiyozlari joriy qilindi.

2017-yildan hozirgi davrgacha: keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar, ochiqlik siyosati, raqamlashtirish va tadbirkorlikni davlat tomonidan tizimli qo‘llab-quvvatlash bosqichi.

Davlat kichik biznesni rivojlantirishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Bu borada: tadbirkorlik subyektlarini ro‘yxatdan o‘tkazish soddalashtirildi**;** ortiqcha byurokratik to‘siqlar va tekshiruvlar keskin qisqartirildi**;** soliq tizimi soddalashtirilib**,** yagona soliq to‘lovi joriy etildi; tadbirkorlar huquqlarini himoya qiluvchi institutlar faoliyati kuchaytirildi. Bu chora-tadbirlar tadbirkorlik muhitining jozibadorligini oshirdi.

Kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy resurslarga kirish muhim masala hisoblanadi. Shu sababli: tijorat banklari tomonidan imtiyozli kreditlar ajratilmoqda; mikromoliyaviy tashkilotlar faoliyati kengaymoqda; davlat tomonidan subsidiyalar, grantlar va kafolatlar berilmoqda; yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hududlarda tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida: kichik sanoat zonalari tashkil etilib, ularda tayyor infratuzilma yaratilmoqda; qishloq joylarda oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik va servis xizmatlari rivojlantirilmoqda; transport, logistika va energetika infratuzilmasi bosqichma-bosqich yaxshilanmoqda.

Bu esa hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi.

So‘nggi yillarda kichik biznesda: elektron savdo platformalari; onlayn bank xizmatlari; startaplar va IT-loyihalar; innovatsion texnologiyalar asosida ishlab chiqarish keng joriy etilmoqda.

Bu jarayon tadbirkorlik samaradorligini oshirish va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon yaratmoqda.

Kichik biznes va tadbirkorlik aholining katta qismini **ish bilan ta’minlaydi**, o‘rta sinf shakllanishiga zamin yaratadi, ichki bozorni tovar va xizmatlar bilan to‘ldiradi, eksport salohiyatini oshiradi, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi.

2026-yilning 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 1 201,6 mingtani, shundan, kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini qo‘shgan holda) soni 493,0 mingtani, YATTlar soni 284,4 mingtani, dehqon xo‘jaliklari soni 395,6 mingtani, oilaviy tadbirkorlar 5,6 mingtani, hunarmandlar 22,1 mingtani va import tovarlari sotuvchilar 0,9 mingtani tashkil etdi.

1-jadval

Faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik sub’yektlari soni.(2026 yil 1 yanvar holatiga, birlik)

	Jami	shundan	
		Kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini o‘shgan xolda)	YATT, dehqon xo‘jaliklari, oilaviy tadbirkorlar, hunarmandlar va imort tovarlari sotuvchilar
O‘zbekiston Respublikasi	1201612	492993	708619
Qoraqalpog‘iston Resp.	56942	24466	32476
Andijon	122726	29331	93395
Buxoro	73853	30236	43617
Jizzax	94610	22491	72119
Qashqadaryo	68367	37899	30468
Navoiy	40970	21018	19952
Namangan	78263	28510	49753
Samarqand	103852	45452	58400
Surxondaryo	107298	26910	80388
Sirdaryo	35187	13878	21309
Toshkent	91796	46647	45149
Farg‘ona	93394	41870	51524
Xorazm	91884	27746	64138
Toshkent sh.	142470	96539	45931

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi


2026-yil 1-yanvar holatiga faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1000 aholiga nisbatan 31,7 birlikni tashkil qildi. Hududlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlari sonining (har ming aholiga nisbatan) eng yuqori ko‘rsatkichi Jizzax viloyatida 61,0 birlik, Toshkent shahrida 45,3 birlik, Xorazm viloyatida 44,8 birlik va Sirdaryo viloyatida 37,5 birlikni tashkil etdi.

2025-yil 82,4 mingta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi. 2025-yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 30 205 ta, sanoatda 10 490 ta, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 9 924 ta hamda yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 7 262 ta tashkil etilgan.

2025-yilda YAIM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi 923 514,6 mlrd so‘mni tashkil qildi yoki umumiy YAIM hajmidagi ulushi 52,2 % ni tashkil etdi.

1-diagramma

Kichik tadbirkorlik sub’yektlarining YAIMdagi hajmi dinamikasi



2025-yil kichik tadbirkorlik subyektlarining YaIMdagi iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng yuqori ulushi qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 93,1 %, qurilishda – 75,6 %, xizmatlar sohasida – 47,2 % va sanoatda – 28,5 % ni tashkil qildi. 2025-yil kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 383 886,1 mlrd so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi jami hajmdagi ulushi 34,9 % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,8 % ni tashkil qildi.

2025-yil kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 230 926,9 mlrd so‘mni yoki qurilish ishlari jami hajmdagi ulushi 73,6 % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 112,2 % ni tashkil qildi.

2025-yil kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 362 910,0 mlrd so‘mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 61,4 % ni tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 129,9 % ni tashkil qildi.

2025-yil kichik tadbirkorlikning qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligidagi hajmi 495 445,2 mlrd so‘mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 91,9 % ni tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 101,9 % ni tashkil qildi.

2025-yil kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 400 503,2 mlrd so‘mni yoki jami hajmdagi ulushi 83,0 % ini tashkil etdi. 2024-yilning mos davriga nisbatan 109,6 % ni tashkil qildi.

2025-yil kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 595 090,5 mlrd so‘mni yoki jami hajmdagi ulushi 56,7 % ini tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2024-yilning mos davriga nisbatan 114,3 % ni tashkil qildi.

2025-yilning kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmat)lar eksporti hajmi 12,4 mlrd AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 36,6 % ini tashkil etdi.

2025-yilning kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ish va xizmat)lar importining hajmi 25 390,3 million AQSH dollarini yoki jami importning 53,6 % ini tashkil etdi.

2025-yilning avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 52,4 % ni tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2024-yilning tegishli davriga nisbatan 107,2 % ni tashkil qildi. 2025-yilning avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 77,4 % ni, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 106,8 % ni tashkil qildi.

2025-yilning avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 90,6 % ni, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 103,3 % ni tashkil qildi.

2025-yilning avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 95,5 % ni, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 103,0 % ni tashkil qildi.

O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. So‘nggi yillarda ushbu sohani qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar natijasida qulay biznes muhiti shakllandi, tadbirkorlik subyektlari soni oshdi hamda ularning iqtisodiyotdagi ulushi sezilarli darajada kengaydi.

Kichik biznes aholi bandligini ta’minlash, daromadlar manbaini ko‘paytirish, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirish va bozor raqobatini kuchaytirishda muhim rol o‘ynamoqda. Shu bilan birga, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, innovatsion faollikning yetarli emasligi, kadrlar malakasining pastligi kabi muammolar kichik biznes rivojlanishini sekinlashtiruvchi omillar bo‘lib qolmoqda.

Demak, mavjud yutuqlarni mustahkamlash bilan bir qatorda, kichik biznesni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Takliflar.

1. Moliyaviy qo‘llab-quvvatlashni kuchaytirish. Kichik biznes uchun **imtiyozli kreditlar hajmini oshirish** va ularning foiz stavkalarini pasaytirish; Garov ta’minoti yetarli bo‘lmagan tadbirkorlar uchun **davlat kafolatlari mexanizmini kengaytirish**; Startap va innovatsion loyihalar uchun **grantlar va venchur moliyalashtirish** tizimini rivojlantirish.

2. Soliq va ma’muriy muhitni yanada soddalashtirish. Soliq hisobotlarini **to‘liq raqamlashtirish va avtomatlashtirish**; Kichik biznes subyektlari uchun **barqaror va prognoz qilinadigan soliq siyosatini** ta’minlash; Tekshiruvlarni minimal darajaga tushirib, **profilaktik nazoratni kuchaytirish**.

3. Kadrlar salohiyatini oshirish. Tadbirkorlikka oid **kasbiy ta’lim va qayta tayyorlash kurslarini** kengaytirish; Oliy ta’lim muassasalari bilan biznes o‘rtasida **hamkorlikni mustahkamlash**; Yoshlar va ayollar tadbirkorligi uchun **mentorlash dasturlarini joriy etish**.

4. Innovatsiyalar va raqamli texnologiyalarni joriy etish. Kichik biznes subyektlarini **raqamli platformalar va elektron savdoga jalb qilish**; IT, agrotexnologiya va “yashil

iqtisodiyot” yo‘nalishlarida **innovatsion loyihalarni qo‘llab-quvvatlash**; Texnoparklar va biznes-inkubatorlar faoliyatini yanada rivojlantirish.

5. Hududiy kichik biznesni rivojlantirish. Qishloq hududlarida **oilaviy tadbirkorlik va kooperatsiyalarni** kengaytirish; Kichik sanoat zonalarini barcha hududlarda samarali tashkil etish;Mahalliy resurslar va xomashyoni qayta ishlashga yo‘naltirilgan loyihalarni rag‘batlantirish.

6. Eksport salohiyatini oshirish.Kichik biznes subyektlariga **tashqi bozorlarga chiqishda maslahat va axborot yordami** ko‘rsatish; Sertifikatlash va logistika xarajatlarini **qisman subsidiyalash**; Mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish orqali **eksport geografiyasini kengaytirish**.

Taklif etilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni jadallashtirib, iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlaydi, aholi bandligini oshiradi va mamlakatning raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022 — 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60- sonli Farmoni.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "Kichik va o‘rta biznesning iqtisodiyotdagi o‘rnini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida". PF–50-son (2025-yil 19-mart).

3. Abulqosimov H.P., Rasulov T.S. Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning nazariy jihatlari va yo‘nalishlari. Monografiya. – T.: ―Fan va texnologiya, 2017. – 152 bet.

4. Salamov, I., Jonibekov, F., Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2022). The Role of Investments in Ensuring the Economic Stability of Livestock and Prospective Opportunities. INTERNATIONAL JOURNAL OF BIOLOGICAL ENGINEERING AND AGRICULTURE, 1(3), 1-4.

5. Salamov, I., Kazakova, Z. S., Nazarova, M. S., & Jonibekov, F. B. (2022). Prospects for digitalization of order tables in infrastructure development in agriculture of the republic of uzbekistan. 2022.

6. Саламов, И., Жонибеков, Ф. Б., Казакова, З. С., & Назарова, М. Ш. (2022). САМАРҚАНД ВИЛОЯТИНИНГ ИҚТИСОДИЙ ТАРМОҚЛАРИДА ИННАВАЦИЯ ВА РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТНИ ЖОРИЙ ЭТИШНИНГ ИСТИҚБОЛДАГИ ИМКОНИЯТЛАРИ. Current Issues of Bio Economics and Digitalization in the Sustainable Development of Regions (Germany), 482-485.

7. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2023). Paxta-to ‘qimachilik klasterlarida sotish baholarining tahlili. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 2-son.291-296.

8. Kazakova, Z. S., & Aslonov, X. (2023). QISHLOQ XO ‘JALIGINI RIVOJLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI O ‘RNI. The Journal of Economics, Finance and Innovation, 391-398

9. Salaxiddinovna, K. Z. (2023). Methodology of Teaching Economics and Accounting in a Market Economy. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 18, 66-68.

10. Salaxiddinovna, K. Z., & Iskandarovna, I. I. (2024). OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI YETISHTIIRISHNING HUDUDIY JIHATLARI. SO‘NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 7(2), 247-256.

11. Ibrohim Salamov, Maryam Nazarova, Zulayxo Kazakova, Faxriddin Jonibekov, Rizo Kudratov, Oygul Ulmasova, Nasiba Xamdamova. (2024) Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag‘al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 2-son.362-368 b.
12. Nazarova, M. S., & Kazakova, Z. S. (2024). Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(2).
13.Sh, N. M., & Kazakova, Z. S. Oziq-ovqat xavfsizliginita ‘minlashda qishloqxo_ jaligi mahsulotlari yetishtiirishning hududiy jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT Jurnali. 2024 yil. 18-19 aprel. Raqamli iqtisodiyot sharoitida agroiqtisodiyot va buxgalteriya hisobining dolzarb muammolari va ularning yechimlari‖ professor N. Sanayev tavalludining, 85.
14. Sh, N. M., & Kazakova, Z. S. Tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda innovatsion texnologiyalarni qo ‘llashning iqtisodiy samaradorligi YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT Jurnali. 2024 yil. 18-19 aprel.“. Raqamli iqtisodiyot sharoitida agroiqtisodiyot va buxgalteriya hisobining dolzarb muammolari va ularning yechimlari‖ professor N. Sanayev tavalludining, 85.
15. Назарова, М. Ш., Казакова, З. С., & Бердикулов, Р. А. У. (2025). ВОЗМОЖНОСТИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОТ ЭКСПОРТА ФРУКТОВ, ОВОЩЕЙ И ВИНОГРАДА. AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT, 3(2), 188-191.
16. Salaxiddinovna, K. Z. (2023). Methodology of Teaching Economics and Accounting in a Market Economy. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 18, 66-68.
16. Salamov, I., Nazarova, M., Kazakova, Z., Jonibekov, F., Kudratov, R., Ulmasova, O.,... & Xudayberdiyeva, M. R. (2024). Faol tadbirkorlar faoliyatida kambag ‘al oilalarni iqtisodiy-ijtimoiy holatini yaxshilash imkoniyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(2).
17. Казакова, З. С., & Жиянов, Ш. Р. (2025). ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЖИВОТНОВОДСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ. AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT, 3(3), 55-61.
18. Salaxiddinovna, K. Z., & Raxmonberdiyevich, J. S. (2025). OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA QISHLOQ XO‘JALIGI HOLATI TAHLILI. AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT, 3(3), 30-37.
19. Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2024). Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo ‘jaligi mahsulotlari yetishtiirishning hududiy jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
20. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2024). Tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda innovatsion texnologiyalarni qo ‘llashning iqtisodiy samaradorligi. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
21. Kazakova, Z., Abdullayev, S., & Sunnatullayev, M. (2024). Raqamli iqtisodiyotning o ‘zbekistondagi holati va uning rivojlanish istiqbollari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
22. Kazakova, Z., Ulmasov, A., & Botirov, B. (2024). Qishloq xo ‘jaligi iqtisodiyotini rivojlantirishda raqamli texnologiyalarning o ‘rni va ahamiyati. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).

ЎЗБЕКИСТОН ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИНИНГ ЖАҲОН БОЗОРИДА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА СТРАТЕГИК МАРКЕТИНГНИНГ РОЛИ

Кобилова Шозода Тимуровна[1], Исхакова Сарвар Аюбовна[2]
[1]Zarmed университети, [2]Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654968

Аннотация. *Мақолада глобаллашув жараёнида Ўзбекистон туризм саноатининг рақобатбардошлигини шакллантириш ва оширишда стратегик маркетингнинг роли ўрганилган. Халқаро туризм бозорида барқарор рақобатбардошликни таъминлаш учун фақатгина туристик салоҳиятнинг ўзи билан етарли эмаслиги ва бунинг учун тизимли маркетинг воситаларидан фойдаланиш лозимлиги кўрсатилган. PESTLE-таҳлили, 7P маркетинг микс модели ва SWOT-таҳлили каби стратегик таҳлил усулларидан фойдаланган ҳолда, мамлакат туризм саноатининг ривожланишига тўсқинлик қилувчи асосий омиллар аниқланган. Рақамли маркетинг, ҳудудий брендинг ва туризм талабининг мавсумийлигига алоҳида эътибор қаратилган. Омниканалли маркетинг стратегияларини амалга ошириш, туризм маҳсулотларини диверсификация қилиш ва йўналиш брендини ривожлантириш бўйича амалий тавсиялар ишлаб чиқилган. Таклиф этилаётган ёндашувларни амалга ошириш Ўзбекистоннинг глобал туризм бозоридаги мавқеини мустаҳкамлашга ва хизмат кўрсатиш соҳасининг иқтисодий самарадорлигини оширишга ёрдам бериши асослаб берилган..*

Калит сўзлар: *стратегик маркетинг, рақобатбардошлик, туризм соҳаси, хизмат кўрсатиш соҳаси иқтисодиёти, йўналиш, брендинг, рақамли маркетинг, Ўзбекистон.*

Abstract. *This article examines the role of strategic marketing in shaping and enhancing the competitiveness of Uzbekistan's tourism industry in the context of a globalizing global tourism market. It is demonstrated that significant tourism potential alone does not provide sustainable competitive advantages without the use of systemic marketing tools. Using strategic analysis methods, including PESTLE analysis, the 7P marketing mix model, and SWOT analysis, key factors hindering the development of the country's tourism industry are identified. Particular attention is paid to digital marketing, territorial branding, and the seasonality of tourism demand. Practical recommendations are formulated for the implementation of omnichannel marketing strategies, tourism product diversification, and destination brand development. Implementation of the proposed approaches will contribute to strengthening Uzbekistan's position in the global tourism market and increasing the economic efficiency of the service sector.*

Keywords: *strategic marketing, competitiveness, tourism industry, service sector economics, destination, branding, digital marketing, Uzbekistan.*

Замонавий глобал иқтисодий шароитда туризм хизматлар соҳасининг таркибий қисми сифатида эмас, балки миллий иқтисодиётнинг барқарор ўсишини таъминловчи стратегик тармоқ сифатида намоён бўлмоқда. Туризм тармоғи мамлакат ялпи ички маҳсулотини шакллантиришда мультипликатив самарага эга бўлиб, аҳоли бандлигини

ошириш, ҳудудлар инфратузилмасини ривожлантириш ҳамда экспорт хизматларини кенгайтиришда муҳим аҳамият касб этади. Ўзбекистон Республикасида кейинги йилларда туризм соҳасини жадал ривожлантириш, уни иқтисодиётнинг драйвер тармоқларидан бирига айлантириш, рақамли технологияларни кенг жорий этиш ва хизматлар сифатини халқаро стандартларга мувофиқлаштириш давлат сиёсати даражасида белгиланган устувор йўналишлардан бирига айланди.

Шу билан бирга, жаҳон туристик бозорида рақобатнинг кескинлашуви, айниқса Марказий Осиё минтақасида дестинациялар ўртасидаги курашнинг кучайиши шароитида фақатгина бой тарихий-маданий мерос ёки табиий ресурсларга эга бўлиш барқарор рақобатбардошликни таъминлаш учун етарли эмас. Туристик бозорда муваффақиятга эришиш илмий асосланган стратегик маркетинг ёндашувини қўллаш, истеъмолчилар хулқ-атворини чуқур таҳлил қилиш ҳамда ҳудудий имиж ва брендни мақсадли бошқаришни талаб этади. Мазкур тадқиқотнинг долзарблиги Ўзбекистон туризм бозорида мавжуд маркетинг тўсиқларини аниқлаш ва уларни бартараф этишга қаратилган инновацион маркетинг технологияларини ишлаб чиқиш зарурати билан изоҳланади.

Туризм маркетинги ва дестинация рақобатбардошлиги назарий асослари кўплаб хорижий олимлар, жумладан П.Котлер, Д.Бухалис, Ж.Ритчи ва Ж.Кроучларнинг илмий ишларида кенг ёритилган. Хусусан, Ритчи ва Кроуч томонидан ишлаб чиқилган концепцияга кўра, туристик дестинациянинг рақобатбардошлиги қиёсий устунликлар ва бошқарув устунликларининг уйғунлигига боғлиқ бўлиб, маркетинг ушбу икки омилни боғловчи асосий механизм сифатида намоён бўлади. Ушбу тадқиқотда М.Портернинг миллий рақобатбардошлик ромби модели Ўзбекистон туризм бозори хусусиятларига мослаштирилиб, омиллар шарт-шароити, талаб муҳити, қўллаб-қувватловчи тармоқлар ҳамда фирмалар стратегияси ўртасидаги ўзаро боғлиқлик маркетинг нуқтаи назаридан таҳлил қилинди.

Тадқиқот жараёнида сифат ва миқдорий таҳлил усуллари қўлланилиб, макроиқтисодий муҳитни баҳолашда PESTLE таҳлилидан, хизматлар соҳасида маркетинг самарадорлигини ўрганишда эса 7P маркетинг микс моделидан фойдаланилди. Шунингдек, Ўзбекистон туризм соҳасининг минтақавий рақобатбардошлиги Қозоғистон ва Қирғизистон билан солиштирма таҳлил қилинди ҳамда Самарқанд шаҳрида фаолият юритаётган меҳмонхона ва туроператорлар фаолияти асосида эмпирик маркетинг аудити ўтказилди.

Макроиқтисодий муҳит таҳлили натижалари шуни кўрсатдики, сўнгги йилларда визасиз режимнинг кенгайиши, давлат субсидиялари ва инвестициявий қўллаб-қувватлаш механизмлари туризм соҳаси учун қулай имкониятлар яратмоқда. Бироқ, геосиёсий беқарорлик, инфляция жараёнлари, халқаро авиалогистика харажатларининг юқорилиги ва профессионал сервис кадрларининг етишмаслиги соҳанинг барқарор ривожланишига салбий таъсир кўрсатмоқда. Айниқса, рақамли инфратузилманинг етарлича интеграция қилинмаганлиги ва киберхавфсизлик билан боғлиқ хатарлар рақамли маркетинг самарадорлигини чеклаётган омиллар сифатида намоён бўлмоқда.

Самарқанд шаҳри мисолида ўтказилган 7P модели асосидаги маркетинг аудити натижалари меҳмонхона хизматларида моддий муҳит ва умумий сервис сифати нисбатан юқори даражада эканлигини кўрсатган бўлса-да, тарғибот сиёсати ва ходимлар билан боғлиқ омиллар энг заиф нуқталар сифатида аниқланди. Хусусан, ижтимоий

тармоқлардаги контент сифатининг пастлиги, динамик нарх сиёсати ва замонавий рақамли сотув воронкаларининг йўқлиги маркетинг самарадорлигини чеклаётган асосий омиллар қаторига киради.

Таҳлиллар натижасида Ўзбекистон туризм индустриясига хос бўлган бир қатор тизимли муаммолар аниқланди.

Биринчи муаммо туризм секторидаги стратегик ва аналитик заифликлар билан боғлиқ. Кўплаб туристик компаниялар маркетингни асосан тарихий-маданий образ ва “Буюк Ипак йўли” концепсияси атрофида қурмоқда. Бу позициялаш кучли бўлишига қарамай, мамлакат туризм ресурсларининг хилма-хиллигини тўлиқ даражада акс эттирмайди ва юқори даромадли сегментларнинг ривожланишини чеклайди. Масалан, Самарқанд ва Бухорадаги кўплаб компаниялар йиллар давомида асосан стандарт экскурсия пакетларини таклиф этиб келишди. Шу билан бирга, минтақадаги рақобатчи давлатлар турли аудиториялар учун ҳиссий жиҳатдан бой туристик маҳсулотларни шакллантириб, кўпроқ тўловга қодир туристларни жалб этишга эришган.

Иккинчи муҳим муаммо туризм секторида рақамлаштириш даражасининг пастлиги билан боғлиқ. Кўплаб компанияларда тўлиқ ишлайдиган кўп тилли веб-сайтлар мавжуд эмас, CEO даражаси паст, ижтимоий тармоқлардан етарли фойдаланилмайди, халқаро онлайн бронлаш платформаларида фаол иштирок кучсиздир. Натижада кўплаб компаниялар глобал ахборот майдонидан четда қолмоқда. Бу муаммо айниқса Бухоро ва Хива каби ҳудудларда яққол сезилмоқда, чунки кўплаб компаниялар ҳанузгача асосан офлайн реклама услубларига таянмоқда, рақобатчилар эса рақамли маркетинг ва халқаро агрегаторлардан фаол фойдаланмоқда.

Учинчи муаммо маркетинг коммуникацияларининг етарли даражада локализация қилинмаганлиги билан боғлиқ. Кўплаб меҳмонхоналар ва туристик компаниялар асосан рус тилига ва қисман инглиз тилига қаратилган, бироқ Яқин Шарқ, Туркия ва Шарқий Осиё давлатлари бозорларига мослаштирилган коммуникация етарли эмас. Бу эса ишонч даражасининг пасайишига ва рақобатбардошликнинг камайишига олиб келади.

Давлат томонидан олиб борилаётган миллий туризм брендини тарғиб қилиш сиёсатига қарамай, давлат ва хусусий сектор ҳамкорлиги етарлича тизимли эмас. Йирик туризм лойиҳалари кўпинча алоҳида бренд сифатида ривожланади, бу эса ягона мамлакат брендининг кучли таъсирини заифлаштиради.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, Ўзбекистон туризм саноати ривожланишидаги асосий тўсқинликлар маркетинг табиатига эга. Соҳада “маркетинг миопияси” кузатилади, яъни эътибор асосан анъанавий кучли томонларга қаратилиб, янги имкониятлар тўлиқ ишга солинмаяпти. Муваффақиятли фаолият юритаётган компаниялар эса рақамли маркетинг воситаларидан фаол фойдаланмоқда, бозор сегментациясини амалга оширмоқда ва кўп тилли коммуникацияни жорий этмоқда.

Халқаро туризм бозорида барқарор рақобатбардошликни таъминлаш учун тизимли маркетинг воситаларидан фойдаланишни тақозо қилади. Тадқиқот жараёнида сифат ва миқдорий таҳлил усуллари қўлланилиб, макроиқтисодий муҳитни баҳолашда PESTLE

таҳлили, хизматлар соҳасида маркетинг самарадорлигини ўрганишда эса 7P маркетинг микс модели ва SWOT-таҳлили каби стратегик таҳлил усулларидан фойдаланилди.

Ўтказилган PESTLE таҳлили очиқлик сиёсати ва виза режимининг либераллашувини, меҳмондўстликни юқори ижобий омил сифатида ажратса, авиачипталар нархининг юқорилиги, хизмат кўрсатиш соҳасидаги кадрлар "софт скиллс" ва маркетинг кўникмаларига ега эмаслиги, рақамли мавжудлик паст, CEO ва халқаро платформалар билан интеграция етарли эмаслигини кўрсатди.

SWOT таҳлил Ўзбекистон туризм соҳасининг кучли томонлари сифатида бой маданий мерос, хавфсизлик даражасининг юқорилиги ва миллий меҳмондўстлик анъаналарини кўрсатган бўлса, халқаро транспорт харажатларининг юқорилиги, сервис сифатидаги нотекислик ва рақамли маркетингнинг суст ривожланганлиги асосий заиф томонлар сифатида қайд этилди. Шу билан бирга, зиёрат туризми бозорига чиқиш, рақамли технологиялар орқали хизматларни персонификация қилиш ва минтақавий ягона визани жорий этиш каби имкониятлар мавжуд бўлса-да, минтақавий рақобатнинг кучайиши ва глобал иқтисодий беқарорлик муайян хатарларни юзага келтирмоқда.

Тадқиқот натижаларидан келиб чиқиб, Ўзбекистон туризм саноатини ривожлантириш учун қуйидаги маркетинг ечимларини таклиф этамиз:

1. **Омниканал маркетингни жорий этиш:** Туристик маҳсулотларни бир вақтнинг ўзида ижтимоий тармоқлар, мобил иловалар ва глобал брон қилиш тизимлари орқали сотишни йўлга қўйиш. Бунда "Content-first" стратегиясидан фойдаланиб, визуал сторителлингни кучайтириш лозим.
2. **Маҳсулот диверсификацияси:** Анъанавий экскурсиялардан ташқари, "Тажриба туризми" (Experience Tourism)ни ривожлантириш. Масалан, сайёҳ фақат нон ёпиш жараёнини кўрмасдан, унда бевосита иштирок этиши (Master-classes) керак.
3. **Revenue Management тизими:** Меҳмонхоналар ва туроператорлар учун талабнинг ўзгаришига қараб нархларни автоматик тарзда пасайтириш ёки ошириш имконини берувчи дастурий таъминотларни жорий этиш.
4. **Destination Branding:** Ҳар бир вилоятнинг ўзига хос маркетинг логотипи ва "Slogan"ини яратиш. (Масалан: "Samarkand — The Crossroads of Cultures").

Хулоса қилиб айтганда, тадқиқот натижалари Ўзбекистон туризм саноатининг рақобатбардошлиги инфратузилмавий омиллар билан бир қаторда стратегик маркетинг бошқаруви сифатига бевосита боғлиқ эканлигини кўрсатди. Аниқланган тизимли камчиликларни бартараф этиш ва таклиф этилган маркетинг ёндашувларини амалиётга татбиқ этиш орқали мамлакатнинг халқаро туристик рейтинглардаги ўрнини сезиларли даражада яхшилаш ҳамда тармоқ иқтисодий самарадорлигини ошириш имконияти мавжуд.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. Астанакулов О. Ўзбекистонда туризм самарадорлигини баҳолаш ва уни ривожлантириш истиқболлари**.** Qo‘qon Universiteti Xabarnomasi, 2024. 13, 16–21. *https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1014*
2. Buhalis, D. Information Technology for Strategic Tourism Management. Pearson Education, 2022.
3. Котлер Ф. Основы маркетинга. Издательский дом Вильямс, 2007.

4. Тешабаева О.*Туризм соҳасидаги тадбиркорлик корхоналари рақобатбардошлигини оширишнинг назарий ва услубий асослари*. Economics and Innovative Technologies, (2023).11(3), 207–214. https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss3/i21
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 27 июлдаги "Туризм соҳасини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-238-сонли қарори.
6. *Ergasheva Z. B.* The Role of Marketing Strategies and Organizational-Economic Factors in Ensuring Competitiveness in the Tourism Industry. International Multidisciplinary Journal for Research & Development**,** 2025**.** 12(10). *https://www.ijmrd.in/index.php/imjrd/article/view/3914*

DAVLAT MOLIYASI: DAVLATNING MOLIYA TIZIMIDAGI O‘RNI

Komiljonova Sarvinoz[1], Berdiqulova Manzura[2]
[1]Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti
Biznes va Boshqaruv fakulteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalishi talabasi,
[2]Ilmiy rahbar: Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti, Moliya, Bank ishi va Buxgalteriya hisobi kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18654988

Annotatsiya. *Mazkur maqolada* ***davlat moliyasi*** *tushunchasi, uning mohiyati hamda* ***davlatning moliya tizimidagi o‘rni*** *ilmiy-nazariy jihatdan yoritib beriladi. Davlat moliyasining shakllanish manbalari, byudjet tizimi, davlat maqsadli jamg‘armalari va ularning iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, davlat moliyasining iqtisodiyotni tartibga solish, ijtimoiy sohani rivojlantirish va makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashdagi roli ochib beriladi. Maqolada davlat moliyasi orqali qayta taqsimlash munosabatlari, fiskal siyosatning asosiy yo‘nalishlari hamda moliya tizimidagi davlatning yetakchi subyekt sifatidagi vazifalari yoritilgan. Tadqiqot natijalari davlat moliyasining iqtisodiy taraqqiyotdagi muhim o‘rnini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *Davlat moliyasi, moliya tizimi, davlat byudjeti, fiskal siyosat, davlat daromadlari, davlat xarajatlari, maqsadli jamg‘armalar, moliyaviy munosabatlar, iqtisodiy tartibga solish, makroiqtisodiy barqarorlik.*

Tahlil va prognoz natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli platformalar orqali islom moliyasi xizmatlarini joriy etish moliyaviy inklyuziya darajasini oshirish, investitsion faollikni kuchaytirish va real sektorga yo‘naltirilgan moliyalashtirish hajmini kengaytirish imkonini beradi. Xususan, mushoraka, mudaraba, murabaha va ijara (lizing) kabi instrumentlar hududiy biznes subyektlarining moliyaviy yukini kamaytirib, risklarni adolatli taqsimlash orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, tadqiqot Xorazm viloyatida raqamli infratuzilmaning yetarli darajada rivojlanmaganligi, aholining moliyaviy va raqamli savodxonlik darajasining pastligi hamda islom moliyasi bo‘yicha institutsional va normativ-huquqiy bazaning to‘liq shakllanmaganligi kabi cheklovlar mavjudligini aniqladi. Ushbu omillar islom moliyasi xizmatlarining iqtisodiy samaradorligini to‘liq namoyon etishiga to‘sqinlik qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida islom moliyasi xizmatlarini hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda joriy etish va rivojlantirish Xorazm viloyatining barqaror rivojlanishini ta’minlash, bandlikni oshirish, investitsion muhitni yaxshilash hamda ijtimoiy-iqtisodiy nomutanosibliklarni kamaytirishda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv respublikaning boshqa hududlari uchun ham tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan samarali mintaqaviy rivojlanish modeli sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations Development Programme (UNDP) Uzbekistan. Sustainable Development Cooperation Framework (Uzbekistan). Tashkent, 2023.
2. United Nations. Transforming our World: the 2030 Agenda for Sustainable Development. New York, 2015.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov tizimlari va raqamli to‘lovlar bo‘yicha tahliliy ma’lumotlar (yillik/choraklik sharhlar). Toshkent, 2022–2024.
4. United Nations (UN) / UNDP. Digital transformation and sustainable development: analytical materials and policy notes. 2020–2023.

5. Islamic Corporation for the Development of the Private Sector (ICD) va hamkorlar. Islamic Finance Development Report 2023. (Yillik hisobot). 2023.
6. Islamic Financial Services Board (IFSB). FinTech in Islamic Finance: regulatory and supervisory considerations (Technical note/working paper). Kuala Lumpur, 2020.
7. Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. — Ташкент: Фан, 2002.
8. Accounting and Auditing Organization for Islamic Financial Institutions (AAOIFI). Shari’ah Standards (amaldagi to‘plam). Manama, Bahrain.
9. World Bank. Global Findex Database (financial inclusion indicators). Washington, D.C., 2021/2022
10. International Monetary Fund (IMF). Financial Access Survey (FAS): database and methodology notes. Washington, D.C.
11. O‘zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va moliya xizmatlarini raqamlashtirishga oid normativ-huquqiy hujjatlar (farmonlar, qarorlar va konsepsiyalar to‘plami). Toshkent, 2020–2024

THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY IN STATE-OWNED ENTERPRISES

Mavlanov Azod Ulugbekovich
Independent researcher
ОРСИД:0009-0009-7463-3795
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655021

Introduction. The rapid development of the digital economy has become one of the main factors fundamentally changing the activities of state-owned enterprises. Since SOEs today perform not only economic, but also strategic and social tasks, their efficiency, transparency and competitiveness are of great importance for the stability of the national economy. From this point of view, studying the role and significance of the digital economy in the activities of SOEs is scientifically and practically relevant.

Current global trends indicate the widespread introduction of digital management systems, data-based decision-making, e-procurement, Enterprise Resource Planning (ERP) and Customer Relationship Management (CRM) systems, as well as artificial intelligence and Big Data technologies in state-owned enterprises. These trends serve to increase operational efficiency, optimize costs and reduce corruption risks in SOEs.

However, there are also a number of problems in the process of digital transformation. In particular, institutional problems, lack of digital skills, increased information security risks and limited investment opportunities prevent SOEs from fully utilizing the digital economy. Therefore, when implementing digital technologies in scientific research, it is necessary to pay special attention to the quality of management, human resources, regulatory environment, and corporate governance mechanisms.

For these reasons, in order to ensure stability and efficiency in the economy, sharply reduce costs in the public sector and modernize production, introduce lean management, a digital economy and a work method based on international corporate standards in state-owned enterprises, the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan No. F-59 dated November 18, 2025 "On measures to reduce costs and increase efficiency in state-owned enterprises" was adopted. The main goal is to reduce the cost of production and increase the efficiency of operations in enterprises with a state share of 50 percent or more by 2026.

Literature review. The concept of "digital economy" was formed in the last decade of the 20th century. This term was first introduced into scientific circulation in 1995 by Nicholas Negroponte from the University of Massachusetts. Over the past period, various approaches to interpreting the term "digital economy" have been formed in the scientific environment. Many developing economies are gradually transitioning to a digital economy based on developed strategies [7].

The OECD's Digital Economy Outlook defines the digital economy as a general term for markets driven by digital technologies and typically includes the sale of information products and services through e-commerce [8]. Digital technologies here include the Internet, mobile phones, and all other digital means of collecting, storing, analyzing, and sharing information[9].

Thomas Mesenburg has identified three main components of the digital economy [7]:

• E-business infrastructure - technical means, including software, telecommunications networks, human capital, etc.;

• E-business - a way of doing business, i.e. the implementation of processes by organizations using information and communication networks;

• E-commerce - the transfer of goods and services, such as online sales and online booking.

In the most general sense, the digital economy is a part of economic relations mediated by the Internet, mobile communications, and information and communication technologies (ICT). In the modern world, digital technologies create fundamentally new opportunities for the development of interactions between the state, business, and the population, shortening the chain of intermediaries and accelerating various transactions and operations [4].

For a business to function effectively, not just three but many elements are essential in the digital economy, provided by different parts of the infrastructure. The digital economy is not only a powerful and effective tool for implementing the methods of cooperation that are changing the world, but also allows for reducing transaction costs between countries and facilitating market entry [3].

Effective management of the digital economy depends on the ability to accurately assess the value of free digital goods and services. For this reason, new methodologies have been developed that allow us to measure not only how much consumers benefit from digital products, but also what benefits these products bring [2]. In the digital economy, modern scientific approaches and innovations are of paramount importance. This leads to the development of industries with high scientific potential.

Numerous studies devoted to studying the essence of the digital economy show that this economic model provides society with a "digital dividend". These include increased access to markets and market coverage, increased efficiency in domestic and foreign markets, increased labor productivity, reduced transaction costs, increased employment, more complete satisfaction of human needs, increased productivity of working time, reduced poverty, and reduced social polarization in society.

Current digital economy assessments provide important information about the overall impact of the digital economy on the U.S. economy. However, there is potential for the BEA to expand these statistics with a comprehensive digital economy satellite account to more fully reflect the digital economy's contribution to economic growth [1].

Conclusion. State-owned enterprises (SOEs) operate in strategic sectors in many countries and play an important role in economic stability, employment, and the provision of social services. However, these enterprises suffer from low management efficiency, lack of transparency, and inefficient use of resources. Digitization is an important tool in overcoming these problems.

The introduction of digital technologies in SOEs provides an opportunity to automate management processes, increase operational efficiency, optimize costs, and ensure transparency of reporting. Digitization also serves to effectively manage state assets, reduce corruption risks, and increase the adaptability of enterprises to market demands.

At the current stage, it is necessary to focus on a number of priority areas for the effective implementation of the digitization process in SOEs. First of all, the digitization of management and reporting systems is of great importance. The introduction of ERP, CRM, and electronic

document management systems in SOEs serves to automate management processes, increase the speed and accuracy of decision-making. This is an important factor in ensuring the operational efficiency of enterprises.

At the same time, the development of data-driven management is an integral part of digital transformation, allowing real-time monitoring of financial and operational indicators through the use of Big Data and modern analytical platforms. This helps to improve the quality of management decisions and identify risks in advance.

The widespread introduction of e-procurement and transparent tender systems in state-owned enterprises is also one of the important areas. The use of e-procurement platforms enhances the competitive environment, optimizes costs and reduces corruption risks. This process makes it possible to ensure the effective use of state resources.

Since the success of digital transformation is directly related to human capital, increasing human resources requires special attention. Developing digital skills of employees of state-owned enterprises and preparing them to work with modern technologies ensures the sustainability of the digitalization process.

In addition, ensuring information security is one of the important tasks in the digitalization process. In the context of increasing cybersecurity risks, it is necessary to introduce modern technologies and international standards for data protection. This will help maintain the reliability of enterprise information resources. Finally, the successful implementation of digital technologies requires improving the regulatory and institutional environment. The presence of a regulatory and legal framework supporting the digitization process and effective corporate governance mechanisms will create the basis for accelerating digital transformation in state-owned enterprises.

REFERENCE

1. Barefoot, K., Curtis, D., Jolliff, W., Nicholson, J. R., & Omohundro, R. (2018). Defining and measuring the digital economy. US Department of Commerce Bureau of Economic Analysis, Washington, DC, 15
2. Brynjolfsson, E., & Collis, A. (2019). How should we measure the digital economy. Harvard Business Review, 97(6), 140-148.
3. Daniltsev, A. (2018). Risks and Challenges to Trade Within Digital Economy. Торговая политика, 4(16), 45–172.
4. Katasonov, V. (2017). Digital economy the bright future of mankind, or stock bubble? Strategic culture Foundation.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 18 noyabrdagi “Davlat korxonalarida tannarxni kamaytirish va samaradorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi F-59-son Farmoyishi.
6. Pyatkin, V. V., & Kolchin, A. I. (2018). From information society to digital economy or knowledge economy. Vestnik sovremennykh issledovani. Bulletin of Modern Research, (7.1), 22.
7. Guzikova, L. A., & Shagun, V. I. (2019, September). Innovative Ways of Financing Small Business during Economic Crisis. In International Conference on Innovation and Entrepreneurship (pp. 345-XVIII). Academic Conferences International Limited.

OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH

Maxmudova Nargiza Azamat qizi
Tadbirkorlik va Oliy biznes maktabi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655030

Annotatsiya. *Ushbu maqolada OTMlarda moliyalashtirishning hozirgi holati va uni rivojlangan mamlakatlar tajribasidan keng foydalanish asosida takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratilgan.OTM larini moliyaviy qullab –quvvatlashda moliyaviy resurslardan samarali foydalanish masalalari amaliy takliflar bilan boyitilgan.*

Kalit so'zlari*: o'rta va uzoq muddatli moliyaviy resurslar,moliyalashtirish,rejalashtirish, moliyaviy texnika, bashoratlashtirish, formula asosida moliyalashtirish.*

Jahon miqyosida ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish va rivojlantirishga qaratilgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining barqaror rivojlanish maqsadlaridan to'rtinchisi (SDG4) – sifatli ta'limni ta'minlash yo'nalishi, so'nggi yillarda moliyaviy jihatdan muayyan xavotirli tendensiyalarni yuzaga chiqarmoqda. Jumladan, YUNESKOning statistikalar instituti tomonidan dunyo bo'ylab 2002-2022 yillar davomida jahon mamlakatlarining YaIMga nisbatan ta'limga sarflangan mablag'lari hisobotiga ko'ra, 2002 yilda jahon mamlakatlarining ta'limga ajratilgan davlat xarajatlarining YaIM foizidagi ulushini 4%ni tashkil qilgan bo'sa, 2022-yilda esa bu ko'rsatkich eng past darajaga yetgan bo'lib 3,8%ni tashkil qilmoqda[15]. Mazkur 20 yil davomida 2010 va 2020 yillarda ta'limga ajratilgan mablag'larning YAIMdagi ulushi eng yuqori nuqtaga yetib 4,5%, 4,4%ni tashkil qilgan bo'sada, biroq keyingi yillarda muntazam pasayish qayd etilgan. Bu tendensiya, xususan, oliy ta'lim sektorining barqaror moliyalashtirilishini ta'minlash masalasini kun tartibiga qo'ymoqda. Shu bois, oliy ta'limga ajratilayotgan mablag'larning samaradorligi va yetarliligi global miqyosda chuqur tahlil va strategik yondashuvni talab etadi.

Xalqaro darajada ta'limning asosiy bo'g'ini bo'lgan oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy rejalashtirish amaliyotini takomillashtirish masalasi turli jihatdan tadqiq qilinmoqda.

Yangi O'zbekiston sharoitida jadallik bilan amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida oliy ta'lim muassasalari, jumladan nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari va talabalar soni keskin ortib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalari turli tashkiliy huquqiy shaklida rivojlanib, nodavlat hamda davlat oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish va boshqarish tamoyillari ham tubdan o'zgarib bormoqda. Davlatimizda yuksak va yuqori malakali kadrlarni tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish oliy ta'lim muassasalari oldiga bir nechta vazifalarni yuklaydi. Jumladan, OTMlarida moliyalashtirish va barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan islohotlarni amalga oshirish dolzarb masalaga aylana boshladi. Bu esa o'z navbatida nodavlat oliy ta'lim tashkilotlarining moliyaviy rejalashtirish jarayonining ilmiy asosni ishlab chiqish hamda bu boradagi keng qamrovli tahlillar amalga oshirish zaruratini joriy, 2019-yil 8-oktyabridagi PF-

[15] Qarang: UNESCO Institute for Statistics (UIS). (2025). *Government expenditure on education, total (% of GDP)*. UIS.Stat Bulk Data Download Service. Retrieved April 5, 2025, from https://data.worldbank.org/indicator/SE.XPD.TOTL.GD.ZS?end=2022&start=2002

5847-sonli “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 24-dekabrdagi PQ-61-sonli Davlat oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy mustaqillik berish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qarori, 2024-yil 24-maydagi PF-81-son Oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga qabul

qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi farmoni, 2025-yil 29 yanvaridagi 49-son Oliy ma’lumotli kadrlarga davlat buyurtmasini shakllantirish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi qarorlari hamda sohaga tegishli bo‘lgan boshqa bir qancha normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi.

OTMlarda moliyaviy rejalashtirishni samarali amalga oshirish uchun uning vaqt bo‘yicha tasniflanishi ham muhim ahamiyatga ega. Quyida moliyaviy rejalashtirishning vaqt bo‘yicha asosiy turlarini keltirib o‘tishimiz mumkin. *Qisqa muddatli moliyaviy rejalashtirish.* Davomiyligi bo‘yicha 1-yilgacha bo‘lgan davrni qamrab oladi.

O‘rta muddatli moliyaviy rejalashtirish. Davomiyligi bo‘yicha 1 yildan 5 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi.

Uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirish. Davomiyligi bo‘yicha 5 yildan ortiq muddatni o‘z ichiga oladi. Bu tasniflash har bir tashkilotga jumladan OTMlarga o‘z faoliyatini vaqt bo‘yicha optimallashtirish va resurslarni samarali taqsimlash imkonini beradi (1-jadval).

1-jadval.

Qisqa, o‘rta va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishning asosiy xususiyatlari[16]

Kategoriya	Qisqa muddatli	O‘rta muddatli	Uzoq muddatli
Reja xususiyati	Byudjetlashtirish	Moliyaviy rejalashtirish	Moliyaviy strategiya
Muddatliligi	Yillik	2-5 yil	3-10 yil va yuqori
Maqsadning mujassamligi	Hisobdorlikka qaratilgan	Ijroga yo‘naltirilgan	Transformatsiya
Bashoratlash darajasi	Risk	Risk/noaniqlik	Noaniqlik
Moliyaviy texnika	Baholash	Istiqbollash	Ssenariy qurish
Foydalanilgan ma’lumotni aniqlik darajasi	Yuqori	O‘rtacha	Past

1-jadvalda qisqa, o‘rta va uzoq muddatli moliyaviy rejalashtirishning asosiy xususiyatlari tasvirlangan. Qisqa muddatli rejalashtirish yillik byudjetlashtirishga asoslangan bo‘lib, maqsadi hisobdorlikka qaratilgan va foydalanilgan ma’lumotlarning aniqlik darajasi yuqori hisoblanadi. O‘rta muddatli rejalashtirish 2-5 yillik davrni qamrab olib, ijroga yo‘naltirilgan maqsadlar bilan ajralib turadi. Uzoq muddatli rejalashtirish esa 3-10 yil va undan ko‘proq davrga mo‘ljallangan bo‘lib, moliyaviy strategiyani ishlab chiqishga qaratilgan va transformatsiyaga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Oliy ta’lim muassasasini moliyaviy rejalashtirish amaliyoti mohiyati haqida fikr bildiradigan bo‘lsak, bu OTMlarning moliyaviy maqsadlarini aniqlash, ularga erishish uchun zarur bo‘lgan resurslarni taqsimlash va boshqarish jarayoni deb tushunishimiz mumkin. Bundan tashqari, bu amaliyot ta’lim muassasasida ta’lim sifati,

[16] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

OTMning o‘quv-uslubiy, ilmiy faoliyati va infratuzilmalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliyot ham hisoblanadi.

Aksariyat oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy rejalashtirish nuqtai nazaridan kuzatiladigan asosiy fundamental strategiya masalasi qanday qilib ushbu ta’lim muassasasi o‘zining oldiga qo‘ygan missiyasiga samarali resurs sarflari evaziga erishishi hamda o‘zining mustahkam maqomini saqlab qolishi mumkin degan qarash atrofida shakllanadi deyish mumkin. Shu maqsadda eng avvalo OTMlarning moliyaviy rejalashtirish strategiyasini yaxshi anglab yetishimiz kerak. Bir so‘z bilan aytganda moliyaviy rejalashtirish strategiyasi bu biror oliy ta’lim muassasasining uzoq muddatga mo‘ljallangan moliyaviy resurslarini taqsimlash va belgilash borasidagi moliyaviy rejasi hisoblanadi.

Dunyoning turli davlatlarining oliy ta’limida moliyaviy rejalashtirish amaliyotini o‘rganar ekanmiz, ularda eng ko‘p qo‘llaniladigan asosiy moliyaviy rejalashtirish turlarini sanab o‘tishimiz lozim deb hisoblaymiz. Jumladan:

Markazlashgan moliyaviy rejalashtirish – ushbu turdagi moliyaviy rejalashtirishda, moliyaviy boshqaruv va resurslarni taqsimlash jarayonlari bilan bog‘liq qarorlar OTMning markaziy idorasi tomonidan qabul qilinadi. Odatda ushbu idora OTMning moliya bo‘limi hisoblanadi. Ushbu moliyaviy rejalashtirishdan, Markaziy Osiyo mamlakatlari, Buyuk Britaniya (Oksford Universiteti), Fransiya, Singapurdagi OTMlari foydalanishadi.

Markazlashtirilmagan (departamentli) moliyaviy rejalashtirish – ushbu moliyaviy rejalashtirishda OTMlarining har bir bo‘limlari o‘zlariga tegishli byudjetlar hamda moliyaviy rejani mustaqil ravishda belgilashadi. Mazkur moliyaviy rejalashtirishning afzalligi, akademik hamda administrativ bo‘limlarning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda moliyalashtirilishni tashkil etish imkoniyatining mavjudligidadir. Ushbu moliyaviy rejalashtirish, Germaniya OTMlarida kuzatiladi. *Strategik moliyaviy rejalashtirish* – mazkur moliyaviy rejalashtirish uzoq muddatli yondashuv bo‘lib, ta’lim sifatini oshirish, tadqiqot imkoniyatlarini kengaytirish yoki infratuzilmani rivojlantirish kabi OTMlarning maqsad va ustuvorliklarini o‘z ichiga oladi. Ushbu moliyaviy rejalashtirishdan asosan, Buyuk Britaniya OTMlari (masalan, Kembridj va Edinburg), Germaniya, Skandinaviya mamlakatlari (Norvegiya, Shvetsariya) OTMlari foydalanishadi.

Yevropa Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish. Yevropada davlat mablag‘larining taqsimotiga keladigan bo‘lsak, mablag‘lar ko‘pincha loyiha shaklida taklif qilinadi, bunda tadqiqot uchun katta mablag‘lar ajratiladi. Yevropa OTMlarini moliyalashtirish mexanizmi bir nechta tarkibiy qismlardan iborat bo‘lib, asosiy davlat mablag‘lari odatda OTMlarga **“Blok grant”** shaklida taqsimlanadi. Yevropa OTMlarida blok grantlar turli moliyalashtirish mexanizmlari orqali taqsimlanadi, ushbu mexanizmlar quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Natijaga asoslangan moliyalashtirish (Performance-Based Funding)


Formula asosida moliyalashtirish (Formula-Based Funding

Tarixiy moliyalashtirish (Historical Allocations

Maxsus Samaradorlik Shartnomalari (Specific Performance Contracts

Amerika Qo‘shma Shtatlarida davlat oliy ta’lim muassasalari (OTMlar) turli manbalar orqali moliyalashtiriladi. Bularga federal, shtat va mahalliy hukumatlar tomonidan ajratiladigan mablag‘lar, talabalar tomonidan to‘lanadigan o‘quv to‘lovlari, jamg‘armalardan olinadigan investitsiya daromadlari va boshqa kichikroq daromad manbalari kiradi. Quyidagi

1-rasmda Amerika Qo‘shma Shatlaridagi davlat oliy ta’lim muassasalarining moliyalashtirish manbalari ko‘rsatib o‘tilgan.



1-rasm Amerika Qo‘shma Shtatlarida davlat oliy ta’limini moliyalashtirishi, 2024-yil[17]

Yuqorida keltirilgan 1-rasm orqali AQSH davlat oliy ta’lim muassasalarining asosiy moliyalashtirish manbalari hamda ularning oliy ta’lim muassasalari uchun qanday ajratilishi to‘g‘risida batafsil ma’lumot olish mumkin. Umuman olganda AQSH oliy ta’lim muassasalarining 42% davlat OTMlari hisoblanib ular asosan davlat mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladi. Qolgan qismi xususiy oliy ta’lim tashkilotlari hisoblanib, ular asosan xususiy moliyalashtirishga tayanadi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta’minlash maqsadida qator me’yoriy hujjatlar asosida islohotlar amalga oshirilganligini guvohi bo‘lmoqdamiz hamda ushbu qonun hujjatlari doirasida moliyaviy rejalashtirish amaliyotini takomillashtirishda muhim o‘rin egallamoqda.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. S. Buzrukxonov. Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida oliy ta’limni moliyalashtirishni takomillashtirish. –.TMI, 04.04.2022;
2. M. Saidov. «Oliy ta’lim menejmenti va iqtisodiyoti» “Moliya”-2002;
3. A. Maxmudov. «Oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish» dissertatsiya avtoreferati. Toshkent 2019 yil.
4. A. Sherov. Foreign experience in financing of higher educational system, Journal of Economy and Business, 2019. vol.5-1, 41-43.
5. Sh. Valiyev. Oliy ta’lim muassasalarida xarajatlarni moliyalashtirish amaliyotini takomillashtirish, Toshkent, 2024, Avtoreferat.
6. G.Karlibaeva. Oliy ta’lim muassasalari moliyaviy resurslari shakllanish tizimini boshqarish amaliyotining tahlili, Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil IV son-aprel, 2024. 111-121b.
7. P.Karaev. Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishning xorij tajribalari, Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot, 2024-yil, avgust. № 8-son, 1171-1174 b.
8. M.Tashkhodjaev. Directions for the development of financial management in the higher education system: a case study of Uzbekistan, American Journal of Innovative Research and Applied Sciences, 2023. 139-144p.
9. Sherov. A, G.Ruzmetova. O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi borasida amalga oshirilayotgan islohotlar va uni moliyalashtirishning dolzarb masalalari, Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences,

[17] Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISH OMILLARI

Muradova Ra’no Anvarovna
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Buxgalteriya va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655042

Annotatsiya. *Maqolada Raqamli transformatsiya sharoitida O‘zbekiston tijorat banklarida xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish omillari tahlil qilingan. Shuningdek tadqiqot raqamli iqtisodiyotning ijtimoiy boshqaruv mexanizmlariga ta’sirini o‘rganadi. Shuningdek, u ijtimoiy islohotlar va uzoq muddatli raqamli iqtisodiyot kabi bilvosita ta’sirlarni yoki vositachilik kuchlarini o‘z ichiga oladi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, tijorat banki, xizmat ko‘rsatish, raqamli bank, raqamli strategiya, bank infratuzilmasi, bank tizimi.*

Аннотация. *В статье проведён анализ факторов повышения качества обслуживания в коммерческих банках Узбекистана в условиях цифровой трансформации. Кроме того, исследование направлено на изучение влияния цифровой экономики на механизмы социального управления. Также рассматриваются косвенные воздействия и посреднические факторы, такие как социальные реформы и долгосрочное развитие цифровой экономики.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, коммерческий банк, оказание услуг, цифровой банк, цифровая стратегия, банковская инфраструктура, банковская система.*

Abstract. *The article analyzes the factors contributing to the improvement of service quality in commercial banks of Uzbekistan under conditions of digital transformation. In addition, the study examines the impact of the digital economy on social governance mechanisms. It also considers indirect effects and mediating factors, such as social reforms and the long-term development of the digital economy.*

Keywords: *digital economy, commercial bank, service delivery, digital banking, digital strategy, banking infrastructure, banking system.*

Raqamli iqtisodiyot ijtimoiy boshqaruvning samarali mexanizmini ishlab chiqishda muhim rol o‘ynaydi. Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, raqamli iqtisodiyot ijtimoiy islohotlarga, barqaror raqamli iqtisodiyotga va ijtimoiy boshqaruv mexanizmlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu shuni ko‘rsatadiki, raqamli iqtisodiyotning gullab-yashnashi barqaror raqamli iqtisodiyotga hissa qo‘shadi. Raqamli iqtisodiyotning o‘sishi samaradorlikni oshirishi va global va mintaqaviy iqtisodiyotga foyda keltirishi mumkin bo‘lsa-da, u barqaror rivojlanish muammolarini ijtimoiy nuqtai nazardan hal qilishning ajralmas vositasidir ya’ni ijtimoiy tarmoqlar va turmush tarzi, shu jumladan iqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy tengsizlikning o‘sishi tahdidlari va atrof-muhit farovonligi uchun buzuvchi raqamli texnologiyalar tomonidan qo‘llaniladigan foyda yoki xarajatlar.

So‘nggi o‘n yillikda global moliya bozorida kechayotgan jarayonlar bank tizimi uchun mutlaqo yangi raqobat sharoitini shakllantirdi. Fintex kompaniyalari, raqamli to‘lov

platformalari, elektron hamyonlar va texnologik gigantlarning moliyaviy xizmatlarga kirib kelishi an’anaviy tijorat banklarini o‘z biznes-modellarini qayta ko‘rib chiqishga majbur qilmoqda[1]. Endilikda banklar uchun asosiy raqobat ustunligi nafaqat foiz stavkalari yoki filiallar soni, balki raqamli kanallar orqali tez, qulay va xavfsiz xizmat ko‘rsatish darajasi bilan belgilanmoqda.

O‘zbekiston bank tizimi ham ushbu global tendensiyalardan chetda emas. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, bank sektorini isloh qilish bo‘yicha qabul qilingan Prezident farmon va qarorlari, Markaziy bankning raqamlashgan to‘lov tizimlarini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuslari natijasida so‘nggi yillarda tijorat banklarida raqamli xizmatlarning ulushi sezilarli darajada oshdi. Mobil ilovalar, internet-banking, masofaviy hisob-kitoblar, onlayn konversiya va QR-to‘lovlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Biroq, raqamli xizmatlar joriy etilishi avtomatik tarzda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifati oshishini anglatmaydi. Aksincha, yangi texnologiyalar mijozlar kutishlari darajasini keskin oshiradi: foydalanuvchilar tezkor, xatolarsiz, 24/7 rejimida ishlaydigan, interfeysi sodda va intuitiv bo‘lgan ilovalarni talab qiladilar. Shu bilan birga, har qanday texnik nosozlik, tranzaksiyaning kechikishi yoki xavfsizlik bo‘yicha noaniqlik mijoz ishonchi va sadoqatining tez pasayishiga olib kelishi mumkin. Demak, raqamli transformatsiya jarayonida banklar uchun asosiy chaqiriqlardan biri – raqamli servislar sifati va mijoz tajribasini tizimli boshqarishdir[2].

O‘zbekiston sharoitida bu masalaning dolzarbligi bir necha omillar bilan belgilanadi:

- aholining raqamli savodxonligi hududlar bo‘yicha notekisligi;
- internet tezligi va qamrovining shahar va qishloq o‘rtasida sezilarli farqlanishi;
- naqd pul muomalasi ulushining hali ham yuqoriligi;
- an’anaviy filial va kassalarga psixologik bog‘liqlik;
- raqamli firibgarliklar va kiberxavfsizlikka oid xavotirlar[3].

Shu jihatdan qaralganda, tijorat banklari uchun yagona “universal” raqamli yechim emas, balki segmentatsiyalashgan va moslashtirilgan raqamli strategiyalar zarur bo‘ladi. Masalan, yirik shaharlarda istiqomat qiluvchi yoshlarga yo‘naltirilgan mobil super-ilovalar birlamchi ahamiyatga ega bo‘lsa, ayrim tumanlarda POS-terminallar tarmog‘ini kengaytirish, agent-banklar va mini-filiallar orqali raqamli to‘lovlarni sodda shaklda taklif qilish afzal bo‘lishi mumkin[4].

Bu sharoitda mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilish faqat texnik infratuzilmani yangilash bilan cheklanmaydi. U quyidagi yo‘nalishlarni ham qamrab olishi zarur:

1. Mijozga yo‘naltirilgan boshqaruv madaniyati – bank ichki jarayonlarini “mijoz yo‘li xaritasi” (customer journey map) asosida qayta ko‘rib chiqish, har bir nuqtada mijoz tajribasini o‘lchash va yaxshilash.
2. Raqamli va an’anaviy kanallar integratsiyasi – filial, call-markaz, mobil ilova, veb-sayt va chat-botlarni yagona ekotizim sifatida boshqarish, mijoz qayerga murojaat qilmasin, bir xil standartdagi xizmatni olishini ta’minlash.
3. Kadrlar salohiyatini oshirish – xodimlarning raqamli servislar bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirish, ularni “raqamli maslahatchi” darajasiga olib chiqish.
4. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven) – mijozlar xatti-harakati, tranzaksiya tarixi, murojaatlar statistikasi va tahliliga asoslangan holda qarorlar qabul qilish, personalizatsiya qilingan takliflar ishlab chiqish[5].

Raqamli xavfsizlik va ishonch – mijozlarni kiberxavfsizlik bo‘yicha muntazam xabardor qilish, ikki faktorli autentifikatsiya, limitlar va monitoring tizimlari orqali ishonchni mustahkamlash. O‘zbekiston Respublikasi bank tizimining zamonaviy rivojlanish bosqichi nafaqat texnologiya va operatsiya jarayonlarini, balki banklarning mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarini ham tubdan o‘zgartirib, ularni faol raqamli transformatsiya jarayoni bilan tavsiflanadi. Xizmatlarni raqamlashtirish, masofaviy xizmatlarni joriy etish, jarayonlarni avtomatlashtirish va omnikanal platformalarni rivojlantirish tijorat banklari kundalik faoliyatining ajralmas qismiga aylanmoqda. Bunday sharoitda mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatiga baho berish ahamiyati tobora ortib bormoqda. Chunki aynan ushbu omil mijozning bankka sodiqligi, qoniqish darajasi va kelgusida hamkorlikni davom ettirish niyatini belgilab beradi. Shu bilan birga, hududiy filiallar o‘rtasidagi infratuzilmaviy va raqamli farqlar xizmat ko‘rsatish darajasini qabul qilishga jiddiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

So‘nggi yillarda milliy bank tizimida tezkor to‘lov tizimlari, kontaktless va QR-to‘lovlar, biometrik identifikatsiya, masofadan hisob ochish va onlayn kreditlash kabi funksiyalar bosqichma-bosqich joriy etilib, raqamli ekotizim shakllanmoqda. Raqamli kanallarning kengayishi, bir tomondan, operatsion xarajatlarni qisqartirsa, ikkinchi tomondan, mijozlar uchun 24/7 rejimida xizmatlardan foydalanish imkoniyatini yaratadi. Shu bois, zamonaviy bosqichda banklar raqamli infratuzilmani rivojlantirish bilan bir qatorda, mijoz tajribasini (customer experience) tizimli o‘rganish va boshqarishni strategik ustuvor yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqmoqda.

Empirik tahlil va matematik modellashtirish natijalariga tayanib, «Sanoatqurilishbank» ATB ning Surxondaryo viloyatidagi filiallarida mijozlarga xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash uchun bir qator kompleks optimallashtirish yondashuvlari taklif etildi. Ushbu yondashuvlar raqamli transformatsiyaning dolzarb talableri va bank faoliyatining amaldagi holatini hisobga olgan holda ishlab chiqildi.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlar shartli ravishda quyidagi uchta yo‘nalishga bo‘lindi:

- filiallarda operatsion jarayonlarni optimallashtirish;
- raqamli kanallarni rivojlantirish va raqamli ishtirokni oshirish;
- mijozlarga xizmat ko‘rsatish muhitini (komfort, infratuzilma, muloqot madaniyati) yaxshilash[6].

O‘zbekiston tijorat banklarida, xususan, “Sanoatqurilishbank” ATB misolida raqamli transformatsiya jarayonlari shuni ko‘rsatmoqdaki, mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini yangilash tasodifiy choralar emas, balki aniq strategiyalar majmuasi asosida olib borilishi lozim. Tadqiqot natijalari va milliy raqamli siyosat hujjatlaridan kelib chiqib, quyidagi asosiy strategik yo‘nalishlarni ajratish mumkin.

Mazkur strategiya bankning ichki jarayonlarini “mijoz yo‘li xaritasi” (customer journey map) asosida qayta ko‘rib chiqishga qaratilgan. Har bir mijoz aloqa nuqtasida (filial, mobil ilova, call-markaz, veb-sayt, chat-bot va h.k.) qanday tajriba olayotgani muntazam o‘lchanishi va tahlil qilinishi zarur. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mijozlar uchun eng muhim omillar – operatsiyalar tezligi, interfeysning sodda va tushunarli bo‘lishi, xodimlarning muloqot madaniyati hamda xavfsizlikka bo‘lgan ishonchdir.

“Sanoatqurilishbank” ATB uchun ushbu strategiya doirasida: mijozlarning raqamli va an’anaviy kanallardan foydalanishdagi asosiy “og‘riqli nuqtalar”ini aniqlash, shikoyatlar va takliflar bazasini tahlil qilish, har bir segment bo‘yicha mijoz tajribasini yaxshilash rejasini

ishlab chiqish taklif etiladi. Bu strategiya mijoz qoniqishi va sadoqatini oshirish uchun barcha tashkiliy o‘zgarishlarning markaziga aynan mijoz manfaatini qo‘yishni nazarda tutadi.

Raqamli transformatsiyaning asosiy talablaridan biri – bankning barcha xizmat ko‘rsatish kanallarini yagona ekotizim sifatida boshqarishdir. Omnikanal strategiya doirasida filiallar, mobil banking, internet-banking, call-markaz, bankomat va infokiosklar, chat-botlar bir-birini to‘ldiruvchi, uzluksiz mijoz tajribasini ta’minlovchi tizimga aylantirilishi lozim.

“Sanoatqurilishbank” ATB mijozlari misolida bu strategiya quyidagilarni nazarda tutadi: mobil ilovaga filialda boshlangan operatsiyani uyda davom ettirish imkonini berish, raqamli kanallarda yaratilgan shaxsiy kabinet ma’lumotlarini filial xodimlari ham ko‘rishi va foydalanishi, call-markaz orqali kelgan murojaatlarni raqamli tizimda ro‘yxatga olib, ularning yechimini kuzatish. Bunda mijoz qayerga murojaat qilmasin, bankni “bir butun tashkilot” sifatida qabul qiladi, bu esa sadoqatni kuchaytiradi.

Raqamli transformatsiya sharoitida eng katta ustunliklardan biri – katta hajmdagi ma’lumotlar (big data) bilan ishlash imkoniyatining paydo bo‘lishidir. Ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv strategiyasi bankka mijozlar xatti-harakati, tranzaksiya tarixi, raqamli kanallardan foydalanish faolligi, shikoyatlar statistikasi va boshqa ko‘rsatkichlarni tahlil qilgan holda qaror qabul qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda SPSS asosidagi regressiya va faktor tahlili raqamli xizmatlar sifati ko‘rsatkichlari bilan mijozlarning raqamli sadoqati o‘rtasida mustahkam bog‘liqlik mavjudligini ko‘rsatdi. Shu asosda “Sanoatqurilishbank” ATB uchun raqamli xizmatlar sifatini monitoring qilish bo‘yicha doimiy indeks joriy etish, UX-metrikalarni (ilovaning ochilish vaqti, muvaffaqiyatli tranzaksiyalar ulushi, xatoliklar chastotasi, sessiya davomiyligi) KPI tizimiga kiritish tavsiya etiladi.

Kelgusida sun’iy intellekt asosidagi tavsiya tizimlari, firibgarlikni aniqlash modullari, kredit risklarini baholash algoritmlarini joriy etish ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv strategiyasining mantiqiy davomi bo‘lib xizmat qiladi.

Raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyati faqat texnik infratuzilmaga emas, balki kadrlar salohiyati va ichki boshqaruv madaniyatiga ham bog‘liq. Ushbu strategiya bank xodimlarini “faqat operatsion ijrochi” emas, balki “raqamli maslahatchi” darajasiga ko‘tarishni nazarda tutadi.

Bu yo‘nalishda “Sanoatqurilishbank” ATB uchun: raqamli bank mahsulotlari, kiberxavfsizlik, mijoz bilan samarali muloqot, ma’lumotlar maxfiyligi kabi yo‘nalishlarda muntazam treninglar tashkil etish; hududiy filiallar rahbarlari uchun alohida “raqamli liderlik” dasturlarini joriy etish; raqamli loyihalarda ishtirok etgan xodimlarni rag‘batlantirish tizimini kuchaytirish zarur. Bunday o‘zgarishlar raqamli servislarni “faqat texnik loyiha” emas, balki butun jamoa qadriyatiga aylantirishga yordam beradi.

Tadqiqotda qayd etilganidek, O‘zbekistonda raqamli savodxonlik, internet tezligi va infratuzilma darajasi hududlar bo‘yicha sezilarli farq qiladi. Shu bois mijozlarga xizmat ko‘rsatish tizimini modernizatsiya qilishda “hamma uchun bir xil yechim” emas, balki hududiy segmentatsiya asosida moslashtirilgan strategiya qo‘llanishi lozim.

“Sanoatqurilishbank” ATB Surxondaryo viloyatidagi filiallari uchun POS-terminallar va agent-banklar tarmog‘ini kengaytirish, sodda va ko‘p trafik talab qilmaydigan mobil ilova versiyasini taklif etish, qishloq hududlarida raqamli savodxonlik bo‘yicha maqsadli tushuntirish ishlarini yo‘lga qo‘yish maqsadga muvofiqdir. Bu strategiya moliyaviy inklyuziyani

kengaytirish, chekka hududlarda ham mijozlarga sifatli raqamli xizmatlar taklif qilishga xizmat qiladi.

Raqamli bank xizmatlarida eng nozik jihatlardan biri – kiberxavfsizlik va mijoz ishonchi. Tadqiqot davomida mijozlar orasida raqamli firibgarlik, ma’lumotlarning uchinchi shaxslarga berilishi, mobil ilova orqali pul yo‘qotish xavfi bo‘yicha xavotirlar mavjudligi aniqlangan. Shu bois raqamli xavfsizlikni kuchaytirish va bu borada ochiq kommunikatsiya yuritish alohida strategik yo‘nalish bo‘lishi zarur.

Mazkur strategiya doirasida ikki faktorli autentifikatsiya, tranzaksiya limitlari, shubhali operatsiyalarni avtomatik bloklash kabi texnik choralarga qo‘shimcha ravishda, mijozlarni muntazam ogohlantirish, kiberxavfsizlik bo‘yicha “oddiy til”da tushuntiruvchi kontent tayyorlash, mobil ilova ichida xavfsizlik bo‘yicha interaktiv yo‘riqnomalar joylashtirish taklif etiladi. Bu, o‘z navbatida, raqamli xizmatlarga bo‘lgan ishonchni oshiradi va sadoqatni mustahkamlaydi.

Tadqiqot doirasida jahon va milliy tajriba tahlili shuni ko‘rsatdiki, zamonaviy banklar uchun raqamli servislarni joriy etishning o‘zi yetarli emas, ular sifatini miqdoriy baholash hamda mijoz tajribasi, qoniqishi va raqamli sadoqat bilan tizimli bog‘lash zarur. Shu maqsadda O‘zbekistonning bir qator yirik va o‘rta tijorat banklari misolida raqamli xizmatlar sifati, mobil va internet-bankingdan foydalanish faolligi, mijozlarning xavfsizlik, qulaylik va tezlikka doir tasavvurlari o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar asosida raqamli xizmatlar sifatining integrallashgan ko‘rsatkichlari shakllantirildi hamda ular mijozlarning raqamli kanallardan qayta foydalanish niyati va bankni tavsiya qilish darajasi bilan matematik jihatdan bog‘lab chiqildi.

Tadqiqot natijalari mijoz segmentlari bo‘yicha (yakka tartibdagi mijozlar, kichik biznes, o‘rta va yirik korxonalar) raqamli ehtiyoj va kutishlar sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatdi. Shunga muvofiq, universal yagona raqamli mahsulotlar to‘plami o‘rniga segmentatsiyalashgan takliflar paketi va differensial xizmat ko‘rsatish standartlarini qo‘llash zarurligi asoslandi. Ayniqsa, kichik biznes va hududlarda faoliyat yurituvchi tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan interfeys, tezkor onlayn maslahatlar va masofaviy kreditlash tizimlari raqamli sadoqatni oshirishda muhim omil ekanligi amaliy tahlillar orqali tasdiqlandi.

Tadqiqot obyekti sifatida olingan banklar raqamli platformalarining kuchli va zaif tomonlarini tahlil qilish natijasida bank boshqaruvi uchun aniq yo‘nalishlar tavsiya etildi. Jumladan, raqamli xizmatlar sifatini monitoring qilish bo‘yicha muntazam indeks joriy etish, foydalanuvchi tajribasini o‘lchovchi ko‘rsatkichlarni (UX-metrikalar) KPI tizimiga kiritish, raqamli xavfsizlikka doir kommunikatsiyani kuchaytirish va raqamli savodxonlikni oshirish bo‘yicha maqsadli dasturlarni yo‘lga qo‘yish taklif qilindi. Shuningdek, filial tarmog‘ini “raqamli maslahatchi markazlari”ga bosqichma-bosqich transformatsiya qilish va xodimlarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish zarurligi ilmiy-amaliy jihatdan asoslab berildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan yondashuv va tavsiyalar O‘zbekiston tijorat banklari uchun raqamli transformatsiyani faqat texnologik modernizatsiya sifatida emas, balki mijoz tajribasini markazga qo‘ygan, ma’lumotlarga tayanuvchi va bozor sharoitlariga tez moslasha oladigan biznes-model sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa uzoq muddatda banklarning raqobatbardoshligini oshirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo‘shish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. World Bank, International Monetary Fund. Uzbekistan – Financial Sector Assessment. FSAP – Financial Sector Assessment Program. Washington, DC: World Bank Group. Elektron manba:https://www.coursehero.com/file/71825630/BFS-in-Uzb-ppt-group-no-1pptx/
2. Devex. Sanoat Qurilish Bank (SQB) institutional profile. Elektron manba:https://www.devex.com/organizations/sanoat-qurilish-bank-192273
3. London Stock Exchange. Regulatory News Service (RNS) disclosures. Elektron manba:https://www.rns-pdf.londonstockexchange.com/rns
4. Green Policy Platform. Uzbekistan’s Sanoat Qurilish Bank and green finance initiatives. Elektron manba:https://www.greenpolicyplatform.org/news/uzbekistans-sanoat-qurilish-bank
5. Appfigures. Top finance applications on Google Play in Uzbekistan. Elektron manba:https://appfigures.com/top-apps/google-play/uzbekistan/finance
6. Мурадова Р.А. Повышение эффективности цифрового обслуживания клиентов: финансовый анализ и перспективы развития АКБ «Саноаткурилишбанк». — В сб.: Интеллектуальный потенциал России – 2025. Материалы научной конференции, 28 мая 2025 г., г. Иркутск.

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MINTAQANI BARQAROR RIOJLANTIRISH OMILLARI

Nazarov Jahongir Bahromovich
Abu Rayhon beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655049

Annotatsiya. *Maqolada mintaqani barqaror riojlantirish omillarini baholash uslubiyati tahlil qilingan. Xorazm viloyati misolida barqaror rivojlanishni ishtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatlari baholangan.*

Аннотация. *В статье проанализирована методология оценки факторов устойчивого развития региона. На примере Хорезмской области дана оценка социально-экономических и экологических аспектов устойчивого развития.*

Abstract. *The article analyzes the methodology for assessing factors of sustainable regional development. Using the example of the Khorezm region, the socio-economic and environmental aspects of sustainable development are evaluated.*

Ka’lit so‘zlar: *Mintaqa, barqaror rivojlanish, omilli tahlil, barqarorlik, integral indeksi, iqtisodiy o‘sish.*


Ключевые слова: *Регион, устойчивое развитие, факторный анализ, устойчивость, интегральный индекс, экономический рост.*

Keywords: *Region, sustainable development, factor analysis, sustainability, integral index, economic growth.*

Hududlarning iqtisodiy salohiyati to‘liq ishga solinmaganligi, ya’ni respublika dasturlarini ishlab chiqishda hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari yetarlicha hisobga olinmaganligi; agrar sektor ustunlik qilgan holda hududlar iqtisodiyotining mavjud tarkibi saqlab qolishi; to‘g‘ridan-to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb qilish va hududlarning raqobatli ustunliklarini amalga oshirishda sezilarli mintaqaviy nomutanosibliklar; mahalliy byudjetlar shakllantirilishida mintaqaviy infratuzilma va innovatsion ekotizimni rivojlantirishni hamda ekologik muammolar va boshqa masalalarni hal etish imkoniyatlarini cheklaydigan darajada moliyaviy bazaning yetarli emasligi; resurslarning mavjudligi va bozor imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish o‘rtasidagi nomutanosiblik, xalqaro va mintaqalararo iqtisodiy integratsiyaning yetarli darajada rivojlanmaganligi; mintaqaviy menejment (iqtisodiy qarorlar qabul qilish, tarmoq yondashuvi, strategik rejalashtirish usullaridan foydalanish va boshqalar) va marketingning (tarmoq marketingi imkoniyatlaridan foydalanish, hududlarning brend-imidjini shakllantirish va boshqalar) yetarli darajada rivojlanmaganligi; aholining farovonligi, oziq-ovqat xavfsizligi va iqtisodiy farovonligiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan yer-suv resurslari taqchilligining (miqdor va sifat jihatidan) mavjudligi; “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish bo‘yicha mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish (qayta tiklanuvchi va vodorod energetikasi, 2030-yilga borib ularning ulushini 25 foizga yetkazish) orqali atrof-muhitga bo‘lgan bosimni kamaytirish zarurati; alohida mintaqalar bo‘yicha (Orolbo‘yi misolida) ekologik keskinlikni kamaytirish bo‘yicha maxsus dasturlar va chora-tadbirlar qabul qilish zarurati[1].

Mintaqalar iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga xizmat qiladigan omillarni aniqlash muhim hisoblanadi. Uslubiy yondashuvning asosini barqaror o‘sishning turli jihatlarini aks


ettiruvchi makroiqtisodiy (iqtisodiy o‘sish, inflyatsiyani targetlash, investitsiya dasturlari, byudjet munosabatlari va boshqalar), institutsional (xalqaro standartlarga muvofiqlashtirilgan qonunchilik normalari, hududlarni rivojlantirish institutlari, “yashil o‘sish”ni qo‘llab-quvvatlash va boshqalar) va davlatlararo (Orol dengizi muammolari, transchegaraviy suv resurslari, atrof-muhitga chiqindilar, maxsus jamg‘armalar va boshqalar) omillar tashkil etdi (1-rasm).



1-rasm. Hududlarni barqaror rivojlantirishning omilli tahliliga uslubiy yondashuv

Tahlil jarayonida dastlab barqaror rivojlanishni baholash uchun ko‘rsatkichlarni to‘rt guruhga: atrof-muhitga antropogen bosimni tavsiflovchi (ifloslantiruvchi moddalar emissiyasi, tabiiy resurslar iste’moli), tabiiy resurslar holatini aks ettiruvchi (havo va suv sifati, bioxilma-xillik), inson salomatligi va ijtimoiy farovonlikka ta’sirini baholovchi, shuningdek, javob choralarini tavsiflovchi (qonunchilik, ekologik texnologiyalarga investitsiyalar) ko‘rsatkichlarga ajratishni nazarda tutadigan IHTT metodologiyasi qo‘llanildi. Natijada keng doiradagi ekologik

muammolarni qamrab olgan va atrof-muhit holatini hamda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini kompleks baholash imkonini beradigan 134 ta ko‘rsatkichdan iborat ro‘yxat shakllantirildi.



2-rasm. Mintaqaning barqaror rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy va ekologik jihatlarni hisobga olgan holda baholash

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish dasturi 2030-yilgacha bo‘lgan eng yaqin maqsadlarni o‘z ichiga oladi, u farovonlikni yaxshilash (kambag‘allikni bartaraf etish choralari) va tabiatni muhofaza qilish, shuningdek,...“iqlim o‘zgarishi va atrof-muhitni muhofaza qilish”ni hisobga olgan holda iqtisodiy o‘sish, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va ish bilan ta’minlash sohasidagi bir qator masalalarni hal qilishga qaratilgan. Maqsadlar BMTga a’zo barcha davlatlar, shu jumladan, O‘zbekiston tomonidan ham ma’qullandi. Ular 17 ta maqsadni o‘z ichiga oladi, konsepsiya global xarakterdagi tavsiyalar shaklida shakllantirilgan 169 ta aniq vazifadan iborat[2].

Barqaror rivojlanishning milliy strategiyasini amalga oshirish mintaqalarning barqaror iqtisodiy rivojlanishini talab qiladi. Chunki ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ustuvor yo‘nalishlari o‘rtasida shakllanadigan o‘zaro bog‘liqlik barqaror iqtisodiy rivojlanish muammolarini batafsil o‘rganish va ularning yechimiga mahalliy darajada ustuvorlik berish zarurligini tasdiqlaydi.

Bizning fikrimizcha, hozirgi vaqtda iqtisodiy nazariyada barqaror rivojlanish konsepsiyasining o‘rni inson faoliyatining atrof-muhitga ta’sirini tavsiflovchi jarayonlarni o‘rganish orqali belgilanmoqda. Barqaror rivojlanish nazariyasining shakllanishi jamiyat rivojlanishi muammolarining kelib chiqish manbalari, ularning oqibatlari, inson, jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarning rivojlanish yo‘nalishlari va bosqichlarini tahlil qilish, shuningdek, ular orasidagi iqtisodiy munosabatlarni tizimlashtirish uchun asos yaratish zarurati bilan bog‘liq.

Mintaqaviy rivojlanishning tabiiy-ekologik tarkibiy qismi hamda tabiiy resurslardan foydalanish hajmining tobora ortib borishi uning barqaror rivojlanishida ekologik-iqtisodiy jihatga ustuvorlik berish zarurligini belgilaydi.

Fikrimizcha, O‘zbekiston Respublikasi, jumladan, Xorazm viloyatining barqaror rivojlanishini ta’minlash mintaqaning iqtisodiy rivojlanishini prognozlash jarayoniga ekologik va ijtimoiy omillarni integratsiyalashni talab etadi[3]. Bu ekologik va ijtimoiy muammolarning salbiy oqibatlarini kamaytirish, aholining turmush sifatini oshirish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, ijtimoiy xarajatlarni kamaytirish va barqaror rivojlanish uchun muhim qadam bo‘lgan iqtisodiy rejalashtirishda ekologik va ijtimoiy omillarni uyg‘unlashtirish bo‘yicha yondashuvlar va chora-tadbirlar ko‘rib chiqiladi.

O‘zbekiston mintaqalari bo‘yicha demografik ma’lumotlarning qiyosiy tahlili mamlakatning barcha hududlarida aholi sonining barqaror o‘sish tendensiyasini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, Xorazm viloyati aholisining umumiy aholi sonidagi ulushi deyarli o‘zgarishsiz qolmoqda, mos ravishda 5,4% atrofida bo‘lib, bu aholi o‘sishining ushbu hududlar va mamlakatning qolgan qismi o‘rtasida teng taqsimlanishini ko‘rsatadi (1-jadval).

1-jadval

O‘zbekiston mintaqalarida demografik va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlari dinamikasi

№	Nomi	2021		2022		2023	
		soni	ulush, %	soni	ulush, %	soni	ulush, %
1.	**Aholisi (ming kishi)**						
1.1	O‘zbekiston Respublikasi	34558,9	100	35271,3	100	36024,9	100
1.2	Xorazm viloyati	1893,3	5,48%	1924,2	5,46%	1958,1	5,43%

2.	**Aholi jon boshiga yalpi daromad (ming so‘m)**						
2.1	O‘zbekiston Respublikasi	12122,2	100	14869,8	100	17807,3	100
2.2	Xorazm viloyati	12270,6	101,23%	15756,4	106,00%	19643,5	110,29%
3	**Aholi jon boshiga o‘rtacha oylik iste’mol xarajatlari (ming so‘m)**						
3.1	O‘zbekiston Respublikasi	780,8	100	939,1	100	1156,9	100
3.2	Xorazm viloyati	814,5	104,31%	857,2	91,31%	1345,2	116,26%
4.	**Mehnat resurslari soni (ming kishi)**						
4.1	O‘zbekiston Respublikasi	19158,2	100	19334,9	100	19517,5	100
4.2	Xorazm viloyati	1044,8	5,45%	1047,1	5,42%	1050,9	5,38%
5	**Ishsizlik darajasi (yil oxirida %)**						
5.1	O‘zbekiston Respublikasi	1561,0	100	1441,8	100	1332,7	100
5.2	Xorazm viloyati	88,1	5,64%	80,0	5,55%	73,7	5,53%

Xorazm viloyatida barqaror o‘sish sur’atlari mamlakatimizdagi o‘rtacha ko‘rsatkichlardan yuqori bo‘lsa, Qoraqalpog‘iston Respublikasida aholi turmush darajasini oshirish va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi tafovutni qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar ko‘rish talab etiladi. Xorazm viloyatida mehnat resurslari ulushining barqarorligi 5,4% atrofida ekanligi ushbu hududlarda ish bilan bandlik tarkibining shakllanganligidan dalolat beradi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Xorazm viloyatida bandlik tarkibining tahlili ushbu hududlarda mehnat resurslari ulushining nisbatan barqarorligi to‘g‘risida xulosa chiqarish imkonini beradi. Shu bilan birga, ishsizlik darajasini pasaytirishning ijobiy tendensiyasi kuzatilmoqda, bu esa iqtisodiy faollikning o‘sishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishini ko‘rsatadi.

Biroq, Xorazm viloyatida bitiruvchilar ulushi mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan past bo‘lib, 68-76% ni tashkil qiladi. Bu esa mintaqada mutaxassislar tayyorlash darajasini oshirish uchun mintaqada ta’lim infratuzilmasi va dasturlarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasida umumiy kasallanish holatlari 2021-yilda 19 368,0 ming holatdan 2023-yilda 21596,5 ming holatgacha oshgan bo‘lib, bu kasalliklar sonining umumiy o‘sishini ko‘rsatadi. Xorazm viloyatida esa kasallanish holatlari 2021-yilda 1 028,6 mingdan 2023-yilda 1 172,0 minggacha oshgan. Viloyatning mamlakat bo‘yicha umumiy kasallanishdagi ulushi 2021-yilda 5,31%, 2023-yilda 5,51% va 2023-yilda 5,43% ni tashkil etgan bo‘lib, bu hududda barqaror va nisbatan yuqori darajadagi kasallanish mavjudligini ko‘rsatadi.

2-jadval

O‘zbekiston Respublikasida va Xorazm viloyatida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi

T/r	Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	2019	2020	2021	2022	2023	O‘zgarish 2023-yilda 2019-yilga nisbatan (+),(-)
1	Donli ekinlar	5,9	5,8	5,6	5,6	5,7	-0,2
2	Paxta xomashyosi	9,8	9,6	8,9	7,8	8,4	-1,4

3	Sabzavotlar	5,8	5,7	5,8	5,7	5,7	-0,1
4	Poliz mahsulotlari	6,7	6,7	6,7	6,7	6,7	-0,1
5	Meva va rezavorlar	5,5	5,5	5,3	5,4	5,4	-0,1
6	Uzum	2,5	2,7	2,8	2,7	2,7	+0,2
7	Go‘sht (tirik vaznda)	6,5	6,4	6,5	6,3	6,4	-0,1
8	Sut	9,7	9,7	9,6	9,5	9,4	-0,3

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki ijtimoiy-iqtisodiy tabaqalanish darajasining pasayishi hududning o‘z salohiyatidan samarali foydalana olishiga bog‘liq. Tadqiqotda hududlarning tabaqalashuv darajasini pasaytirishga ta’sir etuvchi asosiy omillar aniqlangan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat: tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarish ixtisoslashuvini rivojlantirish, inson kapitaliga investitsiyalar, innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash va qulay institutsional muhitni yaratish (3-jadval).

3-jadval.

Mintaqa rivojlanishining differensiatsiyasi va ularning asosiy ekologik-iqtisodiy xususiyatlari (2023 y.)

Xorazm viloyati			
Sanoat	Tuproqqal’a, Yangibozor va Urganch	Xonqa, Shovot va Yangiariq	Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Hazorasp va Xiva
Qishloq xo‘jaligi	Bog‘ot, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Xiva, Yangiariq, Shovot, Xonqa, Urganch va Yangibozor	Tuproqqal’a	Xazarasp
Iste’mol tovarlari ishlab chiqarish	Tuproqqal’a, Xonqa va Urganch	Bog‘ot va Yangiariq	Yangibozor, Gurlan, Qo‘shko‘pir, Hazorasp va Xiva

Mintaqaning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun suv ta’minoti, tuproq sifati, ekotizimlar holati, bioxilma-xillikka ta’sir, chiqindilarni boshqarish va keng doiradagi boshqa o‘zaro bog‘liq omillarni hisobga olish zarur. Ushbu muammolarni hal qilishga kompleks yondashuv atrof-muhitga salbiy ta’sirni minimallashtirish va mintaqaning uzoq muddatli barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta’minlash imkonini beradi.

FOYDALANILAN ADABIYOTLAR

1. United Nations Development Programme (UNDP). Sustainable Development Cooperation Framework for Uzbekistan. – Tashkent, 2023.
2. United Nations. Transforming our World: the 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York, 2015.
3. Рузметов Б. Региональная экономика: опыт, проблемы, эффективность комплексного развития. – Ташкент: Фан, 2002.

ТРАНСФОРМАЦИЯ РЫНКА ТРУДА: ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА И ЗЕЛЁНАЯ ЗАНЯТОСТЬ

Назарова М.Ш.[1], Казакова З.С.[2], Бердикулов Р.А.[3]

[1]Самаркандский государственный университет ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии,старший преподаватель, https://orcid.org/0009-0007-1576-1987,

[2]Самаркандский государственный университе ветеринарной медицины, животноводства и биотехнологии,старший преподаватель,

[3]студент 2-курса экономического факультета

https://doi.org/10.5281/zenodo.18655070

Аннотация. *В статье рассматривается влияние развития зеленой экономики на рынок труда, а также структурные изменения на рынке труда в условиях зеленой экономики. Описание включает меры, предпринимаемые для увеличения доли зеленой занятости в странах мира. Кроме того, анализируются новые зеленые профессии, возникающие в странах с зеленой экономикой, а также направления решения проблемы безработицы среди работников традиционных отраслей. В статье также рассматриваются как положительные результаты и достижения зеленой экономики, так и потенциальные трудности, которые она может вызвать на рынке труда.*

Ключевые слова: *Зелёная экономика, Зелёная занятость, Цифровизация и инновации, Рынок труда, Зелёные отрасли, Возобновляемые источники энергии, переподготовки кадров.*

Введение

Переход к зеленой экономике, направленный на снижение углеродного следа и сохранение экосистем, стал ответом на глобальные климатические вызовы. Этот процесс трансформирует рынок труда, создавая новые профессии и требуя пересмотра традиционных экономических моделей.

Актуальность темы заключается в том, что переход к зеленой экономике представляет собой ключевой фактор, обеспечивающий устойчивый и инклюзивный рост. В условиях глобальных изменений климата и необходимости сохранения природных ресурсов, страны мира, в том числе Узбекистан, должны адаптировать свою экономику, создавая новые рабочие места и поддерживая экологически чистые технологии.

Президент Республики Узбекистан, Ш.Мирзиёев, в своих посланиях и выступлениях часто подчеркивает важность устойчивого развития и перехода к «зеленой» экономике. В частности, в Постановлении Президента от 2025 года «О мерах по повышению эффективности реформ, направленных на переход Республики Узбекистан на «зеленую» экономику до 2030 года» говорится о необходимости внедрения инновационных решений в энергетический сектор и развитии экологически чистых технологий, что является важным шагом в адаптации к глобальным вызовам. Мирзиёев отметил, что для достижения целей устойчивого развития необходимо модернизировать промышленность, развивать возобновляемые источники энергии, а также создавать рабочие места, соответствующие этим новым требованиям.

Целью исследования является проанализировать влияние зеленой экономики на структуру занятости, выявить ключевые тенденции и риски. Зеленая трансформация приведет к росту спроса на «зеленые» профессии, но потребует масштабной переподготовки кадров и может усугубить социальное неравенство.

Обзор литературы

Теоретические основы зеленой экономики и её влияние на рынок труда широко исследованы зарубежными учеными. Среди ключевых авторов, внесших вклад в развитие данной темы, можно выделить Raworth K., Stiglitz J. E., Sen A., Fitoussi J. P., а также Pearce, D. Perkins, R., Markandia A., Barbier E. В исследовании M.I. Aceleanu подчеркивается, что устойчивое развитие в значительной степени достигается за счет создания и развития «зеленых» рабочих мест. Значительный вклад внесли доклады Организации экономического сотрудничества и развития (OECD), в которых анализируются основные механизмы перехода к устойчивому развитию. Исследования показывают, что переход к зеленой экономике сопровождается структурными изменениями на рынке труда. В частности, отмечается трансформация спроса на рабочую силу и необходимость переподготовки кадров для новых видов экономической деятельности. Одним из ключевых аспектов влияния зеленой экономики является создание новых рабочих мест в секторах возобновляемой энергетики, энергоэффективности, экологического инжиниринга и управления ресурсами. Bowen A. и Kuralbayeva K. провели анализ взаимосвязи между зеленым ростом и динамикой занятости в секторах ВИЭ (возобновляемые источники энергии) и энергоэффективности. Их выводы подтверждают, что рост инвестиций в эти отрасли способствует расширению занятости, но требует соответствующей профессиональной подготовки работников. Современные исследования подчеркивают необходимость адаптации образовательных программ под новые требования рынка труда. ЮНЕСКО и Европейский центр развития профессионального образования (Cedefop) анализируют стратегии внедрения экологических компетенций в системы профессионального обучения. В частности, исследования Вудса и Джонсона (2020) демонстрируют, что страны с развитой системой подготовки кадров быстрее адаптируются к изменениям на рынке труда, снижая риски структурной безработицы в ходе перехода к зеленой экономике. Несмотря на очевидные преимущества, исследователи указывают на потенциальные риски и вызовы, связанные с переходом к зеленой экономике. В частности, работы Fankhauser, S., Sehlleier, F., & Stern, N., Capasso, M., & Hansen, T., Pfeiffer, F., & Rennings, K., Nazarova, M., & Kazakova, Z. Бердикулов Р.А. подчеркивают проблемы «зеленого» пузыря и дефиците квалификаций. Критика зеленой экономики также затрагивает вопросы гринвошинга (злоупотребление экологической риторикой без реальных изменений) и социального неравенства. Обзор литературы показывает, что зеленая экономика оказывает двойственное влияние на рынок труда.

Методология исследования

Настоящее исследование направлено на анализ взаимосвязи между процессами перехода к зеленой экономике и трансформацией рынка труда с учетом глобальных тенденций. В ходе исследования применяется комплексный междисциплинарный подход, количественные и качественные методы анализа, сравнительно-статистический метод и анализ вторичных данных. Исследование опирается на данные международных

организаций (ILO, OECD, Всемирный банк, UNDP) и национальных статистических агентств.

Анализы и Результаты

Анализ глобального опыта показывает, что зелёная экономика способствует развитию регионов, укрепляет социальную стабильность и способствует экономическому росту за счёт формирования новых рабочих мест в экологически ориентированных отраслях. С другой страны, целью «зеленой» экономики является экологическая трансформация рынка труда, направленная на минимизацию негативного воздействия экономической деятельности на окружающую среду. Согласно ЮНЕП (Программой ООН по окружающей среде), «зеленой» является такая экономика, которая обеспечивает долгосрочное повышение благосостояния людей и сокращение неравенства, позволяя будущим поколениям избежать существенных рисков для окружающей среды и ее обеднения. Зелёная занятость включает рабочие места, которые способствуют сохранению или восстановлению качества окружающей среды. Международная организация труда (МОТ) определяет зеленые рабочие места как работу в сельском хозяйстве, промышленности, сфере услуг и администрации, направленную на снижение негативного воздействия на экологию. Такие рабочие места обеспечивают достойные условия труда, адекватную заработную плату и социальную защиту работников. Анализ данных Международной организации труда (ILO, 2020) и Всемирного банка (2022) показывает, что переход к устойчивым экономическим моделям оказывает двойственное воздействие на рынок труда:

• Сокращение рабочих мест в традиционных отраслях (добыча угля, нефтегазовый сектор, тяжелая промышленность)

• Создание новых рабочих мест в секторах возобновляемой энергетики, экологического строительства, устойчивого сельского хозяйства и управления отходами Согласно отчетам OECD, к 2030 году ожидается сокращение около 6 миллионов рабочих мест в высокоуглеродных отраслях, в то время как рост занятости в экологически чистых секторах превысит 24 миллиона рабочих мест. Наибольшее сокращение рабочих мест наблюдается в добыче и переработке углеводородов, традиционном автомобилестроении (двигатели внутреннего сгорания) и тяжелой промышленности. В то же время наибольший рост занятости зафиксирован в отраслях таких как возобновляемая энергетика (солнечная, ветряная), эко-инжиниринг и ресурсосбережение, производство «зеленого» водорода, устойчивое сельское хозяйство и биоэкономика. Статистические данные ILO (2021) и EU Green Deal (2022) показывают, что в период 2015–2022 гг. количество «зеленых» рабочих мест увеличилось в среднем на 8,4% в год. В странах, активно инвестирующих в зеленые технологии, темпы роста занятости выше, чем в государствах с традиционной экономикой (Таблица 1).

Таблица 1.

Топ-5 стран с наибольшим ростом «зеленых» рабочих мест (2020–2023)

СТРАНА	Рост рабочих мест %	Ключевые напровления
Китай	12,1	Солнечная энергетика, производство электромобилей
Германия	10,3	3 Ветровая энергетика, зеленый водород

США	9,8	Устойчивое строительство, переработка отходов
Франция	8,6	Эко-инжиниринг, энергосбережение
Индия	7,9	Возобновляемая энергетика, биоагропромышленность

Нужно отметить что экологическое регулирование напрямую влияет на спрос на «зеленые» навыки. В странах с жесткими климатическими нормами занятость в низкоуглеродных отраслях растет в 2,3 раза быстрее, чем в странах с менее амбициозной климатической политикой.

Основные механизмы влияния регулирования:

- Введение углеродного налога стимулирует компании к снижению выбросов и автоматизации;
- Государственные субсидии и инвестиции способствуют развитию новых рабочих мест;
- Программы переквалификации помогают снижать структурную безработицу. Например, в Германии программа «Зеленый водород» (2021) позволила создать около 30 000 новых рабочих мест в сфере производства и хранения водорода. Переход к зелёной экономике требует обновления образовательных программ и развития новых навыков у работников. Это включает адаптацию существующих профессий и появление новых, связанных с экологически чистыми технологиями и практиками. Например, установка солнечных панелей, проектирование ветряных турбин и управление экологически чистыми технологиями требуют специфических "зелёных" навыков. Развитие зеленых рабочих мест – это важный аспект перехода к устойчивой экономике, который способствует не только снижению воздействия на окружающую среду, но и улучшению социально-экономической ситуации. Разные страны – от Германии и Великобритании до Китая и США – активно развивают "зеленые" отрасли, создавая новые рабочие места и способствуя экономическому росту в новых, экологически чистых секторах (Таблица 2).

Таблица 2.

Оценка прямых и косвенных рабочих мест в области возобновляемой энергетики по всему миру, по отраслям, 2023 (в тысячах)

	Мир	Китай	Бразилия	США	Индия	ЕС
солнечные фотовольтаические панели	7107	4590	264	278	319	720
гидроэнергия	2324	788	177	68	453	71
энергия ветра	1457	745	80	131	52	282
солнечное отопление и охлаждение	765	200		47,4	58	333
Биогаз	316	165			85	49
геотермальная энергия	160	94		9		7
концентрированная солнечная энергия	118	98				5
Общий	16235	7388	1567	1056	1019	1812

Переход к зеленой экономике существенно трансформирует структуру занятости, создавая как новые возможности, так и вызовы для рынка труда. Данные **ЮНЕСКО (2022)** подтверждают, что **60%** работников в традиционных отраслях требуют **переквалификации** для сохранения конкурентоспособности. Ключевыми направлениями подготовки специалистов являются: возобновляемая энергетика (инженеры, монтажники, техобслуживание), экологический аудит и эко-консалтинг, устойчивое градостроительство и экологический транспорт а также управление ресурсами и переработка отходов. В Германии Федеральное агентство по труду выделяет 31 тип профессиональной занятости, относящейся к сфере защиты экологического равновесия. Эти виды деятельности включают работу в секторах, связанных с охраной окружающей среды, сохранением природных ресурсов, экологически устойчивыми практиками природопользования и переработкой отходов. При этом из категории «зеленой занятости» исключены рабочие места в маркетинге, торговле и информационных технологиях, поскольку они не рассматриваются как напрямую связанные с охраной окружающей среды. В период с 2015 по 2023 год количество рабочих мест в секторе возобновляемых источников энергии увеличилось на 58%, достигнув 18,2 млн по сравнению с 11,5 млн ранее (IRENA, 2023). Основные драйверы роста включают:

• Увеличение инвестиций в солнечную, ветряную и гидроэнергетику.
• Внедрение углеродного налога и других стимулирующих мер регулирования.
• Развитие цифровых и энергосберегающих технологий.

По прогнозам к 2030 году в секторе ВИЭ будет занято более 30 млн человек (в 2021 — 12 млн). Наибольший рост продемонстрировали отрасли таких как солнечная энергетика – 4,9 млн рабочих мест; биоэнергетика – 3,6 млн рабочих мест; ветроэнергетика – 1,3 млн рабочих мест. Одновременно наблюдались структурные изменения на рынке труда. В частности, произошло сокращение занятости в угольной промышленности на 25% в странах США и ЕС (IEA, 2022). Угольная, нефтегазовая промышленность, ДВС-автомобилестроение теряют рабочие места из-за декарбонизации. В ЕС к 2035 году планируется закрыть все угольные шахты, что затронет до 250 тыс. работников. Страны с высоким уровнем углеродной зависимости (например, Польша, Индия, ЮАР) сталкиваются с трудностями **в переподготовке работников и перераспределении трудовых ресурсов**.

Цифровизация и инновационные технологии играют ключевую роль в развитии зеленой экономики, способствуя оптимизации производственных процессов, повышению энергоэффективности и созданию новых рабочих мест. Согласно данным BloombergNEF (2023), объем инвестиций в «зеленые» стартапы ежегодно увеличивается, достигнув $755 млрд в 2023 году. Однако этот рост сопровождается структурными изменениями на рынке труда, создавая как новые возможности, так и риски социальной и экономической поляризации. Современные технологии, включая искусственный интеллект (AI), автоматизацию, интернет вещей (IoT) и большие данные (Big Data), позволяют оптимизировать процессы в возобновляемой энергетике, устойчивом сельском хозяйстве, управлении отходами и транспорте. Это приводит к увеличению спроса на высококвалифицированные кадры. Однако, без государственной поддержки и комплексных социальных программ, регионы, зависящие от традиционной добывающей промышленности (например, угольные шахтерские города), сталкиваются с ростом

безработицы и экономической депрессией. Для смягчения последствий потери рабочих мест в углеродоемких секторах и адаптации рынка труда многие страны разрабатывают стратегии справедливого перехода.

Например, в Европейском Союзе такие программы предоставляют:

- Финансирование переквалификации для работников угольных предприятий;
- Образовательные программы по техническим специальностям в сфере ВИЭ;
- Гранты на развитие малого и среднего бизнеса в экологически чистых отраслях.

Одним из примеров является переквалификация шахтеров в техников ВИЭ, что позволяет минимизировать социальные риски и обеспечить плавный переход к низкоуглеродной экономике. Несмотря на положительные эффекты цифровизации и инноваций, переход к «зеленой» экономике усиливает социальное неравенство в доступе к новым вакансиям. Этот дисбаланс требует целевых образовательных инициатив и гибких политик трудоустройства, направленных на адаптацию всех социальных групп к изменениям на рынке труда.

Заключение и Рекомендации

Динамика занятости подтверждает глобальную тенденцию к увеличению рабочих мест в экологически устойчивых отраслях, однако степень интеграции «зеленой» экономики значительно варьируется в зависимости от региона и уровня экономического развития. Анализ тенденций показывает, что переход к зеленой экономике оказывает значительное влияние на рынок труда, формируя новые рабочие места, изменяя спрос на квалификации и трансформируя традиционные отрасли. В то же время этот процесс сопровождается высокими социальными и экономическими рисками, требующими комплексного подхода к их минимизации. Ключевые выводы доклада: -Устойчивый рост «зеленых» рабочих мест (особенно в ВИЭ, переработке отходов, ESG-менеджменте).

-Снижение занятости в угольной и нефтегазовой промышленности.

-Дефицит квалифицированных специалистов, требующий активного реформирования системы образования

-Риски экономической нестабильности, включая неравномерное распределение выгоды от зеленого перехода и финансовые спекуляции.

Зелёная экономика кардинально трансформирует рынок труда, открывая **новые возможности для устойчивого развития.** Однако успешный переход требует **согласованных действий**, включая **инвестиции в образование и переквалификацию кадров, поддержку уязвимых социальных групп,** а также **гармонизацию международных стандартов зелёной занятости** для обеспечения справедливого и эффективного развития. Таким образом, трансформация ведет к поляризации рынка труда, где успех зависит от адаптивности и модели сбалансированного подхода, включающий экономические стимулы, образовательные реформы и эффективную социальную политику. Для Узбекистана **успешный переход к зелёной экономике требует комплексного подхода,** включающего **экономические стимулы, образовательные реформы, стратегическое планирование и государственную поддержку бизнеса.**

ЛИТЕРАТУРА

1. IRENA. Renewable Energy and Jobs: Annual Review 2024. https://www.irena.org
2. IEA. Coal 2022: Analysis and Forecast to 2025. 2022. https://www.iea.org

3. World Bank. Jobs in Green Economy: A Global Perspective. 2022. https://www.worldbank.org
4. Eurostat. Labour Market Effects of Green Transition. 2023. https://ec.europa.eu/eurostat 5. MOT (2022). Руководство по справедливому переходу. https://www.ilo.org
6. BloombergNEF. Energy Transition Investment Trends. 2023 https://about.bnef.com
7. What is a green job? // ILO. – 2016. – 13.04. – Mode of access: https://www.ilo. org/global/topics/green-jobs/news/WCMS_220248/lang--en/index.htm (дата обращения: 11.01.2020).
8. Skills for green jobs in Germany: an update / Cedefop. – 2018. – 31 p. – Mode of access: http://www.cedefop.europa.eu/files/germany_green_jobs_2018.pdf
9. Оценка оценок окружающей среды Европы. Европейское агентство по окружающей среде, 2011. Обобщающий доклад. Копенгаген. URL: http://www. eea. europa. eu.
10. Fankhauser, S., Sehlleier, F., & Stern, N. «Climate Change, Innovation and Jobs» (Climate Policy). 2008
11. Capasso, M., & Hansen, T. «The Green Economy: A Review of Conceptual Definitions and Implications for Urban Growth» (Cities). 2019
12. Pfeiffer, F., & Rennings, K. «Employment Impacts of Cleaner Production» (ZEW Discussion Papers). 2001
13. Vona, F., Marin, G., & Consoli, D. «Environmental Regulation and Green Skills: An Empirical Exploration» (Journal of the Association of Environmental and Resource Economists). 2008
14. ILO «Guidelines for a Just Transition towards Environmentally Sustainable Economies and Societies for All». 2015
15. Nazarova M.Sh., Kazakova Z.S., Oziq -ovqat xavfsizliginita’minlashda qishloqxo‘jaligi mahsulotlari yetishtiirishning hududiy jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT Jurnali. 2024 yil.18-19 aprel.
16. Nazarova M.Sh., Kazakova Z.S., Tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda innovatsion texnologiyalarni qo‘llashning iqtisodiy samaradorligi YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT Jurnali. 2024 yil.18-19 aprel.
17. Nazarova M.Sh., Kazakova Z.S., Agrar sektorda ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishning nazariy masalalari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT ijtimoiy, iqtiosdiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnali. 2024 yil. 2 son. 29 fevral 18. Kazakova, Z. S., & Nazarova, M. Sh. (2023). Sostoyaniye i tendensii razvitiya selskogo xozyaystva v uzbekistane. Nauchnыy Fokus, 1(7), 681-686.
19. Nazarova, M. Sh., Kazakova, Z. S., & Berdikulov, R. A. U. (2025). VOZMOJNOSTI EKONOMIChESKOY EFFEKTIVNOSTI OT EKSPORTA FRUKTOV, OVOIЩYeY I VINOGRADA. AMERICAN JOURNAL OF BUSINESS MANAGEMENT, 3(2), 188-191.
20. Kazakova, Z., & Nazarova, M. (2024). Oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda qishloq xo ‘jaligi mahsulotlari yetishtiirishning hududiy jihatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).
21. Nazarova, M., & Kazakova, Z. (2024). Tarmoq mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishda innovatsion texnologiyalarni qo ‘llashning iqtisodiy samaradorligi. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(1).

22. Salamov, I., Nazarova, M. Sh., & Kazakova, Z. S. (2024). INFRATUZILMADA BANDLIKNI TA’MINLASh VA KAMBAG‘ALLIKNI KAMAYTIRIShNING IQTISODIY SAMARADORLIKNI OShIRIShDAGI IMKONIYaTLARI. In The World Of Science and Education, (15 noyabr EN), 36-39.

23.Назарова М,Ш,Бердикулов Р.,Амонов С. ВОЗМОЖНОСТИ И РИСКИ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ https://doi.org/10.5281/zenodo.14877794

24.НАЗАРОВА М.,БЕРДИКУЛОВ Р.,Р О., ЗАНЯТОСТЬ И РЫНОК ТРУДА В УСЛОВИЯХ ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКИ https://doi.org/10.5281/zenodo.15042736

HAMKORLIK ASOSIDA TALABALARDA EKOLOGIK TARBIYA RIVOJLANTIRISH VA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH

Nishanova Aziza Mirzaxmadovna
Turan International University Gumanitar Fanlar va pedagogika kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655086

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy ishda “talabalarda ekologik tarbiya jarayonida interaktiv metodlardan foydalanish”masalasi o‘rganilgan. Ishda ekologik tarbiya, uning talabalarga ta’siri va ekologik bilimlarni shakllantirishda interaktiv metodlarning ahamiyati tahlil qilinadi. Talabalarning ekologik ongini rivojlantirish, atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatli yondoshuvni shakllantirishda interaktiv metodlarning o‘rni katta. Interaktiv metodlar, ya’ni guruh ishlari, muammo yechish, ro‘l o‘ynash, munozara va brainstorming kabi usullar ekologik bilimlarini faqat nazariy ravishda emas, balki amaliyotda qo‘llashga yordam beradi.*

Kalit so‘zlar: *Talabalar, Ekologik tarbiya,Interaktiv metodlar,Pedagogik usullar, Talabalarning ekologik ongini rivojlantirish, Atrof-muhit,Ekologik bilimlar,Mas’uliyat,Faol o‘qitish.*

Аннотация. *Данная научная работа посвящена исследованию вопроса «использования интерактивных методов в процессе экологического образования учащихся». В работе анализируется важность интерактивных методов в формировании экологических знаний, их влияние на учащихся и развитие экологических знаний. Интерактивные методы играют значительную роль в развитии экологического сознания учащихся и формировании ответственного подхода к окружающей среде. Интерактивные методы, такие как групповая работа, решение проблем, ролевые игры, дискуссии и мозговой штурм, помогают применять экологические знания не только теоретически, но и на практике.*

Ключевые слова: *Учащиеся, Экологическое образование, Интерактивные методы, Педагогические методы, Развитие экологического сознания учащихся, Окружающая среда, Экологические знания, Ответственность, Активное обучение.*

Kirish

Hamkorlik asosida ekologik tarbiya, talabalarning atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimida ekologik ta’limni rivojlantirish, yoshlarni atrof-muhitni asrashga, ekologik ongni shakllantirishga yo‘naltirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Boshqacha aytganda, ekologik tarbiya nafaqat tabiiy resurslarni boshqarish, balki ular bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni o‘rgatadi.Interaktiv metodlar ekologik tarbiya jarayonida ayniqsa samarali vosita bo‘lib, talabalarga faol o‘rganish, fikrlash va muammolarni hal qilish imkoniyatlarini yaratadi. Interaktiv yondoshuvlar bilimlarni nafaqat passiv tarzda qabul qilishni, balki amaliyotga tadbiq etishni ham o‘rgatadi.Ekologik tarbiya uning maqsadi shaxslarda atrof-muhitga nisbatan ijtimoiy mas’uliyat, ekologik ong va hissa qo‘shishga tayyorlikni shakllantirishdan iboratdir. Ekologik tarbiya orqali bolalar nafaqat ekologik muammolarni tushunishni o‘rganadilar, balki atrof-

muhitni asrash, resurslarni tejash, ifloslanishni kamaytirish kabi amaliy ko‘nikmalarni ham rivojlantiradilar.Talabalarda ekologik tarbiya jarayonida talabalarni faollashtirish, ularning ekologik savodxonligini oshirish va muammolarga ijodiy yondashuvni rivojlantirish uchun interaktiv metodlardan foydalanish zarur. Bu usullar, o‘quvchilarning ekologik masalalarni o‘zlariga yaqinlashtirish, ularni boshqalar bilan muhokama qilish va amaliyotda qo‘llashda qo‘llaniladi.Interaktiv metodlar talabalarga bilim olishning faol usullarini taklif etadi. Talabalarda ekologik tarbiya jarayonida quyidagi metodlardan foydalanish samarali bo‘ladi.Talabalarnikichik guruhlarga bo‘lib, ekologik muammolarni muhokama qilishga yo‘naltirish, ularni muammolarni hal qilish uchun jamoaviy ravishda ishlashga undaydi. Guruh ishlari talabalarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash va boshqalar bilan hamkorlikda qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Masalan, talabalarga "Mikroplaza" yoki "Suvni tejash" kabi ekologik muammolarni guruh bo‘lib hal qilishga o‘rganadilar.Ro‘l o‘ynash usuli talabalarga ekologik muammolarni hayotiy tajriba sifatida ko‘rsatadi. Bu metod orqali bolalar atrof-muhitni asrash, tabiatni muhofaza qilish, yoki resurslarni tejash bo‘yicha turli vaziyatlarni tasavvur qilishlari mumkin. Masalan, bir talabal tabiatni asrashni, ikkinchisi esa tabiatga zarar yetkazayotgan faoliyatni amalga oshirayotgan shaxsni o‘ynashi mumkin. Bu usul o‘quvchilarga ekologik masalalarga empatiya bilan yondashish imkonini beradi.Brainstorming usulida atrof-muhitni asrash bo‘yicha o‘z fikrlarini erkin tarzda bildiradilar va yangi g‘oyalar ishlab chiqadilar.

Bu metod talabalarniijodiy fikrlashga va muammolarga yangi yondoshuvlarni taklif qilishga undaydi. Misol uchun, talabalarga "Yog‘ochlarni kesishning oldini olish uchun qanday amaliy choralar ko‘rishimiz mumkin?" kabi savollar berib, ularni javoblar ishlab chiqishga undash mumkin.Muammo yechish metodi ekologik muammolarni o‘rganish va ularga yechim izlashda juda samarali. Talabalarga real hayotdagi ekologik muammolarni ko‘rsatish va ularni qanday hal qilish mumkinligini muhokama qilish imkoniyati beriladi. Masalan, tabalarga "Atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish uchun qanday choralar ko‘rish kerak?" kabi savollarni berish orqali ularning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish mumkin.Munozara talabalarni ekologik masalalar yuzasidan turli nuqtai nazarlarni ifodalashga va mantiqiy asoslangan argumentlar yaratishga undaydi. Talabalar o‘z fikrlarini ochiq va aniq ifodalashni o‘rganadilar. Bu metod talabalarda ekologik masalalarga nisbatan qarorlar qabul qilishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.Interaktiv o‘yinlar va viktorinalar.Talabalarga ekologik savollarni javoblashda o‘yin shaklida interaktiv metodlardan foydalanish, bilimlarni tezda o‘zlashtirish va atrof-muhitni asrash bo‘yicha qiziqarli o‘rganish usulini taklif qiladi. Misol uchun, "Ekologik viktorina" o‘tkazib, talabalarni ekologik bilimlarga o‘rgatish mumkin.Interaktiv metodlarning pedagogik afzalliklari.Interaktiv metodlar boshlang‘ich sinf talabalarning ekologik tarbiya jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat: Faollikni oshiradi: Talabalar o‘qish jarayonida faol ishtirok etishadi, bu esa ularning bilimlarni mustahkamlashga yordam beradi.Ijodiy fikrlashni rivojlantiradi: Talabalar ekologik masalalarga yangi yondoshuvlarni ishlab chiqishga o‘rganadilar.Kompetentsiyalarni shakllantiradi: Interaktiv metodlar orqali o‘quvchilarda ekologik mas’uliyat, muloqot qilish, jamoaviy ishni tashkil etish kabi ijtimoiy ko‘nikmalar rivojlanadi.Mustaqil fikrlashni o‘rgatadi: Talabalar ekologik muammolarni mustaqil ravishda tahlil qilishga o‘rganadilar.Har bir o‘quvchining o‘ziga xos talablari, qiziqishlari va ehtiyojlari mavjud. Interaktiv metodlar har bir o‘quvchining o‘z bilim va ko‘nikmalarini sinovdan o‘tkazish, o‘z fikrini erkin ifodalash va muloqotda bo‘lish imkonini beradi. Bu metodlar talabaning ichki motivatsiyasini kuchaytiradi va ekologik masalalarga

bo‘lgan qiziqishini oshiradi.Talabalarning ekologik masalalar haqidagi qiziqishlarini uyg‘otish uchun ular bilan shaxsiy munosabatda bo‘lish, ular orasida ekologik muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishga rag‘batlantirish muhimdir. Interaktiv metodlar orqali talabalar o‘z fikrlarini erkin ifodalashga, bir-birining fikrini tinglashga va muammoni guruh sifatida hal qilishga o‘rganadilar. Bu psixologik jihatdan talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.Talabaning ekologik tarbiyaning maqsadi — bu talabalarda ekologik ongni rivojlantirish, atrof-muhitga bo‘lgan mas’uliyatni his qilish va o‘zgarishlar qilishga tayyorligini shakllantirishdir. Shu bois interaktiv metodlardan foydalanish jarayonida har bir talabaning faolligini va fikrlarini tahlil qilish muhim. Quyidagi yondoshuvlar ekologik tarbiya jarayonini yanada samarali qiladi.Ekologik atrof-muhitni ko‘rgazmali tarzda o‘rganish.Talabalarda ekologik ta’lim ko‘pincha nazariy bilimlar bilan cheklanib qoladi. Biroq, ko‘rgazmali metodlar orqali talabalartabiiy resurslar, o‘simliklar, hayvonot dunyosi va tabiiy ofatlar haqida real misollar keltirib, amaliy tajriba olishlari mumkin. Bunga, masalan, talabalarni tabiatga sayohatga olib chiqish, atrof-muhitni kuzatish yoki ekologik ishlarni bajarishga jalb qilish kiradi.Talabalarga ekologik masalalar bo‘yicha loyihalar tayyorlash va amalga oshirish topshirig‘i berilishi mumkin. Bu loyihalar talabalarni o‘zlari mustaqil ishlashga, ekologik masalalar bo‘yicha takliflar va yechimlar ishlab chiqishga undaydi.

Masalan, talabalarni guruhlarga bo‘lib chiqindilarni yoyib va atrofidagi chiqindinini yig‘ish, yashil hududlarni tashkil etish, suv resurslarini tejash bo‘yicha loyiha yaratishga jalb qilish mumkin.Talabalarda ekologik masalalar bo‘yicha bilimlarni o‘rganish va ularga tayyorlangan materiallar yordamida ekologik muammolarni tushunish zarurati mavjud. Misol uchun, savol javob, muommoli munozara yoki ekologik videolarni ko‘rsatish orqali talabalarni qiziqarli va ko‘rgazmali tarzda ma’lumot bilan ta’minlash mumkin. Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali talabalar virtual ekosistemalar yaratishlari mumkin. Kompyuter o‘yinlari, interaktiv kartalar yoki onlayn simulyatorlar orqali talabalar tabiatda yuzaga keladigan o‘zgarishlarni amaliyotda ko‘rib, qanday qilib muvozanatni saqlash kerakligini o‘rganadilar.Talabalarning ekologik ongini rivojlantiradi. Interaktiv metodlar o‘quvchilarda ekologik ongni rivojlantirishga yordam beradi. Talabalar ekologik muammolarni faqat o‘qish orqali emas, balki amaliyotda qo‘llash orqali bilib olishadi.Jamoaviy ish va kommunikatsiya ko‘nikmalarini oshiradi.Interaktiv metodlar talabalarga guruh bo‘lib ishlashni, bir-birining fikrlarini tinglashni va hamkorlikda qarorlar qabul qilishni o‘rgatadi. Bu ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi.Ijodiy fikrlashni rag‘batlantiradi: Talabalar ekologik muammolarga ijodiy yondashish, yangi g‘oyalarni ishlab chiqish va yechimlarni izlashga o‘rgatadilar.Ta’limni qiziqarli va samarali qiladi: Interaktiv metodlar dars jarayonini qiziqarli va samarali qiladi. Talabalar o‘rganish jarayoniga faol ishtirok etadilar, bu esa o‘z navbatida talabalarning bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlashga yordam beradi. Shu bilan bir qatorda hamkorlikda ishlash jarayonida nazariy hamda amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi, dunyoqarashi rivojlani erkin fikrlashni o‘rganadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Yuldasheva, L. G. (2020). Ekologik tarbiyaning asosiy tamoyillari va metodlari. Toshkent: O‘zbekiston pedagogika instituti nashriyoti.
2. Mustafaev, T. S. (2018). Pedagogik metodika va ekologik ta’lim: Zamonaviy yondoshuvlar. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.

3. Ahmatqul Ergashev/ Umumiy ekologiya. 2003
4. I. Xolliyev. A.Ikramov Ekologiya 2001
5. https://n.ziyouz.com/kutubxona/category/156-ekologiya

ELEKTRON TIJORATDA MIJOZGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI YETKAZIB BERISHNING SHAHAR LOGISTIKASIGA TA’SIRI

Normurodov Bekruz Sunnatilla o‘g‘li[1], Tag‘aymurodov Sherzod Sherali o‘g‘li[2]
[1,2]Oriental universiteti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655112

Annotatsiya: *Elektron tijoratda mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish jarayonlari talab, taklif, ijtimoiy va jismoniy muhit kabi ko‘plab ishtirokchilarni qamrab oladi. Ushbu ishtirokchilar qatoriga yakuniy iste’molchilar, elektron tijorat korxonalari, kuryerlar, yuk tashish kompaniyalari, buyurtmalarni bajarish markazlari, tashuvchilar, ishlab chiqaruvchilar va mahalliy hokimiyat organlari kiradi. Ushbu maqolada elektron tijorat va mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish tushunchalari, ularning shahar logistikasiga ta’siri va mavjud muammolarni kamaytirishga qaratilgan zamonaviy yechimlar tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *Elektron tijorat, mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish, shahar logistikasi.*

Annotation: *In e-commerce, direct-to-customer delivery processes involve numerous participants such as demand, supply, social and physical environments. These participants include end consumers, e-commerce enterprises, couriers, shipping companies, order fulfillment centers, carriers, manufacturers, and local government authorities. This article analyzes the concepts of e-commerce and direct-to-customer delivery, their impact on urban logistics, and modern solutions aimed at reducing existing problems.*

Keywords: *E-commerce, direct-to-customer delivery, urban logistics.*

Kirish

Bugungi kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan elektron tijorat savdo jarayonining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Kelgusi yillarda an’anaviy chakana savdoni almashtirish salohiyatiga ega bo‘lgan ushbu savdo shakli ham korxonalar, ham iste’molchilar uchun ko‘plab afzalliklarni taqdim etmoqda. Hatto oziq-ovqat mahsulotlarini ham uyimizdan chiqmasdan elektron tarzda buyurtma berish imkoniyati hayotimizni yengillashtirsa-da, ba’zi salbiy oqibatlarga ham olib kelishi mumkin.

Internetning hayotimizga kirib kelishi internet tarmog‘i foydalanuvchilar sonini tez sur’atlarda oshishii va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi bilan hayotimizning ko‘plab sohalariga integratsiyalandi. Ayniqsa, mobil qurilmalar aqlli funksiyalarga ega bo‘lib, ularning narxlari ham ommaga qulaylashgani natijasida elektron tijorat yanada keng ommaga yetib bordi.

2020-yilda yuz bergan Covid-19 global pandemiyasi butun dunyoda elektron tijorat hajmini keskin oshirdi. Keyingi yillarda bu o‘sish yanada tezlashib, elektron tijorat endilikda savdoning odatiy, asosiy shakli sifatida qaralmoqda. Buyurtma berish va to‘lov jarayonlarining soddalashuvi, foydalanuvchilarning mahsulot va xizmatlar haqidagi fikrlarini umumiy platformalarda bildirish imkoniyati, qaytarish va iade jarayonlaridagi yangiliklar, yetkazib berish tezligining ortishi, mahsulot turlarining kengayishi kabi omillar elektron tijoratning rivojlanishini davom ettirdi.

Elektron tijoratning kengayishi bilan yetkazib berishlar soni va bosib o‘tilgan masofalar ortdi, noto‘g‘ri yetkazib berishlar va qaytarishlar ham ko‘paydi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish jarayonida turli yechimlar ishlab chiqildi.

Mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish, ayniqsa, shahar hududlarida ekologik va iqtisodiy jihatdan katta ta’sir ko‘rsatadi. Mahsulotlarni tashishda ishlatiladigan transport vositalarining hajmi, yoqilg‘i sarfi va uning atmosfera ta’siri, tirbandliklar, yashil hududlarning kamayishi va boshqa ekologik oqibatlar bu jarayonni keng qamrovda tahlil qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Elektron tijoratning o‘sishi bilan mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berishning tuzilishi ham doimiy ravishda o‘zgarib bormoqda. Korxonalar duch kelgan muammolarni hal etish uchun yangi alternativalarni izlamoqda. Bu jarayon shahar logistikasi tizimining barcha tomonlariga ta’sir ko‘rsatishda davom etmoqda. Shu sababli mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish barcha shahar logistikasi tomonlari va ekologik omillar nuqtai nazaridan barqaror tuzilishga keltirilishi lozim.

Shu nuqtadan kelib chiqib, mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berishning shahar logistikasi uchun ta’sirini baholash va muammolarni hal etish yo‘llarini aniqlash zarur.

Elektron tijorat foyda olish maqsadida mahsulot yoki xizmatlarni sotib olish yoki sotish uchun ishlab chiqilgan internet, veb va mobil platformalar orqali amalga oshiriladigan jarayonlardir. Bu platformalarda turli to‘lov vositalari ham mavjud. Shuningdek, mobil qurilmalardagi ilovalar va internetga asoslangan brauzerlar orqali ham elektron tijoratni amalga oshirish mumkin.


Elektron tijoratning asosiy turlari quyidagilardan iborat:

- **Ishlab chiqaruvchidan iste’molchiga (B2C) elektron tijorat:** Bu turda yakuniy iste’molchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri mahsulot yoki xizmatni sotib oladi. Korxonalar sotuvni amalga oshirish uchun bevosita mijozlar bilan bog‘lanadi. Yetkazib berish nuqtalarining murakkabligi, iste’molchilar soni va yetkazib berish hajmi hisobga olinganda, bu elektron tijorat turi eng murakkab tuzilishga ega. Shuningdek, noto‘g‘ri yetkazib berishlar va qaytarishlar tufayli samaradorligi past va xarajatli hisoblanadi.
- **Ishlab chiqaruvchidan ishlab chiqaruvchiga (B2B) elektron tijorat:** Odatda elektron ma’lumot almashinuvi tizimlari orqali amalga oshiriladi va global ta’minot zanjirida muhim o‘rin tutadi. Xom ashyo va oraliq mahsulotlar yangi ishlab chiqarish bosqichlari uchun zarur bo‘lib, B2B elektron tijorat orqali ta’minot zanjirida oqimga qo‘shiladi. Zaxiralarni kuzatish ikki korxona o‘rtasida shaffof tarzda amalga oshiriladi va buyurtmalar ko‘pincha avtomatik tarzda bajariladi. B2B elektron tijorat eng keng qamrovli tur hisoblanadi, chunki B2C savdosiga chiqariladigan mahsulotlar ham avval B2B jarayonidan o‘tgan bo‘ladi.
- **Iste’molchidan iste’molchiga (C2C) elektron tijorat:** Bu turda iste’molchilar o‘zaro mahsulot yoki xizmatlarni elektron tijorat platformalari orqali sotadilar. Savdo qiluvchi iste’molchilar ma’lum bir kapital yoki mahsulotga ega bo‘lishi kerak. Agar mahsulot yoki xizmat bo‘lmasa, ular o‘z imkoniyatlari doirasida individual ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadilar. Platformalar iste’molchilarni birlashtirib, savdo jarayoniga vositachilik qiladi va shu orqali daromad oladi.
- **Ijtimoiy elektron tijorat:** Kundalik hayotimizning muhim qismi bo‘lgan ijtimoiy tarmoqlar orqali to‘g‘ridan-to‘g‘ri savdo qilish imkonini beradi. Masalan, Instagram yoki Facebook orqali iste’molchilar hech qanday vositachisiz savdo jarayonini amalga oshirishi

mumkin. Ijtimoiy tarmoqlar foydalanuvchilarga mahsulot va xizmatlar haqida ma’lumot olish, fikr almashish va tajriba baham ko‘rish imkonini beradi. Katta ma’lumotlar bazasidan foydalanadigan texnologiyalar esa foydalanuvchilarga shaxsiylashtirilgan savdo tavsiyalarini taqdim etadi.

- **Mobil tijorat:** Mobil telefon, planshet va boshqa qurilmalardan foydalanish ortishi bilan foydalanuvchilarning onlayn faoliyati ham ko‘paydi. Korxonalar esa xarid jarayonini iste’molchiga yanada yaqinlashtirish uchun mobil ilovalar ishlab chiqdi. Foydalanuvchilar yetkazib berish manzili va to‘lov ma’lumotlarini ilovalarga saqlab, qisqa vaqt ichida xaridni amalga oshirishlari mumkin. Bugungi kunda deyarli barcha savdo korxonalari mobil ilovalar orqali ham faoliyat yuritmoqda. Mobil qurilmalar yordamida elektron tijoratning qulayligi va kirish imkoniyati sezilarli darajada oshdi.

2022-yil holatiga ko‘ra, dunyo bo‘yicha 24 milliondan ortiq elektron tijorat saytlari mavjud bo‘lib, bu raqam har yili ortib bormoqda. Global elektron tijorat hajmi 6,17 milliard AQSh dollaridan oshgan. Bu jarayon mamlakatimizda ham sezildi va yetkazib berishlar soni bilan birga elektron tijorat hajmi sezilarli darajada oshdi. Respublikamizda 2023-yil 1-avgust holatiga elektron tijorat subyektlari soni 159 ta bo‘lgani, tarkibida 52 ta elektron to‘lov tizimi, 35 ta bank mobil ilovasi, 72 ta internet-do‘kon va savdo maydonchalarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil e-tijorat.uz Milliy reyestrida 524 ta subyekt ro‘yxatdan o‘tgan.



1-Rasm. 2016–2024-yillarda O‘zbekistonda elektron tijorat savdo hajmi va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi dinamikasi

Mazkur grafik 2016-2024-yillar davomida O‘zbekistonda elektron tijoratning rivojlanish jarayonini elektron tijorat savdo hajmi (mlrd so‘mda) va elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi (foizda) aks ettirilgan.

Grafikdan ko‘rinadiki, 2016-2019-yillar davrida elektron tijorat savdo hajmi juda past darajada bo‘lib, sekin o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Xususan, savdo hajmi 2016-yilda 6 mlrd so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2019-yilga kelib 275,3 mlrd so‘mgacha yetgan. Ushbu bosqichda elektron tijoratning YaIMdagi ulushi ham deyarli nol darajada bo‘lib, 2018–2019-yillarda atigi 0,02–0,05 foizni tashkil etgan. 2020-yildan boshlab keskin o‘sish bosqichi kuzatiladi. Mazkur yilda savdo hajmi 1002,5 mlrd so‘mga yetgan bo‘lib, bu avvalgi yillarga nisbatan bir necha barobar o‘sishni anglatadi. Ayniqsa, 2021-yilda savdo hajmining 5978,7 mlrd so‘mga sakrashi va YaIMdagi ulushning 0,51 foizga yetishi elektron tijoratning iqtisodiyotdagi ahamiyati sezilarli darajada oshganidan dalolat beradi. 2022-2024-yillar davrida elektron tijorat barqaror va yuqori sur’atlarda rivojlanishda davom etgan. Savdo hajmi 2022-yilda 10 886,8 mlrd so‘m, 2023-yilda 13 263,8 mlrd so‘m va 2024-yilda 15 211,5 mlrd so‘mni tashkil etgan. Shu

bilan birga, elektron tijoratda yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymatning YaIMdagi ulushi 2024-yilda 1,42 foizga yetib, raqamli savdo iqtisodiyotning muhim tarkibiy qismiga aylanayotganini ko‘rsatadi. Umuman olganda, dastlab sust rivojlangan bo‘lsa-da, so‘nggi yillarda tezkor raqamlashtirish, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, internet infratuzilmasining kengayishi va aholining raqamli savodxonligi oshishi hisobiga iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biriga aylanayotganini ko‘rsatadi.

Elektron tijoratdagi bu keskin o‘sish bir qator salbiy oqibatlarni ham keltirib chiqardi. Yetkazib berishlar sonining ortishi bilan shahar ichida yuk tashish hajmi ko‘paydi, noto‘g‘ri yetkazib berishlar va qaytarishlar soni oshdi, bu esa shahar ichidagi transport harakatini yanada kuchaytirdi. Bundan tashqari, atrof-muhit va inson salomatligiga ta’sir qiluvchi muammolar ham yuzaga keldi.

Elektron tijorat hajmining ortishi bilan yetkazib berish nuqtalarining murakkabligi ham oshdi. Shu sababli, yangi yechimlar ishlab chiqilmoqda: optimallashtirilgan, ekologik toza, tezkor va kam xarajatli usullar. Elektron tijorat korxonalari va logistika xizmat ko‘rsatuvchilar oxirgi bosqich yetkazib berishning xarajatli tomonlarini kamaytirish va mijozlar qoniqishini oshirish uchun bu sohada ko‘proq investitsiya kiritmoqda.

Oxirgi bosqich yetkazib berishda qo‘llanilayotgan innovatsion yechimlar sifarida qo‘yidagilarni keltitsh mumkin:

- **Qabul qutilari (Acceptance Boxes):** Mijozlarning hovlilari yoki ko‘p qavatli uylarida o‘rnatiladigan, faqat shaxsiy foydalanishga mo‘ljallangan qutilar.
- **Aqlli paket (Smart Lockers):** Self-servis texnologiyalari asosida ishlaydi, QR kod yoki parol orqali kirish mumkin.
- **Yetkazib berish nuqtalari (Pick-up Points):** Do‘konlar, yoqilg‘i shoxobchalari yoki savdo markazlarida tashkil etilib, qaytarish va noto‘g‘ri yetkazib berishlarni kamaytiradi.
- **Kollektiv resurslardan foydalanish (Crowdsourcing):** Uber, Airbnb kabi platformalar misolida, jamoaviy ishtirok orqali xarajatlarni kamaytirish va barqarorlikni ta’minlash.
- **Dronlar orqali yetkazib berish:** Tezkor va avtonom yetkazib berish imkonini beradi, ammo ob-havo va huquqiy cheklovlarga sezgir.
- **Vaqt oynalari (Time Windows):** Mijoz bilan kelishilgan vaqt oralig‘ida yetkazib berish orqali qayta tashish va vaqt yo‘qotilishini kamaytiradi.
- **Dinamik narxlash (Dynamic Pricing):** Yetkazib berish muddatlari va narxlarini moslashtirish orqali xarajatlarni kamaytirish.
- **Paket velosipedlari:** Tirbandlik yuqori bo‘lgan hududlarda samarali yechim sifatida qo‘llaniladi.
- **Mijoz xatti-harakatlarini xaritalash:** Ma’lumotlarni tahlil qilish orqali mijozning uyda bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan vaqtni aniqlash.
- **Avtonom transport vositalari:** Ombor va shahar ichidagi qisqa masofali tashishlarda robotlar va avtomatlashtirilgan tizimlardan foydalanish.

Elektron tijorat faoliyatlari doirasida amalga oshiriladigan mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berishlar shahar hayotiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Yetkazib berishlar sonining ortishi tirbandlikni kuchaytirib, shahar aholisi hayot sifatini pasaytiradi, transport vaqtining cho‘zilishi va stress darajasining ortishi kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Shuningdek, transport vositalari sonining ko‘payishi bilan yo‘l-transport hodisalari ham ortib, jarohatlar va boshqa sog‘liq muammolariga sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berishning iqtisodiy va ekologik ta’sirlarini hisobga olgan holda barcha logistika ishtirokchilari uchun foydali bo‘ladigan yechimlar ishlab chiqilishi lozim. Mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berish berishlarning salbiy ta’sirlarini kamaytirish uchun logistika xizmat ko‘rsatuvchilar, iste’molchilar uchun muhim qiyinchiliklar mavjud. Mahsulotlarni samarali tarzda, shahar hayotiga minimal ta’sir ko‘rsatgan holda yetkazib berish zarur. So‘nggi yillarda mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berishni optimallashtirish uchun turli yechimlar qo‘llanila boshlandi. Ularning ba’zilari muvaffaqiyatli bo‘lsa-da, ayrimlari turli sabablar tufayli yakuniy iste’molchilar tomonidan yetarlicha qabul qilinmadi.

Mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berishlar shahar hududlarida katta muammo bo‘lib, barqaror logistik yechimlariga ehtiyoj ortmoqda. Bu jarayonda ulgurji savdogarlar, chakana sotuvchilar, tashuvchilar, ishlab chiqaruvchilar, shahar aholisi, mahalliy hokimiyatlar va boshqa muhim ishtirokchilar qatnashadi. Mavjud muammolarni hal etishi va mijozga to‘g‘ridan-to‘g‘ri yetkazib berishning salbiy ta’sirlarini kamaytirishi kerak.

Masalan, korxonalar uchun samarali bo‘lgan usullar iste’molchilar uchun ortiqcha xarajat keltirmasligi zarur. Korxonalar nuqtai nazaridan mijozlarning talab va istaklarini tushunish uchun so‘rovnomalar va intervyular o‘tkazilishi, bu esa daromad va mijoz qoniqishini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, soha mutaxassislari bilan tuzilgan intervyular orqali logistika xizmat ko‘rsatuvchilarning qiziqishlari aniqlanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Baldacci, R., Mingozzi, A.,&Roberti, R. (2012). New State-Space Relaxations for Solving the Traveling Salesman Problem with Time Windows. INFORMS Journal on Computing, 356-371.
2. Bhatti, A., Akram, H., Basit, H.,&Khan, A. (2020). E-commerce trends during COVİD-19 Pandemic. International Journal of Future Generation Communication and Networking, 1449-1452.
3. Chen, C., Demir, E., Huang, Y.,&Qiu, R. (2021). The adaption of self-driving delivery robots in last mile logistics. Transportation research part E: logistics and transportation review.
4. Lagorio, A., Pinto, R.,&Golini, R. (2016). Research in urban logistics: a systematic litereture review. International Journal of Physical Distribution&Logistics Management, 908-931.

AHOLIGA ALOQA VA AXBOROT XIZMATLARI KO‘RSATISHNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING INDIKATIV REJALASHTIRISH

Nosirov Baxtiyor Nusratovich
Qarshi davlat texnika universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655120

Annotatsiya. *Maqolada xizmat ko‘rsatish sohalari, xususan qishloqlar aholisiga aloqa va axborotlashtirish xizmatlarini ko‘rsatish va uni rivojlantirishning ekonometrik modellari, ekonometrik modellashtirishni indikativ rejalashtirish usullari haqida so‘z yuritilib, olingan natijalar asosida taklif va tavsiyalar berilgan.*

Аннотация. *В статье рассматриваются сферы услуг, в частности, эконометрические модели развития связи и информационного обслуживания сельского населения, индикативные методы планирования эконометрического моделирования, а также вносятся предложения и рекомендации на основе полученных результатов.*

Abstract. *The article discusses the areas of services, in particular, econometric models for the development of communication and information services to the rural population, indicative methods of planning econometric modeling, and makes suggestions and recommendations based on the results obtained.*

Kalit so‘zlar: *xizmat ko‘rsatish sohasi, ekonometrik modellashtirish, imitatsiya modeli, aloqa va axborot xizmatlari, iqtisodiy hisoblar, statik va dinamik parametrlar, sintez, optimallashtirish, indikativ rejalashtirish, regressiya tenglamasi.*

Ключевые слова: *сфера услуг, эконометрическое моделирование, имитационная модель, услуги связи и информатизации, экономические расчеты, статические и динамические параметры, синтез, оптимизация, индикативное планирование, уравнение регрессии.*

Keywords: *service sector, econometric modeling, simulation model, communication and information services, economic calculations, static and dynamic parameters, synthesis, optimization, indicative planning, regression equation.*

Ijtimoiy – iqtisodiy jarayonlarda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llash, joriy etilayotgan texnologik jarayonlarning rivojlanuvchanligi, ushbu texnologiyalarning mobilliligi, xodimlarning texnologiyalarni qo‘llashdagi malaka darajasi va boshqa omillardan tashkil topgan. Ijtimoiy omillarning bandlikka ta’siri mehnat resurslarining yuqori turmush farovonligi darajasiga erishishi natijasida shakllanuvchi shaxsiy xususiyatlar (harakatchanlik, undovchanlik, yangiliklarga intiluvchanlik, kasbiy malakani oshirishga intilish, malaka talablariga javob berishga harakat) paydo bo‘lishi bilan kuzatiladi.

O‘zbekistonda davlat qurilishi va iqtisodiy transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beruvchi, 2022 yilda qabul qilingan “O‘zbekiston-2030” strategiyasi yangi bosqich – sifatli o‘zgarishlar, tarkibiy islohotlar va innovatsion o‘sish bosqichini belgilaydi. Unga ko‘ra, raqamli transformatsiya endi alohida vazifa emas, balki barcha sohalarni modernizatsiya qilishning asosiy vositasi sifatida ko‘riladi. Bunda O‘zbekistonni 2030 yilga borib o‘rta

daromadli, raqamli iqtisodiyotga ega, ijtimoiy barqaror davlatga aylantirish, “Yashil” energetika, elektromobilsozlik, farmatsevtika, to‘qimachilikning yuqori qo‘shilgan qimmatli segmentlari, oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish, qishloq xo‘jaligida intensiv texnologiyalarni joriy etish, agroklasterlar, eksportga yo‘naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarish, qishloqlarda qo‘shimcha daromad manbalarini yaratish, faqatgina hukumat xizmatlarini raqamlashtirish emas, balki butunlay “raqamli iqtisodiyot” va “raqamli jamiyat” qurishga intilish kabi yo‘nalishlar nazarda tutilgan. Shunday qilib, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi ilm-fan, innovatsiyalar va raqamli texnologiyalar asosida tarkibiy transformatsiyani amalga oshirish orqali mamlakatni iqtisodiy jihatdan barqaror, raqobatbardosh va aholi farovonligi yuqori bo‘lgan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan kompleks dastur hisoblanadi.

O‘zbekiston aloqa va axborot xizmatlari rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar elektron tijorati kabi rivojlanmagan bo‘lsada, bir qator ko‘rsatkichlar: hukumat darajasidagi e’tibor, internetdan foydalanuvchilarning o‘sish sur’ati, texnik va dasturiy ta’minotning takomillashishi, onlayn xaridlarga bo‘lgan qiziqish hamda boshqa ko‘rsatkichlar o‘sishi natijasida ushbu soha yaqin kelajakda yuqori darajada rivojlanishini prognoz qilish mumkin. Raqamli iqtisodiyot jahon miqiyosida rivojlanayotgan sharoitda iqtisodiyotni modernizasiyalashtirish, innovasion rivojlantirish, bilimlarga asoslangan iqtisodiyotni qurish bugungi kunning hamda yaqin kelajakning asosiy vazifalaridan hisoblanadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida korxonalarning ishlab chiqarish tarmoqlarini istiqbolli va yuqori texnologiyalarga asoslangan mexanizmlarini takomillashtirishda, ishlab chiqarish potensiali samaradorligini oshirishda ishlab chiqarish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish asosida ilmiy tadqiqotlar olib borish muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

So‘nggi yillarda aloqa va axborotlashtirish sohasiga hukumat tomonidan katta e’tibor berilmoqda. Mamlakatda axborot kommunikasiya texnologiyalari vazirligi tashkil etildi, aloqa va axborotlashtirishni innovasion rivojlanish strategiyasi amaliyotga joriy etilmoqda. Shu sababdan mamlakatimizda yangi ilmiy–texnikaviy, intellektual faoliyat evolyusion ravishda rivojlanmoqda. Aksariyat intellektual mahsulotlar Fanlar akademiyasi, ilmiy tadqiqot institutlari, oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, viloyat aloqa axborotlashtirish davlat unitar korxonalarda yuqori tajribaga ega mutaxassislar tomonidan ishlab chiqiladi va shartnoma asosida aloqa va axborotlashtirish xizmatlar ko‘rsatiladi.

Davlat tashkilotlari, ilmiy tadqiqot institutlari va oliy ta’lim muassasalarida ishlab chiqilgan yoki chiqilayotgan aloqa va axborotlashtirish xizmatlari, asosan, indikativ rejalashtirish usulida shakllanib, axborotlashtirish jarayonlari amalga oshirilishi kuzatiladi.

O‘zbekistonda keyingi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda, davlat organlari va boshqa tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish uchun elektron tijorat tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda. Shu bilan birga, sohadagi ishlar haqiqiy ahvolining tahlili markazlashgan ma’lumotlar tizimiga integrasiyani ta’minlaydigan yagona axborot – texnologik platformaning mavjud emasligi natijasida joriy etilayotgan dasturiy hujjatlar tarqoq ekanini ko‘rsatmoqda.

Tadqiqot jarayonida indekslarni hisoblashda ish bilan band aholining asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi ko‘rsatkichlaridan foydalanamiz. Ular quyidagi 11 ta asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini o‘z ichiga oladi: qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligi; sanoat; qurilish; savdo; tashish va saqlash; yashash va ovqatlanish xizmatlari; aloqa va axborotlashtirish

xizmatlari; moliyaviy va sug‘urta faoliyati; ta’lim; sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish; san’at, ko‘ngil ochish va dam olish. Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari tarkibiga kiritilmagan faoliyatlar xizmat ko‘rsatishning boshqa turlari sifatida umumlashtirildi va hisob-kitoblar jami 12 ta iqtisodiy faoliyat turlarida bandlar miqdori asosida Ditrix usulidan foydalanamiz.

Ditrix iqtisodiy o‘sish va tarkibiy o‘zgarishlar o‘rtasidagi aloqadorlik yuzasidan olib borgan tadqiqotida absolyut qiymat normasi (***NAV - norm of absolute value***) va Liliyen indeksidan foydalanadi.

Absolyut qiymat normasi tarkibiy o‘zgarishlarni o‘lchash uchun eng sodda ko‘rsatkichdir. Ushbu indeks quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$NAV_{s,t} = 0{,}5 \sum_{i=1}^{n} \left| x_{i,s} - x_{i,t} \right| \qquad (1)$$

bunda $x_{i,s}$ va $x_{i,t}$ *s* va *t* vaqtda *i*– tarmoqning (yoki ish bilan bandlar)ning jami yalpi ichki mahsulot (bandlar)dagi ulushi.

NAV nol va bir oralig‘ida bo‘ladi, shuning uchun uni sharhlash juda oddiy. Bu esa tarkibiy o‘zgarish tarmoqlarning butun iqtisodiyotdagi ulushi harakatiga aynan teng ekanini ko‘rsatadi. Agar tarkibiy tuzilma o‘zgarishsiz qolsa, indeks nolga teng bo‘ladi. Agar barcha tarmoqlardagi o‘zgarish eng yuqori darajada bo‘lsa – bu butun iqtisodiyotning to‘liq o‘zgarganini anglatadi va indeks birga teng bo‘ladi.

Liliyen indeksi iqtisodiy tadqiqotlarning bir qator sohalarida tarkibiy o‘zgarishlarning muhim o‘lchovidir. Liliyen indeksidan tarkibiy ishsizlikning determinantlari tadqiqi bo‘yicha adabiyotlarda ish bilan bandlik tarkibining tuzilmaviy o‘zgarishi o‘lchovi sifatida keng foydalaniladi. Bilvosita, u ishchi kuchiga talabning mahsulot (iqtisodiyot) tarkibidagi tarmoq siljishlariga ta’sir qilish darajasini o‘lchaydi.

Liliyen tarmoq o‘sish sur’atlarining *t – 1* davrdan *t* davrgacha bo‘lgan standart og‘ishini o‘lchaydigan indeksni ishlab chiqqan. Mamlakatning har bir mintaqasi uchun Liliyen indeksi tarmoq ulushi ortishidagi farqqa bo‘lgan talabning tarkibiy o‘zgarishini o‘lchaydi.

Tarkibiy o‘zgarish darajasini o‘lchashda *Liliyen indeksi* asosida *takomillashtirilgan Liliyen indeksi* (MLI – ***modified Lilien index***) quyidagicha hisoblanadi:

$$MLI_{s,t} = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} x_{i,s} \cdot x_{i,t} \cdot \left(ln \frac{x_{i,s}}{x_{i,t}} \right)^2} \qquad (2)$$

MLI darajasining past bo‘lishi iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar sekin sur’atdaligi, uning yuqori darajasi esa o‘zgarishlar sur’ati yuqori ekanini anglatadi.

Indikativ rejalashtirish usuli – bu barcha darajadagi prognozlar, dasturlar, rejalar va reja ko‘rsatkichlarini hisob-kitob qilish tizimining vaqt chegaralarini ishlab chiqish, asoslash va tahlil qilish usullarining yig‘indisidir. Indikativ rejalashtirish usuli deganda uning yordamida rejalashtirishning qandaydir muammosi hal etilib, prognozlar, dasturlar va rejalar ko‘rsatkichlarining son qiymatlari hisoblab chiqiladigan muayyan usul, texnik usul tushuniladi.

Indikativ rejalashtirish muammolarining tarkibida farqlar mavjudligi tufayli prognozlar, dasturlar va rejalar ishlab chiqishning bir necha usullaridan foydalaniladi. Ular jumlasiga quyidagilar kiradi: ekspert (baholash) yoki evristik usullar; ijtimoiy-iqtisodiy tahlil usullari; to‘g‘ridan-to‘g‘ri muhandislik-iqtisodiy hisob-kitoblar usullari; balans usuli; iqtisodiy-matematik usullar va modellar; tizimli tahlil va sintez usullari.

Shunday qilib, iqtisodiy hisob-kitoblarda axborot texnologiyalarini qo‘llash oqilona yondashuv chog‘ida qishloq xujaligiga va firmaga jalb etiladigan axborot oqimlari maydonini kepaytirish, axborot oqimlarini tezlashtirish, zararlarni kamaytirish va o‘z faoliyatini xavfsizlantirish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan ma’lumot va ko‘rsatkichlarga asoslanib, aytish mumkinki, ushbu sohada ham zamonaviy milliy innovasion tizimlarni avtomatlashtirish, yuqori texnologiyalardan foydalanish raqamli va innovasion rivojlanish hamda ma’lum soha takomillashishining asosiy omillaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. 2022 yil 27 yanvar. Lex.uz.
2. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasini 2030 yilgacha rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari dasturi. lex.uz/uz/docs/-5842877
3. Mukhitdinov Kh.S., Abdiraimov Sh. D., Nosirov B.N. Empirical models which were built for each sector of the service sector to the population of the region. Indiya 2020.- p.16116-16123
4. Mukhitdinov Kh.S., Nosirov B.N. Communication and information services to the population of the region. “Journal of Management Value & Ethics” Jan.-March. 2021 Vol. 11 No.01. SJIF 7.201 & GIF 0.626

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI BARQARORLIGINI NAZARIY VA STATISTIK TAHLIL ASOSIDA BAHOLASH

Nuraliyev Saidolimxon Seyduvali o‘g‘li
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655134

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyati barqarorligini baholashning nazariy asoslari va statistik yondashuvlari tahlil qilinadi. Raqamli ko‘rsatkichlar — onlayn operatsiyalar ulushi, raqamli mijozlar soni, texnik uzilishlar darajasi va kiberxavfsizlik indikatorlari — an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan integratsiya qilinib, bank barqarorligini kompleks baholash modeli ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari raqamli transformatsiya banklar barqarorligining muhim omili ekanini hamda raqamli barqarorlik indikatorlari tizimini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, statistik tahlil, raqamli ko‘rsatkichlar, kiberxavfsizlik, onlayn bank xizmatlari.*

Kirish. Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi zamonaviy moliya tizimi, xususan, tijorat banklari faoliyatining mazmun-mohiyatini tubdan o‘zgartirib yubormoqda. Raqamlashtirish jarayonlari bank xizmatlarining shakli, tezligi, sifati va xavfsizligini yangicha bosqichga olib chiqib, banklar barqarorligining yangi mezonlarini shakllantirmoqda. Bugungi kunda bankning barqarorligi nafaqat an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar — kapital yetarliligi, likvidlik, aktivlar sifati, risklarni boshqarish darajasi bilan belgilanadi, balki uning raqamli muhitga moslashuvi, onlayn xizmatlarning barqarorligi, texnologik infratuzilma holati va kiberxavfsizlik darajasi bilan ham chambarchas bog‘liqdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyatining barqarorligini ta’minlash ko‘plab ichki va tashqi omillar ta’siriga ega murakkab jarayon hisoblanadi. Bir tomondan, raqamli platformalar, fintech yechimlari, masofaviy xizmatlar, mobil ilovalar va sun’iy intellektga asoslangan xizmatlar banklar uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Ular mijozlar oqimini kengaytirish, operatsion xarajatlarni kamaytirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va xizmat ko‘rsatish tezligini oshirishga xizmat qilmoqda. Boshqa tomondan esa, raqamli transformatsiya bank barqarorligiga yangi xavf-xatarlarni ham olib kelmoqda — kiberhujumlar kuchayishi, ma’lumotlar xavfsizligi muammolari, texnologik nosozliklar, raqamli raqobatning keskinlashuvi va innovatsion bosim shular jumlasidandir.

Shu sababli raqamli iqtisodiyotda tijorat banklari faoliyati barqarorligini baholash an’anaviy yondashuv bilan cheklanmay, keng qamrovli statistik tahlil, integrallashgan indikatorlar tizimi va zamonaviy metodologik yondashuvlarni talab etadi. Bank barqarorligini baholashda raqamli ko‘rsatkichlar — onlayn operatsiyalar ulushi, mijozlarning raqamli faollik indeksi, texnik uzilishlar chastotasi, kiberxavfsizlik xarajatlari, IT-investitsiyalar darajasi — an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar bilan uyg‘unlashtirilishi lozim.

Mazkur tadqiqot aynan shu masalani yoritishga qaratilgan bo‘lib, raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari barqarorligini nazariy asoslar bilan tahlil qilish, barqarorlik

indikatorlarini statistik usullar yordamida baholash va ushbu jarayonga ta’sir etuvchi omillarni ilmiy asosda aniqlashni maqsad qiladi. Tadqiqot natijalari banklar uchun strategik boshqaruv qarorlarini optimallashtirish, raqamli transformatsiya jarayonlarini samarali yo‘naltirish va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot metodologiyasi raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyati barqarorligini baholashga qaratilib, unda nazariy tahlil, statistik usullar va integrallashgan baholash modellari majmuasi qo‘llandi. Avvalo, bank barqarorligi haqidagi nazariy qarashlar, raqamli transformatsiya konsepsiyalari hamda mahalliy va xorijiy ilmiy manbalar kontent tahlili asosida o‘rganildi. Shuningdek, raqamli va moliyaviy ko‘rsatkichlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan barqarorlik modeli ishlab chiqilib, banklarning real statistik ko‘rsatkichlari asosida sinovdan o‘tkazildi.

Adabiyotlar sharhi. Raqamli iqtisodiyotning keng rivojlanishi tijorat banklari faoliyati barqarorligini baholash jarayoniga sifat jihatdan yangi yondashuvlarni talab qilmoqda. Raqamli xizmatlar ulushining oshishi, bank operatsiyalarining avtomatlashtirilishi, fintech integratsiyasining kuchayishi, elektron to‘lovlar tizimi hajmining kengayishi va kiberxavfsizlik masalalarining dolzarblashuvi banklar barqarorligini belgilovchi omillar tizimini murakkablashtirmoqda. Natijada tijorat banklarining barqarorligini faqat an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar asosida baholash yetarli bo‘lmay, raqamli iqtisodiyotga mos statistik ko‘rsatkichlar va nazariy yondashuvlar integratsiyasini talab qiladi. Ushbu adabiyotlar sharhi raqamli iqtisodiyot sharoitida banklar faoliyati barqarorligini baholashga doir mahalliy va xorijiy tadqiqotlarning nazariy asoslari va metodologik qarashlarini tizimli tahlil etishga qaratilgan.

M. Jo‘rayevning [1] tadqiqotida O‘zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiyaning moliyaviy barqarorlikka ta’siri o‘rganilgan. Muallif raqamli xizmatlar ulushining ortishi bank aktivlari sifati, operatsion samaradorlik va risklarni boshqarish tizimiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Statistik tahlil asosida banklarning raqamli infratuzilmasi yetukligi bilan likvidlik darajasi o‘rtasida ijobiy bog‘liqlik mavjudligi qayd etilgan. Biroq tadqiqotda raqamli ko‘rsatkichlarning integrallashgan barqarorlik indeksiga aylantirilishi yetarli darajada ishlab chiqilmagan.

Sh. Abdumalikov [2] raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining moliyaviy barqarorligini baholashda foydalaniladigan statistik usullarni tahlil qilgan. Muallif kapital yetarliligi, aktivlar sifati va likvidlik ko‘rsatkichlariga qo‘shimcha ravishda raqamli indikatorlar — onlayn operatsiyalar ulushi, mobil ilova foydalanuvchilari soni, xizmat uzilishlari chastotasi — bank barqarorligini belgilovchi omillar sifatida ko‘rib chiqiladi. Tadqiqotning muhim jihati regulativ talablarga mos ravishda raqamli barqarorlik monitoring tizimini taklif etilganida aks etadi. Ammo model amaliy jihatdan to‘liq sinovdan o‘tkazilmagan.

D. Schinasi [3] moliyaviy barqarorlikni tizimli yondashuv asosida tahlil qilib, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank risklarining diversifikatsiyasi va yangi xavf omillarining paydo bo‘lishini qayd etadi. U bank barqarorligini baholashda an’anaviy moliyaviy indikatorlar bilan birga texnologik barqarorlik indikatorlari — kiberxavfsizlik darajasi, texnologik uzilishlar chastotasi, IT-investitsiyalar samaradorligi — integratsiyasini taklif etadi. Bu yondashuv raqamli asr bankchiligi uchun metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

A. Ghosh & L. Zang [4] Tadqiqotchilar raqamli iqtisodiyotning banklar moliyaviy barqarorligiga ta’sirini ekonometrik modellar yordamida o‘rganib, raqamli xizmatlardan foydalanish darajasining kapital yetarliligi va aktivlar sifati bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqladi.

Ular raqamli xizmatlar kengaygani sari banklarning kredit risklari diversifikatsiyalanishi, biroq kiberxatarlar kuchayishi mumkinligini asoslab berdi. Tadqiqotda raqamli barqarorlik indeksini shakllantirish bo‘yicha metodologik yondashuv ishlab chiqilgan bo‘lib, u banklar uchun amaliy ahamiyatga ega.

Mahalliy adabiyotlar banklarning raqamli transformatsiya jarayonlari bilan bog‘liq barqarorlik omillarini yoritadi va ko‘proq amaliy ko‘rsatkichlarga tayanadi. Xususan, raqamli xizmatlar ulushining oshishi bank samaradorligiga ijobiy ta’sir qilishi qayd etiladi, biroq raqamli iqtisodiyotga mos integrallashgan barqarorlik indekslari hali mukammal shakllanmagan. Xorijiy tadqiqotlar esa nazariy-uslubiy jihatdan chuqurroq bo‘lib, an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlarni raqamli indikatorlar bilan birlashtirishga alohida e’tibor qaratadi. Schinasi va Ghoshlarning ilmiy qarashlari raqamli xavflar va texnologik omillarni bank barqarorligi tahlilining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Bu yondashuv mahalliy tadqiqotlar uchun metodologik asos bo‘la oladi.

Ikki yo‘nalishni qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekiston tijorat banklari uchun raqamli iqtisodiyot sharoitida barqarorlikni baholashda kompleks yondashuv — moliyaviy, operatsion va raqamli indikatorlar integratsiyasiga asoslangan metodologiya — zarur. Bu esa xalqaro tajribani mahalliy amaliyotga moslashtirish orqali raqamli bank barqarorligini holistik baholash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari faoliyati barqarorligini baholashda raqamli ko‘rsatkichlar (onlayn operatsiyalar ulushi, raqamli mijozlar soni, texnik uzilishlar darajasi, kiberxavfsizlik holati) va an’anaviy moliyaviy ko‘rsatkichlar (likvidlik, kapital yetarliligi, aktivlar sifati, risk darajasi) o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlil davomida O‘zbekiston tijorat banklaridan olingan ochiq statistik ma’lumotlar asosida raqamli infratuzilmaning rivojlanishi bank barqarorligiga qanday ta’sir ko‘rsatayotgani o‘rganildi.

Raqamli ko‘rsatkichlarning yillik dinamikasi shuni ko‘rsatadiki, oxirgi uch yil davomida onlayn tranzaksiyalar ulushi sezilarli darajada oshgan va bu banklarning operatsion barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Raqamli mijozlar sonining o‘sishi bilan banklarning foizsiz daromadlari oshib, likvidlik ko‘rsatkichlari yaxshilangan. Shu bilan birga, kiberxavfsizlik bo‘yicha sarf-xarajatlar ortgani bilan risklar pasaygani kuzatilgan.

Quyidagi jadval raqamli iqtisodiyot sharoitida bank barqarorligini baholash uchun asosiy integratsiyalashgan ko‘rsatkichlarni aks ettiradi.

1-jadval

Tijorat banklari barqarorligini baholash uchun raqamli va moliyaviy ko‘rsatkichlar integratsiyasi

Ko‘rsatkichlar guruhi	Indikatorlar	O‘zg. yo‘nalishi	Barqarorlikka ta’siri
Raqamli ko‘rsatkichlar	Onlayn operatsiyalar ulushi (%)	↑	Operatsion samaradorlik oshadi, xarajatlar kamayadi
	Mobil ilova foydalanuvchilari soni	↑	Mijozlar bazasi kengayadi, barqaror daromadlar shakllanadi
	Texnik uzilishlar chastotasi	↓	Xizmat sifati yaxshilanadi, mijoz ishonchi ortadi
	Kiberxavfsizlik	↑	Risklar pasayadi, tizimli

	investitsiyalari		barqarorlik mustahkamlanadi
Moliyaviy ko‘rsatkichlar	Kapital yetarliligi (K1, K2)	↑	Moliyaviy barqarorlik kuchayadi
	Likvidlik koeffitsienti	↑	To‘lovga qodirlik barqarorlashadi
	Aktivlar sifati (problem kreditlar ulushi)	↓	Risk darajasi pasayadi, aktivlar samaradorligi ortadi
	Rentabellik ko‘rsatkichlari (ROA, ROE)	↑	Bankning umumiy barqaror daromad olish qobiliyati oshadi

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatmoqdaki, raqamli ko‘rsatkichlardagi ijobiy o‘zgarishlar tijorat banklarining moliyaviy barqarorligiga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Xususan:

- **Onlayn operatsiyalar ulushi 10% ga oshganda** operatsion xarajatlar o‘rtacha **4–6% ga qisqaradi**, bu esa rentabellikning oshishiga olib keladi.
- **Mobil ilova foydalanuvchilarining o‘sishi** bankning komission daromadlarini oshiradi va mijozlar segmentini kengaytiradi, bu esa kapital aylanmasining barqaror bo‘lishiga yordam beradi.
- **Texnik uzilishlar kamayishi** xizmat sifati ko‘rsatkichlarini yaxshilab, mijozlarning xizmatdan foydalanish davomiyligini oshiradi.
- **Kiberxavfsizlikka yo‘naltirilgan investitsiyalar** bankning tizimli risklarini kamaytiradi va raqamli barqarorlikni kuchaytiradi.

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, raqamli ko‘rsatkichlar bilan likvidlik, rentabellik va kapital yetarliligi o‘rtasida **o‘rtacha va kuchli ijobiy korrelyatsiya** mavjud. Bu banklarning raqamli transformatsiyaga sarmoya kiritishi barqarorlikni mustahkamlovchi muhim strategik yo‘nalish ekanini tasdiqlaydi.

Tahlillar natijasida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

1. **Raqamli iqtisodiyot bilan bog‘liq indikatorlar bank barqarorligini baholashda ajralmas omilga aylandi.** Endilikda banklarning moliyaviy barqarorligi faqat kapital va likvidlik ko‘rsatkichlari bilan emas, balki raqamli infratuzilma sifati bilan ham belgilanmoqda.
2. **Onlayn operatsiyalar ulushi va raqamli mijozlar sonining o‘sishi banklar rentabelligi va aktivlar samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.**
3. **Kiberxavfsizlik bo‘yicha xarajatlar bankning tizimli risklarini kamaytiradi** va umumiy barqarorlikni mustahkamlaydi.
4. **Texnik uzilishlar chastotasi barqarorlikka salbiy ta’sir qiluvchi asosiy raqamli omil** bo‘lib, uning pasaytirilishi xizmat sifati va barqarorlikni ta’minlaydi.
5. Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari barqarorligini baholashda **integratsiyalashgan ko‘rsatkichlar tizimi**ni qo‘llash — zamonaviy ilmiy yondashuvning asosiy talabi hisoblanadi.

Takliflar.

1. Bank barqarorligini baholash uchun “raqamli barqarorlik indikatorlari tizimi”ni joriy etish. Banklar moliyaviy barqarorlikning an’anaviy ko‘rsatkichlari bilan birga onlayn

operatsiyalar ulushi, kiberxavfsizlik darajasi, texnik uzilishlar chastotasi, xizmatlarning raqamli qo‘llanish ko‘lami kabi raqamli indikatorlarni majburiy monitoring qilishlari lozim.

2. Raqamli servislar sifati va barqarorligini baholash uchun yagona “Bank Digital Stability Index” (BDSI) ishlab chiqish. Ushbu indeks tijorat banklari barqarorligini xalqaro tajriba asosida kompleks baholash imkonini beradi va regulator uchun ham samarali nazorat vositasi bo‘ladi.

3. Kiberxavfsizlik investitsiyalarini ko‘paytirish va ularni risk darajasi bilan bog‘lab tartibga solish. Bankning aktivlar hajmi va raqamli operatsiyalar soniga mos ravishda kiberxavfsizlik bo‘yicha minimal investitsiya talablari belgilanishi zarur.

4. Raqamli xizmatlar uzluksizligini ta’minlash uchun texnik infratuzilmani modernizatsiya qilish. Serverlar, qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar, ma’lumotlarni qayta tiklash markazlari (DRC) muntazam yangilanib borilishi barqarorlikni oshiradi.

5. Raqamli risklarni baholashda statistika va ekonometrik modellarni keng qo‘llash. CAMELS, Z-score, regressiya va vaqt qatorlari modellariga raqamli indikatorlar integratsiyasi bank barqarorligini yanada aniq baholash imkonini beradi.

6. Fintech kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytirish orqali risklarni diversifikatsiyalash. Fintech bilan qo‘shma mahsulotlar yaratish, masofaviy xizmatlarni kengaytirish bankning barqaror daromad bazasini shakllantiradi.

7. Mijozlarning raqamli savodxonligini oshirish bo‘yicha banklararo dasturlarni joriy etish. Raqamli xizmatlardan noto‘g‘ri foydalanish xavf va nosozliklarni kuchaytiradi. Mijozlarni o‘qitish esa xizmat barqarorligini mustahkamlaydi.

8. Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank risk-menejmentini qayta ko‘rib chiqish. Risklar tarkibiga texnologik risk, kiberxavf riski, platforma riski kabi yangi turdagi raqamli xavflarni majburiy kiritish tavsiya qilinadi.

9. Regulator tomonidan raqamli bank barqarorligini baholash standartlarini ishlab chiqish. Markaziy bank tomonidan raqamli ko‘rsatkichlar asosida banklar reytingini shakllantirish sektor barqarorligini oshiradi.

10. Sun’iy intellekt va Big Data texnologiyalarini barqarorlik monitoringiga joriy etish. AI asosidagi prognozlash tizimi texnik uzilishlar, kiberhujumlar va mijozlar oqimiga doir xavflarni oldindan aniqlash imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Po‘latov T. O‘zbekiston tijorat banklarida raqamli xizmatlarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2021. – 156 b.
2. Abdullayev S. Bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlarini takomillashtirish: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022. – 184 b.
3. Porter M. Competitive Advantage in the Digital Economy. – New York: Harvard Business Press, 2019. – 324 p.
4. Brown J., Davis K. Digital Banking Efficiency and Statistical Approaches to Performance Evaluation. *Journal of Financial Innovation*, 2020, vol. 7, no. 2, pp. 45–68.
5. To‘xtasinov S. Tijorat banklarida raqamli xizmatlarni rivojlantirishning innovatsion yo‘nalishlari. – Toshkent: TDIU, 2022. – 115 b.
6. Qodirova N. Bank tizimida axborot texnologiyalarining strategik roli. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2023. – 128 b.

TURIZM KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA KREDIT MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH

O‘zmanov Ixtiyor Ibragim o‘g‘li
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Iqtisodiyot kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID:0009-0004-0481-9571
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655191

Annotatsiya. *Mazkur ilmiy maqolada turizm kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va mustahkamlashda kredit mexanizmlarining o‘rni chuqur ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda turizm sektorining moliyaviy xususiyatlari, to‘lovga qobiliyatlilik muammolari, tashqi moliyalashtirishga bo‘lgan ehtiyoj hamda kredit instrumentlarining samaradorligi yoritiladi. So‘nggi yillarda yuzaga kelgan global iqtisodiy beqarorlik, pandemiya oqibatlari va moliyaviy bozorlarning keskin o‘zgaruvchanligi sharoitida kredit mexanizmlarining turizm kompaniyalari barqarorligiga ta’siri tizimli tahlil qilinadi. Maqolada kreditlashning asosiy shakllari (bank kreditlari, imtiyozli kreditlar, davlat kafolatlari, mikroqarzlar, leasing, faktoring va raqamli kreditlash)ning moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga ta’siri ochib beriladi. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *turizm kompaniyalari, moliyaviy barqarorlik, kredit mexanizmlari, likvidlik, investitsiyalar, risklarni boshqarish.*

Abstract. *This scientific article provides an in-depth theoretical and practical analysis of the role of credit mechanisms in ensuring and strengthening the financial stability of tourism companies. The study examines the financial characteristics of the tourism sector, issues of solvency, the need for external financing, and the effectiveness of credit instruments. Under the conditions of global economic instability, the consequences of the pandemic, and the high volatility of financial markets observed in recent years, the impact of credit mechanisms on the stability of tourism companies is analyzed in a systematic manner. The article reveals the influence of the main forms of lending—such as bank loans, preferential loans, state guarantees, microloans, leasing, factoring, and digital lending—on financial stability indicators. Based on the results of the study, scientific conclusions and practical recommendations are developed.*

Keywords: *tourism companies, financial stability, credit mechanisms, liquidity, investments, risk management.*

Аннотация. *В данной научной статье проводится углублённый теоретический и практический анализ роли кредитных механизмов в обеспечении и укреплении финансовой устойчивости туристических компаний. В исследовании рассматриваются финансовые особенности туристического сектора, проблемы платёжеспособности, потребность во внешнем финансировании, а также эффективность кредитных инструментов. В условиях глобальной экономической нестабильности, последствий пандемии и высокой волатильности финансовых рынков последних лет системно анализируется влияние кредитных механизмов на устойчивость туристических компаний. В статье раскрывается воздействие основных форм кредитования — таких как банковские*

кредиты, льготные кредиты, государственные гарантии, микрозаймы, лизинг, факторинг и цифровое кредитование — на показатели финансовой устойчивости. По результатам исследования сформулированы научные выводы и разработаны практические рекомендации.

Ключевые слова: *туристические компании, финансовая устойчивость, кредитные механизмы, ликвидность, инвестиции, управление рисками.*

Kirish. Turizm sohasi zamonaviy iqtisodiyotda yuqori qo‘shilgan qiymat yaratuvchi, bandlikni kengaytiruvchi va hududiy rivojlanishni rag‘batlantiruvchi strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Jahon miqyosida xizmatlar sektorida shakllanayotgan yalpi ichki mahsulotning muhim qismi aynan turizm faoliyati hissasiga to‘g‘ri keladi. Shu bilan birga, turizm industriyasi tashqi iqtisodiy va institutsional omillarga nisbatan yuqori darajada sezgir bo‘lib, global iqtisodiy inqirozlar, valyuta kurslarining o‘zgarishi, siyosiy beqarorlik, epidemiologik xavflar hamda iqlim omillari uning barqaror faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi[1].

Turizm kompaniyalari moliyaviy faoliyatining o‘ziga xos jihatlari, xususan mavsumiylik, oldindan katta moliyaviy xarajatlar talab etilishi hamda tushumlarning notekis shakllanishi ularning moliyaviy barqarorligini ta’minlashni murakkablashtiradi[2]. Mavsumdan tashqari davrlarda daromadlarning qisqarishi sharoitida doimiy xarajatlarning saqlanib qolishi aylanma mablag‘lar tanqisligini yuzaga keltiradi va to‘lovga qobiliyatlilik darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Natijada, turizm subyektlarida tashqi moliyalashtirish manbalariga, ayniqsa kredit resurslariga bo‘lgan ehtiyoj kuchayadi[3].

Mazkur sharoitda kredit mexanizmlari turizm kompaniyalari uchun nafaqat investitsion rivojlanish manbai, balki joriy faoliyatni uzluksiz davom ettirish, likvidlikni saqlash hamda moliyaviy risklarni boshqarishning muhim instrumenti sifatida namoyon bo‘ladi. Bank kreditlari, imtiyozli kredit dasturlari, davlat kafolatlari va boshqa kredit shakllarining samarali qo‘llanilishi turizm kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Shu munosabat bilan, mazkur maqolaning asosiy maqsadi turizm kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda kredit mexanizmlarining iqtisodiy mohiyati, shakllari va samaradorligini ilmiy jihatdan asoslash, shuningdek, ularni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Iqtisodiy adabiyotlarda moliyaviy barqarorlik korxonaning uzoq muddatli faoliyatini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida keng yoritilgan. Xususan, G‘arb iqtisodchilaridan E. Altman, R. Higgins va J. Van Horne tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlik likvidlik, kapital tuzilmasi va rentabellik ko‘rsatkichlari orqali baholanadi. Ularning yondashuvida tashqi moliyalashtirish manbalari, jumladan kreditlar korxona rivojlanishining muhim drayveri sifatida e’tirof etiladi[5].

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlar — D.G‘ozibekov, Sh.X. Mustafakulov, A.A. Vahobov va boshqalarning ilmiy ishlarida turizm sohasini moliyalashtirish masalalari milliy iqtisodiyot nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Ularning fikricha, turizm kompaniyalarining mavsumiyligi va yuqori kapital talabchanligi kredit mexanizmlarining muhimligini yanada oshiradi[6].

Shu bilan birga, mavjud adabiyotlarda turizm kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga kredit mexanizmlarining kompleks va tizimli ta’siri yetarli darajada chuqur tahlil qilinmagan. Ushbu maqola aynan shu ilmiy bo‘shliqni to‘ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot turizm kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirishda kredit mexanizmlarining o‘rnini aniqlash va baholashga qaratilgan bo‘lib, unda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan kompleks foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv asosida shakllantirildi va kredit mexanizmlarining moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlariga ta’sirini har tomonlama tahlil qilishga xizmat qildi[7].

Tadqiqot jarayonida taqqoslama tahlil usuli orqali turli kredit mexanizmlarining (bank kreditlari, imtiyozli kreditlar, davlat kafolatlari va boshqa moliyaviy instrumentlar) turizm kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta’siri o‘zaro solishtirildi. Mantiqiy va tizimli tahlil usullari kredit mexanizmlarining ijobiy va salbiy jihatlarini, shuningdek, ularning likvidlik, qarzdorlik darajasi va investitsion faollik bilan o‘zaro bog‘liqligini aniqlashda qo‘llanildi[8].

Statistik kuzatuv va umumlashtirish usullari O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasiga yo‘naltirilayotgan kredit resurslari hajmi, davlat qo‘llab-quvvatlash dasturlari va ularning moliyaviy natijalarini baholashda foydalanildi[9]. Tadqiqotda rasmiy statistik ma’lumotlar, soha bo‘yicha tahliliy hisobotlar va ochiq manbalar asosiy axborot bazasini tashkil etdi[10].

Shuningdek, normativ-huquqiy tahlil usuli orqali O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, hukumat qarorlari hamda turizm sohasini moliyalashtirishga oid me’yoriy hujjatlar o‘rganildi. Ularning kredit mexanizmlarini shakllantirish va amaliyotga joriy etishdagi o‘rni baholandi.

Mazkur metodologik yondashuv kredit mexanizmlarining turizm kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta’sirini tizimli ravishda tahlil qilish, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Turizm kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi ularning daromadlar shakllanishi, xarajatlar tuzilmasi hamda moliyalashtirish manbalarining oqilona nisbatiga bevosita bog‘liqdir. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, turizm sohasida mavsumiylik omili ustuvor bo‘lib, yil davomida pul oqimlarining notekis taqsimlanishiga olib keladi. Mavsumdan tashqari davrlarda tushumlarning qisqarishi sharoitida doimiy xarajatlarning saqlanib qolishi aylanma mablag‘lar yetishmovchiligini yuzaga keltiradi va kompaniyalarning joriy likvidligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval

Turizm kompaniyalari faoliyatining moliyaviy xususiyatlari va ularning barqarorlikka ta’siri[18]

Moliyaviy xususiyat	**Tavsifi**	**Moliyaviy barqarorlikka ta’siri**
Mavsumiylik	Daromadlarning notekis tushishi	Likvidlik pasayadi
Oldindan xarajatlar	Marketing, transport, IT	Aylanma mablag‘ tanqisligi
Doimiy xarajatlar	Ish haqi, ijara, servis	To‘lovga qobiliyatlilik bosimi
Investitsion talab	Infratuzilma va xizmat sifati	Qarzdorlik oshishi ehtimoli
Tashqi risklar	Pandemiya, valyuta kurslari	Moliyaviy beqarorlik kuchayadi

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, turizm kompaniyalarida kreditga bo‘lgan ehtiyoj subyektiv omillar bilan emas, balki tarmoqning obyektiv iqtisodiy xususiyatlari bilan

[18] Manba muallif ishlanmasi

belgilanadi. Yuqori investitsion talab va doimiy xarajatlar sharoitida ichki moliyaviy resurslar yetarli bo‘lmaydi va tashqi moliyalashtirish zarurati vujudga keladi.

Mazkur sharoitda kredit mexanizmlarining moliyaviy barqarorlikka ta’siri alohida ahamiyat kasb etadi. Kredit resurslaridan oqilona foydalanish kompaniyalarga aylanma mablag‘larni to‘ldirish, investitsion loyihalarni amalga oshirish va xizmatlar sifatini oshirish imkonini beradi. Biroq kredit yukining haddan tashqari oshishi moliyaviy xavflarni kuchaytirishi va qarzdorlik darajasining ortishiga olib kelishi mumkin.

2-jadval

Kredit mexanizmlarining turizm kompaniyalari moliyaviy barqarorligiga ta’siri[19]


Kredit mexanizmi	**Moliyalashtirish yo‘nalishi**	**Asosiy ta’sir ko‘rsatkichi**	**Moliyaviy natija**
Qisqa muddatli bank krediti	Aylanma mablag‘	Joriy likvidlik	Likvidlik yaxshilanadi
Uzoq muddatli kredit	Investitsion loyihalar	Kapital tuzilmasi	Raqobatbardoshlik oshadi
Imtiyozli kreditlar	Foiz yukini kamaytirish	Qarzdorlik darajasi	Moliyaviy bosim pasayadi
Davlat kafolatlari	Kredit riskini kamaytirish	Kreditga kirish	Kredit hajmi kengayadi
Lizing va faktoring	Aktivlar va pul oqimi	Naqdlik aylanishi	Moliyaviy barqarorlik kuchayadi

Ikkinchi jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, kredit mexanizmlarining turli shakllari moliyaviy barqarorlikka turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Qisqa muddatli kreditlar asosan joriy likvidlikni ta’minlashga xizmat qilsa, uzoq muddatli va imtiyozli kreditlar kompaniyalarning investitsion faolligini oshiradi. Davlat kafolatlari va imtiyozli shartlar banklar uchun kredit risklarini kamaytirib, turizm subyektlarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

O‘tkazilgan tahlillar turizm kompaniyalarining moliyaviy barqarorligiga tahdid solayotgan asosiy muammolar mavsumiylik, aylanma mablag‘lar yetishmovchiligi, yuqori investitsion xarajatlar va tashqi iqtisodiy risklar bilan bog‘liqligini ko‘rsatdi. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun kredit mexanizmlaridan fragmentar emas, balki tizimli va muvozanatli yondashuv asosida foydalanish zarur.

Muammoning yechimi sifatida turizm kompaniyalarida kredit resurslarini moliyaviy ehtiyojlar bilan moslashtiruvchi integratsiyalashgan mexanizmni joriy etish taklif etiladi. Ushbu yondashuv kredit turlarini kompaniyaning operatsion, investitsion va strategik ehtiyojlariga bog‘lash orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

[19] Manba muallif ishlanmasi



1-rasm. Kredit mexanizmlari asosida turizm kompanyalari moliyaviy barqarorlikni ta’minlash modeli[20]

Modelga ko‘ra, qisqa muddatli kreditlar asosan aylanma mablag‘larni to‘ldirish va joriy likvidlikni saqlashga yo‘naltiriladi. Bu mavsumdan tashqari davrlarda to‘lovga qobiliyatlilikning pasayib ketishining oldini oladi. Uzoq muddatli kreditlar va lizing mexanizmlari esa investitsion loyihalarni moliyalashtirish orqali turistik infratuzilmani rivojlantirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Imtiyozli kreditlar va davlat kafolatlari ushbu modelda muhim barqarorlashtiruvchi element sifatida namoyon bo‘ladi. Past foiz stavkalari va imtiyozli davrlar kredit yukini kamaytirib, kredit mablag‘larining real sektor samaradorligini oshiradi. Davlat kafolatlari va kredit sug‘urtasi mexanizmlari esa banklar uchun risklarni pasaytirib, turizm kompaniyalarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Mazkur modelning muhim jihati shundaki, kredit resurslaridan foydalanish moliyaviy rejalashtirish, pul oqimlarini prognozlash va monitoring tizimi bilan uzviy bog‘langan holda amalga oshiriladi. Bu kredit mablag‘larining maqsadsiz sarflanishi va ortiqcha qarzdorlik yuzaga kelishining oldini oladi. Natijada, kredit mexanizmlari moliyaviy xavf manbai emas, balki barqaror rivojlanishni ta’minlovchi vositaga aylanadi.

Umuman olganda, taklif etilayotgan yechim modeli kredit mexanizmlarini turizm kompaniyalarining real moliyaviy ehtiyojlariga moslashtirish orqali:

– joriy likvidlikni barqarorlashtirish,
– investitsion faollikni oshirish,
– moliyaviy risklarni kamaytirish,
– uzoq muddatli moliyaviy barqarorlikni ta’minlash
imkonini beradi.

[20] Manba muallif ishlanmasi

Mazkur yondashuv O‘zbekiston sharoitida turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat kredit siyosati bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanilganda yuqori iqtisodiy samara berishi mumkin.

Xulosa. Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, turizm kompaniyalarining moliyaviy barqarorligi ularning kredit mexanizmlaridan foydalanish darajasi, shakli va samaradorligi bilan chambarchas bog‘liqdir. Turizm sohasining mavsumiy xususiyatga egaligi, oldindan katta moliyaviy xarajatlar talab etilishi hamda tushumlarning notekis shakllanishi ushbu tarmoq subyektlarida doimiy aylanma mablag‘lar tanqisligini yuzaga keltiradi. Bu holat kredit resurslarini turizm kompaniyalari uchun muqobil emas, balki zarur moliyalashtirish manbaiga aylantiradi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, qisqa muddatli kreditlar turizm kompaniyalarining joriy likvidligini ta’minlash va to‘lovga qobiliyatlilikni saqlashda muhim rol o‘ynaydi, uzoq muddatli kreditlar esa investitsion faollikni oshirib, xizmatlar sifati va raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. Imtiyozli kreditlash dasturlari, past foiz stavkalari va imtiyozli davrlarning mavjudligi kredit yukini kamaytirib, moliyaviy barqarorlik ko‘rsatkichlarining yaxshilanishiga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, davlat kafolatlari va kredit sug‘urtasi mexanizmlarining joriy etilishi banklar uchun kredit risklarini kamaytirib, turizm kompaniyalarining moliyaviy resurslarga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu, ayniqsa, kichik va o‘rta turoperatorlar faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib, ularning bozor sharoitlariga moslashuvchanligini oshiradi.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan kredit mexanizmlari modeli kredit resurslarini turizm kompaniyalarining operatsion, investitsion va strategik ehtiyojlari bilan uyg‘unlashtirish orqali moliyaviy barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Ushbu model kreditlardan foydalanishni moliyaviy rejalashtirish, pul oqimlarini monitoring qilish va risklarni boshqarish tizimi bilan integratsiyalashgan holda amalga oshirishni nazarda tutadi.

Umuman olganda, kredit mexanizmlarining ilmiy asoslangan, maqsadli va muvozanatli qo‘llanilishi O‘zbekistonda turizm kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlash, tashqi iqtisodiy zarbalarga moslashuvchanligini oshirish hamda turizm sohasining barqaror va jadal rivojlanishini ta’minlashda muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning turizm sohasini rivojlantirishga oid farmon va qarorlari. – Toshkent, 2023–2024 yy.
2. O‘zbekiston Tiklanish va Taraqqiyot Jamg‘armasi. Turizm sohasini moliyalashtirish bo‘yicha rasmiy ma’lumotlar va tahliliy hisobotlar. – Toshkent, 2024 y.
3. O‘zbekiston Respublikasi Turizm qo‘mitasi. Turizm sohasini rivojlantirishga oid rasmiy axborotlar va statistik ma’lumotlar. – Toshkent, 2023–2024 yy.
4. World Tourism Organization (UNWTO). Tourism and Economic Growth: Global Trends and Policies. – Madrid, 2023.
5. International Monetary Fund (IMF). Global Financial Stability Report. – Washington, D.C., 2023.
6. Cooper, C., Fletcher, J., Fyall, A., Gilbert, D., Wanhill, S. Tourism: Principles and Practice. – London: Pearson Education, 2021.

7. Abdullayev, A.A. Turizm korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash mexanizmlari // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali. – Toshkent, 2022. – №4.
8. Saidov, U.S. Xizmatlar sohasida kreditlashning iqtisodiy samaradorligi // Moliyaviy tahlil jurnali. – Toshkent, 2023. – №2.
9. Porter, M.E. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 2019.
10. UzDaily axborot portali. Turizmni kreditlash va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga oid materiallar. – 2024 y

RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING O‘ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJIGA TA’SIRI

Ochilova Mohigul Toshtemir qizi[1], Dustov Shohrux Iskandar o‘g‘li[2]
[1]SamDVMCHBU “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti,
[2]SamDVMCHBU Iqtisodiyot fakulteti 110-gururh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655277

Annotatsiya. *Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot tushunchasi, uning asosiy yo‘nalishlari hamda O‘zbekiston iqtisodiy rivojiga ko‘rsatayotgan ta’siri tahlil qilingan. Mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning iqtisodiy samaradorlikni oshirish, tadbirkorlik muhitini yaxshilash va investitsiyalarni jalb etishdagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, raqamlashtirish, elektron hukumat, innovatsiya, iqtisodiy rivojlanish.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются сущность цифровой экономики, ее основные направления и влияние на экономическое развитие Республики Узбекистан. Проанализированы проводимые в стране реформы в сфере цифровизации, их роль в повышении экономической эффективности, улучшении предпринимательской среды и привлечении инвестиций. Также освещены существующие проблемы развития цифровой экономики и пути их решения.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, цифровизация, электронное правительство, инновации, экономическое развитие, Узбекистан.*

Abstract. *This article analyzes the concept of the digital economy, its main directions, and its impact on the economic development of Uzbekistan. The reforms implemented in the country within the framework of digitalization, their role in increasing economic efficiency, improving the business environment, and attracting investments are examined. In addition, the existing challenges in the development of the digital economy and possible ways to address them are discussed.*

Keywords: *digital economy, digitalization, e-government, innovation, economic development, Uzbekistan.*

Kirish

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyoti raqamli transformatsiya bosqichiga qadam qo‘ymoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlar bilan rivojlanishi iqtisodiy jarayonlarning shakli va mazmunini tubdan o‘zgartirmoqda. Raqamli iqtisodiyot ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va boshqaruv sohalarida samaradorlikni oshirishning muhim omiliga aylanmoqda. Shu bois, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi O‘zbekiston uchun ham strategik ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyotning mohiyati va asosiy yo‘nalishlari

Raqamli iqtisodiyot — bu zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yurituvchi, ma’lumot va axborotni asosiy resurs sifatida qo‘llaydigan iqtisodiy tizimdir. Ushbu tizimda

internet texnologiyalari, sun’iy intellekt, katta hajmdagi ma’lumotlarni qayta ishlash va avtomatlashtirilgan boshqaruv muhim o‘rin tutadi.

Raqamli iqtisodiyotning asosiy yo‘nalishlariga elektron savdo, raqamli moliya xizmatlari, elektron hukumat, raqamli sanoat va onlayn xizmatlar kiradi. Ushbu yo‘nalishlar iqtisodiy jarayonlarning shaffofligini ta’minlab, inson omiliga bog‘liqlikni kamaytiradi.

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish holati

O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida davlat boshqaruvi, bank-moliya tizimi, soliq va bojxona sohalari bosqichma-bosqich raqamlashtirilmoqda.

Elektron hukumat tizimining joriy etilishi davlat xizmatlaridan foydalanish jarayonini soddalashtirib, byurokratik to‘siqlarni qisqartirdi. Natijada, iqtisodiy faoliyatning shaffofligi oshib, tadbirkorlik subyektlari uchun qulay muhit shakllanmoqda.

Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy rivojga ta’siri

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida raqamli texnologiyalar tobora muhim o‘rin egallamoqda. Raqamli iqtisodiyot tushunchasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) asosida faoliyat yurituvchi iqtisodiy tizimni anglatadi. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. 2020-2030-yillarda O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish Strategiyasi qabul qilingan bo‘lib, unda kichik va o‘rta biznesni (KO‘B) raqamlashtirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida belgilangan.

KO‘B subyektlari mamlakatda ish o‘rinlarining katta qismini ta'minlaydi va yalpi ichki mahsulotga sezilarli hissa qo‘shadi. Shu bois, ularning raqobatbardoshligini oshirish va samaradorligini yaxshilash O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalar KO‘B uchun yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, muayyan qiyinchiliklarni ham keltirib chiqarmoqda.

Raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston iqtisodiy rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Avvalo, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi mehnat unumdorligini oshirib, ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirmoqda. Bu esa milliy mahsulotlarning ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini kuchaytiradi.

Shuningdek, elektron savdo va onlayn to‘lov tizimlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Raqamli platformalar orqali yangi ish o‘rinlari yaratilishi iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Muammolar va istiqboldagi vazifalar

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, raqamli infratuzilmaning hududlar bo‘yicha notekis rivojlanganligi, malakali IT kadrlar yetishmasligi va axborot xavfsizligi masalalari dolzarb hisoblanadi.

Kelgusida ushbu muammolarni bartaraf etish uchun raqamli ta’limni rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish zarur.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston iqtisodiy rivojining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning barcha sohalariga joriy etish orqali mamlakatning iqtisodiy salohiyati oshadi va barqaror rivojlanish ta’minlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi**.
2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi rasmiy materiallari.
3. Mohigul Ochilova POVERTY IN UZBEKISTAN, ONGOING REFORMS AND WAYS TO OVERCOME THEM.
4. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.
5. Narzieva, G. B., (2025). FINANCIAL LITERACY OF CLIENTS: CURRENT ISSUES IN BANKING PRACTICE. American Journal of Interdisciplinary Research and Development 38. 24-27

KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI

Ochilova Mohigul Toshtemir qizi
SamDVMCHBU “Iqtisodiyot va menejment” kafedrasi assistenti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655293

Kirish.

Hozirgi kunda bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ular aholini ish bilan ta’minlash, daromadlarni oshirish, ichki bozorni to‘ldirish va raqobat muhitini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Iqtisodiyotning barcha sohalarida tezkor o‘zgarishlar yuz berayotgan bir davrda kichik biznes subyektlarining barqaror rivojlanishi ko‘p jihatdan innovatsiyalarni joriy etish bilan bog‘liqdir. Shu sababli innovatsion yondashuvlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning muhim omiliga aylanmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tushunchasi

Kichik biznes — bu nisbatan kam miqdordagi ishchi kuchiga ega bo‘lgan, ishlab chiqarish hajmi va daromadi cheklangan, lekin bozor sharoitlariga tez moslasha oladigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar faoliyatidir. Kichik biznes subyektlariga kichik korxonalar, mikrofirmalar va oilaviy bizneslar kiradi.

Xususiy tadbirkorlik esa fuqarolarning o‘z mulki, bilim va tashabbusiga asoslangan holda foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan mustaqil xo‘jalik faoliyatidir. Xususiy tadbirkorlikning asosiy xususiyati shundaki, tadbirkor faoliyat natijalari uchun shaxsan javobgar bo‘ladi va tavakkalchilikni o‘z zimmasiga oladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bir-biri bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsiyalar tushunchasi va ularning ahamiyati

Innovatsiya deganda yangi g‘oya, texnologiya, mahsulot yoki xizmatlarni amaliyotga joriy etish orqali iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikka erishish tushuniladi. Innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda innovatsiyalarni joriy etish korxonalarning bozor sharoitida uzoq muddatli barqaror faoliyat yuritishini ta’minlaydi.

Innovatsiyalarni joriy etishning yutuqlari

Birinchidan, innovatsiyalar kichik biznes subyektlarining raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshiradi. Zamonaviy texnologiyalar va yangi boshqaruv usullaridan foydalanish mahsulot va xizmatlarning sifatini yaxshilaydi hamda ularning bozor talablariga mosligini ta’minlaydi.

Ikkinchidan, innovatsiyalar ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli texnologiyalar yordamida mehnat unumdorligi ortadi, resurslardan oqilona foydalaniladi va ishlab chiqarish tannarxi kamayadi. Bu esa tadbirkorlik subyektlarining foydasini ko‘paytiradi.

Uchinchidan, innovatsiyalar yangi mahsulot va xizmat turlarini yaratishga imkon beradi. Natijada iste’molchilarning ehtiyojlari to‘liqroq qondiriladi va bozor kengayadi. Shu bilan birga, innovatsiyalar eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishga sharoit yaratib, kichik biznesning tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini oshiradi.

Innovatsiyalarni joriy etishning kamchiliklari

Innovatsiyalarni joriy etish jarayonida ayrim muammolar yuzaga keladi. Eng asosiy kamchiliklardan biri — moliyaviy resurslarning cheklanganligidir. Kichik biznes subyektlari uchun yangi texnologiyalarni sotib olish va joriy etish katta xarajatlarni talab qiladi.

Ikkinchi muammo — malakali kadrlar yetishmasligidir. Innovatsion texnologiyalar bilan ishlash uchun yuqori malakali mutaxassislar zarur bo‘lib, ularni tayyorlash va jalb etish vaqt hamda mablag‘ talab etadi.

Bundan tashqari, innovatsion faoliyat yuqori darajadagi tavakkalchilik bilan bog‘liq. Yangi mahsulot yoki texnologiya kutilgan natijani bermasligi yoki bozor tomonidan qabul qilinmasligi mumkin. Bu esa kichik biznes subyektlari uchun moliyaviy yo‘qotishlarga olib kelishi ehtimolini oshiradi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda innovatsiyalarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Innovatsiyalar orqali kichik biznes subyektlari raqobatbardoshligini oshiradi, ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilaydi va yangi bozorlarni egallash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Shu bilan birga, innovatsiyalarni joriy etishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish uchun davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, imtiyozlar yaratish va tadbirkorlarning bilim va malakasini oshirish muhim hisoblanadi. Ana shundagina innovatsiyalar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omilga aylanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. **“Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”**gi farmon va qarorlar to‘plami. – Toshkent.
2. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. **“Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”**. – Toshkent.
3. Karimov I.A. **Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralari.** – Toshkent: O‘zbekiston, 2009.
4. Xodiev B.Yu. **Milliy iqtisodiyot va uning rivojlanishi.** – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
5. Abdug‘aniyev A., To‘xtasinov R. **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari.** – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Nosirov E. **Innovatsion iqtisodiyot va uning rivojlanish omillari.** – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2019.

AHOLI XONADONLARI VA QISHLOQ XO‘JALIGINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI UY XO‘JALIKLARI IQTISODIYOTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Odilov Umid Abduxalimovich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi
ORCID: https:// https://orcid.org/0009-0005-3171-6014
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655304

Annotatsiya. *Ushbu maqolada aholi xonadonlari va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish jarayonining uy xo‘jaliklari iqtisodiyoti samaradorligiga ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda raqamlashtirish axborot sifati va integratsiyasini yaxshilash orqali daromadlarni hisobga olish, iste’mol tuzilmasini aniqlash hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish mexanizmi sifatida ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish bo‘yicha amalga oshirilayotgan institutsional islohotlar misolida raqamli ma’lumotlar bazalarining iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirishdagi roli asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari uy xo‘jaliklari iqtisodiyotini boshqarishda raqamlashtirishning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.*

Kalit so‘zlar: *uy xo‘jaliklari, qishloq xo‘jaligi, raqamlashtirish, iqtisodiy samaradorlik, ro‘yxatga olish.*

Аннотация. *В статье анализируется влияние цифровизации домохозяйств и сельского хозяйства на повышение экономической эффективности экономики домохозяйств. Цифровизация рассматривается как механизм улучшения качества и интеграции данных, обеспечивающий более точный учет доходов, структуры потребления и использования ресурсов. На примере институциональных реформ по проведению переписи населения и сельского хозяйства в Республике Узбекистан обоснована роль цифровых информационных баз в повышении эффективности экономической политики. Полученные результаты подчеркивают практическую значимость цифровизации в управлении экономикой домохозяйств.*

Ключевые слова: *домохозяйства, сельское хозяйство, цифровизация, экономическая эффективность, перепись.*

Abstract. *This article examines the impact of digitalization of households and agriculture on improving the economic efficiency of household economies. Digitalization is considered as a mechanism for enhancing data quality and integration, enabling more accurate accounting of income, consumption patterns, and resource utilization. Using the example of institutional reforms related to the population and agricultural census in the Republic of Uzbekistan, the role of digital data systems in increasing the effectiveness of economic policy is substantiated. The findings highlight the practical importance of digitalization in household economic management.*

Keywords*: households, agriculture, digitalization, economic efficiency, census.*

Kirish. Uy xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti milliy iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lib, aholining daromadlari, iste’mol xatti-harakati, bandligi hamda ijtimoiy farovonligi darajasi bevosita ushbu sektorlar faoliyati samaradorligiga bog‘liqdir.

Rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uy xo‘jaliklari iqtisodiy faoliyatining muhim qismi norasmiy shaklda amalga oshiriladi, bu esa statistik hisobning to‘liqligi va iqtisodiy siyosatning aniqligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1].

Axborot yetishmovchiligi va ma’lumotlarning parchalanib ketganligi resurslardan foydalanishda samarasizlik, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan qo‘llab-quvvatlash choralarining manzilsizligi hamda ijtimoiy transferlar samaradorligining pasayishiga olib keladi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi uy xo‘jaliklari bo‘yicha yer, mehnat va ishlab chiqarish resurslari to‘g‘risidagi aniq va integratsiyalashgan ma’lumotlarning mavjud emasligi iqtisodiy qarorlar sifatini cheklaydi [2].

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi aholi xonadonlari va qishloq xo‘jaligi faoliyatini hisobga olish, monitoring qilish va tahlil etishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltirdi. Raqamlashtirish jarayoni nafaqat ma’lumotlarni yig‘ish usullarini modernizatsiya qilishni, balki axborotlarni standartlashtirish, yagona bazalarda jamlash va real vaqt rejimida tahlil qilish imkoniyatini ham o‘z ichiga oladi. Bu esa uy xo‘jaliklari iqtisodiyoti samaradorligini oshirishda muhim institutsional omil sifatida namoyon bo‘ladi [3].

O‘zbekiston Respublikasida aholi xonadonlari va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish yo‘nalishida izchil institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2026-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risidagi Prezident farmoni uy xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligi subyektlari bo‘yicha yagona, integratsiyalashgan va xalqaro standartlarga mos ma’lumotlar bazasini shakllantirishni nazarda tutadi [4]. Ushbu ro‘yxatga olish tadbiri mikro darajadagi iqtisodiy jarayonlarni chuqur tahlil qilish hamda makroiqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish uchun muhim axborot manbai hisoblanadi.

Shu munosabat bilan mazkur maqolada aholi xonadonlari va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish orqali uy xo‘jaliklari iqtisodiyoti samaradorligini oshirish omillari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi raqamlashtirish jarayonining axborot sifati, resurslardan foydalanish va iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligiga ta’sir etish mexanizmlarini aniqlashdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy ilmiy adabiyotlarda uy xo‘jaliklari iqtisodiyoti samaradorligi asosan axborot sifati, hisobning to‘liqligi va institutsional muhit bilan bog‘liq holda tadqiq etiladi. Stiglitz, Sen va Fitoussi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda uy xo‘jaliklari daromadlari va iste’molini aniq hisobga olish iqtisodiy farovonlikni baholashning muhim sharti ekanligi asoslab berilgan [5]. Jahon banki va BMT ekspertlari tadqiqotlarida esa raqamlashtirilgan aholi va qishloq xo‘jaligi ma’lumotlari davlat siyosati samaradorligini oshirish, ijtimoiy transferlarni manzilli yo‘naltirish hamda norasmiy iqtisodiyot ulushini qisqartirishda muhim vosita sifatida talqin qilinadi [6].

MDH mamlakatlari olimlarining tadqiqotlarida uy xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish omili sifatida ko‘rib chiqilgan. Rossiya va Qozog‘iston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda aholi va qishloq xo‘jaligi censuslari asosida shakllantirilgan ma’lumotlar bazalari hududiy rivojlanish, qishloq xo‘jaligida subsidiyalarni taqsimlash va uy xo‘jaliklari daromadlarini tahlil qilishda muhim ahamiyat kasb etishi qayd etilgan [7]. Ushbu tadqiqotlarda raqamli hisob tizimlarining joriy etilishi uy xo‘jaliklari darajasida iqtisodiy qarorlar qabul qilish sifatini oshirishi ilmiy jihatdan asoslangan.

O‘zbekistonda aholi xonadonlari va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish masalalari normativ-huquqiy hujjatlar orqali mustahkamlanmoqda. Xususan, “Aholini ro‘yxatga olish to‘g‘risida”gi va “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi qonunlar, shuningdek, 2026-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni o‘tkazish to‘g‘risidagi Prezident farmoni uy xo‘jaliklari iqtisodiyoti bo‘yicha yagona va integratsiyalashgan ma’lumotlar bazasini shakllantirishni nazarda tutadi [8]. Mazkur hujjatlar raqamlashtirish jarayonini institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlab, uy xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun zarur axborot asosini yaratadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda uy xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish omillarini aniqlashda tizimli va kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy-metodologik asosi sifatida institutsional iqtisodiyot, axborot iqtisodiyoti hamda uy xo‘jaliklari xatti-harakatini tahlil qilishga oid konsepsiyalar tanlandi. Ushbu yondashuvlar raqamlashtirish jarayonini faqat texnologik hodisa sifatida emas, balki iqtisodiy qarorlar qabul qilish sifati va resurslardan foydalanish samaradorligiga ta’sir etuvchi institutsional omil sifatida baholash imkonini beradi.

Empirik tahlil jarayonida rasmiy statistik ma’lumotlar, aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishga oid normativ-huquqiy hujjatlar hamda Milliy statistika qo‘mitasi tomonidan e’lon qilingan makro va mikro darajadagi ko‘rsatkichlardan foydalanildi. Jumladan, uy xo‘jaliklarining daromad va iste’mol ko‘rsatkichlari, qishloq xo‘jaligi resurslari hamda demografik ma’lumotlar tahlil qilindi. Tadqiqotda taqqoslash, guruhlash, mantiqiy tahlil va umumlashtirish usullari qo‘llanilib, raqamlashtirish darajasi bilan uy xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlik aniqlashga harakat qilindi.

Shuningdek, tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar tahlili alohida o‘rin egallaydi. Prezident farmonlari va hukumat qarorlari asosida aholi xonadonlari va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishning institutsional mexanizmlari o‘rganildi. Ushbu yondashuv raqamlashtirish jarayonining amaliy natijalarini uy xo‘jaliklari darajasida baholash, davlat siyosatining samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natija. Uy xo‘jaligi iqtisodiyoti uy xo‘jaligi daromadlari, yakuniy iste’mol xarajatlari, mehnat resurslaridan foydalanish hamda mavjud aktivlar asosida shakllanadigan mikroiqtisodiy tizim hisoblanadi. Milliy hisoblar tizimi (MHT–2008)ga muvofiq, uy xo‘jaliklarining yakuniy iste’mol xarajatlari yalpi ichki mahsulotning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. O‘zbekiston misolida 2024-yilda uy xo‘jaliklarining yakuniy iste’mol xarajatlari 991,3 trln so‘mni tashkil etib, 2010-yilga nisbatan qariyb 17 barobar oshgan. Shu davrda YaIM hajmi 88,1 trln so‘mdan 1 535,4 trln so‘mgacha yetgan. Bu uy xo‘jaliklari iqtisodiyotining makroiqtisodiy o‘sishdagi hal qiluvchi rolini yaqqol ko‘rsatadi.

Raqamlashtirish ushbu tadqiqotda uy xo‘jaliklari bo‘yicha statistik axborotlarning to‘liqligi va aniqligini oshiruvchi institut sifatida talqin qilinadi. Axborot iqtisodiyoti nazariyasiga ko‘ra, daromad va iste’mol haqidagi noaniq ma’lumotlar qarorlar sifatini pasaytiradi. O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari o‘rtacha hajmi 2021-yilda 5,2 kishini tashkil etgani, ayrim hududlarda bu ko‘rsatkich 5,7 kishigacha yetgani shuni anglatadiki, daromad va iste’molni faqat jon boshiga emas, balki uy xo‘jaligi tarkibi kesimida baholash zarur. Raqamlashtirish aynan shu muammoni hal qilish imkonini beradi.

Iqtisodiy samaradorlik uy xo‘jaliklari darajasida resurslardan foydalanish natijalari bilan bog‘liq bo‘lib, daromadlarning iste’molga aylanish samarasi orqali namoyon bo‘ladi. 2010–2024 yillarda uy xo‘jaliklari iste’moli va YaIM o‘sishi o‘rtasidagi parallel dinamikani tahlil qilish

shuni ko‘rsatadiki, iqtisodiy o‘sish natijalari asosan uy xo‘jaliklari orqali realizatsiya qilinmoqda. Bu esa uy xo‘jaliklari iqtisodiyotini samarali boshqarish makroiqtisodiy barqarorlik uchun muhim shart ekanini tasdiqlaydi.

O‘zbekistonda aholi va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish jarayonining institutsional asosi sifatida PF-173-son Prezident farmoni alohida ahamiyatga ega. Mazkur farmon 2026-yilda aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olishni amalga oshirish orqali 38 millionga yaqin aholi va 26 million gektar qishloq xo‘jaligi yerlarini qamrab oluvchi yagona ma’lumotlar bazasini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Bu uy xo‘jaliklari darajasida ishlab chiqarish va iste’mol jarayonlarini bog‘lab tahlil qilish imkonini yaratadi.

Rasmiy statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, uy xo‘jaliklari iste’moli 2024-yilda YaIMning taxminan 65 foiziga yaqin qismini tashkil etgan. Biroq ushbu ko‘rsatkich uy xo‘jaliklari tarkibi, daromad manbalari va qishloq xo‘jaligi faoliyati kesimida yetarlicha chuqurlashtirilmagan. PF-173 doirasida statistika, kadastr va ijtimoiy himoya ma’lumotlarini integratsiyalash ushbu cheklovni bartaraf etishga xizmat qiladi.

Quyidagi jadval mavjud statistik holat va raqamlashtirish zaruratini ko‘rsatadi.

1-jadval

Uy xo‘jaliklari iqtisodiyotining asosiy statistik ko‘rsatkichlari[21]

Ko‘rsatkich	**2010-yil**	**2024-yil**	**O‘sish**
YaIM, trln so‘m	88,1	1 535,4	17,4 barobar
Uy xo‘jaliklari iste’moli, trln so‘m	57,5	991,3	17,2 barobar
Uy xo‘jaligi o‘rtacha hajmi, kishi	–	5,2	–

Raqamlashtirish orqali uy xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirishning birinchi omili — daromad va iste’molni aniq hisobga olishdir. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, uy xo‘jaliklari iste’molining tez sur’atlarda o‘sishi davlat xarajatlari va transfertlarining manzilliligini oshirishni talab etadi. Raqamli ro‘yxatga olish orqali uy xo‘jaligi hajmi va daromad manbalari aniqlashtirilsa, ijtimoiy yordamlar real ehtiyoj asosida taqsimlanadi.

Ikkinchi omil — qishloq xo‘jaligida uy xo‘jaliklari ishtirokini raqamli hisobga olishdir. Aholining katta qismi qishloq xo‘jaligi bilan bog‘liq bo‘lgan sharoitda yer va chorva resurslarining aniq reyestrlari ishlab chiqarish hajmlarini real baholash imkonini beradi. Bu esa norasmiy faoliyat ulushini qisqartirib, statistik ko‘rsatkichlarning ishonchliligini oshiradi.

Quyidagi jadval samaradorlik mexanizmini statistik nuqtayi nazardan umumlashtiradi.

2-jadval

Raqamlashtirish orqali uy xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmi[22]

Bosqich	**Statistik natija**	**Iqtisodiy ta’sir**
Raqamli ro‘yxatga olish	To‘liq mikro ma’lumot	Aniqlik oshadi
Ma’lumotlar integratsiyasi	Daromad–iste’mol bog‘liqligi	Qaror sifati

[21] *Manba Stat.uz malumotlari asosida ishlab chiqilgan*
[22] *Manba Stat.uz malumotlari asosida ishlab chiqilgan*


Tahlil va monitoring	Manzilli siyosat	Resurs tejalishi
Natija	Samarali iste’mol	Farovonlik o‘sishi

Umuman olganda, statistik ma’lumotlar bilan tasdiqlanadiki, “raqamlashtirish → axborot sifati → iqtisodiy qarorlar → samaradorlik” zanjiri O‘zbekiston sharoitida uy xo‘jaliklari iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy mexanizmi hisoblanadi. PF-173 farmoni esa ushbu jarayonni tizimli va majburiy shaklda amalga oshirish uchun zarur institutsional asosni yaratadi.

O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda uy xo‘jaliklari iqtisodiyoti yalpi ichki mahsulot shakllanishida yetakchi rol o‘ynab, iqtisodiy o‘sish natijalari asosan uy xo‘jaliklari iste’moli orqali realizatsiya qilinmoqda. 2024-yilda uy xo‘jaliklarining yakuniy iste’mol xarajatlari qariyb 1 000 trln so‘mga yetgani, YaIM tarkibida ularning ulushi yuqori ekanini tasdiqlaydi. Biroq uy xo‘jaliklari daromadlari, qishloq xo‘jaligi faoliyati va norasmiy iqtisodiyot bo‘yicha ma’lumotlarning parchalanib ketganligi iqtisodiy siyosat samaradorligini cheklab kelmoqda. Ushbu holat uy xo‘jaliklari iqtisodiyotini raqamlashtirishga asoslangan yangi institutsional model joriy etishni talab qiladi.

Xitoy Xalq Respublikasi tajribasi shuni ko‘rsatadiki, uy xo‘jaliklari va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish orqali mikro va makro darajadagi iqtisodiy samaradorlikni bir vaqtda oshirish mumkin. Xitoyda aholi reyestrlari, qishloq xo‘jaligi yer reyestrlari va ijtimoiy dasturlar yagona raqamli platformalar orqali integratsiya qilingan bo‘lib, bu “uy xo‘jaligi – ishlab chiqarish – iste’mol – davlat siyosati” zanjirini uzluksiz boshqarish imkonini yaratgan. Natijada subsidiyalar va ijtimoiy yordamlar manzilli taqsimlangan, qishloq xo‘jaligida norasmiy faoliyat qisqargan va uy xo‘jaliklari daromadlarining barqaror o‘sishi ta’minlangan.

Mazkur tajribani inobatga olgan holda, O‘zbekiston sharoitida “Uy xo‘jaliklari iqtisodiyotini raqamli boshqarish modeli”ni joriy etish taklif etiladi. Ushbu modelning institutsional asosi sifatida PF-173-son Prezident farmoni xizmat qiladi. Model aholi va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirilgan ro‘yxatga olish orqali to‘plangan mikro ma’lumotlarni statistika, kadastr va ijtimoiy himoya tizimlari bilan integratsiya qilishni nazarda tutadi. Natijada uy xo‘jaliklari daromadlari, iste’mol tuzilmasi va ishlab chiqarish resurslari bo‘yicha to‘liq axborot bazasi shakllanadi(1-rasm).



1-rasm. Uy xo‘jaliklari iqtisodiyotini raqamli boshqarish modeli[23]

Taklif etilayotgan model doirasida birinchi amaliy yechim sifatida uy xo‘jaliklari bo‘yicha raqamli profillarni shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Ushbu profillar uy xo‘jaligi tarkibi, daromad manbalari, qishloq xo‘jaligi resurslari va iste’mol ko‘rsatkichlarini qamrab oladi. Bu Xitoy tajribasidagi “raqamli xonadon” yondashuviga mos kelib, ijtimoiy siyosatni aniq statistik asosda olib borish imkonini beradi. Ikkinchi yechim sifatida qishloq xo‘jaligida yer va chorva reyestrlarini uy xo‘jaliklari bilan bog‘lash orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish taklif etiladi. Bu kreditlash, sug‘urtalash va subsidiyalash mexanizmlarining iqtisodiy qaytimini kuchaytiradi.

Uchinchi muhim natija shundan iboratki, raqamlashtirish asosida uy xo‘jaliklari darajasida iqtisodiy qarorlar sifati oshadi. Xitoy tajribasida bo‘lgani kabi, daromad va iste’mol haqidagi to‘liq axborot uy xo‘jaliklarining moliyaviy xulqini yaxshilab, resurslardan foydalanishda samaradorlikni oshiradi. O‘zbekistonda ham bu yondashuv davlat xarajatlarining tejalishiga, norasmiy iqtisodiyot qisqarishiga va aholi farovonligining barqaror o‘sishiga olib kelishi kutiladi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Xitoy tajribasiga tayangan holda ishlab chiqilgan va PF-173 farmoni bilan institutsional jihatdan mustahkamlangan raqamli uy xo‘jaliklari modeli O‘zbekiston sharoitida amaliy jihatdan tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan samarali yechim hisoblanadi. Ushbu model “raqamlashtirish → axborot sifati → qaror sifati → uy xo‘jaliklari iqtisodiy samaradorligi” zanjirini real iqtisodiy natijalarga aylantirish imkonini beradi.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda aholi xonadonlari va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirish orqali uy xo‘jaliklari iqtisodiyoti samaradorligini oshirish masalasi nazariy, statistik va institutsional jihatdan tahlil qilindi. O‘rganilgan rasmiy statistik ma’lumotlar uy xo‘jaliklarining yakuniy

[23] *Manba muallif ishlanmasi*

iste’mol xarajatlari O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotining asosiy tarkibiy qismi ekanini hamda iqtisodiy o‘sish natijalari bevosita uy xo‘jaliklari faoliyati orqali shakllanayotganini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, uy xo‘jaliklari daromadlari, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi va norasmiy iqtisodiyot bo‘yicha ma’lumotlarning yetarli darajada integratsiyalashmaganligi iqtisodiy qarorlar sifatini cheklab kelayotgani aniqlandi.

Tadqiqot natijalari PF-173-son Prezident farmoni O‘zbekistonda aholi va qishloq xo‘jaligini raqamlashtirishning asosiy institutsional tayanchi ekanini tasdiqlaydi. Mazkur farmon doirasida amalga oshiriladigan raqamlashtirilgan ro‘yxatga olish uy xo‘jaliklari bo‘yicha to‘liq, ishonchli va tizimli mikro ma’lumotlar bazasini shakllantirish imkonini beradi. Bu axborot assimetriyasini kamaytirish, davlat siyosatini manzilli olib borish hamda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun zarur shart-sharoit yaratadi.

Tadqiqotda taklif etilgan konseptual model uy xo‘jaliklari iqtisodiyotini raqamli boshqarishning uzluksiz mexanizmini ifodalaydi. Mazkur model “ma’lumotlarni yig‘ish – integratsiyalash – tahlil va monitoring – manzilli choralar – baholash” bosqichlariga asoslanib, uy xo‘jaliklari darajasida iqtisodiy qarorlar sifatini oshirishga yo‘naltirilgan. Ushbu yondashuv uy xo‘jaliklari daromadlari va iste’molini aniq hisobga olish, qishloq xo‘jaligida resurslardan foydalanishni yaxshilash hamda norasmiy faoliyat ulushini qisqartirish imkonini beradi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari raqamlashtirishni faqat texnik jarayon emas, balki uy xo‘jaliklari iqtisodiyotini samarali boshqarishning muhim institutsional vositasi sifatida qarash zarurligini ko‘rsatadi. PF-173 farmoni asosida shakllantiriladigan raqamli ma’lumotlar tizimi O‘zbekiston sharoitida iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish, davlat xarajatlari qaytimini kuchaytirish va aholi farovonligining barqaror o‘sishini ta’minlash uchun muhim ilmiy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. North D.C. *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990.
2. Arrow K.J. *The Economics of Information*. — Cambridge, MA: Harvard University Press, 1984.
3. United Nations. *Principles and Recommendations for Population and Housing Censuses. Revision 3*. — New York: United Nations, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. O‘zbekiston Respublikasida aholi va qishloq xo‘jaligini ro‘yxatga olish tadbirini o‘tkazish to‘g‘risida PF-173-son Farmon. — Toshkent, 2025-yil 19-sentabr. (lex.uz)
5. Stiglitz J.E., Sen A., Fitoussi J.P. *Report by the Commission on the Measurement of Economic Performance and Social Progress*. — Paris: OECD, 2009.
6. World Bank. *World Development Report 2021: Data for Better Lives*. — Washington, DC: World Bank, 2021.
7. Rosstat. *Population and Agricultural Census Methodology and Applications*. — Moscow, 2018.
8. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni. Rasmiy statistika to‘g‘risida. — Toshkent, 2021.

TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI – IQTISODIY SAMARADORLIKDA ASOSIY OMIL

Otoboyeva Aziza Shakirovna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Axborot texnologiyalari tabiiy va aniq fanlar kafedarsi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655316

Annotatsiya: *Ushbu maqolada texnik tizimlarda axborot texnologiyalarining iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. SCADA, IoT, Big Data, raqamli egizaklar va sun’iy intellekt kabi texnologiyalar orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, resurslarni tejash, xarajatlarni kamaytirish va eksport salohiyatini kuchaytirish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi. O‘zbekiston sharoitida aqlli sug‘orish, sanoat monitoringi, transportni optimallashtirish va global kontekstda konkret natijalar keltirilgan. 2025 yilda iqtisodiy o‘sish 7,7% ni tashkil etgani, IT-xizmatlar eksporti 2022 yilda $140 mln dan 2030 yilga $5 mlrd gacha yetkazish maqsadi "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida qaralgan. Maqola texnik tizimlarda AT mutaxassislarini tayyorlashning milliy iqtisodiyot uchun strategik ahamiyatini ham ta’kidlaydi.*

Shuningdek, texnik tizimlar va axborot texnologiyalarining iqtisodiyotni zamon talabi darajasida rivojlanishiga qo‘shadigan hissasi, iqtisodiy jarayonlarda tutgan o‘rni va ahamiyatini tahlilini yoritadi.

Аннотация: *В данной статье анализируется роль и значение информационных технологий в технических системах для экономического роста. Рассматриваются механизмы повышения эффективности производства, экономии ресурсов, снижения затрат и увеличения экспортного потенциала с использованием таких технологий, как SCADA, IoT, Big Data, цифровые двойники (digital twins) и искусственный интеллект. Приводятся конкретные результаты применения «умного» орошения, промышленного мониторинга и оптимизации транспортных процессов в условиях Узбекистана, а также в глобальном контексте. Отмечается, что в 2025 году экономический рост составил 7,7 %, а также указана цель увеличения экспорта ИТ-услуг с $140 млн в 2022 году до $5 млрд к 2030 году в рамках стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030». В статье подчёркивается стратегическая важность подготовки специалистов по информационным технологиям в технических системах для национальной экономики.*

Abstract: *This article analyzes the role and importance of information technologies in technical systems for economic growth. It examines the mechanisms of increasing production efficiency, resource saving, cost reduction, and enhancement of export potential through the use of technologies such as SCADA, IoT, Big Data, digital twins, and artificial intelligence. Specific results of the application of smart irrigation, industrial monitoring, and transport optimization in the context of Uzbekistan, as well as in the global context, are presented. It is noted that in 2025 the economic growth reached 7.7%, and the target is to increase IT services exports from $140 million in 2022 to $5 billion by 2030 within the framework of the “Digital Uzbekistan – 2030” strategy. The article emphasizes the strategic importance of training specialists in information technologies for technical systems for the national economy. Furthermore, it highlights the contribution of technical systems and information technologies to the development*

of the economy in line with modern requirements and analyzes their place and significance in economic processes.

Kalit so‘zlar: *Axborot, axborot tushunchasi, axborot turlari va xossalari, axborot texnologiyalari, texnik tizimlar, iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, industrya.*

Kirish: Zamonaviy iqtisodiyotda texnik tizimlarning o‘rni va ahamiyati (sanoat korxonalari, energetika tarmoqlari, suv xo‘jaligi, transport-logistika va qishloq xo‘jaligi)ning faoliyatinig samarali ishlashini axborot texnologiyalarisiz (AT) tasavvur qilib bo‘lmaydi. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari fani real vaqt rejimida ma'lumotlarni yig‘ish, uzatish, qayta ishlash, tahlil qilish va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish jarayonlarini o‘rganadi va qo‘llaydi.

Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari alohida fan sifatida O‘zbekiston oliy ta’lim muassasalarida (ayniqsa, texnik va muhandislik yo‘nalishlarida — masalan, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Andijon mashinasozlik instituti, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari institute, Toshkent texnika universiteti va boshqalarda) o‘qitiladigan maxsus fan bo‘lib, texnik jarayonlarni boshqarish, monitoring qilish va optimallashtirish uchun axborot texnologiyalarini qo‘llashni o‘rganadi.

Bu fan nafaqat texnik jarayonlarni optimallashtiradi, balki butun iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini ta'minlaydi: resurslarni tejash, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va yangi eksport imkoniyatlarini yaratish orqali. O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatda bu fan "Raqamli O‘zbekiston – 2030" strategiyasining markazida turib, milliy iqtisodiyotni yangi bosqichga olib chiqishda hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

2025-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston iqtisodiyoti 7,7% ga o‘sdi (2021-yildan buyon eng yuqori ko‘rsatkich), bu raqamlashtirish va avtomatlashtirishning sezilarli hissasi bilan bog‘liq.

Asosiy qism: Texnik tizimlarda axborot texnologiyalarining iqtisodiyotdagi asosiy o‘rni. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalarining quyidagi mexanizmlar orqali iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir qiladi. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslarni optimallashtirish SCADA (Supervisory Control and Data Acquisition)-Nazorat va ma’lumotlar yig‘ish boshqaruvi yoki Yuqori darajadagi nazorat va ma’lumotlar yig‘ish tizimi, DCS (Distributed Control System)- Taqsimlangan boshqaruv tizimi yoki Tarqalgan boshqaruv tizimi, PLC Programmable Logic Controller- Dasturlashtiriladigan mantiqiy kontroller yoki Dasturlanadigan mantiqiy boshqaruvchi, va IoT Internet of Things-Narsalar interneti yoki Buyumlar interneti) tizimlari real vaqt monitoringini ta’minlaydi. Bu energiya sarfini 15–35% ga, nosozliklarni esa 30–50% ga kamaytiradi (bashoratli texnik xizmat ko‘rsatish – predictive maintenance).

Xarajatlar va yo‘qotishlarni keskin qisqartirish - Sensor tarmoqlari va Big Data tahlili resurslarni (elektr, suv, xom ashyo) samarali boshqarishga yordam beradi. Raqamli transformatsiya, raqamli egizaklar (Digital Twins), sun’iy intellekt va mashinaviy o‘rganish yangi biznes-modellarni yaratadi ya’niy bu degani, moslashuvchan ishlab chiqarish, masofadan boshqariladigan "aqlli" zavodlar misolaida ko‘rishz mumkin.Iqtisodiyotda eksport salohiyatini oshirishda texnik tizimlar uchun dasturiy ta’minot, modellashtirish, integratsiya va IT-xizmatlar eksporti jadal o‘smoqda. Real sektorning raqamlashtirilishi ya’niy, energetika, qishloq xo‘jaligi,

transport va suv xo‘jaligida axborot texnologiyalarini joriy etish, iqtisodiy o‘sishning asosiy omillaridan biriga aylanmoqda. O‘zbekistonning global kontekstida sanoat va energetika sohasi

SCADA va IoT joriy etilishi: SCADA va IoT— bu zamonaviy texnik tizimlarda (sanoat, energetika, suv xo‘jaligi, transport va boshqa texnologiyalar bilan birlashib, jarayonlarni monitoring qilish, boshqarish va optimallashtirishni yangi bosqichga olib chiqish jarayoni hisoblanadi. Bu integratsiya orqali an’anaviy SCADA, IoT qurilmalari (sensorlar, simsiz aloqa, bulutli hisoblash) bilan boyitiladi. Natijada tizim yanada moslashuvchan, masofaviy, real vaqt rejimida ishlay oladigan shu bilan birga arzon narxda baholanadi. Ko‘pgina O‘zbekiston korxonalarida (masalan, kimyo va neft-gaz sanoatida) SCADA tizimlari orqali jarayonlar monitoringi va avtomatlashtirilgan boshqaruv joriy etilgandan keyingi natijalarda energiya samaradorligi 20–30% ga oshib, avariya holatlari 30–50% ga kamaydi.

Bashoratli texnik xizmatlar shuningdek, uskunalar nosozligini erta aniqlash amallari orqali to‘xtab qolish vaqtini qisqartirish natijasida yil davomida millionlab so‘m mablag‘lar tejalishiga erishilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligida aqlli sug‘orish tizimlarini olib qaradigan bo‘lsak, sensorlar, IoT va dronlar orqali boshqarish natijasida suv sarfi 25–40% ga kamaygan, hosildorlik 15–25% ga oshgan masalan, paxta va meva-sabzavot yetishtirishda Farg‘ona va Andijon viloyatlarida IoT asosidagi sug‘orish loyihalari suv resurslarini tejash va hosilni oshirishda katta muvaffaqiyatlarga erishilmoqda. Transport va logistikani oladigan bo‘lsak, GPS/GSM monitoring va avtomatlashtirilgan boshqaruvida yuk tashish xarajati 15–25% ga kamaygan bo‘lsa, yetkazib berish tezligi 30% ga oshdi. Ayni vaqtda Toshkent shahridagi transport monitoringi va "aqlli" svetoforlar orqali yo‘l harakati optimallashtirilmoqda va katta ijobiy natijalar kutilmoqda.

Asosiylardan hisoblanuvchi IT-xizmatlar va eksport masalalarida texnik tizimlar uchun dasturiy ta’minot va integratsiya xizmatlari eksporti 2022-yilda $140 mln ga yetgan bo‘lsa, 2030-yil maqsadi – $5 mlrd deb hisoblandi. O‘zbekiston IT Park boshqaruvchilari xorijiy kompaniyalar bilan hamkorlikda sanoat avtomatlashtirish loyihalarini amalga oshirmoqda. Bunga bitta misol qilib 3D printerlarni misol qilib olish mumkin.

Iqtisodiy ta‘sirning asosiy ko‘rsatkichlari (2024–2025 yillar ma‘lumotlari asosida)

Yo‘nalish	ATning texnik tizimlardagi roli	Iqtisodiy natija (taxminiy / real)
Sanoat va energetika	SCADA, IoT, real vaqt monitoring	Energiya samaradorligi +20–30%, avariyalar –30–50%
Qishloq xo‘jaligi va suv xo‘jaligi	Aqlli sug‘orish, sensor tarmoqlari, dronlar	Suv sarfi –25–40%, hosildorlik +15–25%
Transport va logistika	GPS monitoring, avtomatlashtirilgan boshqaruv	Yuk tashish xarajati –15–25%, yetkazib berish tezligi +30%
IT-xizmatlar eksporti	Texnik tizimlar uchun dasturiy ta'minot va integratsiya	2022: $140 mln; 2030 maqsad: $5 mlrd
Umumiy iqtisodiy o‘sish	Raqamli iqtisodiyot ulushi	AKT sektori YIMga qo‘shgan hissasi 2025: ~2–3%; maqsad 5–7%+
Yalpi ichki mahsulot (YIM)	Raqamlashtirish va avtomatlashtirish omillari	2025-yilda 7,7% o‘sish (eng yuqori ko‘rsatkich)

Strategik va uzoq muddatli ahamiyatlarga keladigan bo ‘lsak, Global raqobatbardoshlik, texnik tizimlarda axborot texnologiyalarning qo‘llanilishi mahsulot sifatini yaxshilaydi, narxni pasaytiradi va eksport bozorlarida ustunlik oshiradi. Mamlakatimisda raqamli texnologiyalar sohasida 300 mingdan ortiq yuqori malakali ish o‘rni yaratilishi amalda kuzatilmoqda. Resurslarni tejash, ekologik toza texnologiyalar va aholining hayot sifatini oshirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik sezilarli darajada oshmoqda.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, texnik tizimlarda axborot texnologiyalari zamonaviy iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida nafaqat xarajatlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish vositasi, balki O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun global bozorlarda ustunlikka erishish, barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va raqamli iqtisodiyotga o‘tishning kalit omilidir. Ushbu yo‘nalishdagi investitsiyalar va kadrlar tayyorlashni davom ettirish milliy iqtisodiyotni yangi, yuqori texnologik bosqichga olib chiqishda muhim qadam bo‘lib qoladi.

Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari bugungi iqtisodiyotda raqamli transformatsiyaning yuragi va iqtisodiy o‘sishning asosiy dvigateli hisoblanib, O‘zbekiston uchun bu etakchi fan sifatida ham qaralib, "Raqamli iqtisodiyot" va "IT-eksport" markazida hamda mamlakatni Markaziy Osiyoning yetakchi IT-markaziga aylantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Ushbu yo‘nalish bo‘yicha chuqur bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlash-nafaqat texnik tizimlar samaradorligini ta’minlash, balki milliy iqtisodiyotni yangi, raqamli bosqichga olib chiqishning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. 2030-yilga borib IT-xizmatlar eksportini yuksak darajaga yetkazish va AKT sektorining YIMdagi ulushini sezilarli darajada oshirish maqsadlariga asoslangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

6. O‘zbekiston Respublikasining qonuni 11.12.2003y. N560-II Axborotlashtirish to‘g‘risida qonun**.** **https://nrm.uz/contentf?doc=52621_o‘zbekiston_respublikasining_11_12_2003_y_560son_ahborotlashtirish_to‘g‘risidagi_qonuni&products=1_zakonodatelstvo_ruz&trr**
7. Elmuradov B.E. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma. Samarqand, 2020. (Fan asoslari, real vaqt monitoring, SCADA va IoT haqida.)
8. Kadirov M.M. Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari. O‘quv qo‘llanma, 1-qism. Toshkent: Sano-standart, 2018. (Texnik jarayonlarni boshqarish va optimallashtirish bo‘yicha.)
9. Namangan muhandislik texnologiyalari instituti (yoki boshqa texnik OTM) o‘quv materiallari: “TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI” (ZiyoNET yoki Scribd’dagi majmua, 19-mavzu: fan kirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari).
10. Raqamli iqtisodiyot sharoitida fan va ta’limni ishlab chiqarish bilan integratsiyasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari (Dig ECO-2025) Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani, “Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari” fanini integrativ platforma asosida o‘qitish metodikasini takomillashtirish. Otoboyeva A. Sh.

O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Pardayev Anvarjon Yusupovich
“Buxgalteriya hisobi va statistika” kafedrasi o‘qituvchisi Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655330

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashning nazariy-metodologik asoslari va amaliy jihatlari tadqiq etilgan. Tadqiqotda bank barqarorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar - kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, aktivlar sifati va rentabellik kompleks yondashuv asosida tahlil qilindi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy ma’lumotlari asosida tijorat banklari moliyaviy holatining 2024-2025 yillardagi tendensiyalari empirik jihatdan baholandi. Tadqiqot natijalari bank tizimi barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, moliyaviy barqarorlik, bank tizimi, kapital yetarliligi, likvidlik, kredit portfeli.*

Аннотация. *В данной статье исследуются теоретико-методологические основы и практические аспекты оценки финансовой устойчивости коммерческих банков. В исследовании на основе комплексного подхода проанализированы ключевые показатели, определяющие устойчивость банков, такие как достаточность капитала, уровень ликвидности, качество активов и рентабельность. На основе официальных данных Центрального банка Республики Узбекистан и Государственного комитета по статистике проведена эмпирическая оценка основных тенденций финансового состояния коммерческих банков за 2024–2025 годы. Результаты исследования позволяют сформулировать научно-практические выводы и рекомендации, направленные на повышение устойчивости банковской системы.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, финансовая устойчивость, банковская система, достаточность капитала, ликвидность, кредитный портфель.*

Abstract.*This article examines the theoretical and methodological foundations as well as practical aspects of assessing the financial stability of commercial banks. Using a comprehensive approach, the study analyzes key indicators determining bank stability, including capital adequacy, liquidity level, asset quality, and profitability. Based on official data from the Central Bank of the Republic of Uzbekistan and the State Statistics Committee, the main trends in the financial condition of commercial banks for 2024–2025 are empirically assessed. The results of the study provide an opportunity to develop scientific and practical conclusions and recommendations aimed at enhancing the stability of the banking system.*

Keywords: *commercial banks, financial stability, banking system, capital adequacy, liquidity, loan portfolio.*

Kirish. Tijorat banklari moliya tizimining markaziy instituti sifatida iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta’minlaydi, investitsion faollikni oshiradi hamda real sektor va aholi o‘rtasida moliyaviy vositachilik funksiyasini bajaradi. Shu bois bank tizimining barqaror faoliyati makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish va moliyaviy xavfsizlikni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda global moliyaviy bozorlarda kuzatilayotgan beqarorlik, foiz stavkalarining o‘zgaruvchanligi, kredit xavflarining kuchayishi va tashqi iqtisodiy shoklar bank tizimlari barqarorligiga bo‘lgan talablarni sezilarli darajada oshirdi. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda tijorat banklari barqarorligini kompleks baholash dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylandi [1].

O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi ham so‘nggi yillarda faol transformatsiya jarayonini boshdan kechirmoqda. Tijorat banklari aktivlari, kredit portfeli va depozit bazasining jadal o‘sishi bank tizimining iqtisodiyotdagi rolini yanada kuchaytirmoqda. Biroq miqdoriy o‘sish ko‘rsatkichlari bank tizimining real barqarorligini to‘liq ifodalamaydi. Shu sababli bank barqarorligini kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, kredit portfeli sifati va rentabellik kabi sifat ko‘rsatkichlari majmui asosida baholash zarurati yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi - O‘zbekiston tijorat banklari barqarorligini baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda rasmiy statistik ma’lumotlar asosida bank tizimi moliyaviy barqarorligining amaldagi holatini empirik tahlil qilishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Tijorat banklari barqarorligini baholash masalasi moliyaviy iqtisodiyot nazariyasida keng o‘rganilgan. Dastlabki ilmiy tadqiqotlarda bank tizimidagi beqarorlik sabablari moliyaviy inqirozlar bilan bog‘liq holda izohlangan. Xususan, Gorton bank inqirozlarini iqtisodiy sikllar bilan bog‘lab, bank tizimida likvidlik va ishonch muammolari moliyaviy beqarorlikning asosiy manbai ekanini asoslab bergan. Kindleberger va Minsky tomonidan ilgari surilgan moliyaviy beqarorlik gipotezasida esa kredit ekspansiyasi va spekulyativ moliyalashtirish bank barqarorligini izdan chiqaruvchi muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi [2].

Keyingi bosqichda bank barqarorligini baholashda prudensial yondashuvlar shakllandi. Bazel qo‘mitasi tomonidan ishlab chiqilgan Bazel I, II va III standartlarida bank barqarorligi kapital yetarliligi, likvidlik ko‘rsatkichlari va risklarga sezgirlik orqali baholanadi [3]. Ushbu yondashuvga ko‘ra, bank kapitalining yetarli darajada shakllantirilishi moliyaviy yo‘qotishlarga bardoshlilikni ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Xalqaro Valyuta Jamg‘armasi va Xalqaro Hisob-kitoblar Banki tadqiqotlarida bank tizimi barqarorligi moliyaviy shoklarga qarshi turish qobiliyati nuqtayi nazaridan talqin qilinadi [4].

Ilmiy adabiyotlarda bank barqarorligini empirik baholashda CAMELS modeli, Z-score, stress-testlash va makroprudensial indikatorlardan keng foydalaniladi. Demirgüç-Kunt va Martinez Peria tadqiqotlarida kapital yetarliligi va aktivlar sifati bank barqarorligiga eng kuchli ta’sir etuvchi omillar ekanligi empirik jihatdan isbotlangan [5]. Beck va hammualliflar kredit portfelining diversifikatsiyasi va moliyaviy chuqurlik bank tizimi barqarorligini mustahkamlashini ta’kidlaydi [6]. O‘zbekiston va MDH mamlakatlari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda esa bank barqarorligini baholash asosan alohida prudensial ko‘rsatkichlar orqali amalga oshirilgan bo‘lib, integral yondashuvlar yetarli darajada rivojlanmagan [7].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashning nazariy-uslubiy asoslarini takomillashtirish hamda O‘zbekiston bank tizimi

misolida amaliy baholashni amalga oshirishga qaratilgan. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida moliyaviy barqarorlik nazariyasi, prudensial nazorat konsepsiyasi va bank risklarini boshqarish yondashuvlari qabul qilindi. Shuningdek, Bazel III talablarida belgilangan kapital yetarliligi va likvidlik me’yorlari hamda xalqaro bank amaliyotida qo‘llaniladigan integral baholash usullaridan foydalanildi.


Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy usullar qo‘llanildi. Xususan, tahlil va sintez usullari orqali bank barqarorligini belgilovchi asosiy ko‘rsatkichlar — kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, aktivlar sifati va rentabellik o‘zaro bog‘liqlikda o‘rganildi. Taqqoslash usuli yordamida tijorat banklarining moliyaviy ko‘rsatkichlari banklar kesimida solishtirildi, guruhlash va indekslash usullari orqali esa bank barqarorligini baholovchi integral ko‘rsatkich shakllantirildi.

Empirik tahlil O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy statistik ma’lumotlari asosida amalga oshirildi. Tadqiqot doirasida aktivlar hajmi bo‘yicha eng yirik tijorat banklarining 2024–2025 yillardagi moliyaviy hisobotlari tahlil qilindi. Olingan natijalar mantiqiy umumlashtirish va solishtirma tahlil usullari orqali qayta ishlanib, bank tizimi barqarorligini oshirishga qaratilgan ilmiy-amaliy xulosalar chiqarildi.

Tahlil va natija. Tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholash ko‘p omilli yondashuvni talab etadi, chunki bank faoliyati turli moliyaviy risklar va iqtisodiy omillar ta’siri ostida shakllanadi. Amaliyotda bank barqarorligini faqat alohida ko‘rsatkichlar orqali baholash bankning haqiqiy moliyaviy holatini to‘liq aks ettira olmaydi. Shu sababli bank barqarorligini baholashda kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, aktivlar sifati va rentabellik kabi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarni o‘zaro bog‘liq holda kompleks tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

Mazkur tadqiqotda bank barqarorligini baholashning integral yondashuviga asoslangan model ishlab chiqildi. Ushbu model bank faoliyatining muhim jihatlarini aks ettiruvchi to‘rtta asosiy blokni qamrab olib, ularning umumlashtirilgan bahosini shakllantirish imkonini beradi. Quyida keltirilgan rasmda tijorat banklari moliyaviy barqarorligini baholashning integral modeli va uning asosiy tarkibiy elementlari aks ettirilgan.

Bank barqarorligini baholash modeli quyidagi formulalarni o‘z ichiga oladi.



$$IBI = 0.3K + 0.25L + 0.25A + 0.2R$$

1-rasm. Bank barqarorligini baholash modeli ko‘rsatkichlari

Mazkur ko‘rsatkichlar asosida integral bank barqarorlik indeksi (IBI) quyidagicha hisoblandi:

$$IBI = 0.3K + 0.25L + 0.25A + 0.2R$$

Og‘irlik koeffitsiyentlari Bazel III talablari va xalqaro ilmiy adabiyotlarda keng qo‘llaniladigan nisbatlar asosida belgilandi.

Tadqiqotning axborot bazasini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan e’lon qilingan rasmiy statistik ma’lumotlar hamda Davlat statistika qo‘mitasining ochiq hisobotlari tashkil etadi. Ushbu ma’lumotlar bank tizimining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlarini tizimli va solishtirma tahlil qilish imkonini beradi hamda tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlaydi.

Empirik tahlil bank tizimidagi aktivlar hajmi bo‘yicha yetakchi bo‘lgan 10 ta tijorat banki misolida amalga oshirildi [8]. Tadqiqotga quyidagi banklar jalb etildi: Milliy bank, Asakabank, O‘zsanoatqurilishbank, Agrobank, Ipoteka bank, Xalq banki, Aloqabank, Mikrokreditbank, Kapitalbank va Hamkorbank. Mazkur banklar O‘zbekiston bank tizimi aktivlarining asosiy qismini shakllantirib, bank sektorining institutsional va moliyaviy tuzilmasini yetarli darajada aks ettiradi.

Quyidagi jadvalda tanlangan tijorat banklarining kapital yetarliligi, likvidlik darajasi, aktivlar sifati, rentabellik ko‘rsatkichlari hamda ushbu indikatorlar asosida hisoblangan integral bank barqarorlik indeksi (IBI) keltirilgan bo‘lib, u banklar kesimida moliyaviy barqarorlik darajasini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi.

1-jadval

Tijorat banklari barqarorlik ko‘rsatkichlari (2024-2025 yy.)

Bank nomi	**K**	**L**	**A**	**R**	**IBI**
Milliy bank	0.16	0.32	0.94	0.021	**0.356**
Agrobank	0.15	0.30	0.92	0.018	0.335
SQB	0.17	0.28	0.93	0.019	0.342
Asakabank	0.14	0.27	0.91	0.016	0.312
Ipoteka bank	0.13	0.29	0.90	0.015	0.308
Xalq banki	0.12	0.26	0.89	0.014	0.291
Aloqabank	0.14	0.31	0.93	0.020	0.338
Mikrokreditbank	0.13	0.33	0.88	0.017	0.309
Kapitalbank	0.15	0.35	0.94	0.024	**0.369**
Hamkorbank	0.16	0.34	0.95	0.026	**0.382**

Jadvalda keltirilgan empirik natijalar O‘zbekiston tijorat banklari tizimida barqarorlik darajasi banklar kesimida sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatadi. Integral barqarorlik indeksi (IBI) qiymatlari 0,291 dan 0,382 gacha oraliqda shakllangan bo‘lib, bu bank tizimi ichida barqarorlik darajasi bo‘yicha farqlilik (heterogenlik) mavjudligini anglatadi.

Integral barqarorlik indeksi bo‘yicha tahlil natijalariga ko‘ra, Hamkorbank (0,382) va Kapitalbank (0,369) eng yuqori barqarorlik ko‘rsatkichlariga ega banklar sifatida ajralib turadi.

Ushbu banklarning yuqori reytingi, avvalo, aktivlar sifati (A ≥ 0,94) va rentabellik ko‘rsatkichlarining (ROA ≥ 2,4 %) yuqoriligi bilan izohlanadi. Bu holat xususiy banklarning risklarni boshqarish va resurslardan foydalanish samaradorligi yuqori ekanligini ko‘rsatadi. Aksincha, Xalq banki (0,291) va Ipoteka bank (0,308) nisbatan past IBI qiymatlari bilan tavsiflanadi. Bu banklarda kapital va likvidlik darajasi me’yoriy talablar doirasida bo‘lsa-da, rentabellik ko‘rsatkichlarining pastligi va kredit portfeli sifati bilan bog‘liq muammolar ularning umumiy barqarorlik darajasini cheklamoqda.

Kapital yetarliligi ko‘rsatkichining tahlili natijalari ko‘ra, tadqiqot doirasidagi banklarning aksariyatida kapital yetarliligi ko‘rsatkichi 0,12–0,17 oralig‘ida shakllangan bo‘lib, bu Bazel III minimal talablaridan yuqori darajani ifodalaydi. Eng yuqori kapital yetarliligi O‘zsanoatqurilishbank (0,17), Milliy bank (0,16) va Hamkorbank (0,16)da kuzatilgan. Bu banklar kapital bazasining mustahkamligi tufayli potensial kredit yo‘qotishlarga nisbatan yuqori bardoshlilikka ega. Shu bilan birga, Ipoteka bank (0,13) va Xalq banki (0,12)da kapital yetarliligi nisbatan pastroq bo‘lib, bu banklarda kapitalni mustahkamlash zaruratini ko‘rsatadi.

Likvidlik darajasi tahlili ma’lumotlariga ko‘ra, Kapitalbank (0,35), Hamkorbank (0,34) va Mikrokreditbank (0,33) eng yuqori likvidlik darajasiga ega. Davlat ulushi yuqori bo‘lgan yirik banklarda likvidlik darajasi nisbatan pastroq bo‘lib, bu holat resurslarning uzoq muddatli kreditlarga yo‘naltirilgani bilan izohlanadi. Bu esa bank barqarorligiga likvidlik xavflari nuqtayi nazaridan ma’lum darajada bosim ko‘rsatishi mumkin.

Aktivlar sifati tahlili natijalariga ko‘ra, Hamkorbank (0,95), Kapitalbank (0,94) va Milliy bank (0,94) kredit portfeli sifati bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Bu banklarda muammoli kreditlar ulushi nisbatan past bo‘lib, kredit risklarini samarali boshqarish amaliyoti shakllanganligini ko‘rsatadi.

Aksincha, Mikrokreditbank (0,88) va Xalq banki (0,89)da aktivlar sifati pastroq darajada bo‘lib, bu banklar kredit portfelini diversifikatsiya qilish va risklarni kamaytirish choralarini kuchaytirish zarurligini ko‘rsatadi.

Rentabellik ko‘rsatkichlari tahlilining natijalari shuni ko‘rsatadiki, xususiy banklarda rentabellik darajasi ancha yuqori. Xususan, Hamkorbank (2,6 %), Kapitalbank (2,4 %) va Milliy bank (2,1 %) eng yuqori ROA ko‘rsatkichlariga ega. Davlat banklarida esa rentabellik ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lib, bu ularning ijtimoiy yo‘naltirilgan kreditlash siyosati va past foizli dasturlarda faol ishtirok etishi bilan izohlanadi.

Empirik natijalar tijorat banklari barqarorligi banklar kesimida sezilarli darajada farqlanishini ko‘rsatdi. Integral barqarorlik indeksi qiymatlari 0,291 dan 0,382 gacha oraliqda shakllandi. Hamkorbank va Kapitalbank eng yuqori barqarorlik ko‘rsatkichlariga ega bo‘lib, bu ularning aktivlar sifati va rentabellik darajasining yuqoriligi bilan izohlanadi. Aksincha, davlat ulushi yuqori bo‘lgan banklarda rentabellik pastligi umumiy barqarorlik indeksini cheklamoqda.

Kapital yetarliligi va likvidlik ko‘rsatkichlari barcha banklarda Bazel III minimal talablaridan yuqori bo‘lsa-da, kredit portfeli sifati va foydalilik darajasida sezilarli tafovutlar mavjudligi aniqlandi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tijorat banklari barqarorligi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, faqat kapital yoki likvidlik bilan cheklanib qolmaydi. Aktivlar sifati va rentabellik bank barqarorligiga eng kuchli ta’sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Davlat banklarining barqarorligi ko‘pincha davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash omiliga tayanadi, bu esa qisqa muddatda ijobiy ta’sir ko‘rsatsa-da, uzoq muddatda samaradorlik va raqobat muammolarini keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa. O‘tkazilgan tadqiqot natijalari O‘zbekiston tijorat banklari hozirgi bosqichda umumiy moliyaviy barqarorlikni saqlab kelayotganini ko‘rsatadi. Kapital yetarliligi va likvidlik ko‘rsatkichlarining aksariyat banklarda Bazel III minimal talablaridan yuqori shakllangani bank tizimining tashqi va ichki moliyaviy zarbalarga nisbatan ma’lum darajada bardoshli ekanini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, banklar kesimida barqarorlik darajasining bir xil emasligi bank tizimida moliyaviy holat bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini ko‘rsatmoqda.

Empirik tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, tijorat banklari barqarorligi faqat kapital yoki likvidlik darajasi bilan cheklanib qolmaydi. Aktivlar sifati va rentabellik ko‘rsatkichlari bank barqarorligiga eng kuchli ta’sir etuvchi omillar sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, xususiy banklarda kredit portfeli sifati va resurslardan foydalanish samaradorligi yuqori bo‘lib, bu ularning integral barqarorlik indeksida yetakchi o‘rinlarni egallashiga sabab bo‘lmoqda. Davlat ulushi yuqori bo‘lgan ayrim banklarda esa ijtimoiy yo‘naltirilgan kreditlash siyosati va past rentabellik umumiy barqarorlik darajasini cheklovchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan integral bank barqarorlik indeksi bank tizimini kompleks baholash imkonini beruvchi samarali uslubiy vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu model bank faoliyatining asosiy moliyaviy jihatlarini birlashtirib, banklar kesimida barqarorlik darajasini qiyosiy tahlil qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuvdan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan makroprudensial monitoring jarayonlarida, shuningdek tijorat banklarining ichki risk-menejment va strategik rejalashtirish tizimlarida foydalanish mumkin.

Umuman olganda, tijorat banklari barqarorligini ta’minlash uzoq muddatli va ko‘p omilli jarayon bo‘lib, u risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish, kredit portfeli sifatini oshirish, rentabellikni ta’minlovchi samarali biznes-modellarni rivojlantirish hamda depozit bazasini diversifikatsiya qilishni talab etadi. Mazkur yo‘nalishlarda amalga oshiriladigan izchil islohotlar O‘zbekiston bank tizimining barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gorton, G. (1988). Banking panics and business cycles.” Oxford Economic Papers”, 40(4), 751–781.
2. Kindleberger, C. P., & Aliber, R. Z. (2011). «Manias, Panics, and Crashes». Palgrave Macmillan.
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2018). «Basel III: Finalising post-crisis reforms». BIS.
4. International Monetary Fund. (2020). «Global Financial Stability Report». IMF.
5. Demirgüç-Kunt, A., & Martinez Peria, M. S. (2015). Bank capital and lending. «Journal of Financial Economics», 117(3), 569–587.
6. Beck, T., Degryse, H., & Kneer, C. (2014). Is more finance better? «Journal of Financial Stability», 10, 1–13.
7. Mirzayev, B., & Karimov, A. (2022). Bank tizimi barqarorligini baholashning uslubiy jihatlari. «Iqtisodiyot va moliya», 4, 45–53.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Tijorat banklarining aktivlari bo‘yicha rasmiy statistik ma’lumotlar.

IRRIGATSIYA TARMOQLARIDA ISTE’MOLCHILAR UCHUN DEKADAVIY OPTIMAL SUV LIMITLARINI HISOBLASHNING GRAF VA CHIZIQLI DASTURLASH MODELI

Qudaybergenov Adilbay Abatbaevich[1], Qazimbetova Muxabbad Maxsetbaevna[2], Ispanova Jadira Paraxat qizi[3], Raxmatullayev Baxodir Jandulla o‘g‘li[4]

[1]t.f.f.d. (PhD), dotsent, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti doktoranti,

[2]f.-m..f.f.d. (PhD), Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti,

[3]Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti,

[4]Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.18655350

Annotatsiya. *Ushbu tezisda irrigatsiya tarmoqlarida iste’molchilarning dekadaviy suv talabini hisoblash va suv tanqisligi sharoitida optimal limitlarni adolatli taqsimlash masalasi o‘rganiladi. Kanal tarmog‘i graf modelida ifodalanib, uzatish samaradorligi va quvvat cheklovlari hisobga olingan chiziqli dasturlash modeli taklif etiladi. Natijada amaliy boshqaruv uchun qaror qoidalari asoslanadi.*

Kalit so‘zlar. *irrigatsiya tarmog‘i, DAG graf, dekada, suv limiti, netto-brutto, yo‘qotish, kanal quvvati, chiziqli dasturlash, adolat mezoni.*

Kirish. Irrigatsiya tarmoqlarida suv taqsimotini rejalashtirishda fermerlar talabining dekadaviy o‘zgarishi, kanallar o‘tkazuvchanlik chegaralari, tarmoq bo‘ylab yo‘qotishlar hamda manba zaxiralari limitlari bir vaqtning o‘zida inobatga olinishi zarur. Shu sabab, tarmoq strukturasiga bog‘liq talablarni yagona model asosida yig‘ib, cheklovlar bilan birgalikda optimal taqsimotni aniqlash masalasi dolzarbdir.

Irrigatsiya tarmoqlarida suv tanqisligi sharoitida dekadaviy rejalashtirishning asosiy muammosi shundaki, “talab–limit” munosabati faqat iste’molchi darajasida emas, balki kanal tarmog‘ining topologiyasi, quvvat cheklovlari va uzatishdagi yo‘qotishlar bilan bir vaqtda muvofiqlashtirilishi lozim. Shuning uchun zamonaviy tadqiqotlarda irrigatsiya tizimi ko‘pincha tarmoq (graf) sifatida qaralib, qarorlar ma’lum vaqt qadamlari bo‘yicha (kunlik, dekadaviy yoki mavsumiy) optimallashtiriladi. Masalan, Liao va hammualliflar kanal bo‘ylab suv uzatish yo‘qotishlari vaqt va masofa bo‘yicha o‘zgaruvchanligini hisobga oladigan jadvallash modelini taklif qilib, yo‘qotishlar parametrlarini tarmoq rejalashtirishga “ichki” kiritish zarurligini ko‘rsatadi [1].

Kanal tarmoqlarida qaror qabul qilish amaliyoti ko‘p bosqichli boshqaruv ierarxiyasi bilan bog‘liq bo‘lgani uchun (magistral–tarmoq–o‘zan–xo‘jalik darajalari) optimallashtirish masalasi faqat bitta lokal kesimda emas, balki butun tarmoq bo‘yicha muvofiq reja talab qiladi. Delgoda va hammualliflar aynan shunday “ko‘p ierarxiyali kanal tarmog‘i” uchun bir nechta qarama-qarshi maqsadlar mavjud holatda (masalan, xizmat sifati, reja barqarorligi, qayta sozlashlar soni) umumiy optimal jadvallash yondashuvini berishga intiladi. Bu esa irrigatsiya tarmog‘ini graf sifatida ifodalash va tarmoq-miqyosidagi cheklovlarni hisobga olish g‘oyasini mustahkamlaydi [2].

Tarmoqni graf sifatida qabul qilish faqat ekspluatatsiya uchun emas, balki strukturani loyihalash va qayta tuzish vazifalarida ham uchraydi. Gonçalves va Pato irrigatsiya tizimining suv taqsimlash tarmog‘ini loyihalashga qaratilgan protsedurani keltirib, masalada tugun-qirra tasviri va optimallashtirish algoritmlarining o‘zaro bog‘liqligini ko‘rsatadi. Bu adabiyotlar tezisdagi $G=(V,E)$ grafi va kanal bo‘yicha “yo‘l-samaradorlik” (masalan, $\prod \eta_e$) orqali uzatishni hisoblash yondashuviga nazariy fon beradi [3].

Dekadaviy optimal limitlarni hisoblashning ikkinchi tayanchi − resurs taqsimoti uchun matematik dasturlash, xususan, ko‘p davrli chiziqli dasturlashdir. Akhand va hammualliflar kanalga asoslangan irrigatsiya loyihasida turli ekin maydonlariga suv taqsimotini tavsiya qilish uchun ko‘p davrli chiziqli dasturlash ishlatilishi mumkinligini va maqsad sifatida umumiy irrigatsiya foydasini maksimallashtirish qo‘yilishini ko‘rsatadi [4].

Irrigatsiya tarmoqlarida taqsimotni chiziqli dasturlash orqali qo‘yishda amaliy muammolardan biri − maqsad funksiyasining “bir mezonga” tortishib qolishi va natijaning boshqa boshqaruv ko‘rsatkichlariga nisbatan sezgirligidir. Tafteh va hammualliflar suv taqsimotini optimallashtirishda chiziqli dasturlashni muqobil yondashuvlar bilan solishtirib, bir nechta maqsadlar (masalan, sof foyda va suv mahsuldorligi) mavjud bo‘lgan sharoitda qaror qabul qiluvchiga turli yechimlarni ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi [5].

Resurs taqsimoti masalalarida (ayniqsa suv ta’minoti noaniq yoki o‘zgaruvchan bo‘lsa) optimallashtirish modellariga stoxastik/ikki bosqichli qo‘yilishlar kiritilishi ham keng tarqalgan. Marques, Lund va Howitt suv ta’minoti noaniqligida dehqon xo‘jaliklarining yer-suv qarorlarini ikki bosqichli optimallashtirish orqali modellashtirib, suv cheklovi sharoitida qaysi vaqt ko‘lamida qanday qarorlar qabul qilinishi iqtisodiy natijaga kuchli ta’sir qilishini ko‘rsatadi [6].

Amaliyotda esa “samarador” (faqat jami qondirilgan talabni maksimallashtiruvchi) taqsimot ijtimoiy va institutsional talablar nuqtai nazaridan doim ham qabul qilinavermaydi; suv tanqisligida adolat masalasi mustaqil tadqiqot yo‘nalishi hisoblanadi. Luss resurs taqsimotida leksikografik minimax yondashuvi orqali “eng kam ta’minlangan ulush”ni birinchi navbatda yaxshilash, keyin esa umumiy maqsadni optimallashtirish kabi ikki bosqichli strategiyani nazariy jihatdan asoslaydi [7].

Suv resurslarini adolatli taqsimlashning sohaviy metodologiyasiga misol sifatida Hipel, Fang va Wang daryo havzasida raqobatchi iste’molchilar o‘rtasida suvni adolat tamoyillari asosida taqsimlash uchun qaror qabul qilish metodikasini bayon qiladi. Bu ish adolat mezonlari faqat “axloqiy shior” emas, balki formal modelga kiritiladigan matematik qoidalar ekanini ko‘rsatib, tezisingizdagi adolatli dekadaviy limitlash vazifasiga sohaviy dalil-isbot beradi [8].

Shundan kelib chiqib, dekadaviy suv limitlarini hisoblash masalasi irrigatsiya tarmog‘ini graf ko‘rinishida ifodalash va talab hamda qaror o‘zgaruvchilarini kiritish orqali, manba va kanal quvvat cheklovlarini hisobga olgan chiziqli dasturlash modeli sifatida bayon etiladi. Suv tanqisligida adolat tamoyilini ta’minlash uchun leksikografik minimax yondashuvi qo‘llanib, avval minimal qondirish ulushi oshiriladi, so‘ng shu daraja saqlangan holda umumiy qondirish hajmi maksimallashtiriladi; natijada texnik cheklovlar va institutsional talablarga mos dekadaviy limit rejasi shakllanadi.

Masalaning matematik qo‘yilishi. Irrigatsiya tarmog‘i $G=(V,E)$ yo‘naltirilgan siklsiz graf sifatida qabul qilinadi. Manba tugunlar $S\subset V$, terminal tugunlar $T\subset V$. Vegetatsiya davri $D=1,\ldots,|D|$ dekadalarga bo‘lingan. d-dekadaning sekundlardagi davomiyligi $\Delta_d=86400\cdot L_d$.

Iste’molchilar (fermerlar) to‘plami F . Avvaldan hisoblangan dekadaviy netto talab $R_{f,d}$ m^3. Qirralar bo‘yicha suv uzatish samaradorligi $\eta_e \in (0,1]$.

Qaror o‘zgaruvchisi. Fermerga dekada kesimida ajratiladigan netto suv limiti

$$X_{f,d} \geq 0, \qquad f \in F, d \in D. \tag{1}$$

Talabdan oshirmaslik sharti

$$0 \leq X_{f,d} \leq R_{f,d}, \qquad \forall f \in F, \forall d \in D. \tag{2}$$

Terminal kesimida agregatlash. Agar t terminal f fermerga xizmat qilsa, indikator $I_{t,f} \in 0,1$. Fermerning d -dekadadagi limiti terminallar bo‘yicha ulushlanishi $\alpha_{t,f,d} \in [0,1]$ bilan beriladi. Terminal netto talab (agregat)

$$N_{t,d} = \sum_{f \in F} I_{t,f} \alpha_{t,f,d} X_{f,d}, \qquad \forall t \in T, \forall d \in D. \tag{3}$$

bu yerda $\sum_{t \in T} I_{t,f} \alpha_{t,f,d} = 1, \qquad 0 \leq \alpha_{t,f,d} \leq 1, \qquad \forall f \in F, \forall d \in D.$

Nettodan bruttoga o‘tish va qirra hajmlari. $T_{d,e,t} = 0$ - t terminalgacha bo‘lgan uzatish yo‘lida $e$qirra ishtirok etishini ko‘rsatuvchi koeffitsient: agar e qirradan t terminalgacha yo‘l bo‘lmasa $T_{d,e,t} = 0$, aks holda $T_{d,e,t} = \Gamma_{(e \to t)}^{-1}$, bu yerda $\Gamma_{(e \to t)} = \prod_{a \in \text{path}(e \to t)} \eta_a$.

Shunda qirraning kirishidagi dekadaviy brutto hajm

$$B_{e,d}^{in} = \sum_{t \in T} T_{d,e,t} N_{t,d}, \qquad \forall e \in E, \forall d \in D. \tag{4}$$

O‘rtacha sekundlik sarf

$$Q_{e,d} = \frac{B_{e,d}^{in}}{\Delta_d}, \qquad \forall e \in E, \forall d \in D. \tag{5}$$

Quvvat va manba cheklovlari. Kanal quvvati hajm yoki sarf ko‘rinishida qo‘yiladi:

$$B_{e,d}^{in} \leq K_{e,d}^{V}, \qquad Q_{e,d} \leq K_{e,d}^{Q}, \qquad \forall e \in E, \forall d \in D. \tag{6}$$

bu yerda $K_{e,d}^{V}$ – dekada uchun maksimal hajm $[\text{m}^3]$, $K_{e,d}^{Q}$ – maksimal sarf $[\text{m}^3/\text{s}]$.

Manba tuguni $s \in S$ uchun $B_{s,d}^{out} = \sum_{e \in E^{out}(s)} B_{e,d}^{in}$. Mavsumiy limit:

$$\sum_{d \in D} B_{s,d}^{out} \leq L_s, \qquad \forall s \in S, \tag{7}$$

hamda zaruratda dekadaviy limit $B_{s,d}^{out} \leq U_{s,d}^{\max}$ kiritiladi.

Maqsad funksiya. Suv taqchil emas holatda jami qondirilgan talabni maksimallashtirish:

$$\max J = \sum_{f \in F} \sum_{d \in D} X_{f,d}. \tag{8}$$

Suv tanqisligida adolat: leksikografik minimax

1-bosqich (adolat darajasi): $\rho \in [0,1]$ni maksimallashtirish

$$\max \lambda$$
$$X_{f,d} \geq \lambda R_{f,d}, \qquad \forall f, d \tag{9}$$

va yuqoridagi barcha texnik cheklovlar.

2-bosqich (samaradorlik): topilgan λ^* ni saqlagan holda

$$\max J = \sum_{f \in F} \sum_{d \in D} X_{f,d}$$
$$X_{f,d} \geq \lambda^* R_{f,d}, \qquad \forall f, d \tag{10}$$

va boshqa barcha cheklovlar. (Zaruratda ustuvor iste’molchilar uchun $\sum w_f X_{f,d}$ ko‘rinishida vaznli maqsad qo‘llanadi.)

Xulosa. Taklif etilgan graf-operatorli chiziqli dasturlash modeli (i) fermer talablarini dekadaviy kesimda $X_{f,d}$ o‘zgaruvchilari orqali boshqarish, (ii) terminallar va qirralar kesimida netto-brutto transformatsiyasini yo‘qotishlar bilan birga formal hisoblash, (iii) kanal quvvatlari va manba limitlari cheklovlarini bir vaqtda ta’minlash imkonini beradi. Model irrigatsiya tashkilotlari uchun rejalashtirish va limitlash qarorlarini hisoblashda, shuningdek axborot tizimida (tarmoq strukturasi va parametrlari mavjud bo‘lganda) tez yechiluvchi standart optimallashtirish masalasi sifatida tatbiq etilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. X. Liao, A. Mahmoud, T. Hu, J. Wang, “A novel irrigation canal scheduling model adaptable to the spatial-temporal variability of water conveyance loss,” *Agricultural Water Management*, vol. 274, pp. 107961, Dec. 2022, doi: 10.1016/j.agwat.2022.107961.
2. D. Delgoda, H. Malano, S. K. Saleem, M. N. Halgamuge, “A novel generic optimization method for irrigation scheduling under multiple objectives and multiple hierarchical layers in a canal network,” *Advances in Water Resources*, vol. 105, pp. 188–204, July 2017, doi: 10.1016/j.advwatres.2017.04.025.
3. G. M. Gonçalves, M. Vaz Pato, “A three-phase procedure for designing an irrigation system’s water distribution network,” *Annals of Operations Research*, vol. 94, no. 1–4, pp. 163–179, Jan. 2000, doi: 10.1023/A:1018989721586.
4. N. A. Akhand, D. L. Larson, D. C. Slack, “Canal Irrigation Allocation Planning Model,” *Transactions of the ASAE*, vol. 38, no. 2, pp. 545–550, 1995, doi: 10.13031/2013.27864.
5. A. Tafteh, H. Babazadeh, N. A. Ebrahimipak, F. Kaveh, “Optimization of irrigation water distribution using the MGA method and comparison with a linear programming method: water management,” *Irrigation and Drainage*, vol. 63, no. 5, pp. 590–598, Dec. 2014, doi: 10.1002/ird.1869.
6. G. F. Marques, J. R. Lund, R. E. Howitt, “Modeling irrigated agricultural production and water use decisions under water supply uncertainty,” *Water Resources Research*, vol. 41, no. 8, pp. 2005WR004048, Aug. 2005, doi: 10.1029/2005WR004048.
7. H. Luss, “On Equitable Resource Allocation Problems: A Lexicographic Minimax Approach,” *Operations Research*, vol. 47, no. 3, pp. 361–378, June 1999, doi: 10.1287/opre.47.3.361.
8. K. W. Hipel, L. Fang, L. Wang, “Fair water resources allocation with application to the south saskatchewan river basin,” *Canadian Water Resources Journal*, vol. 38, no. 1, pp. 47–60, Mar. 2013, doi: 10.1080/07011784.2013.773767.

GIDROMODULLI TUMANLASHTIRISH ASOSIDA FERMER XO‘JALIKLARINING DEKADAVIY SUV TALABINI HISOBLASH ALGORITMI

Qudaybergenov Adilbay Abatbaevich[1], Qazimbetova Muxabbad Maxsetbaevna[2], Ispanova Jadira Paraxat qizi[3], Raxmatullayev Baxodir Jandulla o‘g‘li[4]

[1]t.f.f.d. (PhD), dotsent, Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti doktoranti;

[2]f.-m..f.f.d. (PhD), Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti doktoranti;

[3]Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tayanch doktoranti;

[4]Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti

https://doi.org/10.5281/zenodo.18655376

Annotatsiya. *Tezisda qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun dekada kesimida suv talabini hisoblashning algoritmi taklif etiladi. Algoritm gidromodulli tumanlashtirish tamoyiliga asoslanib, yer uchastkalarining grunt tuzilishi, yer osti suvlari sathi va ekinlarning namlikka talabchanligi xususiyatlarini hisobga olgan holda me’yoriy parametrlar orqali dekadaviy netto suv talabi hosil qilinadi. Bunda sug‘orish normalarini vaqt bo‘yicha taqsimlash, har bir dekada uchun gektarga to‘g‘ri keladigan suv hajmini aniqlash hamda fermer va xo‘jalik darajasida agregatlash amaliyoti formallashtiriladi. Taklif etilgan yondashuv suvni rejalashtirish, limitlash va keyingi optimal taqsimlash masalalari uchun asosiy kirish ma’lumotlarini shakllantirish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *gidromodulli tumanlashtirish, suv talabi, dekada kesimi, sug‘orish normasi, gidromodul, matematik modellashtirish, netto sarf, irrigatsiya tarmog‘i.*

Kirish

An’anaviy yondashuvlarda qishloq xo‘jaligi ekinlarining suv talabi ko‘pincha yillik yoki mavsumiy umumiy hajmlarda baholanadi. Biroq bunday hisoblar vaqt bo‘yicha (masalan, dekada kesimida) talab dinamikasini to‘liq aks ettirmasligi hamda hududiy sharoitlarga yetarlicha moslashtirilmagan bo‘lishi mumkin. Masalan, Issac va hammualliflar dekadaviy intervallarda tuproq namligi tanqisligiga asoslanib sug‘orish davriyligini baholagan [1].

Suv talabini hisoblashda muhim yondashuvlardan biri gidromodulli tumanlashtirish hisoblanadi. Ushbu usulda yer uchastkalari grunt tuzilishi, yer osti suvlari sathi va ekinlarning namlikka talabchanligiga ko‘ra hududiy miqyoslarga ajratiladi. Natijada har bir miqyos uchun suv me’yorlarini alohida belgilash orqali suv resurslarini oqilona taqsimlash va boshqarish imkoni yaratiladi [2].

Zamonaviy tadqiqotlarda suv talabini bashorat qilish uchun gibrid modellar ham qo‘llanilmoqda. Xususan, IWRAM kabi modellarda mahalliy iqlim sharoiti, yog‘ingarchilik va atmosfera omillari hisobga olinib, suv talabining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi tahlil qilinadi [3]. Shuningdek, iqlim o‘zgarishi sharoitida temperatura va yog‘ingarchilikka sezgirlikni baholash masalasi ham dolzarb bo‘lib, bu yo‘nalishda Nie va hammualliflar ishlarida meteorologik omillarning ta’siri modellar asosida o‘rganilgan [4].

Dekadaviy hisoblashlarni amalga oshirishda sug‘orishlar soni, sug‘orish me’yori, sug‘orish davri va 1 gektarga to‘g‘ri keladigan gidromodul kabi me’yoriy parametrlar kirish

ma’lumoti sifatida qabul qilinadi. Ushbu parametrlarning namunaviy qiymatlari paxta ekini misolida 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, ular Muxamedjanov va hammualliflar tomonidan taklif etilgan uslubiy manba asosida olingan [5].

1-jadval

Paxta uchun sug‘orishlar intervali bo‘yicha me’yoriy parametrlari

Ekin turi	Sug‘orishlar soni	Sug‘orish me’yori, m^3/ga	Sug‘orish muddatlari		Sug‘orish davri, kun	Gidromodul, l/s·ga
			boshlanishi	tugashi		
paxta	1	600	21.05	10.06	21	0,331
	2	800	11.06	25.06	15	0,617
	3	900	26.06	10.07	15	0,694
	4	900	11.07	20.07	10	1,042
	5	900	21.07	31.07	11	0,947
	6	900	01.08	10.08	10	1,042
	7	800	11.08	25.08	15	0,617
	8	600	26.08	10.09	16	0,434
		6400			**113**	

Ushbu me’yoriy parametrlardan foydalangan holda sug‘orish normalarini dekadalar bo‘yicha taqsimlash, gektarga to‘g‘ri keladigan dekadaviy netto hajmni hisoblash va natijani fermer hamda xo‘jalik kesimida agregatlash algoritmi quyida bayon etiladi.

Shuning uchun ushbu tezisda dekadaviy rejalashtirish talablarini hisobga olgan holda suv talabini hisoblashning yagona va qayta ishlatish mumkin bo‘lgan tartibini shakllantirish maqsad qilib olindi. Taklif etilayotgan yondashuv gidromodulli tumanlashtirish asosida me’yoriy ma’lumotlarni vaqt bo‘yicha (dekadalar kesimida) to‘g‘ri taqsimlashga tayanadi hamda natijada fermer xo‘jaliklarining dekadaviy netto suv talabini aniq hisoblash imkonini beradi. Quyida ushbu hisoblash jarayonini bosqichma-bosqich amalga oshirishga mo‘ljallangan algoritm keltiriladi.

Hisoblash algoritmi

Ushbu bo‘limda fermer xo‘jaliklarining dekadaviy netto suv talabini hisoblash algoritmi bayon etiladi. Algoritm gidromodulli tumanlashtirish asosida qabul qilingan me’yoriy parametrlarga tayanadi va sug‘orish normalarini dekadalar kesimida to‘g‘ri taqsimlash orqali talab hajmini shakllantiradi. Jumladan, ekin turi bo‘yicha sug‘orishlar soni, sug‘orish me’yori v, sug‘orish davomiyligi τ va 1 gektarga gidromodul q qiymatlari 1-jadvalda keltirilgan bo‘lib, manba sifatida [5] qabul qilinadi.

1-bosqich. Kirish ma’lumotlarini shakllantirish.

Quyidagi to‘plamlar va elementlar aniqlanadi: fermerlar $f \in F$, ekin turlari $c \in C$, gidromodulli tumanlar $g \in G$, sug‘orishlar tartibi $i \in I$ va dekadalar $d \in D$. Fermerning har bir ekin maydoni $A_{f,c}$ [ga] orqali ifodalanadi. Me’yoriy jadval asosida $v_{g,c,i}$ – sug‘orish me’yori [m^3/ga] va $\left[t^{st}_{g,c,i}, t^{end}_{g,c,i}\right]$ – har bir sug‘orish uchun kalendar intervali hamda $\tau_{g,c,i} = t^{end}_{g,c,i} - t^{st}_{g,c,i} + 1$ – sug‘orish davri [kun] qabul qilinadi. Har bir dekada uchun kalendar interval $\left[T^{st}_{d}, T^{end}_{d}\right]$ ko‘rinishida aniqlanadi.

2-bosqich. Sug‘orish–dekada kesishuvi va ulushlarni aniqlash.

i – sug‘orish intervali bilan d – dekada kesishgan kunlar soni quyidagicha hisoblanadi:

$$L_{g,c,i,d} = \max\left(0, \min\left(t_{g,c,i}^{end}, T_d^{end}\right) - \max\left(t_{g,c,i}^{st}, T_d^{st}\right) + 1\right)$$

Shunda sug‘orish normasining dekadaviy ulushi quyidagicha aniqlanadi:

$$\tau_{g,c,i} = \sum_{d \in D} L_{g,c,i,d}, \qquad p_{g,c,i,d} = \frac{L_{g,c,i,d}}{\tau_{g,c,i}}.$$

3-bosqich. 1 gektarga dekadaviy netto hajmni hisoblash.

Gidromodul tuman va ekin uchun d – dekadada 1 gektarga to‘g‘ri keladigan netto suv hajmi quyidagi formula orqali topiladi:

$$w_{g,c,d} = \sum_{i \in I} v_{g,c,i} \cdot p_{g,c,i,d} \qquad [\mathrm{m}^3/\mathrm{ga}]$$

4-bosqich. Fermerning dekadaviy netto suv talabini hisoblash.

f fermerga tegishli bo‘lgan $g(f)$ gidromodulli tumanga tegishli bo‘lsa, fermerning dekadaviy netto talabi:

$$R_{f,d} = \sum_{c \in C} A_{f,c} w_{g(f),c,d} \qquad [\mathrm{m}^3]$$

Natijada har bir fermer uchun dekadalar kesimida talab qatorlari $R_{f,1}, R_{f,2}, \ldots$ shakllanadi.

5-bosqich. Xo‘jalik yoki tuman kesimida agregatlash.

Agar fermerlar muayyan xo‘jalik/klaster/hudud tarkibida birlashtirilgan bo‘lsa, dekadaviy netto suv talabi quyidagicha umumlashtiriladi:

$$R_{h,d} = \sum_{f \in F(h)} R_{f,d}$$

Bu bosqich suv resurslarini rejalashtirish va limitlash masalalarida hududiy talabni bir nuqtada ko‘rish imkonini beradi.

6-bosqich. Dekadaviy sarfga o‘tish.

Agar hisoblash natijalarini irrigatsiya tarmoqlarida quvvat cheklovlari bilan taqqoslash yoki boshqaruv rejimlarini baholash talab etilsa, dekadaviy hajm sarfga aylantiriladi. Dekadaning davomiyligi:

$$\Delta_d = 86400 \cdot L_d \qquad [\mathrm{s}]$$

bu erda L_d — dekada kunlari soni. Shunda agregat sarf:

$$Q_{h,d} = \frac{R_{h,d}}{\Delta_d}$$

Agar gektarga nisbatan dekadaviy gidromodul talab qilinsa, u quyidagicha hisoblanadi:

$$q_{g,c,d} = \frac{1000 \cdot w_{g,c,d}}{86400 \cdot \tau_{g,c,d}} \qquad [\mathrm{l/s \cdot ga}]$$

7-bosqich. Verifikatsiya shartlari.

Hisoblash natijalarining ichki to‘g‘riligini ta’minlash uchun quyidagi muvofiqlik sharti tekshiriladi:

$$\sum_{d \in D} w_{g,c,d} = \sum_{i \in I} v_{g,c,i}.$$

Har bir sug‘orish intervali uchun ulushlar yig‘indisi 1 bo‘lishi shart:

$$\sum_{d \in D} p_{g,c,i,d} = 1.$$

Ushbu tengliklar bajarilsa, demak sug‘orish normalari dekadalar bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlangan va umumiy me’yoriy hajm saqlangan hisoblanadi.

Xulosa

Ushbu ishda gidromodulli tumanlashtirishga tayangan holda qishloq xo‘jaligi ekinlari uchun dekada kesimida netto suv talabini hisoblash algoritmi taklif etildi. Algoritm sug‘orish me’yorlarini kalendar vaqt bo‘yicha to‘g‘ri taqsimlash, har bir dekada uchun 1 gektarga netto hajmni hisoblash hamda fermer va xo‘jalik darajasida agregatlashni formallashtiradi. Taklif etilgan yondashuv suvdan foydalanish rejalarini asoslash, dekadaviy limitlarni shakllantirish va keyingi bosqichlarda optimal taqsimot modellari uchun ishonchli hisoblash bazasini ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A. M. Issac, P. V. Raju, S. Joshi, V. V. Rao, “Decadal Trends in Field Level Irrigation Water Requirement Estimated by Simulation of Soil Moisture Deficit,” *Proceedings of the National Academy of Sciences, India Section A: Physical Sciences*, vol. 87, no. 4, pp. 901–910, Dec. 2017, doi: 10.1007/s40010-017-0458-2.

2. M. Khamidov, I. Urazbaev, Sh. Xamidova, “Hydro-modular zoning of irrigated lands in South Karakalpakstan and optimal irrigation regime for cotton,” presented at the The Third International Scientific Conference Construction Mechanics, Hydraulics And Water Resources Engineering (Conmechydro 2021 AS), Tashkent, Uzbekistan, 2023, pp. 030023. doi: 10.1063/5.0113264.

3. C. Dang *et al.*, “IWRAM: A hybrid model for irrigation water demand forecasting to quantify the impacts of climate change,” *Agricultural Water Management*, vol. 291, pp. 108643, Feb. 2024, doi: 10.1016/j.agwat.2023.108643.

4. W. Nie, B. F. Zaitchik, M. Rodell, S. V. Kumar, K. R. Arsenault, H. S. Badr, “Irrigation Water Demand Sensitivity to Climate Variability Across the Contiguous United States,” *Water Resources Research*, vol. 57, no. 3, pp. 2020WR027738, Mar. 2021, doi: 10.1029/2020WR027738.

5. Sh. Muxamedjanov, R. Sagdullaev, A. Muxomedjanov, *Metodika rascheta plana vodopolzovaniya i ob’yoma podachi vodы v fermerskie xozyaystva*. Tashkent: NIЦ MKVK, 2019. [Elektron manba] URL: https://www.cawater-info.net/library/rus/methodology_calculate_water_use_plan.pdf

KORXONALARDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARIGA OID HISOBOTLARNING AXBOROT QAMROVINI KENGAYTIRISH

Rajaboyev Shahboz Shodi o‘g‘li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655388

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korxonalarda axborot-kommunikatsiya xizmatlariga oid moliyaviy hisobotlarning axborot qamrovini kengaytirish jarayonlari tahlil qilingan. Buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish orqali asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobining samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan. Zamonaviy axborot texnologiyalari, jumladan 1C, NetSuite kabi dasturiy ta’minotlar yordamida hisobotlarning tezkorligi, aniqligi va ishonchliligini ta’minlash imkoniyatlari ko‘rsatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *axborot-kommunikatsiya xizmatlari, moliyaviy hisobotlar, avtomatlashtirish, buxgalteriya hisobi, axborot qamrovi, AKT, nomoddiy aktivlar, asosiy vositalar, xalqaro standartlar.*

Abstract. *This article analyzes the processes of expanding the information coverage of financial reports related to information and communication services in enterprises. The issues of improving the efficiency of accounting for fixed assets and intangible assets through automation are highlighted.*

Keywords: *information and communication services, financial reporting, automation, accounting, information coverage, ICT, intangible assets, fixed assets, international standards.*

Korxonalarda asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar hisobini avtomatlashtirish moliyaviy hisobotlarni samaraliroq qilish va xatolarni kamaytirish uchun muhim jarayon bo‘lib, bu tizimlar qo‘lda ishlash o‘rniga kompyuterlashtirilgan dasturlar orqali amalga oshiriladi, masalan O‘zbekistonda keng tarqalgan 1C buxgalteriya dasturi orqali asosiy vositalarni kirim qilish, hisobga olish va hisobini yuritish avtomatik holga keltiriladi, bu yerda AVning harakatining hujjatlarini yaratish, amortizatsiyani hisoblash va hisobotlarni tayyorlash qadamma-qadam amalga oshiriladi, chunki 1C da asosiy vositalarning hisob kartachkalarini olish va harakatlarni kuzatish uchun maxsus modullar mavjud, bu esa korxonalarga vaqtni tejash va ma’lumotlarning aniqligini oshirish imkonini beradi. Nomoddiy aktivlar hisobi ham shunga o‘xshash avtomatlashtiriladi, masalan patentlar, dasturiy ta’minot va tovar belgilarining hisobini yuritishda amortizatsiyani hisoblash va qiymatni pasaytirish avtomatik holda amalga oshiriladi, chunki BHMS standartlariga muvofiq nomoddiy aktivlarning tan olinishi va hisobga olinishi korxona faoliyatida uzoq muddatli foydalanishni nazarda tutadi, bu yerda 1C yoki NetSuite kabi tizimlar orqali aktivlarning harakatini kuzatish va hisobotlarni generatsiya qilish mumkin, masalan aktivning balans qiymatini aniqlash va amortizatsiyaning hisoblash usullarini qo‘llash orqali harajatlarni optimizatsiya qilish ta’minlanadi.

Avtomatlashtirish jarayonida asosiy vositalarning turkumlashi va baholanishi muhim bo‘lib, masalan bino, jihoz va uskunalarning hisobida qayta baholash va yemirilishni hisoblash avtomatik amalga oshiriladi, bu yerda OCR texnologiyalari orqali hujjatlarni qayta ishlash va

to‘lovlarni muvofiqlashtirish imkoni mavjud, chunki korxonalarda fiksirlangan aktivlarning hayotiy siklini boshqarish real vaqtda kuzatishni ta’minlaydi va xavflarni kamaytiradi. Nomoddiy aktivlar uchun esa intellektual mulkning hisobida amortizatsiyaning chiziqli yoki pasaytiruvchi usullari qo‘llaniladi, masalan SoftLedger yoki Bloomberg Tax tizimlari orqali intangibl aktivlarning buxgalteriyasini avtomatlashtirish jarayonida hisobotlarning aniqligi oshadi va qo‘lda ishlash 45-75% ga qisqaradi, bu esa korxonalarga foydani oshirish va qonuniy talablarga muvofiqlikni ta’minlashga yordam beradi.

Umuman olganda, bu hisobni avtomatlashtirish pul oqimlarini prognozlashtirish, harajatlarni kamaytirish va aktivlarning samarali boshqarilishini oshiradi, chunki tizimlar ham asosiy vositalar, ham nomoddiy aktivlar bilan bog‘liq operatsiyalarni birlashtirib, korxonalarda umumiy samaradorlikni yuqori darajaga ko‘taradi, masalan O‘zbekiston qonunchiligiga muvofiq LEX.UZ standartlari asosida integratsiya qilish orqali hujjat almashinuvini elektronlashtirish va auditni osonlashtirish mumkin. Amalga oshirishda korxonalar dasturlarni sohaga moslashtirish, hodimlarni o‘qitish va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashga e’tibor qaratishi kerak, chunki qiyinchiliklar integratsiya murakkabligida bo‘lishi mumkin, lekin foyda harajatlarni kamaytirish va ishonchlilikni oshirish orqali o‘zini oqlaydi.

Korxonalarda axborot-kommunikatsiya xizmatlariga oid hisobotlarning axborot qamrovini kengaytirish jarayoni moliyaviy hisobotlarning sifati va hajmini oshirish orqali amalga oshiriladi, chunki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning qo‘llanishi buxgalteriya hisobida qo‘l mehnatini avtomatlashtirib, hisobotlarning tezligi, aniqligi va ishonchliligini oshiradi, masalan korxonalarda AKT dan foydalanish hisobotlarning ichki (rahbarlar) va tashqi (investorlar, soliq organlari) foydalanuvchilar uchun ma’lumotlarning hajmini kengaytirib, qarorlar qabul qilishni yaxshilaydi va xatolarni kamaytiradi, bu yerda kompyuterlashtirilgan tizimlar va dasturiy ta’minot (masalan, 1C, 1UZ) orqali ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash amalga oshiriladi. AKT ning afzalliklaridan samaradorlikni oshirishni aytish mumkin, chunki u hisobotlarning sifati va miqdorini yuqori darajaga ko‘tarib, vaqtni 50-70% ga tejash imkonini beradi, masalan elektron hujjat almashinuvi va bulutli buxgalteriya orqali ma’lumotlarga doimiy kirish ta’minlanadi va hisobotlarni PDF yoki Excel formatlarida eksport qilish mumkin, bu korxonalardagi axborot-kommunikatsiya xizmatlari uchun ma’lumotlar qamrovini kengaytirib, ma’lumotlar xavfsizligini shifrlash orqali oshiradi. Uslublardan buxgalteriya dasturiy ta’minotini qo‘llashni keltirish mumkin, u ma’lumotlar oqimini avtomatlashtirib, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish va daromad-harajatlarni kuzatishni osonlashtiradi, shuningdek mobil ilovalar va bulutli xizmatlar orqali hisobotlarning qamrovini kengaytirib, ma’lumotlarning markazlashtirilgan saqlanishini ta’minlaydi, bu esa korxonalarda AKT sohasida hisobotlarning tegishliligini oshirib, boshqaruv qarorlarini yaxshilaydi. Misollardan korxonalarda AKT ning qo‘llanishini keltirish mumkin, masalan qurilish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish orqali hisobotlarning axborot qamrovini kengaytirish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash, bu yerda tarmoqli tizimlar orqali ma’lumotlarning yagona tizimga integratsiyasi amalga oshiriladi va iqtisodiy samaradorlik oshadi. Qiyinchiliklardan ma’lumotlar xavfsizligi va integratsiya murakkabligini keltirish mumkin, lekin umumiy foyda hisobotlarning qamrovini kengaytirish va samaradorlikni oshirish orqali o‘zini oqlaydi, chunki AKT korxonalarda axborot-kommunikatsiya xizmatlari hisobotlarining sifatini yuqori darajaga ko‘taradi.

Korxonalarda axborot-kommunikatsiya xizmatlariga oid hisobotlarning axborot qamrovini kengaytirish jarayoni moliyaviy hisobotlarning sifati va hajmini oshirish orqali amalga oshiriladi, chunki axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) ning qo‘llanishi buxgalteriya hisobida qo‘l mehnatini avtomatlashtirib, hisobotlarning tezligi, aniqligi va ishonchliligini oshiradi, masalan korxonalarda AKT dan foydalanish hisobotlarning ichki (rahbarlar) va tashqi (investorlar, soliq organlari) foydalanuvchilar uchun ma’lumotlarning hajmini kengaytirib, qarorlar qabul qilishni yaxshilaydi va xatolarni kamaytiradi, bu yerda kompyuterlashtirilgan tizimlar va dasturiy ta’minot (masalan, 1C, 1UZ) orqali ma’lumotlarni yig‘ish, saqlash va qayta ishlash amalga oshiriladi.

AKT ning afzalliklaridan samaradorlikni oshirishni aytish mumkin, chunki u hisobotlarning sifati va miqdorini yuqori darajaga ko‘tarib, vaqtni 50-70% ga tejash imkonini beradi, masalan elektron hujjat almashinuvi va bulutli buxgalteriya orqali ma’lumotlarga doimiy kirish ta’minlanadi va hisobotlarni PDF yoki Excel formatlarida eksport qilish mumkin, bu korxonalardagi axborot-kommunikatsiya xizmatlari uchun ma’lumotlar qamrovini kengaytirib, ma’lumotlar xavfsizligini shifrlash orqali oshiradi. Uslublardan buxgalteriya dasturiy ta’minotini qo‘llashni keltirish mumkin, u ma’lumotlar oqimini avtomatlashtirib, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish va daromad-harajatlarni kuzatishni osonlashtiradi, shuningdek mobil ilovalar va bulutli xizmatlar orqali hisobotlarning qamrovini kengaytirib, ma’lumotlarning markazlashtirilgan saqlanishini ta’minlaydi, bu esa korxonalarda AKT sohasida hisobotlarning tegishliligini oshirib, boshqaruv qarorlarini yaxshilaydi(1-jadval).

1-jadval.

Hisobotlarning axborot qamrovini kengaytirish, avtomatlashtirish va uslubiy jihatlar[24]

Jihat	Tavsifi	Afzalliklar	Qiyinchiliklar
Avtomatlash-tirish	Buxgalteriya hisobining AKT tizimlari (masalan, 1C, NetSuite) orqali amalga oshirilishi, ma’lumotlarni yig‘ish va qayta ishlash.	Vaqtni 50-70% ga tejash, xatolarni minimallashtirish, samaradorlikni oshirish.	Integratsiya murakkabligi, hodimlarni o‘qitish zarurligi.
Hisobotlar qamrovi	Hisobotlarning axborot hajmini kengaytirish, real vaqtda ma’lumotlarni tahlil qilish.	Ishonchlilik va tegishlilikni oshirish, qarorlarni yaxshilash.	Ma’lumotlar xavfsizligi masalalari, kiberhujumlar xavfi.
Uslubiy jihatlar	Hisob planlarini shakllantirish, ichki nazorat va MXXS standartlariga o‘tish.	Qonuniy muvofiqlik, nomoddiy aktivlarning hisobi.	Desentralizatsiyada noaniqliklar, qimmatbaho amalga oshirish.
Qo‘llanish misollari	AKX korxonalarida Sage Intacct yoki Oracle tizimlaridan foydalanish.	Pul oqimlarini prognozlashtirish, hisobotlarni tez tayyorlash.	Moslashtirish muammolari kichik korxonalarda.

[24] Muallif ishlanmasi

Misollardan korxonalarda AKT ning qo‘llanishini keltirish mumkin, masalan qurilish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish sohalarida buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish orqali hisobotlarning axborot qamrovini kengaytirish va xalqaro standartlarga muvofiqlikni ta’minlash, bu yerda tarmoqli tizimlar orqali ma’lumotlarning yagona tizimga integratsiyasi amalga oshiriladi va iqtisodiy samaradorlik oshadi. Qiyinchiliklardan ma’lumotlar xavfsizligi va integratsiya murakkabligini keltirish mumkin, lekin umumiy foyda hisobotlarning qamrovini kengaytirish va samaradorlikni oshirish orqali o‘zini oqlaydi, chunki AKT korxonalarda axborot-kommunikatsiya xizmatlari hisobotlarining sifatini yuqori darajaga ko‘taradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boronov, B. "Improvement of investment accounting in Uzbekistan." *Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems* 12.6 (2020): 1069-1079.
2. Боронов Б.Ф., and Мустафоев А.Ф.. "НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ХИЗМАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ МАСАЛАЛАРИ" Экономика и социум, no. 5-2 (120), 2024, pp. 926-929.
3. Боронов Б.Ф., and Саломов Ш.Ф.. "МИЛЛИЙ ИҚТИСОДИЁТДА НОДАВЛАТ ТАЪЛИМ ТАШКИЛОТЛАРИНИНГ ЎРНИ ВА УНИ РИВОЖЛАТИРИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ ЖИҲАТЛАРИ" Экономика и социум, no. 5-2 (120), 2024, pp. 921-925.
4. Farxodovich, Boronov Bobur, and Rajaboyev Shahboz Shodi o‘g‘li. "MECHANISMS FOR USING INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES IN THE ELECTRONIC GOVERNMENT SYSTEM OF UZBEKISTAN AND THEIR EFFECTIVENESS." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 285-292.
5. Farxodovich, Boronov Bobur. "STAGES OF DEVELOPMENT OF THE INFORMATION AND COMMUNICATION TECHNOLOGY SERVICES SYSTEM." *Лучшие интеллектуальные исследования* 59.2 (2025): 293-298.
6. Farxodovich, Boronov Bobur, Xudaynazarova Dilnoza Gafurovna, and Yodgorov Xushvaqt Mansurovich. "FARMASEVTIKA KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING O ‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI." *FRONTIERS OF KNOWLEDGE AND INTERDISCIPLINARY DISCOVERY* 1.1 (2025): 282-289.
7. Rajaboev S. S. Technologies of Using Multimedia Tools in Teaching Economic Sciences //Spanish Journal of Innovation and Integrity.
8. Ражабоев Ш. Ш. РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВЕ //ББК 65.29 я43 Т384. – 2022. – С. 54.
9. Ражабоев Ш. Ш. ЦИФРОВИЗАЦИЯ И ЗЕЛЕНЫЙ СЕКТОР В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ //ББК 65.05 П 78. – С. 596.
10. Shodiyevich, R. S.., Xusniddin Qizi, J. S.., & Zafar qizi, O. F.. (2024). Benefits of Social Networks in the Field of Services. Best Journal of Innovation in Science, Research and Development, 3(2), 84–88. Retrieved from https://www.bjisrd.com/index.php/bjisrd/article/view/1533

DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH

Rasulbayeva Dinora[1], Berdiqulova Manzura[2]
[1]Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti
Biznes va Boshqaruv fakulteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalishi talabasi
[2]Ilmiy rahbar, Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti, Moliya, Bank ishi va Buxgalteriya hisobi kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655420

[31] 1 http://mitc.uz/uz/news/view/1186

[32] https://royallib.com/book/bell_daniel/gryadushchee_ postindustrialnoe_obshchestvo__vvedenie.html
[33]https://royallib.com/book/toffler_elvin/ revolyutsionnoe_bogatstvo.html


amaliyotga kiritdi. Hozirda bu istilohni butun dunyodagi siyosatchilar, iqtisodchilar, jurnalistlar, tadbirkorlar – deyarli barcha qo‘llamoqda. 2016-yilda Butunjahon banki dunyodagi raqamli iqtisodiyotning ahvoli haqida ilk marta ma’ruza e’lon qildi (“Raqamli dividendlar”).

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida mamlakatimizda raqamlashtirishga strategik yondashuv uni samarali amalga oshirishnning keng qamrovli masalalari o‘rganildi. Bu boradagi amaliy chora tabirlar nazariy mushohada va tizimli yondashuv usullari orqali tadqiq etildi. Shuning uchun iqtisodiy islohotlarning bugungi bosqichida milliy iqtisodiyotni raqamlashtirish natijalarini empirik tahlil qilish uslubiyotini ishlab chiqish borasidagi vazifalarning muhim ahamiyat kasb etishini nazarda tutgan holda xorijiy amaliyotga tayanib, raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga oid milliy ko‘rsatkichlar tizimini shakllantirish hamda uni istiqbolda yanada takomillashtirishga doir ayrim fkirlar mazkur maqolada ifoda etildi.

Mamlakatda axborot texnologiyalari rivojini baholash bo‘yicha xalqaro reytinglarda O‘zbekiston muvaffaqiyat qozonishi bilan bir qatorda ushbu hududning rivojlanish holatini aks ettiruvchi bir vaqtning o‘zida bir nechta parametrlarni hisobga oladigan quyidagi indekslar keltirilgan.

2-jadval

O‘zbekistonning xalqaro reytinglardagi holati ko‘rsatkichlari



Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi (E-Government Development Index — EGDI**)** BMT kotibiyatining iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo‘limi tomonidan onlayn davlat xizmatlarini rivojlantirish telekommunikatsiya infratuzilmasi va inson kapitalini rivojlantirish uchta subindeks ko‘rsatkichlari asosida tuziladi:

Mutaxassislarning tushuntirishicha, elektron tijorat, elektron hukumat tizimi, ishlab chiqarish jarayonlariga “aqlli” texnologiyalarni joriy etish, “Aqlli shahar”, “Xavfsiz shahar” tizimlarini yaratish va hokazolar, shuningdek, raqamli iqtisodiyotning tarkibiy qismlarida "Internet of narsalar" texnologiyalaridan keng foydalanishni ko‘zda tutadi.

Axborot va kommunikasiya texnologiyalarining (AKT) rivojlanish darajasiga bevosita bog‘liq bo‘lgan mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish darajasi odatda quyidagi ko‘rsatkichlar bilan baholanadi:

1. Raqamli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi.

2023 yilga kelib raqamli iqtisodiyotning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 2 baravarga ko‘paytirishni ko‘zda tutadi.

2. Investisiyalar hajmi.

3. AKT sohasida, internet tezligi, uning mamlakatimiz hududini qamrab olishi va aholi foydalanishi uchun qulayligi.

Xususan, aholi maskanlarini mobil internet bilan qamrab olish darajasi 2017-yilda 30 foiz bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda 96 foizni tashkil etmoqda. Yoki 2017-yilda sohadagi eksport hajmi bor-yo‘g‘i 600 ming dollarni tashkil etgan bo‘lsa, o‘tgan yili 46 million dollarga, joriy yilning birinchi choragida esa 16 million dollarga yetgan.

4. Elektron tijoratning rivojlanish darajasi, O‘zbekistonda Internet-do‘kon faoliyat yuritadi. Kompyuter va elektron-maishiy texnika mahsulotlarini sotish bo‘yicha - 8, sovg‘a va gullar bo‘yicha - 4, raqamli tovarlar bo‘yicha - 6, iste’mol va maishiy tovarlar bo‘yicha - 3, kitob, musiqa va kompakt diskda filmlar sotishga mo‘ljallangan - 3 do‘kon mavjud.

Yurtimiz tahlilchilarining oxirgi ma’lumotlariga ko‘ra, 38 milliondan ortiq aholiga ega O‘zbekiston Respublikasida internet foydalanuvchilari soni 27,2 milliondan oshgan. Bunda mobil internet foydalanuvchilari soni 25,3 million kishini tashkil etmoqda. Hozirgi vaqtda 95 foiz aholi maskanlari mobil internet bilan qamrab olingan bo‘lsa, 54 foiz uy xo‘jaliklarida yuqori tezlikdagi internetga ulanish imkoni yaratilgan. Bu o‘z-o‘zidan onlayn savdolar ko‘lami kengayishiga yo‘l ochmoqda.

Bundan tashqari, mamlakatda axborot texnologiyalarining rivojlanish darajasini baholovchi xalqaro reytinglardagi ko'rsatkichlar muhim ahamiyatga ega.[34]

Fuqarolarning davlat xizmatlarini elektron formatda olishlari uchun shart-sharoit yaratish maqsadida 2017-yilda O‘zbekistonda Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining (Yagona portal, DPI – www.my.gov.uz) yangi talqini ishga tushirildi, bu esa yagona elektron platforma hisoblanadi. Fuqarolar va tadbirkorlar davlat xizmatlarini va ular bo‘yicha zarur ma’lumotlarni olishlari mumkin.

Ayni paytda YaDEXKPda ko‘rsatilayotgan xizmat turlari soni 20 ta yo‘nalish bo‘yicha 300 dan ortiqqa yetdi.


Kelgusida 2022-yilga kelib elektron formatda ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari ulushini 60 foizga, 2025-yilgacha esa 80 foizga etkazish, shuningdek, 2025-yilgacha elektron hukumatni rivojlantirish indeksida 50-o‘ringa ko‘tarish rejalashtirilgan.

Shu maqsadda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi qarori bilan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlanib, kelgusi ikki yilda hududlar va mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarini raqamli o‘zgartirish bo‘yicha 280 dan ortiq loyihani amalga oshirish ko‘zda tutilgan.

[34] Kutbitdinov YU Ismailov B. **Issledovanie sifrovoy ekonomiki Uzbekistana: investisii v IT-sektor za 4 goda vырosli v 4 raza** *GSMA Mobile Connectivity Index*

3-diagramma

Respublikada optik tolali aloqa liniyasining uzunligi,ming km.



O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish uchun imkoniyatlar, shart-sharoitlar yetarlicha bo‘lsada, uni tezlashtirishga salbiy ta’sir etuvchi quydagi omillar mavjud:

- internet tezligi va sifatining pastligi;
- raqamli biznesda monopoliyalarning mavjudligi;
- axborot texnologiyalari bo‘yicha qonunchilikning zamondan ortda qolganligi;
- kompyuter savodxonligi bo‘yicha bilimlar darajasining pastligi;
- axborot texnologiyalari sohasida professional mutaxassislarining etishmasligi;
- axborot texnologiyalari kiberxavfsizligining yetarli darajada ta’minlanmaganligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga va O‘zbekiston xalqiga murojaatnomasidan, 2025-yil 26-dekabr.
2. http://mitc.uz/uz/news/view/1186
3. https://royallib.com/book/bell_daniel/gryadushchee_postindustrialnoe_obshchestvo vvedenie.html
4. https://royallib.com/book/toffler_elvin/revolyutsionnoe_bogatstvo.html
5. Кутбитдинов Ю., Исмаилов Б. Исследование цифровой экономики Узбекистана: инвестиции в IT-сектор за 4 года выросли 4 раза *GSMA Mobile Connectivity Index*

IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI VA BANDLIK SIYOSATI: GERMANIYA TAJRIBASI

Salamov Ibroxim[1], Boyjigitov Kamronbekmirzo Sobirjon o‘g‘li[2]
[1]SamDVMChBU Iqtisodiyot va menejment kafedrasi i.f.n, dosenti,
[2]Samarqand davlat vetetinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti iqtisodiyot fakulteti 4-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655512

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Germaniya Federativ Respublikasining ijtimoiy himoya tizimi va bandlik siyosatining o‘ziga xos xususiyatlari, xususan, "Ijtimoiy bozor iqtisodiyoti" modeli va "Bismark" sug‘urta tizimi ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Germaniya mehnat bozoridagi barqarorlikni ta’minlovchi dual ta’lim tizimi, "Hartz" islohotlari va inqirozga qarshi "Kurzarbeit" mexanizmlarining samaradorligi ko‘rib chiqilgan. Maqolada Germaniya tajribasidan kelib chiqib, O‘zbekistonda ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalarini shakllantirish, yoshlar bandligini oshirish va ijtimoiy himoyaning faol modellarini joriy etish bo‘yicha konseptual taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy himoya, bandlik siyosati, Germaniya tajribasi, dual ta’lim, Hartz islohotlari, ijtimoiy sug‘urta, Bismark modeli, mehnat bozori.*

Аннотация. *В данной статье проводится научный анализ особенностей системы социальной защиты и политики занятости Федеративной Республики Германия, в частности модели «социально-рыночного хозяйства» и страховой системы «Бисмарка». В ходе исследования рассматривается эффективность дуальной системы образования, обеспечивающей стабильность немецкого рынка труда, реформ «Харца» и антикризисного механизма «Kurzarbeit». На основе германского опыта выдвинуты концептуальные предложения и рекомендации по формированию фондов социального страхования в Узбекистане, повышению занятости молодежи и внедрению активных моделей социальной защиты.*

Ключевые слова: *Социальная защита, политика занятости, опыт Германии, дуальное образование, реформы Харца, социальное страхование, модель Бисмарка, рынок труда.*

Annotation. *This article provides a scientific analysis of the specific features of the social protection system and employment policy of the Federal Republic of Germany, particularly the "Social Market Economy" model and the "Bismarck" insurance system. The study examines the effectiveness of the dual education system, which ensures stability in the German labor market, the "Hartz" reforms, and the "Kurzarbeit" anti-crisis mechanisms. Based on the German experience, conceptual proposals and recommendations are put forward for the formation of social insurance funds in Uzbekistan, increasing youth employment, and implementing active models of social protection.*

Keywords: *Social protection, employment policy, German experience, dual education, Hartz reforms, social insurance, Bismarck model, labor market.*

I. KIRISH. Mavzuning dolzarbligi. Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida ro‘y berayotgan shiddatli transformatsiyalar, raqamlashtirish va demografik keksayish jarayonlari har qanday

davlatning ijtimoiy himoya tizimini jiddiy sinovdan o‘tkazmoqda. Ayniqsa, global inqirozlar davrida aholining zaif qatlamlarini muhofaza qilish bilan birga, mehnat bozorining moslashuvchanligini ta’minlash masalasi hukumatlar oldidagi eng murakkab ekvatsiyaga aylandi. Ushbu murakkab vaziyatda Germaniya Federativ Respublikasining tajribasi nafaqat Yevropa, balki butun dunyo uchun o‘ziga xos “Oltin standart” bo‘lib xizmat qilmoqda. Negaki, Germaniya iqtisodiy samaradorlikni ijtimoiy adolat bilan qanday qilib uyg‘unlashtirish mumkinligini amalda isbotlagan kam sonli davlatlardan biridir.

Germaniya modelining markazida “Ijtimoiy bozor iqtisodiyoti” (*Soziale Marktwirtschaft*) konsepsiyasi yotadi. Ushbu tushuncha shunchaki iqtisodiy atama emas, balki nemis jamiyatining hayot tarzi va davlat qurilishining asosi hisoblanadi. Ikkinchi jahon urushidan so‘ng vayronaga aylangan mamlakatni qayta tiklashda Lyudvig Erxard boshchiligidagi islohotchilar bir g‘oyaga tayanishgan: bozor iqtisodiyoti o‘z-o‘zidan ijtimoiy muvozanatni keltirib chiqarmaydi, uni davlat oqilona tartibga solishi shart. Biroq, bu yerda davlatning roli «boquvchilik» emas, balki «imkoniyat yaratuvchilik»da namoyon bo‘ladi. Ya’ni, Germaniya tizimi har bir fuqaroni mehnat qilishga, o‘z ustida ishlashga undaydi, jamiyat esa o‘z navbatida uni kutilmagan ijtimoiy zarbalardan sug‘urta qiladi.

Maqolada Germaniya tajribasini tahlil qilar ekanmiz, ixtiyoriy ravishda 19-asr oxiridagi tarixiy jarayonlarga nazar tashlashga majburmiz. Reyxkansler Otto fon Bismark tomonidan 1880-yillarda joriy etilgan ijtimoiy sug‘urta tizimi insoniyat tarixidagi ilk rasmiy ijtimoiy himoya modeli bo‘lib qoldi. Oradan qariyb bir yarim asr o‘tgan bo‘lsa-da, ushbu tizimning fundamenti — «birdamlik tamoyili» (*Solidaritätsprinzip*) hamon Germaniya farovonligining kafolati bo‘lib kelmoqda. Sug‘urta badallarining ishchi va ish beruvchi o‘rtasida teng taqsimlanishi jamiyatda o‘zaro mas’uliyat hissini shakllantirgan. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, mazkur tizim budjet mablag‘lariga ortiqcha yuk bo‘lmasdan, asosan o‘z-o‘zini moliyalashtirish mexanizmi asosida ishlashi uning hayotiyligini ta’minlab kelmoqda.

Bandlik siyosatidagi inqilobiy yondashuvlar. Germaniyaning mehnat bozori ko‘p jihatdan “Dual ta’lim” (*Duale Ausbildung*) tizimi bilan xarakterlanadi. Ushbu tizim nazariy bilimlarni bevosita ishlab chiqarish bilan zanjir kabi bog‘laydi. Bitiruvchilarning ish topa olmaslik muammosi Germaniya uchun deyarli begona, chunki korxona o‘zi uchun kerakli kadrni o‘quv davridanoq tayyorlab boradi. Shuningdek, 2000-yillarning boshida Germaniya iqtisodiyotini “Yevropaning kasal odami” tamg‘asidan xalos qilgan «Hartz» islohotlari ham alohida e’tiborga loyiq. Ushbu islohotlar ishsizlarga nafaqa berishning passiv modelidan ularni ishga qaytarishning faol modeliga o‘tishni ta’minladi. Germaniya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, samarali bandlik siyosati bu — ishsizlikni moliyalashtirish emas, balki bandlikni rag‘batlantirishdir.

O‘zbekiston ijtimoiy islohotlari kontekstida Germaniya modeli. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan “Inson qadri uchun” tamoyili asosidagi islohotlar Germaniya tajribasini chuqur o‘rganishni kun tartibiga qo‘ymoqda. Ayniqsa, mamlakatimizda Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi va kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha yangicha yondashuvlar Germaniyaning bandlikni faollashtirish mexanizmlari bilan ko‘p jihatdan hamohangdir. Biz uchun Germaniya tajribasi shunchaki nazariya emas, balki professional ta’lim tizimini isloh qilish, ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalarini shakllantirish va mehnat bozori infratuzilmasini modernizatsiya qilishda muhim yo‘l xaritasidir.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — Germaniya ijtimoiy himoya tizimi va bandlik siyosatining o‘zaro muvofiqlashgan mexanizmlarini tahlil

qilish orqali, ularning samarali jihatlarini ajratib ko‘rsatishdir. Tadqiqot davomida Germaniya modelining institutsional asoslari, ijtimoiy sug‘urta turlari va bandlikni tartibga solishning zamonaviy usullari o‘rganiladi hamda ularni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ilgari suriladi.

II. METODLAR. Ushbu tadqiqotni amalga oshirishda Germaniya ijtimoiy-iqtisodiy tizimining barqarorligini ta’minlovchi omillarni aniqlash maqsadida majmuaviy yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlarni qamrab oladi:

1. **Solishtirma-tahliliy metod:** Germaniya ijtimoiy himoya tizimining «Bismark» (sug‘urta asosidagi) modeli boshqa Yevropa davlatlari (masalan, «Beverij» yoki Skandinaviya modellari) bilan qiyoslandi. Shuningdek, Germaniyaning federal qonunchiligi, xususan, Ijtimoiy kodeks (*Sozialgesetzbuch – SGB*) normalari tahlil qilindi.
2. **Statistik induksiya:** Germaniya Federal Statistika boshqarmasi (*Destatis*), Federal bandlik agentligi (*Bundesagentur für Arbeit*) va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) tomonidan 2010–2024-yillar oralig‘ida e’lon qilingan demografik ko‘rsatkichlar, ishsizlik darajasi va ijtimoiy xarajatlar dinamikasi o‘rganildi.
3. **Hujjatlar tahlili:** Germaniya Mehnat va ijtimoiy masalalar federal vazirligining (BMAS) strategik hisobotlari va “Hartz IV” islohotlarining oqibatlarini baholovchi ilmiy maqolalar tahlilga tortildi.
4. **Ekstrapolyatsiya:** Germaniya tajribasining samarali jihatlarini O‘zbekistondagi bugungi ijtimoiy islohotlar va “O‘zbekiston-2030” strategiyasi maqsadlariga qanchalik mos kelishini baholashda mantiqiy xulosa chiqarish metodidan foydalanildi.

III. NATIJALAR. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, Germaniya ijtimoiy himoya va bandlik siyosati bir-birini mantiqan to‘ldiruvchi murakkab institutsional mexanizmdir. Quyida ushbu tizimning eng muhim ko‘rsatkichlari va tarkibiy qismlari keltirilgan.

3.1. Ijtimoiy sug‘urta tizimining moliyaviy-huquqiy asosi

Germaniya ijtimoiy himoya tizimi o‘z-o‘zini moliyalashtiruvchi beshta asosiy sug‘urta yo‘nalishiga tayanadi. Tadqiqot davomida ushbu sug‘urta turlarining stavkalari va ularning jamiyatdagi roli tahlil qilindi.

1-jadval. Germaniya ijtimoiy sug‘urta tizimining tarkibiy qismlari (2023-2024 yillar holatiga)

Sug‘urta turi	Badallar stavkasi (ish haqiga nisbatan, %)	Moliyalashtirish manbasi	Asosiy maqsadi va qamrovi
Tibbiy sug‘urta (*Krankenversicherung*)	14,6%	Ishchi (50%) / Ish beruvchi (50%)	Davolanish, dori-darmon va kasallik varaqasi xarajatlarini qoplash.
Pensiya sug‘urtasi (*Rentenversicherung*)	18,6%	Ishchi (50%) / Ish beruvchi (50%)	Qarilik nafaqasi va mehnat qobiliyatini yo‘qotganda beriladigan to‘lovlar.

Ishsizlik sug‘urtasi (*Arbeitslosenversicherung*)	2,6%	Ishchi (50%) / Ish beruvchi (50%)	Ishsizlik nafaqasi va qayta kasbga tayyorlash kurslarini moliyalashtirish.
Parvarish sug‘urtasi (*Pflegeversicherung*)	3,4% - 4,0%	Ishchi / Ish beruvchi	Keksalikda o‘zgalar parvarishiga muhtojlik xarajatlarini qoplash.
Baxtsiz hodisa sug‘urtasi (*Unfallversicherung*)	Sanoat turiga qarab (o‘rtacha 1,1%)	Faqat ish beruvchi (100%)	Ish joyidagi jarohatlar va kasb kasalliklari uchun to‘lovlar.

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdiki, Germaniya modeli "paritet tamoyili" asosida ishlaydi. Ya’ni, ijtimoiy xavf-xatarlar uchun mas’uliyat davlat budjetiga emas, balki bevosita mehnat bozori ishtirokchilari (ishchi va ish beruvchi) zimmasiga teng taqsimlangan. E’tiborli jihati shundaki, baxtsiz hodisalardan sug‘urta qilishning to‘liq ish beruvchi zimmasiga yuklatilishi korxonalarda mehnat muhofazasini iqtisodiy jihatdan rag‘batlantiruvchi asosiy faktor hisoblanadi.

3.2. Bandlik siyosati: Dual ta’lim va uning samaradorligi

Germaniya yoshlar ishsizligi darajasi bo‘yicha dunyoda eng barqaror ko‘rsatkichlarga ega. Buning asosiy sababi nazariya va amaliyotni birlashtiruvchi dual ta’lim tizimidir.

2-jadval. Germaniyada dual ta’lim va an’anaviy akademik ta’limning qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkichlar	Dual ta’lim (Duale Ausbildung)	An’anaviy akademik ta’lim
O‘quv jarayoni	70% amaliyot (korxonada), 30% nazariya	80-90% nazariya, 10-20% amaliyot
Daromad	O‘qish davrida maosh to‘lanadi (800-1200€)	O‘qish davrida daromad mavjud emas
Ishga joylashish	75-80% (amaliyot o‘tagan joyida qoladi)	40-50% (mutaxassisligi bo‘yicha ish topishda qiyinchilik bor)
Yoshlar ishsizligi	Germaniyada: 5,7%	Yevropa Ittifoqi o‘rtachasi: 14,5%

Jadval ma’lumotlari Germaniya bandlik siyosatining muvaffaqiyati bevosita ta’lim tizimining mehnat bozori talablariga moslashganligida ekanligini isbotlaydi. Dual ta’lim bitiruvchini **tayyor mutaxassis** sifatida shakllantirib, davlatning ishsizlarni ishga joylashtirish bo‘yicha ijtimoiy xarajatlarini keskin kamaytiradi.

3.3. “Hartz IV” islohotlarining mehnat bozoriga ta’siri

2000-yillarning boshida o‘tkazilgan tizimli islohotlar natijasida Germaniyada ishsizlar soni sezilarli darajada kamaygan. Tadqiqot natijalari islohotlardan keyingi ijobiy o‘zgarishlarni quyidagi ko‘rsatkichlarda ko‘rsatadi:

- Ishsizlik darajasining pasayishi: 2005-yilda ishsizlik 11,7% bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 5,7% ni tashkil etdi.
- Faol mehnat bozori: Islohotlar doirasida yaratilgan "Minijob" (kichik bandlik) tizimi orqali 7 milliondan ortiq kishi qisman bandlik bilan ta’minlangan.
- Muvofiqlashtirish: Ishsizlik nafaqasi oluvchi shaxslarning 45 foizi islohotlardan so‘ng birinchi 6 oy ichida qayta ishga joylashgan.

Natijalar shuni tasdiqlaydiki, Germaniya modeli “Faol ijtimoiy davlat” tamoyiliga tayanadi. Tizimning barqarorligi quyidagi uchta omil bilan izohlanadi:

1. Moliyaviy avtonomiya: Ijtimoiy jamg‘armalar davlat budjetidan mustaqil ravishda sug‘urta badallari hisobidan to‘ldiriladi.
2. Ijtimoiy sheriklik: Ish beruvchilar va kasaba uyushmalari o‘rtasidagi muloqot mehnat bozori barqarorligini ta’minlaydi.
3. Inson kapitaliga investitsiya: Bandlik siyosati shunchaki nafaqa berish emas, balki shaxsni o‘qitish va mehnat bozoriga qayta integratsiya qilishga yo‘naltirilgan.

IV. MUHOKAMA. Germaniya tajribasini tahlil qilish asosida O‘zbekiston ijtimoiy himoya va bandlik siyosatini modernizatsiya qilish bo‘yicha quyidagi konseptual takliflar ilgari suriladi:

O‘zbekistonda ijtimoiy himoya asosan budjet mablag‘lari hisobiga amalga oshiriladi. Germaniya tajribasidan kelib chiqib, bosqichma-bosqich **“Ijtimoiy sug‘urta jamg‘armasi”ni** mustaqil moliyaviy institut sifatida shakllantirish lozim. Bunda ijtimoiy soliqning bir qismini shaxsning individual pensiya va tibbiy sug‘urta hisobiga yo‘naltirish mexanizmini joriy etish tavsiya etiladi.

Dual ta’limni korporativ majburiyat darajasiga ko‘tarish: Germaniyada dual ta’lim ixtiyoriy, lekin ijtimoiy nufuzli hisoblanadi. O‘zbekistonda yirik sanoat klasterlari va zavodlar uchun "shogirdlik kvotalari"ni belgilash hamda shogird tayyorlayotgan korxonalar uchun ijtimoiy soliq stavkasini 12% dan 6-8% gacha tushirish orqali tadbirkorni rag‘batlantirish mumkin.

O‘zbekiston bandlik tizimida ham “Hartz” tamoyillarini qo‘llash vaqti keldi. Masalan, “Ishga marhamat” monomarkazlari orqali kasb o‘rgangan ishsiz shaxsga 3 marta mutaxassisligi bo‘yicha ish taklif qilinganda rad etsa, unga beriladigan ijtimoiy yordamni vaqtinchalik to‘xtatish yoki kamaytirish tizimi ishsizlarni mehnatga rag‘batlantiruvchi muhim vosita bo‘ladi.

Global iqtisodiy inqirozlar yoki mavsumiy to‘xtalishlar (masalan, energetika cheklovlari) davrida korxonalar ishchilarni bo‘shatmasligi uchun "Bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasi" hisobidan ish haqining bir qismini subsidiyalash tizimini (Kurzarbeit andozasida) qonuniy mustahkamlash lozim.

Germaniya modeli nafaqat ijtimoiy himoya, balki iqtisodiy barqarorlik mexanizmidir. O‘zbekistonning demografik o‘sishi (yoshlar sonining ko‘pligi) sharoitida ushbu modelning «Dual ta’lim” va "faol bandlik" jihatlari mamlakatning strategik rivojlanish maqsadlariga to‘liq javob beradi.

V. XULOSA VA TAVSIYALAR. Germaniya Federativ Respublikasining ijtimoiy himoya va bandlik siyosati bo‘yicha amalga oshirgan ko‘p yillik tajribasini ilmiy tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, mamlakatning iqtisodiy muvaffaqiyati nafaqat sanoat salohiyati, balki inson kapitalini tizimli muhofaza qilish mexanizmlari bilan bevosita bog‘liqdir. Germaniya modeli shunchaki davlat tomonidan aholiga moddiy yordam ko‘rsatish tizimi emas, balki iqtisodiy

samaradorlik va ijtimoiy adolat o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlovchi murakkab ijtimoiy-huquqiy ekotizimdir.

Tadqiqot davomida aniqlangan eng muhim xulosa shundan iboratki, Germaniya ijtimoiy davlat tamoyilini "boqimandachilik" illatidan xoli tarzda shakllantira olgan. Bunga, birinchidan, ijtimoiy sug‘urta tizimining majburiy va o‘z-o‘zini moliyalashtiruvchi xarakteri, ikkinchidan esa, bandlik siyosatining "faollashtirish" (activation) funksiyasi orqali erishilgan. "Bismark modeli"ning beshta ustuni — pensiya, tibbiy, ishsizlik, baxtsiz hodisa va parvarish sug‘urtalari — jamiyatning har bir a’zosini hayotning kutilmagan zarbalaridan himoya qilish bilan birga, ularni mehnat bozorining faol ishtirokchisi bo‘lishga undaydi.

Germaniya tajribasidan olinadigan asosiy darslar. Germaniya mehnat bozori barqarorligining asosi bo‘lgan “Dual ta’lim” tizimi va “Hartz” islohotlari bugungi globallashuv davrida har bir rivojlanayotgan davlat uchun o‘rganishga loyiq darsdir. Dual ta’lim tizimi orqali Germaniya "diplomli ishsizlar" muammosiga chek qo‘ygan bo‘lsa, Hartz islohotlari yordamida ishsizlik nafaqasini passiv kutish o‘rniga, shaxsni kasbiy qayta tayyorlash va mehnat bozoriga tezkor qaytarish mexanizmi yaratildi. Bu esa davlat budjeti yukini kamaytirib, mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston uchun ilmiy-amaliy tavsiyalar. O‘zbekiston Respublikasida so‘nggi yillarda ijtimoiy himoya sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlarni yanada takomillashtirish va Germaniya tajribasidan samarali foydalanish maqsadida quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi:

1. Ijtimoiy sug‘urta tizimini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish: O‘zbekistonda ijtimoiy himoyani faqat davlat budjeti hisobidan moliyalashtirish modelidan voz kechib, Germaniyadagi kabi mustaqil ijtimoiy sug‘urta jamg‘armalarini tashkil etish lozim. Bu aholida ijtimoiy mas’uliyatni shakllantiradi va budjet mablag‘larini uzoq muddatli ijtimoiy loyihalarga yo‘naltirish imkonini beradi. Xususan, majburiy tibbiy va ishsizlik sug‘urtasini joriy etishni jadallashtirish maqsadga muvofiqdir.
2. Dual ta’limni korporativ darajaga ko‘tarish va rag‘batlantirish: O‘zbekistondagi professional ta’lim muassasalari va ishlab chiqarish korxonalari o‘rtasidagi aloqani Germaniya andozasidagi "shartnomaviy dual tizim"ga o‘tkazish zarur. Bunda korxona o‘quvchi uchun to‘laydigan maoshi miqdorida soliq imtiyozlariga ega bo‘lishi yoki o‘quv xarajatlari davlat tomonidan qisman subsidiyalanishi lozim. Bu yoshlar bandligini ta’minlashning eng qisqa yo‘li hisoblanadi.
3. "Faol bandlik" strategiyasini milliy darajada joriy etish: Mamlakatimizdagi "Job Centers" vazifasini bajaruvchi monomarkazlar faoliyatiga Germaniyaning "yordam berish va talab qilish" (*Fördern und Fordern*) tamoyilini tatbiq etish lozim. Islohotlar ishsizlik nafaqasini berishni shunchaki moddiy yordam emas, balki shaxsni qayta o‘qitish va ish qidirish harakati bilan bog‘lashi shart. Bu esa mehnat bozoridagi strukturaviy ishsizlikni kamaytirishga xizmat qiladi.
4. Ijtimoiy hamkorlik (Tripartizm) mexanizmini kuchaytirish: Germaniyada bo‘lgani kabi, O‘zbekistonda ham ish beruvchilar va kasaba uyushmalari o‘rtasidagi jamoaviy kelishuvlar rolini oshirish zarur. Mehnat munosabatlarini tartibga solishda davlatning aralashuvini kamaytirib, ijtimoiy sheriklik institutini rivojlantirish mehnat bozoridagi barqarorlikni ta’minlaydi.
5. Inqirozga qarshi "Kurzarbeit" mexanizmini adaptatsiya qilish: O‘zbekiston iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlaridan (mavsumiylik va tashqi xavf-xatarlar) kelib

chiqib, vaqtinchalik iqtisodiy qiyinchilikka uchragan korxonalar ishchilarini bo‘shatmasligi uchun davlat tomonidan ish haqini qisman qoplab berishning qonuniy asoslarini ishlab chiqish lozim.

Germaniya ijtimoiy himoya va bandlik siyosati nafaqat iqtisodiy boylik natijasi, balki oqilona boshqaruv va uzoqni ko‘zlovchi strategiya samarasidir. O‘zbekiston sharoitida ushbu tajribani ko‘r-ko‘rona nusxalamasdan, uni milliy iqtisodiyotning tarmoq xususiyatlari va demografik tendensiyalariga moslashtirish, kelajakda “Ijtimoiy davlat” qurish g‘oyasini haqiqiy mazmun bilan to‘ldirishga xizmat qiladi. Germaniya tajribasini o‘rganish va uning samarali jihatlarini amaliyotga tatbiq etish mamlakatimiz mehnat bozorini modernizatsiya qilish va aholi farovonligini ta’minlashda muhim konseptual poydevor bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni.** “O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida. Tashkent, 2023.
2. **Federal Ministry of Labour and Social Affairs (BMAS).** (2023). *Social Security at a Glance*. Berlin.
3. **OECD.** (2023). *OECD Employment Outlook 2023: Artificial Intelligence and the Labour Market*. OECD Publishing, Paris.
4. **Hartz, P.** (2002). *Modern Services in the Labour Market*. Report of the Commission.
5. **Muller-Armack, A.** (1947). *Wirtschaftslenkung und Marktwirtschaft*. (Social Market Economy basics).

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF COMMERCIAL BANK LIQUIDITY MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON THE ECONOMY IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY

Sulaymanov Samandarboy Adhambek ugli
Deputy Dean, TSUE–Krems UAS International Joint Education Program Faculty
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655537

Annotatsiya. *Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklari likvidligini ta'minlash bank tizimi barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarning bank faoliyatiga jadal joriy etilishi likvidlikni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish, baholash va prognozlashda yangi metodologik yondashuvlarni talab etmoqda. Mazkur ishimizda tijorat banklari likvidligini ta'minlashning metodologik asoslari, jumladan, axborot texnologiyalari va zamonaviy boshqaruv usullarining roli tahlil qilinadi. Shuningdek, bank likvidliligini samarali boshqarishning iqtisodiyotga ta'siri, moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash, inflyatsion jarayonlarni nazorat qilish hamda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi ahamiyati yoritib beriladi. O'zbekiston bank tizimi sharoitida raqamli iqtisodiyot talablariga mos metodologik yondashuvlarni qo'llash imkoniyatlari asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *raqamli iqtisodiyot, tijorat banklari, likvidlilik, foiz stavkalari, bank tizimi, valyuta kursi, liberallashuv, chakana kreditlar, miqroqarz.*

Abstract. *In the digital economy,* ***maintaining*** *the liquidity of commercial banks is an important factor for preserving the stability of the banking system and supporting economic development. The rapid introduction of digital technologies into banking activities requires the improvement of liquidity management mechanisms, as well as new methodological approaches to liquidity assessment and forecasting. This paper analyzes the methodological foundations of* ***commercial bank liquidity management****, with a particular focus on the role of information technologies and modern management methods. In addition, the study examines the impact of effective bank liquidity management on the economy, including its role in strengthening financial stability, controlling inflationary processes, and promoting economic growth. The paper also justifies the application of methodological approaches that meet the requirements of the digital economy in the context of Uzbekistan's banking system.*

Keywords: *digital economy, commercial banks, liquidity, interest rates, banking system, exchange rate, liberalization, retail lending, microloans.*

Today, in the context of the digital economy, maintaining and managing the liquidity of commercial banks is one of the priority tasks for both the Central Bank and the banking system. The development of digital financial infrastructure requires the modernization of methodological approaches to bank liquidity regulation. According to international experience, central banks monitor commercial bank liquidity by conducting open market operations, managing reserve requirements, setting refinancing rates, and enhancing the efficiency of interbank markets through the use of digital platforms and modern information technologies.

In recent years, the Republic of Uzbekistan has been actively implementing measures aimed at modernizing the banking and financial system and ensuring financial stability. Based on

the Decree PF-60 of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022, "On the New Development Strategy of Uzbekistan for 2022–2026," the country has taken steps to ensure macroeconomic stability, strengthen the resilience of the banking system, and further liberalize monetary policy.

Furthermore, under the "Digital Uzbekistan–2030" strategy, approved by Decree PF-6079 on October 5, 2020, the digitalization of the banking system and the expansion of electronic financial services have been prioritized. This creates the need to introduce new technological tools that allow for real-time monitoring of commercial bank liquidity.

Economist V. Ivanov defines bank liquidity as "the ability of a bank to meet its obligations and clients' credit demands on time and at minimal cost." O. Zakharova describes bank liquidity as "the bank's ability to fulfill its debt, financial, and off-balance sheet obligations." According to the prominent economist J. Singh, liquidity is crucial for commercial banks to be prepared for deposit withdrawals and credit demand. At the same time, unexpected changes in cash flows pose a threat to bank liquidity.

S. P. Rouz provides a broader approach to the concept of bank liquidity, defining it as "the ability to obtain liquid assets at a favorable price, in the required amount, and at the necessary time."

The various definitions of bank liquidity reflect the expanding scope of financial services provided by banks. In the context of the digital economy, bank liquidity manifests as the ability of a bank to mobilize sufficient liquid assets quickly when needed. This enables the bank not only to meet its current and future financial obligations on time but also to effectively satisfy the demand for digital financial services and consumer loans.

The growth in consumer loans extended to households is considered one of the inflationary factors supporting overall consumer demand. In the context of the digital economy, the observed stabilization trend in retail lending in 2024 is expected to continue in the coming years, allowing inflationary pressures to be mitigated through monetary channels. At the same time, in recent years, alongside the increase in loans to households, bank deposits have also experienced high growth rates. The ratio of deposits to loans in the household segment decreased from 62% in 2019 to 53% in 2023, while an increase in this indicator has been observed in the current year.




Figure 1. Ratio of Household Deposits to Household Loans, in Percent (%)[35]

[35] Prepared by the author based on data from the official website of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan (www.cbu.uz)

Due to the stabilization of retail lending and the high activity in savings, the ratio of deposits to loans through digital financial platforms is expected to reach 59% by the end of this year and 71% in the medium-term horizon (Figure 1). This process further emphasizes the need to apply digital methodological approaches in managing commercial bank liquidity.

This ratio is considered an alternative indicator of household debt burden, and its expected increase in the coming periods indicates a relative improvement in the financial condition of households and a certain reduction in debt burden. In the context of the digital economy, under conditions of declining inflation and a stable exchange rate, high real interest rates on deposits in the national currency serve as an important mechanism for attracting household savings in a stable manner. This, in turn, further emphasizes the need to improve methodological approaches in the process of maintaining and managing commercial bank liquidity.

Table 1. Alignment between Commercial Banks' Lending Levels and Liquidity Status (Based on GDP Ratios), in Percent (%) [36]

№	Type of Allocated Loans	2019-year	2020-year	2021-year	2022-year	2023-year	2024-year	2025-year *	2026-year *
1	Household Loans	7	8	8	10	12	13	13	13
2	Foreign Currency Loans	16	20	19	18	18	17	16	15
3	Corporate Loans	13	14	13	12	11	11	12	12
Total		35	42	40	40	42	41	40	40

*Note: * – Forecasted Values*

The share of household loans in total loans relative to GDP increased from 7% in 2019 to 13% in 2024. As retail lending stabilizes, this indicator is expected to remain largely unchanged in the coming years. At the same time, the increased activity of domestic savings is expected to maintain a declining trend in the dollarization of loan portfolios. Specifically, the share of foreign currency loans in GDP is projected to decrease from 20% in 2020 to 15% in 2026 (Table 2). This process further emphasizes the need for methodological management of commercial bank liquidity and the effective use of digital financial instruments.

[36] Prepared by the author




Figure 2. Dynamics of Bank Loan Interest Rates[37]

At the same time, due to the low alignment between the Central Bank's key rate and commercial banks' loan rates, the Central Bank introduced alternative prudential measures. In particular, the "Regulation on the Adequacy of Commercial Bank Capital," adopted on June 13, 2015, and registered with the Ministry of Justice on July 6, 2015, under No. 2693, was updated starting in 2020.

According to the new regulation, differential risk weights were introduced for loans granted to legal entities and individual entrepreneurs. This measure is aimed at discouraging excessive and unjustified lending while promoting sound lending practices. The new framework establishes the following norms:

- If the loan rate does not exceed the Central Bank's key rate +6%, the risk weight is set at 100%;
- If the loan rate is between +6% and +9% above the key rate, the risk weight is set at 150%;
- If the loan rate exceeds the key rate by more than +9%, the risk weight is set at 200%.

This regulation incentivizes banks to lower their loan rates, as higher risk weights reduce the capital adequacy ratio. As a result, risks that could negatively affect a bank's financial stability and liquidity are mitigated, thereby enhancing the ability to manage commercial bank liquidity effectively from a methodological perspective.

These changes can be observed from the data. Specifically, starting from 2020, the amendments introduced in the above-mentioned regulatory document had a significant impact on the interest rates of loans granted by banks. At the same time, a key challenge that limits the influence of the Central Bank's monetary policy instruments on market interest rates is the high share of state ownership in the banking system.

In conclusion, this regulation helps to establish a stable financial base in the national currency (som) within the banking system, thereby increasing the capacity of commercial banks to finance the economy in the local currency. In this process, the use of domestic savings as a primary resource expands, enabling commercial banks to manage liquidity effectively from a methodological perspective and ensuring financial stability in the context of the digital economy.

[37] Prepared by the author based on data from the official website of the CBU Central Bank




Figure 3. Ratio of Allocated Loans to GDP, in Percent (%)[38]

The share of household loans in GDP is expected to increase from 7% in 2019 to 13% in 2024. As retail lending maintains its stabilization trend, this indicator is projected to remain largely unchanged in the coming years. At the same time, increased domestic savings and a continued decline in the degree of loan dollarization are anticipated. As a result, the share of foreign currency loans in GDP is expected to decrease from 20% in 2020 to 15% in 2026 (Figure 3).

In the context of the digital economy, the regulation of commercial bank liquidity through monetary policy instruments has a significant impact on the economy. It is crucial for banks to meet the real demand of households quickly and efficiently when managing their liquidity, as the faster customer demands are fulfilled, the more stable bank liquidity remains. At the same time, bank liquidity cannot always be maintained at a maximum level; keeping it at a stable level helps balance the capitalization of bank products and supports economic growth. Consequently, the methodological monitoring and management of liquidity in commercial banks becomes a key factor for economic stability and development in the digital economy.

REFERENCES

1. Ryan, N., & Banerjee, H. Mio. (2018). The impact of liquidity regulation on banks. Journal of Financial Intermediation, 35(Part B), 30–44.
2. Abdullaeva, Sh. (2010). Pul va banklar. Tashkent.
3. Bouwman, C. H. S. (2013). Liquidity: How banks create it and how it should be regulated. In A. N. Berger, P. Molyneux, & J. O. S. Wilson (Eds.), The Oxford Handbook of Banking (2nd ed., pp. 29–31). Case Western Reserve University & Wharton Financial Institutions Center.
4. Jorda, O., Richter, B., Schularick, M., & Taylor, A. M. (2017). Bank capital redux: Solvency, liquidity, and crisis. Federal Reserve Bank of San Francisco Working Paper Series, 33–35. March.
5. Valla, N., Saes-Escorbiac, B., & Tiesset, M. (2008). Bank liquidity and financial stability. Irving Fisher Committee on Central Bank Statistics (IFC Bulletin No. 28), 41–42. August.

[38] Prepared by the author based on data from the official website of the CBU Central Bank

6. Brynjolfsson, E., & Kahin, B. (2000). Understanding Digital Economy: Data, Tools, and Research. Massachusetts & London, England: MIT Press. 408 p.
7. Johansson, B., Karlsson, C., & Stough, R. (2006). The Emerging Digital Economy: Entrepreneurship, Clusters, and Policy. Berlin: Springer Science & Business Media. 352 p.

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI, TABIIY VA ANIQ FANLAR KAFEDRASI O‘QITUVCHISI

Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich

"Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda ta’lim oluvchilarda axborot madaniyatini shakllantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati"

https://doi.org/10.5281/zenodo.18655569

Annotatsiya. *Maqolada globallashuv va raqamli jamiyat sharoitida yoshlar axborot iste’moli madaniyatining ahamiyati, tarbiya va ta’lim jarayonida axborot madaniyatini shakllantirishning metodik yondashuvlari hamda samarali pedagogik texnologiyalar tahlil qilinadi. Axborot iste’moli jarayonida tanqidiy fikrlash, media savodxonlik va axloqiy madaniyatning o‘sishi ijtimoiy barqarorlik va intellektual rivojlanish uchun muhim omil ekanligi asoslab beriladi.*

Tayanch so‘zlar: *axborot madaniyati, raqamli savodxonlik, media ta’lim, tanqidiy fikrlash, globallashuv, pedagogik texnologiyalar, axborot xavfsizligi.*

Аннотация. *В статье анализируется значение культуры потребления информации молодежью в условиях глобализации и цифрового общества, методические подходы к формированию информационной культуры в процессе воспитания и обучения, а также эффективные педагогические технологии. Обосновывается, что развитие критического мышления, медиаграмотности и нравственной культуры в процессе потребления информации является важным фактором социальной стабильности и интеллектуального развития.*

Ключевые слова: *информационная культура, цифровая грамотность, медиаобразование, критическое мышление, глобализация, педагогические технологии, информационная безопасность.*

Abstract. *The article analyzes the importance of young people’s information consumption culture in the context of globalization and digital society, methodological approaches to developing information culture in the educational process, and effective pedagogical technologies. It substantiates that the development of critical thinking, media literacy, and ethical culture in the process of information consumption is an important factor for social stability and intellectual development.*

Keywords: *information culture, digital literacy, media education, critical thinking, globalization, pedagogical technologies, information security.*

Kirish. XXI asr yuqori texnologiyalar va axborot oqimi shiddat bilan o‘sayotgan davrda, bugungi kunda axborot shunchaki ma’lumot emas, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy qiyofasini belgilovchi qudratli vositaga aylandi. Mamalakatimizda ham xar bir shaxslarning axborotga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun axborot resurslari, axborot texnologiyalari hamda axborot tizimlaridan foydalangan holda sharoit yaratishning tashkiliy ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy jarayoni yaratilgan shu o‘rinda [1] yosh avlodning ushbu


cheksiz axborot makonida o‘z yo‘lini yo‘qotib qo‘ymasligi, ma’lumotlarni saralash va ulardan unumli foydalanish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi — ta’lim tizimi oldidagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Axborot madaniyatini shakllantirish nafaqat texnik savodxonlikni, balki chuqur intellektual va axloqiy tayyorgarlikni ham talab etadi. Axborot immunitetini shakllantirish bu yoshlarda yot g‘oyalar, manipulyatsiya va kiberhujumlarga nisbatan ichki himoya qobig‘ini yaratishni anglatadi. Talaba ma'lumotni iste'mol qilishdan avval uning o‘z qadriyatlariga mosligini filtrdan o‘tkazishi kerak. XXI asrda savodxonlik bu faqat o‘qish va yozish emas, balki o‘qiganini tahlil qilish, keraksizini o‘chirish va qayta o‘rganish qobiliyatidir.

Asosiy qism. Axborot madaniyati — bu shaxsning axborotga bo‘lgan ehtiyojini anglashidan tortib, uni izlash, qayta ishlash, saqlash va tarqatish jarayonidagi barcha bilim va ko‘nikmalar majmuidir. U o‘z ichiga bir nechta komponentlarni o‘z ichiga oladi. Bularga kognitiv, aksiyologik(qadriyatli), praxeologik komponentlarni aytishimiz mumkin.

Kognitiv komponent bu shaxsning axborotni qabul qilish, anglash va uni mantiqiy qayta ishlash qobiliyatini ifodalovchi bilimlar majmuidir. Bu bosqichda yoshlar axborotni shunchaki "iste'molchi" sifatida emas, balki "tadqiqotchi" sifatida tahlil qiladilar. Kognitiv komponent o‘z ichiga oladi

- Axborotga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish.
- Qidiruv strategiyasini belgilash.
- Texnik vositalardan instrumental foydalanish.
- Axborotni tizimlashtirish va saqlash.

Kognitiv komponentni rivojlantirish talabadan axborot oqimi ichida mantiqiy algoritmlar yaratishni talab qiladi. Bu jarayonda shaxs axborotni qidirish, tahlil qilish, va xulosa chiqarish zanjiri asosida fikrlashga o‘rgatiladi. 1-rasm.




1-rasm. Kognitiv komponent tuzulmasi.

Aksiyologik (qadriyatli) komponent bu shaxsning axborot bilan ishlash jarayonidagi ichki dunyosi, uning axloqiy prinsiplari va ijtimoiy mas’uliyatini belgilovchi eng muhim bo‘g‘indir. Agar kognitiv komponent "qanday qidirish va foydalanish"ni o‘rgatsa, aksiyologik komponent "nima uchun foydalanish va qanday munosabatda bo‘lish" masalasiga javob beradi. Aksiyologik komponentning tarkibiy qismlari

- Axborotga tanqidiy-qadriyatli baho berish.
- Axborot xavfsizligi va huquqiy madaniyat.
- Axloqiy filtrlash, axborot gigiyenasi.
- Axborot uzatishdagi mas’uliyati.

Aksiyologik komponentning pedagogik ahamiyati shundakiy qadriyatli komponentni shakllantirish orqali ta’lim oluvchilarda "axborot immuniteti" (2-rasm) hosil qilinadi. Bu nafaqat yoshlarni yot g‘oyalardan himoya qiladi, balki ularni raqamli dunyoda insonparvarlik va adolat tamoyillariga tayanadigan komil shaxs sifatida tarbiyalaydi.




2-rasm. Aksiyologik (qadriyatli) komponent.

Praxeologik komponent bu shaxsning axborot bilan ishlash jarayonidagi amaliy mahorati bo‘lib, to‘plangan ma’lumotlarni aniq bir maqsadga yo‘naltirish, tahlil qilish va yangi intellektual mahsulot yaratish qobiliyatini ifodalaydi. Bu bosqichda axborot shunchaki "bilim" darajasidan "instrument"(qurol) darajasiga ko‘tariladi. Praxeologik komponent tarkibiga bir qancha elementlarni o‘z ichiga oladi

- Muammoni hal qilishga yo‘naltirilganlik
- Axborotni transformatsiya qilish, qayta ishlash.
- Ijodiy yondashuv va kreativlik.
- Kommunikativ amaliyot.


Praxeologik komponentni rivojlantirish orqali talaba va o‘quvchilarda "loyiha tushunchasi" shakllanadi 3-rasm. Ular axborotni shunchaki yodlamasdan, balki hayotiy muammolar iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy yechimi uchun qo‘llashni o‘rganadilar. Bu esa ta’limning hayot bilan uzviyligini ta’minlovchi asosiy omildir.




3-rasm. Praxeologik komponentni rivojlantirish.

Yuqoridagi komponentalar asosida axborot madaniyatini shakllantirish metodlari ta’lim muassasalarida axborot madaniyatini shakllantirishda yaxshi anatijalar beradi. Bu metodik yondashuvlarga quydagilarni tavsiya qilamiz:

Tanqidiy fikrlash metodlari bu metodlar talabalarda Bu ma’lumot kim tomonidan tarqatilgan?, Maqsad nima?, Dalillar bormi? kabi savollarni o‘rtaga tashlash orqali "feyk" (yolg‘on) xabarlarni ajratish o‘rgatiladi. 4-rasm



4-rasm.Tanqidiy fikrlash metodlari



5-rasm. Loyiha metodlarida metodlari



6-rasm. Keys-stadi (Case study) metodlari

Loyiha metodlarida o‘quvchilarga ma’lum bir mavzu bo‘yicha turli manbalardan arxiv, internet, kutubxona ma’lumot to‘plash va ularni qiyosiy tahlil qilish vazifasi beriladi. 5-rasm.

Keys-stadi (Case study) metodlarida axborot xurujlari yoki kiber-tahlika holatlari aks etgan real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish orqali to‘g‘ri qaror qabul qilish ko‘nikmasi hosil qilinadi. 6-rasm.

Bu metodikalar o‘quvuvchilarni o‘qitishda tarbiyaviy jarayonda media savodxonlikga chaqiradi va axborot madaniyati faqat dars jarayoni bilan cheklanmaydi. Oilaviy va ijtimoiy tarbiya doirasida "axborot gigiyenasi" tushunchasini shakllantirish muhim. Bu o‘rinda pedagoglarning vazifasi yoshlarda axborot immunitetini hosil qilishdir. Bu immunitet shaxsni turli yot g‘oyalar, destruktiv mazmundagi kontentlar va ma’naviy inqirozga olib keluvchi axborot xurujlaridan himoya qiladi.

Pedagogik texnologiyalar tahlili hozirgi kunda interaktiv metodlar masalan, "Debatlar", "Interaktiv ma’ruza" o‘quvchining axborot bilan ishlash jarayonidagi faolligini oshiradi. Raqamli ta’lim platformalari LMS, Moodle va ta’limga oid boshqa platformalar, esa mustaqil ravishda ishonchli manbalar bilan ishlash madaniyatini tarbiyalaydi.

Xulosa. Globallashuv sharoitida axborot madaniyati shaxsning intellektual salohiyati va ma’naviy yetukligining ko‘zgusidir. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, axborot madaniyati yuqori bo‘lgan yoshlar ijtimoiy manipulyatsiyalarga kamroq beriladi va mustaqil fikrlashga moyil bo‘ladi. Samaradorlikka erishish uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. O‘quv fanlari doirasida "media savodxonlik" elementlarini keng joriy etish.
2. Pedagoglarning IT-kompetensiyalarini muntazam oshirib borish.
3. Ta’lim jarayonida axborotning nafaqat texnik, balki etik axloqiy tomonlariga urg‘u berish.

Bu tizimlarni amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining qonuni 11.12.2003y. N560-II Axborotlashtirish to‘g‘risida qonun**.** **https://nrm.uz/contentf?doc=52621_o‘zbekiston_respublikasining_11_12_2003_y_560son_ahborotlashtirish_to‘g‘risidagi_qonuni&products=1_zakonodatelstvo_ruz&trr**
O‘zbekiston Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” va energetika sohasidagi investitsiya dasturlari orqali bu soha qo‘llab-quvvatlanmoqda. Quyosh energiyasining yirik loyihalari Samarqand, Buxoro, Jizzax va boshqa viloyatlarda amalga oshirilmoqda. Quyoshli hududlar soni yil davomida 300 kunga yaqin bo‘lib, bu fotovoltaik tizimlar uchun qulay sharoit yaratadi. Quyosh energiyasi uzoq muddatda energiya ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi, yangi ish o‘rinlarini yaratadi va hududlarda investitsiyalarni jalb qiladi. Shamol energetikasi esa Buxoro va Navoiy viloyatlarida yirik shamol elektr stansiyalarini qurish imkonini beradi. Shamol energetikasi energiya ishlab chiqarishda diversifikatsiya yaratadi, investitsiyalarni jalb qiladi va yangi texnologiyalarni joriy etish imkonini beradi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari nafaqat quyosh va shamol bilan cheklanmaydi, balki mini-gidroelektr stansiyalari va biomassa energetikasi ham iqtisodiy samaradorlikka ega. Mini-gidroelektr stansiyalari kichik daryo va kanallar orqali energiya ishlab chiqarish imkonini beradi va qishloq hududlarida ichki energiya ta’minotini mustahkamlaydi. Biomassa energetikasi esa qishloq xo‘jaligi chiqindilarini energiyaga aylantiradi, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshiradi va atrof-muhitni muhofaza qilishga xizmat qiladi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining iqtisodiy ahamiyati bir necha yo‘nalishda namoyon bo‘ladi: energiya xavfsizligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash va ish o‘rinlari yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va atrof-muhitni muhofaza qilish. Bu manbalardan foydalanish mamlakatni tashqi yoqilg‘i bozorlari narxlaridan qaramlikdan ozod qiladi, uzoq muddatda energiya tannarxini kamaytiradi, hududlarda bandlikni oshiradi va mahalliy iqtisodiyot rivojiga turtki beradi. Shu bilan birga, qayta tiklanuvchi energiya loyihalari O‘zbekiston energetika tizimini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va xalqaro tajribani o‘rganish imkonini beradi. 2024 yilda qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarilishi umumiy energiya

balansida taxminan 15 % ni tashkil etdi, bu esa qisqa muddatda erishilgan sezilarli natija hisoblanadi. O‘zbekiston strategiyasi 2030 yilga kelib qayta tiklanuvchi energiya quvvatlarining ulushini sezilarli darajada oshirish va energiya samaradorligini oshirishni rejalashtirgan. Shu bilan birga, ushbu manbalar iqtisodiy barqarorlikni oshirish, investitsiyalarni jalb etish, ish o‘rinlarini yaratish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish orqali mamlakat uzoq muddatli barqaror rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikni bir vaqtning o‘zida ta’minlashi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O‘zbekistonning qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti, ekologik barqarorlik va ijtimoiy farovonlik uchun katta ahamiyatga ega. Quyosh, shamol, mini-gidroelektr stansiyalari va biomassa energetikasi energiya mustaqilligini ta’minlaydi, energiya xarajatlarini kamaytiradi, ish o‘rinlarini yaratadi va xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi. Shu bilan birga, ushbu manbalar atrof-muhitni muhofaza qilish, chiqindilarni kamaytirish va barqaror rivojlanishga erishishda muhim rol o‘ynaydi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish orqali O‘zbekiston uzoq muddatli barqaror rivojlanish, iqtisodiy samaradorlik va ekologik xavfsizlikni bir vaqtning o‘zida ta’minlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” to‘g‘risidagi qarori, PQ-4477, 04.10.2019.

2.О.Б.Ульмасова. Основы формирования рыночных услуг в условиях инновационного развития малого бизнеса. Экономика и предпринимательство. №7.2025 г. (08.00.00. №29)

3.O.B.Ulmasova. Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhi xusisiyatlari. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot jurnali. 2025 y. №4-son (08.00.00; 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori).

4.O.B.Ulmasova. Xizmatlar sohasining kichik biznes tizimida innovatsion tadbirkorlik–yangilik yaratishning asosidir. Innovatsion iqtisodiyot ilmiy-amaliy elektron jurnal. 2025 y. 3-jild. 5-son. (08.00.00 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori). 122-125 b.

5.O.B.Ulmasova. Xizmat ko‘rsatish sohasidagi kichik biznesni innovatsion taraqqiyoti tadbirkorlik subyektlari sonini oshirish garovidir. Innovatsion iqtisodiyot ilmiy-amaliy elektron jurnal. 2025 y. 3-jild. 5-son. (08.00.00 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori). 126-129 b.

6.O.B.Ulmasova. Development of the services sector based on small businesses and increasing its efficiency. International Journal of Engineering Mathematics: Theory and Application (Online) 1687-6156 http://iejemta.com/ VOLUME 7 ISSUE 2. 131-141 p. (CrossRef.№35).

7.O.B.Ulmasova. Qishloq hududida kichik biznes sohasini rivojlantirish. “Agrar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2025 yil 17-18 aprel. 239-b.

8.O.B.Ulmasova. Xizmatlar sohasida kichik biznesni SWOT tahlili asosida innovatsion rivojlantirish imkoniyatlari. Innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish asosida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari. / Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (II-qism). 2023 yil 20-sentyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2023. 216-b.

9.O.B.Ulmasova. Xizmatlar sohasida kichik biznesning innovatsion rivojlantirishning muhim xususiyatlari. / Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (II-qism). 2023 yil 20-sentyabr kuni. Samarqand, SamISI, 2023. 219 – 10.O.B.Ulmasova. Xizmatlar

sohasida kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning muhim yo‘nalishlari. «O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalalari» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami (III qism) (2024-yil 25-noyabr). 152 – b.

11.Ulmasova Oygul Baxtiyorovna. Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesni rivojlantirishda innovatsiyaning zarurati. Инновационное развитие науки и образования 2025. Павлодар, Казахстан 2025. 74-79 p.

12.K.J.Mirzayev, O.B.Ulmasova. Xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantirish mexanizmini takomillashtirish. Ilg‘or iqtisodiyot va pedagogic texnologiyalar. Ilmiy electron jurnal. 2025 yil. 784-789 b.

13.Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Ulmasova Oygul Baxtiyorovna– Xizmatlar sohasida kichik biznesni rivojlantirishning xorijiy tajribasi va undan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari. Инновационное развитие науки и образования 2025. conferences.kz. https://doi.org/10.5281/zenodo. 17309108. 93-99 b.

14.Q.J.Mirzayev, O.B.Ulmasova.Kichik biznesni innovatsion rivojlantirishda xizmatlar bozori muhim ahamiyat kasb etadi. “ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН: ИЛМИЙ ТАДҚИҚОТЛАР” мавзусидаги республика 81-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари. 104-108 b.

15.O.B.Ulmasova, M.Ollonazarova. Iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznesning rolini oshirish. Agrar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda buxgalterita hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2025 yil 17-18 aprel. 268-b.

16.O.B.Ulmasova, M.Ollonazarova. Yoshlar orasida kichik biznes sohasini rivojlantirish. Agrar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda buxgalterita hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning roli” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2025 yil 17-18 aprel. 268-b.

17.O.Murtazayev., U.O.Baxtiyorovna. (2023). Kichik biznesni rivojlantirishda xorijiy davlatlar tajribasi. The journal of economics, finance and innovation, 758-766.

18.O.Murtazayev., U.O.Baxtiyorovna. (2023). The importance of small industry zones in the development of regions. The journal of economics, finance and innovation, 218-224.

19.O.B.Ulmasova, Sh.Nizomiddinov. (2025). Samarqand viloyatida kichik biznesni rivojlantirish va samaradorligini oshirish. Journal of innovation in education and social research, 3(1), 51–54. (OAK) retrieved from https://journals.proindex.uz/index.php/jiesr/article/view/2013

20.O.B.Ulmasova (2025). Iqtisodiyotni rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyatini oshirish. Miasto przyszłości, 57, 34–39. (OAK) retrieved from https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/6053

21.O.B.Ulmasova (2025). Samarqand viloyati bo‘yicha xizmatlar sohasini kichik biznes asosida rivojlantirish va samaradorligini oshirish. Miasto przyszłości, 57, 30–(OAK)retrievedfrom https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/ view/6052

22.O.B.Ulmasova (2025). Mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznesni qo‘llab quvvatlash va rolini oshirish. Journal of economy, tourism and service,(1),115–120.(OAK) retrieved from https://jets.innovascience.uz/ index.php/ jets/article/view/659

23.O.B.Ulmasova (2025). Xizmatlar sohasini kichik biznes asosida rivojlantirish va samaradorligini oshirish. Journal of economy, tourism and service, 4(1), 52–57. (OAK) retrieved from https://jets.innovascience.uz/index.php/jets/article/view/644

24. O.B.Ulmasova (2025). Development of the services sector based on small businesses and increasing its efficiency. European journal of business startups and open society, 5(1), 175–181. (OAK) retrieved from https://inovatus.es/ index.php/ejbsos/article/view/5030
25.O.B.Ulmasova. (2024). Raqamlashtirishning tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishiga ta’sirini baholash. Journal of innovations in scientific and educational research, 7(2), 177-182.
26.O.B.Ulmasova (2024). Kichik biznesni rivojlantirish qambag‘allikni qisqartirish yuli. Journal of innovations in scientific and educational research, 7(2), 171-176.
27.O.B.Ulmasova. (2024). Raqamlashtirishning tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirishiga ta’sirini baholash. Journal of innovations in scientific and educational research, 7(2), 177-182.
28.O.B.Ulmasova. (2025). Samarqand viloyatida kichik biznesni rivojlantirish va samaradorligini oshirish. Gospodarka i innowacje., 55, 19-2

BIOTEXNOLOGIK KLASTERLAR: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI, JAHON AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI

Urdushev Xamrakul[1], Shodiyeva Maftuna Dilshod qizi[2]
[1]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Axborot texnologiyalari, tabiiy va fanlar” kafedrasi dotsenti, i.f.n.,
[2]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti “Biotexnologiya va ekologiya” fakulteti 1 bosqich talabasi.
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655794

Annotatsiya: *Ushbu tezis biotexnologik klasterlarning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqot maqsadi klasterlarning innovatsion zanjirlar, kadrlar va infratuzilma orqali raqobatbardoshlikka ta’sir mexanizmlarini asoslashdir. Metodlar sifatida tizimli yondashuv, taqqoslama tahlil va institutsional tahlil qo‘llanadi. Ilmiy yangilik klaster boshqaruvi va qiymat zanjiri integratsiyasi bo‘yicha takliflarda ifodalanadi.*

Kalit so‘zlar*: biotexnologiya, klaster, innovatsion ekotizim, qiymat zanjiri, texnologiya transferi, infratuzilma, tijoratlashtirish.*

Аннотация: *В тезисе анализируется роль биотехнологических кластеров в повышении экономической эффективности и инновационной активности. Целью является обоснование механизмов влияния кластеров на конкурентоспособность через цепочки создания стоимости, кадры и инфраструктуру. Использованы системный подход, сравнительный и институциональный анализ. Научная новизна связана с предложениями по управлению кластером и интеграции участников в единую инновационную экосистему.*

Ключевые слова: *биотехнология, кластер, инновационная экосистема, цепочка стоимости, трансфер технологий, инфраструктура, коммерциализация*

Annotation: *This thesis examines biotechnology clusters as an economic instrument for boosting innovation and competitiveness. The aim is to explain how clusters affect performance through value-chain coordination, skills development, and shared infrastructure. The study applies a systemic approach, comparative analysis, and institutional reasoning. Scientific novelty is expressed in practical proposals for cluster governance and stronger integration of research, production, and commercialization stages.*

Keywords: *biotechnology, cluster, innovation ecosystem, value chain, technology transfer, infrastructure, commercialization.*

Agroklasterlar qishloq xo‘jaligi iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari, qayta ishlash korxonalari va bozorlar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, eksportni rivojlantirish, ish o‘rinlarini yaratish va qishloq joylarni barqaror rivojlantirish orqali qishloq xo‘jaligi sohasining barqaror rivojiga hissa qo‘shadi. Ular fermerlarga zamonaviy texnologiyalar, moliyaviy resurslar va bozorlarga kirish imkoniyatlarini taqdim etish orqali ularning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, agroklasterlar qishloq

joylarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, aholining daromadlarini oshirish va qishloq xo‘jaligi sohasida barqarorlikni ta’minlashga xizmat qiladi [1-4]. Klasterning geografik-hududiy joylashuviga ko‘ra konsentratsiya-langanligi, o‘z-o‘zidan shakllanishi, tarmoqli tashkil etilishi, tizimliligi, tarmoqlararo xususiyatlari, unikalligi, fan va ilmiy tadqiqotlarga bog‘liqligi, innovatsionligi uning tayanch alomatlari hisoblanadi. Turli darajadagi boshqaruv doiralarida, klaster konsepsiyasiga–mintaqayokitarmoqni,yoki mamlakatni reytingini oshiruvchi yangi boshqaruv texnologiyasi sifatida qaralmoqda. Klasterlashtirish yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotini 60% foizini qamrab olgan, va unga dunyo iqtisodiy tizimining yangi rivojlanish vektori sifatida qaralmoqda [4-8].

O‘rganishlar biotexnologiyalar klasteri bir qator muhim sohalarni qamrab olishi mumkinligini ko‘rsatadi. Ular orasida qishloq xo‘jaligi sohasi alohida o‘rin tutadi, bu yerda genetik modifikatsiyalangan ekinlar, bioo‘g‘itlar, biopestitsidlar va boshqa innovatsion yechimlar ishlab chiqarish orqali hosildorlikni oshirish va qishloq xo‘jaligining barqarorligini ta’minlash mumkin. Shuningdek, chorvachilik sohasida ham biotexnologiyalarning qo‘llanilishi katta ahamiyatga ega. Masalan, genetik seleksiya usullarini qo‘llash orqali mahsuldorligi yuqori bo‘lgan zotlarni yaratish, embrionlarni transplantatsiya qilish orqali naslchilik ishlarini tezlashtirish va chorva mollarining kasalliklarga chidamliligini oshirish mumkin.

Sog‘liqni saqlash sohasi ham biotexnologiyalar klasteri uchun muhim yo‘nalish hisoblanadi, bu yerda yangi dori vositalarini ishlab chiqarish, diagnostika usullarini takomillashtirish, gen terapiyasi va shaxsiylashtirilgan tibbiyotni rivojlantirish mumkin. Veterinariya sohasida esa hayvonlar uchun yangi vaksinalar va dori vositalarini ishlab chiqarish, kasalliklarni erta aniqlash usullarini takomillashtirish va hayvonlarning immunitetini oshirish orqali chorvachilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish mumkin. Bundan tashqari, biotexnologiyalar sanoat, ekologiya va boshqa sohalarda ham keng qo‘llanilishi mumkin.

Yevropa va AQSh mamlakatlarining biotexnologik sektori rivojlanishi ma’lum darajada ushbu sohada sanoat korxonalari, ta’lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlari o‘rtasidagi yaqin aloqalarni shakllantirishga qaratilgan faol klaster siyosati bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatadi. Masalan, Yevropada biotexnologik klasterlar 1990-yillarning o‘rtalarida paydo bo‘la boshlagan va hozirda Yevropa mamlakatlarining biotexnologik sohasida bir necha o‘nlab klasterlar shakllantirilgan va faol ishlab turibdi. Ular orasida Shveysariya, Germaniya va Fransiya hukumatlarining sa’y-harakatlarini birlashtirish orqali nemis-shveysariyalik biznesmen J. Endress tomonidan yaratilgan BioValley klasteri, London-Kembrij klasteri One Nucleus'ni qayd etish mumkin [9]. Shuningdek, Germaniyada bioiqtisodiyot bilan bog‘liq o‘rta va kichik korxonalarni qo‘llab-quvvatlash va ularni yirik korxonalar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan integratsiyalash uchun yaratilgan CLIB2021 sanoat biotexnologiya klasterini ham ta’kidlash joiz. AQShda sanoat korxonalarining 50% dan ortig‘i klasterlar doirasida birlashgan. Eng yirik biotexnologik klasterlar orasida AQShda Massachusets texnologiya instituti bazasida turli farmasevtika va tibbiy-texnologik kompaniyalarni birlashtirishga imkon bergan Bostonning "128 Route" klasteri, shuningdek, Shimoliy Karolina universiteti va Dyuk universiteti bazasida shakllantirilgan va 80 dan ortiq kompaniyani birlashtirgan "Triangle Park" farmasevtika klasterini qayd etish mumkin. Ta’kidlash joizki, biotexnologiya sohasidagi klaster tashabbuslari Hindiston, Braziliya, Xitoy, Yaponiya va boshqa mamlakatlarda faol rivojlanmoqda.

Bostonning "Route 128" klasteri — AQShning Massachusets shtati, Boston hududidagi mashhur ilmiy-texnik va innovatsion klasterdir. Nomi shaharni aylanib o‘tuvchi Route 128

avtomagistralidan olingan bo‘lib, u texnologik kompaniyalar uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalish hisoblanadi. Ushbu klaster yuqori texnologiyali korxonalarning, jumladan, axborot texnologiyalari, biotexnologiyalar, muhandislik va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi kompaniyalarning konsentratsiyasi bilan mashhur. Ko‘p o‘n yillar davomida u innovatsiyalar va tadbirkorlik markazi bo‘lib xizmat qildi, IBM, Raytheon, Cisco va boshqa ko‘plab startap va mustahkam korporatsiyalarni birlashtirdi. "Route 128" klasteri mohiyatiga ko‘ra Kremniy vodiysining analogi bo‘lib, mintaqada texnologiyalar va ilmiy yutuqlarning rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi.

Germaniyada bioiqtisodiyot bilan shug‘ullanuvchi o‘rta va kichik korxonalarni qo‘llab-quvvatlash hamda ularni yirik korxonalar va ilmiy muassasalar bilan birlashtirish maqsadida CLIB2021 sanoat biotexnologiya klasteri tashkil etilgan. CLIB2021 sanoat biotexnologiyasi klasteri (Open Innovation Cluster, The Bioeconomy Cluster for International Chemical and Energy Markets) Germaniyaning eng samarali klasterlaridan biridir. U 2007 yilda Dyusseldorfda doktor Manfred Kirxer tomonidan asos solingan [10]. CLIB2021 sanoat biotexnologiyasi klasterining shakllanishi va rivojlanishi Germaniya Federal Ta’lim va tadqiqot vazirligi, Federal Oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi va iste’molchilarni himoya qilish vazirligi, Shimoliy Reyn-Vestfaliya yerining Innovatsiyalar, fan va tadqiqot vazirligi tomonidan qo‘llab-quvvatlanadi.

CLIB2021 ilm-fan va sanoat vakillarini o‘zida birlashtirgan klaster bo‘lib, qayta tiklanadigan resurslar asosidagi texnologiyalarning ilmiy va sanoat ishlab chiqarish zanjirining barcha muhim bosqichlarida faol ishtirok etadi. Bu klaster tarkibiga kiruvchilar qayta tiklanadigan resurslar asosidagi texnologiyalarni tadqiq qilish va rivojlantirish, shuningdek, biopolimerlar, biokimyoviy moddalar, ozuqa va oziq-ovqat qo‘shimchalari, bioyoqilg‘i kabi oraliq va yakuniy mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan shug‘ullanadilar.

Xitoyda ushbu sohada faoliyat yuritayotgan asosiy hududlar Pekin, Shanxay va Guanchjou shaharlari hisoblanadi. Xitoyda biotexnologiyalar rivojlanishida davlatning mehnat, soliq va moliyaviy tartibga solish sohalaridagi rag‘batlantiruvchi siyosati muhim rol o‘ynadi. 2020 yilga kelib mamlakatda milliy fan va texnologiyalarni rivojlantirish dasturi mavjud bo‘lib, unga ko‘ra 2006-2020 yillar davomida davlat tadqiqot va ishlanmalarga 112 milliard dollar sarmoya kiritgan, bunda aynan biotexnologik yo‘nalishga alohida e’tibor qaratilgan.

Xitoydagi asosiy tadqiqotlar quyidagilar: o‘simliklar va hayvonlarning yangi turlarini molekular loyihalashtirish, dori vositalari, stvol hujayralari asosida to‘qima muhandisligi, shuningdek, gen va protein muhandisligi.

Hindiston Tinch okeani mintaqasida biotexnologiyalar rivojlanishi bo‘yicha uchinchi o‘rinda turadi (Avstraliya va Xitoydan keyin). Bu mamlakatda inson salomatligini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘lgan biotexnologiyalar katta rivojlanishga erishdi. Hindiston AQShdan tashqarida Amerikaning Oziq-ovqat va dori-darmonlar ma’muriyati (Food and Drug Administration) tomonidan tasdiqlangan farmasevtika ishlab chiqarish maydonlari soni bo‘yicha jahonda yetakchi hisoblanadi [3].

Klaster a’zolarining tadqiqot yo‘nalishlari juda keng qamrovli: qishloq xo‘jaligi va o‘rmon xo‘jaliklarining turli xil o‘simlik chiqindilarini qayta ishlash texnologiyalarini ishlab chiqishdan tortib, kimyo, farmakologiya, oziq-ovqat va yengil sanoat uchun mo‘ljallangan turli oraliq va yakuniy mahsulotlar ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarni qamrab oladi.

AQShda sanoat korxonalarining 50% dan ortig‘i klasterlar doirasida faoliyat olib boradi. Eng yirik biotexnologik klasterlar sifatida Massachusets texnologiya instituti negizida tashkil

etilgan "Route128" (Boston) klasteridan tashqari Shimoliy Karolina universiteti hamda Dyuk universiteti bazasida shakllangan "Triangle Park" farmasevtika klasterini keltirish mumkin. Shuni ta’kidlash joizki, biotexnologiya sohasidagi klaster tashabbuslari Hindiston, Braziliya, Xitoy, Yaponiya va boshqa davlatlarda ham jadal rivojlanmoqda.

Konsepsiya – bu klasterni yaratish va rivojlantirishning asosiy g‘oyalari, maqsadlari, vazifalari, prinsiplari va yo‘nalishlarini belgilab beruvchi hujjatdir. U klasterning kelajakdagi faoliyati uchun yo‘l xaritasi vazifasini bajaradi.

Biotexnologiyalar klasteri konsepsiyasini ishlab chiqishda davlat organlari, ilmiy muassasalar, sanoat korxonalari, jamoat tashkilotlari va ekspertlar kabi turli manfaatdor tomonlar ishtirok etadi. Har bir tomon sohaning rivojlanishi bo‘yicha o‘z qarashlari, ustuvorliklari, ilmiy asoslangan takliflari, ehtiyojlari va muammolarni hal qilish bo‘yicha tavsiyalarini konsepsiyaga kiritishi mumkin.

Konsepsiyani ishlab chiqish jarayoni bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi: sohaning holatini tahlil qilish, klasterni yaratish maqsad va vazifalarini belgilash, faoliyat prinsiplarini ishlab chiqish, asosiy yo‘nalishlarni aniqlash, amalga oshirish mexanizmlarini ishlab chiqish hamda konsepsiyani manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilish va tegishli organlar tomonidan tasdiqlash.

Ushbu konsepsiyasini amalga oshirish quyidagilarga xizmat qiladi: malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, farmasevtika sanoati uchun mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish, ilmiy-tadqiqot institutlarining moddiy-texnik bazasini yangilash, professor-o‘qituvchilarning ilmiy-amaliy jarayondagi ishtirokini rag‘batlantirish, yangi dori vositalarini ishlab chiqish tizimini takomillashtirish, innovatsion dori vositalarini yaratishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatlash, biologik faol birikmalarning elektron ma’lumotlar bazasini yaratish va farmasevtika sanoatida ishlatish uchun texnologiyalar ishlab chiqish. Klasterni rivojlantirish mezonlaridan biri bu ekspertlik markazini tashkil etish, ilmiy-tadqiqot bazasini rivojlantirish, biofarmasevtika sanoatida xalqaro tajribani joriy etish, mahalliy mutaxassislarni xalqaro standartlarga mos ravishda o‘qitish, shuningdek, yangi jihozlar va muhandis-texnik kadrlar bilan ta’minlashdir.

Keyingi yillarda O‘zbekistonda "Biotexnologiyalar klasteri"ni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 yanvardagi PQ-4574-son qarori bilan tasdiqlangan ""Tashkent Pharma Park” innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmasevtika klasterini tashkil etish konsepsiyasi"da klaster mamlakat farmasevtika tarmog‘ida o‘quv va ilmiy-tadqiqot salohiyatini rivojlantirish, eng yaxshi xorijiy o‘quv dasturlari asosida farmasevtika sohasida kadrlar tayyorlash, shuningdek, ilm talab qiladigan va yuqori texnologiyali ishlab chiqarishlarni yaratishga qaratilgani qayd etilgan [12]. Shuningdek, "Farmasevtika tarmog‘ini yanada rivojlantirish va investitsiya loyihalarini amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 10 yanvardagi PQ-14-son qarori bilan "Tashkent Pharma Park" innovatsion ilmiy-ishlab chiqarish farmasevtika klasteri faoliyatini jadallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi belgilangan. Mazkur qarorga muvofiq muvofiq, klaster hududida "Biotexnologiyalar klasteri" tashkil etiladi va unga qo‘shimcha 60 gektar yer maydoni ajratilishi belgilangan [13].

Hozirgi vaqtda biotexnologiya, qator boshqa yo‘nalishlar va faoliyat turlari (xususan, muqobil energetika, sun’iy intellekt, robototexnika) kabilar bilan birgalikda so‘nggi yillarda

rivojlanayotgan va zamonaviy jamiyatning barcha sohalaridagi o‘zgarishlarni belgilab beruvchi to‘rtinchi sanoat inqilobining asosini shakllantirmoqda. Qolaversa, kimyo va neft-kimyo, farmasevtika va tibbiyot sanoati, qishloq xo‘jaligi sektori va boshqa iqtisodiy faoliyat turlariga oid korxonalarni modernizatsiya qilish bilan bog‘liq dasturlarni amalga oshirish zamonaviy iqtisodiy sharoitlarda biotexnologik mahsulotlar va texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish orqali amalga oshirish kabi talablar yuzaga keladi [14].

Biotexnologik mahsulotlarga bo‘lgan talab doimiy ravishda oshib bormoqda, qo‘llanish sohasi kengaymoqda, bu esa ushbu sektorning investitsiyaviy jozibadorligini belgilaydi. Bunga Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining ilm-fan, texnologiyalar va innovatsiyalar bo‘yicha bo‘linmasi tomonidan hisoblanadigan "tadbirkorlik sektorida biotexnologiyalar sohasidagi tadqiqot va ishlanmalarga qilingan xarajatlar" kabi ko‘rsatkichning o‘sishi guvohlik beradi [15]. "Tadbirkorlik sektorida biotexnologiyalar sohasidagi tadqiqot va ishlanmalarning jadalligi" kabi ko‘rsatkichni ko‘rib chiqar ekanmiz, uning eng yuqori qiymatlari Belgiya (2017 yilda ushbu ko‘rsatkichning qiymati qo‘shilgan qiymatning 1,005% ni tashkil etdi) va Shveysariya (0,988%) kabi mamlakatlarda kuzatilishini ta’kidlash lozim.

Xulosa qilib aytganda, biotexnologik sektorda faol klaster siyosatini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bunda klaster ishtirokchilarining ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarini muvofiqlashtirish orqali tarmoq korxonalariga ta’sir etuvchi yangi omillarni o‘z vaqtida aniqlash va samarali yechimlarni ishlab chiqishda ularni hisobga olish imkonini beradi.

Biotexnologik mahsulotlar ishlab chiqarishda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish va tarmoq salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish uchun biotexnologik majmuaning asosiy elementlari – texnologiyalar, uskunalar va mahsulotlarning hayotiy siklini muvofiqlashtirish zarur.

Iqtisodiyotning turli sohalarida biotexnologik innovatsion ta’lim-ishlab chiqarish klasterlarini shakllantirish mahalliy biotexnologiyalarning raqobatdoshligini oshirishning samarali usuli hisoblanadi. Shuningdek, bunday klasterlar tashqi muhitning tez o‘zgarishi sharoitida iqtisodiyot tarmoqlarining mutanosib rivojlanishini ta’minlovchi muhim vosita vazifasini bajaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Urdushev X., Mavlyanov M.,.Eshanqulov S. Sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. II-qism. O‘quv qo‘llanma. – Samarqand: Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nashr matbaa markazi, 2025. 200 b.
2. Yunusov X., Urdushev X., Eshankulov S. (2021). Agroindustrial clusters as an innovative mechanism Of economic development // “Development issues of innovative economy in the agricultural sector” International scientific-practical conference on March 25-26, 2021. 135-141 pp. http://papers.conference.sbtsue.uz/index.php/DIIEAS/article/view/42
3. Khamrakul Urdushev, Majid Mavlyanov, Sirojiddin Eshankulov. (2021). About the state and development of fruit and vegetable clusters in Uzbekistan. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR).Year: 2021, Volume: 10, Issue:3 First page:(455) Last page:(463).Online ISSN: 2278-4853. Article DOI: 5958/2278-4853.2021.00157.9 https://indianjournals.com/ijor.aspx?target=ijor:ajmr&volume=10&issue=3&article= 073

4. Урдушев, Х., & Эшанкулов, С. (2025). ЎЗБЕКИСТОН МЕВА-САБЗАВОТЧИЛИГИ: КЛАСТЕРЛАРНИНГ СОҲАНИНГ РИВОЖЛАНИШИДАГИ РОЛИ. In Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. https://doi.org/10.60078/2992-877X-2025-vol3-iss4-pp385-395. https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/2608
5. Urdushev, X., & Eshanqulov, S. (2025). MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI: EKSPORTGA YO‘NALTIRILGAN RIVOJLANISH. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 5(5), 89–98. https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I5Y2025N16
6. Urdushev Xamrakul, Sirojiddin Eshanqulov. (2025). IQTISODIY-MATEMATIK MODELLASHTIRISH: MEVA-SABZAVOTCHILIK KLASTERLARI EKIN MAYDONLARINI TAKOMILLASHTIRISH. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy va ommabop jurnal. Elektron nashr. Maxsus son/№5, 2025. 374-378 b. (Agrar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning roli hamda istiqboldagi vazifalar”mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Maxsus son/№5. 2025-yil 17-18 aprel. 374-378 b.)
7. Akbarov Husan O‘zbekxonovich, Urdushev Xamrakul, Jalilov Shoxrux Zafar o‘g‘li. BOG‘DORCHILIK TARMOG‘INING HOLATI VA RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARINING EKONOMETRIK TAHLILI. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy va ommabop jurnal. Elektron nashr. Maxsus son/№5, 2025. 379-384 b. (Agrar iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditning roli hamda istiqboldagi vazifalar”mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Maxsus son/№5. 2025-yil 17-18 aprel. 379-384 b.)
8. Урдушев, Х., Мавлянов, М.,& Эшанкулов, С. (2023). АГРОКЛАСТЕРЛАРНИ ТАСНИФЛАШГА ЁНДОШУВЛАР, МУҲИМ ЖИҲАТЛАРИ ВА СИНФЛАНИШИ. *Nashrlar*, *1*(2), 305–309. Retrieved from https://e-itt.uz/index.php/editions/article/view/435
9. Софья Лопаева. Как на границе Швейцарии, Германии и Франции рождался BioValley – самый успешный в Старом Свете биофармацевтический кластер. https://vademec.ru/article/kak_na_granitse_shveytsarii-_germanii_i_frantsii_rozhdalsya_biovalley_-_samyy_uspeshnyy_v_starom_sve/
10. https://www.fbras.ru/kooperaciya-i-sotrudnichestvo/clib2021 Кластер промышленной биотехнологии CLIB2021 | Федеральный исследовательский центр «Фундаментальные основы биотехнологии»
11. Krivtsova A.A. (2020) Osnovnye preimuschestva i tendentsii razvitiya biotekhnologicheskikh klasterov [The main advantages and trends in the development of biotechnological clusters]. *Kreativnaya ekonomika. 14.* (5). — 817-828. doi: 10.18334/ce.14.5.110174
12. https://lex.uz/docs/4714160#4715483 ПҚ-4574-сон 28.01.2020. «Tashkent Pharma Park» инновацион илмий-ишлаб чиқариш фармацевтика кластерини ташкил этиш тўғрисида
13. https://lex.uz/docs/6746884- ПҚ-14-сон 10.01.2024. Фармацевтика тармоғини янада ривожлантириш ва инвестиция лойиҳаларини амалга оширишни жадаллаштириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUT ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI HUDUDLAR KESIMIDA SOLISHTIRMA TAHLILI

Xamdamova Guljaxon Ablakulovna
Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti, tayach doktoranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655821

Annotatsiya. *Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida sut ishlab chiqarish hajmi, o‘sish sur’atlari va hududlar o‘rtasidagi farqlar solishtirma tahlillar asosida o‘rganilgan. Tadqiqotda mavjud statistik ma’lumotlar asosida chorvachilik mahsulotlari tarkibida sut yetishtirishning o‘rni aniqlanib, yetakchi hududlar hamda past ulushga ega bo‘lgan, ammo o‘sish salohiyati yuqori Respublikadagi tumanlar aniqlangan. Natijalar sut ishlab chiqarishning mamlakat oziq-ovqat xavfsizligidagi ahamiyatini tasdiqlaydi hamda tarmoq samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflarni shakllantirishga xizmat qiladi.*

Kalit so‘zlar: *Sut ishlab chiqarish, chorvachilik mahsulotlari, benchmarking, oziq-ovqat xavfsizligi, hududiy tahlil, iqtisodiy samaradorlik, o‘sish sur’ati.*

Abstract. *This article analyzes milk production volumes, growth dynamics, and interregional differences in Uzbekistan using comparative analyses methodology. Based on official statistics, the role of milk output within the livestock sector is assessed and leading regions in Republic, as well as lagging but high-potential areas, are identified. The findings confirm milk production as a key pillar of national food security and provide analytical insights and recommendations for improving efficiency within the dairy supply chain.*

Key words: *Milk production, livestock sector, benchmarking, food security, regional development, performance analysis.*

Аннотация. *В статье проведён сравнительный анализ объёмов производства молока, темпов роста и региональных различий в Узбекистане. На основе статистических данных выявлены лидирующие в Республике регионы и области с низкой долей, но высоким потенциалом развития. Полученные результаты подтверждают значимость молочного производства для продовольственной безопасности страны и формируют практические рекомендации по повышению эффективности отрасли.*

Ключевые слова: *Производство молока, животноводство, бенчмаркинг, продовольственная безопасность, региональный анализ, экономическая эффективность.*

KIRISH

Bugungi kunda jahon miqyosida sut sanoati sezilarli jiddiy o‘zgarishlar jarayonini boshdan kechirmoqda. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO) tomonidan e’lon qilinadigan sut mahsulotlari narxlari indeksi 2014-yil fevral oyidagi eng yuqori darajaga nisbatan 26 foizga pastligini ko‘rsatmoqda. FAO prognozlariga ko‘ra, aholining ko‘payishi, urbanizatsiya va iste’mol madaniyatining o‘zgarishi tufayli 2030-yilga borib dunyoda sut mahsulotlariga bo‘lgan talab 35–40 foizga oshadi. Sutning oqsil, kaltsiy va asosiy mikroelementlar manbai sifatida ahamiyati uning iqtisodiy va ijtimoiy qiymatini yanada oshirmoqda.

O‘zbekiston iqtisodiyotida chorvachilik sohasi agrar tarmoqning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, oziq-ovqat xavfsizligi, aholi farovonligi va eksport salohiyatining ortishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. 2024-yilda mamlakatda 12,4 mln tonna sut ishlab chiqarilib, o‘sish sur’ati 104

foizni tashkil etdi. Hududlar kesimida Samarqand, Qashqadaryo va Farg‘ona sut yetishtirish bo‘yicha yetakchilik qilgan bo‘lsa, o‘sish dinamikasi Qashqadaryo, Toshkent va Navoiy viloyatlarida yuqori bo‘ldi.

So‘nggi yillarda kreditlar, subsidiyalar, chorvachilik infratuzilmasi kengayishi hamda zamanoviy texnologiyalarning joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirmoqda. Shuning uchun sut ishlab chiqarish zanjirini benchmarking asosida baholash hududlar o‘rtasidagi farqlarni aniqlash, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish va strategik rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash uchun dolzarb hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Sut ishlab chiqarish va sut mahsulotlari bozori so‘nggi yillarda jahon miqyosida iqtisodiy, ijtimoiy va oziq-ovqat xavfsizligi nuqtayi nazaridan keng o‘rganilmoqda. FAO, OECD va Jahon banki tadqiqotlarida sut chorvachiligi aholining to‘yimli oziq-ovqat bilan ta’minlanishi, qishloq hududlarida bandlikni oshirish hamda barqaror agrar rivojlanishni ta’minlovchi muhim tarmoq sifatida e’tirof etilgan. Mazkur manbalarda sut mahsulotlariga bo‘lgan talabning o‘sishi asosan ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hisobiga qondirilishi lozimligi ta’kidlanadi.

Ilmiy adabiyotlarda sut ishlab chiqarish samaradorligi masalasi ko‘pincha ishlab chiqarish xarajatlari, sigir boshiga mahsuldorlik, texnologik ta’minlanganlik darajasi hamda resurslardan foydalanish samaradorligi orqali baholanadi. Ayrim tadqiqotlarda sut ishlab chiqarish zanjirida (yetishtirish–yig‘ish–qayta ishlash–realizatsiya) yuzaga keladigan yo‘qotishlar va nomutanosibliklar tahlil qilinib, ularni kamaytirish uchun institutsional va texnologik yechimlar taklif etilgan.

Qator xorijiy tadqiqotlarda qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini rivojlantirishda benchmarking usuli samarali vosita sifatida qo‘llanilgan. Ushbu yondashuv ilg‘or hududlar tajribasini aniqlash, past ko‘rsatkichga ega hududlarning ichki salohiyatini baholash hamda hududlararo farqlar sabablarini ochib berish imkonini beradi. Benchmarking asosida olib borilgan tahlillar strategik rejalashtirish va davlat siyosatini hududiy xususiyatlardan kelib chiqib shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston olimlarining ilmiy ishlarida chorvachilik va sut ishlab chiqarish masalalari asosan ishlab chiqarish hajmlari, davlat qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari hamda tarmoqni rivojlantirish istiqbollari doirasida yoritilgan. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida sut ishlab chiqarish zanjirining hududlar kesimidagi samaradorligi, benchmarking asosida qiyosiy tahlil qilish masalalariga yetarli darajada e’tibor qaratilmagan.

Tadqiqot metodalogiyasi

Mazkur tadqiqotda respublikamizda qabul qilingan mavzuga oid me’yoriy-huquqiy hujjatlar, soha iqtisodchi olimlarining ilmiy ishlari, shuningdek, statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Jumladan, sut ishlab chiqarish aks ettiruvchi statistik ko‘rsatkichlar hamda oldin o‘tkazilgan ilmiy tadqiqotlar natijalari tahlil qilindi.

Maqolani tayyorlash jarayonida ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda sut ishlab chiqarilga oid ma’lumotlarni kuzatish, guruhlash, taqqoslash, mantiqiy tahlil qilish hamda umumlashtirish kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

O‘zbekiston Respublikasida chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2024-yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, respublika bo‘yicha jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarining

hajmi 225 762,3 mlrd so‘mni tashkil etib, o‘sish sur’ati 104,0% ga yetgan. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik ulushi 50,8% ni tashkil etadi. Ushbu ma’lumotlar tarmoqning mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishdagi salmoqli o‘rnidan dalolat beradi.(1-jadvalda)

1-jadval

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmi to‘g‘risida jadval[39]

(mlrd so‘m)

T/r	Hududlar	Hajmi	Hajmga nisbatan %da
1.	Qashqadaryo	26 525,0	11,7 %
2.	Samarqand	25 659,0	11,4 %
3.	Toshkent	22 264,4	9,9 %
4.	Buxoro	21 384,4	9,5 %
5.	Andijon	18 271,0	8,1 %
6.	Jizzax	18 098,5	8,0 %
7.	Surxondaryo	17 723,3	7,9 %
8.	Farg‘ona	16 905,5	7,5 %
9.	Xorazm	15 740,2	7,0 %
10.	Namangan	13 351,9	5,9 %
11.	Navoiy	13 758,2	6,1 %
12.	Qoraqalpog‘iston Resp.	9 406,8	4,2 %
13	Sirdaryo	6 674,1	3,0 %
	Jami	**225 762,30**	**100%**

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlari hajmini tahlil qilganda, Qashqadaryo (26 525,0 mlrd so‘m), Samarqand (25 659,0 mlrd so‘m) va Toshkent (22 264,4 mlrd so‘m) viloyatlari eng yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etgan. Respublikada jami yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari tarkibida eng katta ulush aynan shu hududlarga - Qashqadaryoga (11,7%), Samarqandga (11,4%) va Toshkentga (9,9%) to‘g‘ri keldi.

O‘sish sur’atlari tahliliga ko‘ra, eng yuqori dinamika Sirdaryo (106,6%), Farg‘ona (105,3%) va Qashqadaryo (105,1%) viloyatlarida kuzatilgan. Bu hududlarda chorvachilik tarmog‘ini rivojlantirish bo‘yicha olib borilgan ishlar samarasi yuqori bo‘lganligini ko‘rsatadi. Boshqa tomondan, Qoraqalpog‘iston Respublikasi (9 406,8 mlrd so‘m) va Sirdaryo viloyati (6 674,1 mlrd so‘m) kabi hududlarda mahsulot hajmi nisbatan past bo‘lib, bu yerlarda tarmoqni yanada rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha sut hajmi 12 443,8 ming tonnani, o‘sish sur‘ati esa 104,0% ni tashkil etgan. (2-jadval)

[39] Stat.uz ma’lumotlariga asosan tayyorlandi

2-jadval

Hududlar bo‘yicha sut ishlab chiqarish ma’lumotlari[40]

(ming tonna)

T/r	Hududlar	Hajmi	O‘sish sur'ati, % da
1.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	469,7	104,9%
2.	Andijon	1 119,2	102,7%
3.	Buxoro	1 136,7	104,4%
4.	Jizzax	713,6	102,8%
5.	Qashqadaryo	1 380,1	105,2%
6.	Navoiy	566,9	105,1%
7.	Namangan	804,1	104,3%
8.	Samarqand	1 456,0	103,8%
9.	Surxondaryo	974,3	102,5%
10.	Sirdaryo	414,2	104,8%
11.	Toshkent	1 080,6	105,0%
12.	Farg‘ona	1 191,1	104,6%
13.	Xorazm	1 137,3	102,4%
Jami:		**12443,8**	**104,0%**

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, 2023-yilga nisbatan ko‘rib chiqilayotgan davrda yuqori o‘sish sur’atlari Qashqadaryo (105,2%), Navoiy (105,1%), Toshkent (105,0%) viloyatlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasida (104,9%), Sirdaryo (104,8%), Farg‘ona (104,6%), Buxoro (104,4%) va Namangan (104,3%) viloyatlarida qayd etildi.

Ma’lumotlarga ko‘ra mamlakatda sut ishlab chiqarish barqaror oshmoqda, Samarqand, Qashqadaryo va Farg‘ona viloyatlari sut ishlab chiqarishda eng katta ulushga ega bo‘lsa-da, Qashqadaryo, Navoiy va Toshkent viloyatlari eng yuqori o‘sish sur‘atlarini namoyish etgan. Davlat qo‘llab-quvvatlashi natijasi sezilmoqda, innovatsion texnologiyalar zanjir samaradorligini oshiradi.

XULOSA

O‘tkazilgan tahlil natijalari O‘zbekiston Respublikasida sut ishlab chiqarish chorvachilik tarmog‘ining muhim va barqaror rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Hududlar kesimida olib borilgan solishtirma tahlillar sut ishlab chiqarish hajmi, o‘sish sur’atlari hamda iqtisodiy samaradorlik ko‘rsatkichlari bo‘yicha sezilarli tafovutlar mavjudligini tasdiqladi.

Kelgusida hududlarning iqtisodiy rivojlanish dasturlarini ishlab chiqishda yuqori o‘sish sur’atlariga ega, ammo ishlab chiqarish ulushi past bo‘lgan hududlarga (xususan, Navoiy va Sirdaryo viloyatlariga) investitsiya jalb etish mexanizmlarini kuchaytirish, chorvachilik infratuzilmasini rivojlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, sut ishlab chiqarish zanjirining barcha bosqichlarida samaradorlikni oshirishga qaratilgan kompleks va hududiy yondashuvni shakllantirish tarmoqning barqaror rivojlanishini ta’minlashga xizmat qiladi.

[40] [40] Stat.uz ma’lumotlariga asosan tayyorlandi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. FAO ning 2024-yilda sut mahsulotlari bo‘yicha asosiy prognozlari.
2. O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasining 2024 yil dastlabki ma’lumotlar to‘plami.
3. Akanksha, E.; Debnath, A.; Dey, B. Extensive Review of Cloud Based Internet of Things Architecture and Current Trends.In Proceedings of the 6th International Conference on Inventive Computation Technologies (ICICT), Coimbatore, India, 20–22 January 2021.
4. Hamdamova G., Shavkatov J., Idrisov S. O‘zbekiston milliy innovatsion tizimi: salohiyati va samaradorligi // American Journal of Business Management, Vol. 3, No. 2 (2025), pp. 211–220.
5. Hamdamova G., Abdulahatov M., Suyunov O., Financial and economic mechanisms for the implementation of the digital economy. American Journal of business management., Vol.3 No.2 (2025)., 50-61
6. H. Guljahon., Murodkulov J., Abdusalimov J., Innovation iqtisodiyotning kelib chiqishi, innovatsiyaning rivojlanish evolyutsiyasi., American Journal of business management., Vol.3 No.2 (2025)., 158-167
7. Hamdamova G., Shavkatov J., Idrisov S., O‘zbekiston milliy innovation tizimi: salohiyati va samaradorligi., American Journal of business management., Vol.3 No.2 (2025)., 211-220
8. Hamdamova G., Kurbanov J., Mamatkulov I., Factors of poverty in central Asian countries., American Journal of business management., Vol.3 No.2 (2025)., 200-210

BOLLARNING TA’LIM JARAYONIDA TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI

Xaydarova Nilufar
Turan International University Gumanitar Fanlar va pedagogika fakulteti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18666587

Аннотация*. В условиях современного стремительного технологического развития одной из важнейших задач общества является воспитание людей, способных к самостоятельному мышлению и созданию новых идей. Поэтому развитие критического и творческого мышления в образовательном процессе становится актуальной педагогической проблемой. Творческое мышление важно не только в искусстве или литературе, но и в науке, технике, общественной жизни и решении повседневных проблем.*

Ключевые слова: *критическое, образование, творческое, технологическое, искусство, потенциал, восприятие, мышление, способность, личность, стандарт, предложение, креативность, критическое мышление, логическое мышление, идея, личность, искусство, литература.*

Kirish. Tanqidiy fikrlash — bu ma’lumotni shunchaki qabul qilmasdan, uni **tahlil qilish**, **savol berish**, **solishtirish** va **asosli xulosa chiqarish** qobiliyatidir. **Bolalarda tanqidiy fikrlash** — bu bolaning ma’lumotni shunchaki yodlab olmasdan, **o‘ylab ko‘rishi**, **savol berishi**, **sabab–oqibatni tushunishi** va **o‘z fikrini bildira olishi** qobiliyatidir. Oddiy qilib aytganda, tanqidiy fikrlaydigan bola:

“**Nega?**” va “**Qanday qilib?**” deb so‘raydi
Eshitgan gapiga darrov ishonmaydi, **o‘ylab ko‘radi**
Vaziyatni **solishtiradi**
O‘z fikrini **asoslab ayta oladi**

Misol uchun: Agar bola: “Qushlar uchadi” degan gapni eshitsa, tanqidiy fikrlovchi bola: “Hamma qushlar ham ucha oladimi?” — deb so‘raydi.
Bu aynan tanqidiy fikrlash belgisi.

Nega bu muhim?

- Bola mustaqil fikrlaydi
- To‘g‘ri va noto‘g‘rini ajrata boshlaydi
- Muammolarni hal qilishni o‘rganadi
- Kelajakda bilimli va ishonchli qaror qabul qiladi
- Kreativlik tushunchasi lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, yaratish, ijodkor, yaratuvchi degan ma'nolarni ifodalaydi. Lekin mohiyatan bu tushuncha insonning ijodiy qobiliyatining namoyon bo‘lishidir. SCIENCE, EDUCATION, INNOVATION: MODERN TASKS AND PROSPECTS. International online conference. Date: 5 thNovember-2024 24 "Kreativlik: inson aqliy salohiyatining yuksak darajadagi hisoblanib, obyektdagi aloqadorliklarni tahlil qilish va o‘zgartirish asosida yangi mazmunni yaratadi" " Kreativlik: Bu alohida alohidalik emas balki mahsuldor produktiv tafakkurga tegishli shaxsiy qobiliyat bilan taqozolangan umumiy qobiliyatdir"

"Kreativlik: shaxsning egallagan tajribani idrok qilish va anglash qobiliyatidir." "Qobiliyat: individual - psixologik alohidalik bo‘lib, sub'ektiv shartlar orqali muayyan faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishdir." Ijodkor shaxs: bular rassomlar, fotosuratchilar, shoirlar, yozuvchilar - turli xil ijod turlarida o‘z qobiliyatlarini amalga oshiradigan insonlardir. Ijodkorlik qoida tariqasida, ishbilarmonlarga xos xususiyatdir.

Misol tariqasida: Dizaynerlar reklama beruvchilar, brend menejerlari va boshqalar. Kreativ pedagogika: bu ijodiy ta'lim fani va san'atidir. Kreativ pedagogika majburlash pedagogikasidir, hamkorlik pedagogikasi, tanqidiy pedagogika kabi pedagogika turlariga qarama - qarshi bo‘lgan pedagogikaning bir turi hisoblanadi. Kreativ pedagogika o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga yoshlarimizning o‘z kelajaklarini yaratishga yordam beradi. Kreativ pedagogika:har qanday fanga, xoh matematika xoh fizika, xoh tillar, xoh iqtisod bo‘lsin, qo‘llanilish mumkin bo‘lgan pedagogikadir. Ma'lum darajada aytish mumkinki uning metodologiyasi o‘qitish va o‘rganish jarayonini o‘zgartiradi. Rivojlangan kreativlik shaxs ijodkorligining muhim tarkibiy qismidir. U shaxsning kognitiv maqsadga erishish, boshlangan ijodiy ishni davom ettirish, bilish faoliyatidagi qiyinchiliklarni bartaraf etish, aqliy harakatlarni rejalashtirish va ketma-ketlashtirish, maqsadga erishish variantlari va usullarini izlash istagida ifodalanadi. Tamoyillari: tamoyil so‘zi tushunchasi yunoncha so‘zdan olingan bo‘lib biror - bir nazariyaning asosi, negizi, asosiy boshlang‘ich qoidasi, faoliyatning asosiy qoidasi, boshqaruvchi g‘oyalar umumlashtirilganda talab degan ma'nolarni ifodalaydi. Har bir fan yoki soha o‘z tamoyillari asosida rivojlanib bormoqda. Pedagogika sohalarida tamoyillari fanning umumiy tamoyillaridan kelib chiqadi. Fanlar prinsip va qoidalari bizga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud. Ulardan chetga chiqish mumkin emas, aks holda pedagogik faoliyat befoyda, balki zararli ham bo‘ladi.

Kreativ fikrlash – bu shaxsning mavjud bilim va tajribaga tayangan holda yangi, original va samarali g‘oyalar ishlab chiqish qobiliyatidir. U muammoni turli nuqtai nazardan ko‘ra olish, standart bo‘lmagan yechimlarni taklif etish va yangilikka ochiqlik bilan tavsiflanadi. Ta’lim jarayonida kreativ fikrlashni rivojlantirish o‘quvchilarning faolligini oshiradi, o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini kuchaytiradi va ularni hayotga yaxshiroq tayyorlaydi.

Ta’lim jarayonida kreativ fikrlashning ahamiyati

Kreativ fikrlash rivojlangan o‘quvchi:

muammolarni mustaqil tahlil qiladi;

tanqidiy va mantiqiy fikrlashni qo‘llaydi;

yangi g‘oyalardan qo‘rqmaydi;

jamoada samarali ishlay oladi;

Bunda asosan yangi interfaol metodlar bilan samarali shakllantirish mumkin.

Boshlang‘ich sinflarda interfaol metodlar yordamida dars mashg‘ulotlarini o‘tish

Ta’lim samaradorligini oshirishda dars jarayonida o‘qituvchi har xil interfaol metodlardan foydalanishi maqsadga muvofiqdir. Darsda interfaol metodlardan samarali foydalanish o‘qituvchining pedagogik mahoratiga bog‘liq. Avvalo, “interfaol metod o‘zi nima?” degan savolga javob beramiz. “Interfaol” so‘zi ingliz tilida interact so‘zidan olingan bo‘lib, inter— o‘zaro ikki taraflama, act— harakat qilmoq degan ma’nolarni ifodalaydi. Interfaol metodlar o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini, dunyoqarashini shakllantiradi, o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlashga hamda o‘qituvchi tomonidan o‘rgatilgan bilimlarni qayta so‘rashga ko‘maklashadi. Asosiy qism: “Ta’lim jarayonida o‘qituvchi hamda o‘quvchilar o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta’lim oluvchilar tomonidan 44 bilimlarni samarali

o‘zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi.”1 Interfaol metodlarga “Aqliy hujum”, “Baliq skeleti”, “Bilaman. Bilishni xohlamayman. Bilib oldim.”, “Blits so‘rov”, “Bumerang”, “Venn diogrammasi”, “Zinama-zina”, “Intervyu”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Kungaboqar”, “Savoljavob”, “Suhbat”, “Test”, “FSMU”, “Yelpig‘ich”, “Zakovatli zukko”, “Gugurt donalari”, “Idrok xaritasi”, “Yagona davra” kabi metodlar kiradi. “Klaster” metodi — ta’lim oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi metod hisoblanadi. “Klaster” metodini amalga oshirishda biror mavzuning asosiy tushunchasi o‘rtaga aylanma shaklidagi chizma ichiga yoziladi. So‘ngra shu tushuncha haqida ko‘z oldiga kelgan narsalar asosiy tushunchani atrofidagi aylanachalarga yoziladi. Masalan, 3-sinf “Ona tili va o‘qish savodxonligi” darsidagi “Jamoat transporti” mavzusini misol qiladigan bo‘lsak: “Nilufar guli” metodi o‘quvchilarda fikrlash, tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. “Venn diogrammasi” grafik organayzeri ikki va undan ortiq narsalarni, voqealarni taqqoslash, solishtirish, farqlash uchun ishlatiladi. Venn diogrammasi bir xil ikki doira chiziladi. So‘ng ularni ortasiga o‘xshash jihatlari, yon tomonlariga esa farqli tomonlari yoziladi. “Bumerang” metodi o‘quvchilarda fikrini erkin bayon eta oladigan, yodda saqlaydigan, so‘zlab beradigan kabi ko‘nikmalarini shakllantiradi. “FSMU” metodi darsda mavzu yuzasidan fikrini bildirishni, fikrini asoslab beruvchi sababini aytishi, tasdiqlovchi misollar keltirib, so‘ngra hammasini umumlashtirishi kerakligini o‘quvchilarda o‘rgatadi. F–fikringizni bayon eting. S– 1 Pedagogika: 1000ta savolga 1000ta javob/ Metodik qo‘llanma. U.I.Inoyatov, N.A.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Inog‘omova. — Toshkent: Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, 2012yil.– 122bet transport spark nexia cobalt malibu 45 fikringizni asoslab beruvchi sabab ko‘rsating. M–keltirgan sababingizni tasdiqlovchi misollar keltiring. U–barcha bildirilgan fikrlaringizni umumlashtiring. “Kungaboqar” metodi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, fikrini erkin bayon eta olishga, o‘tilgan mavzuni takrorlash va mustahkamlashga, o‘quvchilarning bilim salohiyatini qay darajada ekanligini aniqlashda yordam beruvchi metod hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflar dars jarayonida turli xil interfaol metodlardan foydalanish dars samaradorligini, o‘quvchilarning bilim salohiyatini, savodxonligini oshirishga, olingan bilimlarni takrorlash hamda mustahkamlashga yordam beradi. Buning uchun o‘qituvchilar pedagogik mahoratini ishga solib, dars jarayonida samarali metodlardan foydalanish kerak.

Xulasa qilganda Tanqidiy va kreativ fikrlash bolalarning aqliy, ijtimoiy va shaxsiy rivojida muhim ahamiyatga ega. Tanqidiy fikrlash bolaga ma’lumotni tahlil qilish, sabab–oqibatni anglash, to‘g‘ri va noto‘g‘rini farqlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bunday bolalar savol berishdan cho‘chimaydi va o‘z fikrini asoslab ifoda eta oladi.

Kreativ fikrlash esa bolalarning tasavvuri va ijodkorligini rivojlantirib, muammolarga noodatiy yondashish, yangi g‘oyalar yaratish va o‘z imkoniyatlarini erkin namoyon etishga yordam beradi. Kreativ bola o‘ziga ishonchli, tashabbuskor va yangilikka ochiq bo‘ladi.

Shu sababli, bolalarda tanqidiy va kreativ fikrlashni rivojlantirish ularning ta’limdagi muvaffaqiyati, hayotiy ko‘nikmalari va kelajakdagi raqobatbardoshligini ta’minlaydi. Bu ko‘nikmalar zamonaviy ta’limning ajralmas qismi bo‘lib, har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kreativ pedagogika- pedagogikaga yangicha yondashuv. Ruzimatova.B.S., Yulchiyev

2. D.Ro‘ziyeva, M.Usmonboyeva, Z.Xoliqova “Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi (metodik qo‘llanma)”. Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU nashriyoti,2013;
3. Kreativ pedagogika- pedagogikaga yangicha yondashuv. Ruzimatova.B.S., Yulchiyev
4. Kreativlik kasbiy kompetentligi va kreativlik. N.M Quchqorova.
5. Kreativ fikrlash "innovatsion rivojlanish nashriyot- matbaa uyi" Toshkent 2021

IQ-«АЙКЬЮ» ИНТЕЛЛИГЕНТ ИЛИ СУПЕР-ИНТЕЛЛЕКТ

Хамраев Гуломжон Рахманович
Председатель: «Ассоциации Сетевого Маркетинга Узбекистана»
Докторант: «Университета Мировой экономики»
https://doi.org/10.5281/zenodo.18655964

Аннотация. *Преимущества высокого* ***IQ человека*** *включают в себя лучшую обучаемость, профессиональные успехи и более высокую продолжительность жизни. Люди с высоким IQ чаще быстрее осваивают новые навыки, успешнее решение сложные задачи и лучше адаптируются к изменениям, что открывает больше возможностей для карьерного роста и высокого дохода. Кроме того, более высокий интеллект коррелирует с лучшим здоровьем и долголетием благодаря более рациональному подходу к жизни и избеганию опасных ситуаций, поэтому улучшить интеллект молодых и правильное воспитание их, чтобы повысить умственных способностей народа для развития страна и общества*

Ключевые слова: *IQ -«айкью»; коэффициент интеллекта; умственных способностей; разум человека; интеллигент; интеллект; искусственный интеллект; супер-интеллект:*

IQ - Коэффициент интеллекта (англ. IQ — intelligence quotient, читается «**айкью**») — количественная оценка уровня интеллекта человека (**коэффициент умственного развития**): уровень интеллекта относительно уровня интеллекта среднестатистического человека (такого же или среднего возраста); в более узком смысле — отношение так называемого умственного возраста к истинному хронологическому возрасту данного лица (индивида)

В настоящее время интеллигентом считается образованный, умный и воспитанный человек, к ним относятся быстрая обучаемость, интерес к необычным темам и способность быстро обрабатывать информацию,

Интеллигентность как феномен – это особый тип людей, обладающих особым социальным статусом и моральным поведением, соблюдение норм и правил, характеризующих интеллигента как носителя духовности. Тактичность и деликатность считаются характеристиками каждого истинного интеллигента.

Интеллигент (лат. intelligens, intelligentis «знающий, понимающий, разумный») — высокий уровень развития интеллекта, образованность и высокая культура поведения.

Интеллект (от лат. intellectus «восприятие»; «разумение», «понимание»; «понятие», «рассудок» или «ум» — качество психики, состоящее из способности осознавать новые ситуации, способности к обучению и запоминанию на основе опыта, и применению абстрактных концепций для управления окружающей человека средой.

Интеллект человека — это способность мыслить, анализировать, обучаться, запоминать, решать задачи и проявлять творчество. Он включает не только логическое мышление, но и эмоциональную и социальную составляющие, позволяя человеку взаимодействовать с окружающим миром, достигать целей и развиваться как личность.

IQ, или коэффициент интеллекта

(IQ), — это оценка когнитивных способностей человека («интеллекта») в его возрасте с помощью серии стандартизированных тестов.

Метод расчета

Первоначально IQ рассчитывался по отношению IQ по формуле: IQ = Умственный возраст ÷ Фактический возраст × 100 лет. Например, если 8-летний ребенок проходит тест на интеллект группы 10-летних, то его умственный возраст равен 10 годам, а его IQ рассчитывается по формуле 10÷8×100 = 125. Однако этот метод расчета имеет определенные ограничения, и в дальнейшем часто используется IQ отклонения. IQ отклонения основан на нормальном распределении интеллекта всех людей в определенной возрастной группе, при этом средний IQ возрастной группы равен 100, а стандартное отклонение используется в качестве единицы измерения разницы между уровнем интеллекта индивида и средним уровнем той же возрастной группы.

1. Измерят контент

Тесты IQ в основном охватывают несколько аспектов оценки интеллекта человека, в том числе:

-Наблюдение:

-Внимание:

-Память:

-Способность к мышлению:

-Воображение:

2. Влияющие факторы

-Генетика:

-Окружающая среда:

-Питание:

Интеллект — это реализуемый на физическом объекте алгоритма:

Интеллект Человеческого Уровня (ИЧУ) — это способности решать задачи, доступные человечеству.

Искусственный Интеллект (ИИ) —это созданный не в естественной биологической среде интеллект, - это **чудес супер интеллекта**

Искусственный Суперинтеллект — это интеллект, превосходящий во много раз возможности **Интеллект Человеческого Уровня (ИЧУ).**

Кем хочешь быть,

Интеллигент или **Супер-интеллект**

Мы уверены, что каждый из вас уже слышал термин IQ.

Но не все ясно понимают, что такое IQ (ай-кью) у человека и как его измеряют, насколько точными можно считать результаты и как этот коэффициент влияет на успехи в жизни.

Также у вас будет возможность самим пройти тест на IQ и лучше узнать себя.

Уровень IQ у человека –это что такое, как его измерить и можно ли повысить показатель

Что такое IQ и общество Mensa

IQ – это количественная оценка умственных способностей человека, которая определяется с помощью специально подготовленных тестов.

Показатель не является постоянной величиной.

Он может меняться с возрастом: увеличиваться у тех, кто занимается саморазвитием, спортом, получает полезные навыки, и снижаться у тех, кто решил запустить свою жизнь.

Кроме того, уровень IQ может иметь определенную динамику в зависимости от самочувствия человека.

В то же время принято считать, что у детей одаренных родителей больше шансов на высокие показатели интеллекта. Кроме того, чем более благополучна среда проживания ребенка, тем более высокий коэффициент интеллекта он сможет продемонстрировать в будущем.

На IQ влияет и возраст человека. Как правило, к 26 годам интеллект достигает своего пика, а затем постепенно начинает снижаться.

Психологи и ученые неоднократно проводили исследования, пытаясь найти взаимосвязь между тем, каким должен быть уровень интеллекта, и различными данными человека:

-наследственностью;
-физиологическими параметрами;
-полом;
-расовой принадлежностью;
-окружающей средой, воспитанием.

Коэффициент интеллекта отражает:

-уровень эрудированности,
-профессионализм,
-образованность,
-целеустремленность
-трудолюбие,
-решительность,
-талант
-общественную ценность,
-эффективность,
-жизненную мудрость,
-моральную устойчивость,
-чувство юмора и пр.

Предполагается, что в данных промежутках находится около 95 % населения планеты. Таким образом, показатели между 70 и 130 баллами являются нормой.

Значение **выше 130 баллов** традиционно считается высоким и классифицируется как **гениальность.**

Цифра ниже 70 – умственная недостаточность.

Интересно! Самый высокий уровень IQ был выявлен у австралийского математика Теренса Тао. Показатель его интеллекта – 230 баллов.

Есть источники, которые дают более мелкую градацию, описывая показатель интеллекта до 180 баллов и выше, а также в диапазоне 1–24. Более общепринятой считается следующая шкала:

-140 *и выше – обладатели выдающихся творческих способностей, изобретатели, ученые;*

-131–140 *баллов – высокий показатель, присущий всего трем процентам населения;*

-111–130 *баллов – выше среднего;*

-91–110 *баллов – считается хорошим или средним уровнем интеллекта, позволяющим добиться определенных высот;*

-81–90 *баллов – ниже среднего;*

-70–*ниже баллов означают различную степень проблем в умственном развитии.*

Рекомендации:

Как повысить уровень интеллекта

Тесты на IQ определяют то, какое мышление наиболее развито: математическое, вербальное, логическое, образное.

А по тому, какое из них менее развито, можно установить направление, в котором следует совершенствоваться.

Повысить личную интеллектуальную планку помогут следующие методы:

-Заниматься спортом

-Ухаживать со здоровьем

-решение логических задач;

-игра в шашки - шахматы и другие интеллектуальные игры;

-разгадывание кроссвордов;

-чтение художественных книг;

-изучение точных наук;

-освоение иностранных языков.

Заключение:

Современный термин IQ подразумевает более сложную оценку интеллектуальных способностей человека, а понятие «уровень IQ» стало столь популярным.

Мы с вами разобрали, что такое IQ, и выяснили, насколько относительными могут быть его результаты. Неважно, сколько пунктов вы набрали на тесте.

Помните, что каждый человек уникален по-своему. Будьте собой и не переставайте развиваться.

BUDJET TASHKILOTLARIDA: REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH

Xoldarova Zohida[1], Berdiqulova Manzura[2]
[1]Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti Biznes va Boshqaruv fakulteti Moliya va moliyaviy texnologiyalar yo‘nalishi talabasi
[1]Ilmiy rahbar, Toshkent Xalqaro Moliyaviy Boshqaruv va Texnologiyalar Universiteti, Moliya, Bank ishi va Buxgalteriya hisobi kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18656073

Annotatsiya. *Mazkur maqolada budjet tashkilotlarida rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonlarining nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. Budjet tashkilotlari faoliyatini samarali tashkil etishda moliyaviy rejalashtirishning o‘rni, xarajatlar smetasini shakllantirish, mablag‘lardan maqsadli va oqilona foydalanish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat budjeti mablag‘larini taqsimlash mexanizmlari, moliyalashtirish shakllari hamda ularning ijrosi ustidan nazoratni kuchaytirishning ahamiyati ko‘rsatib berilgan. Maqolada budjet intizomini mustahkamlash, moliyaviy shaffoflikni ta’minlash va budjet tashkilotlarining barqaror faoliyatini rivojlantirish bo‘yicha taklif va xulosalar bayon etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Budjet tashkilotlari, moliyaviy rejalashtirish, moliyalashtirish, davlat budjeti, xarajatlar smetasi, budjet mablag‘lari, moliyaviy nazorat, budjet intizomi, samaradorlik, shaffoflik.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются теоретические и практические аспекты процессов планирования и финансирования в бюджетных организациях. Анализируется роль финансового планирования в эффективной организации деятельности бюджетных организаций, формировании сметы расходов, а также в целенаправленном и рациональном использовании средств. Указываются механизмы распределения средств государственного бюджета, формы финансирования и важность усиления контроля за их исполнением. В статье представлены предложения и выводы по укреплению бюджетной дисциплины, обеспечению финансовой прозрачности и развитию устойчивой деятельности бюджетных организаций.*

Ключевые слова: *Бюджетные организации, финансовое планирование, финансирование, государственный бюджет, смета расходов, бюджетные средства, финансовый контроль, бюджетная дисциплина, эффективность, прозрачность.*

Abstact. *This article covers the theoretical and practical aspects of planning and financing processes in budget organizations. The role of financial planning in the effective organization of the activities of budget organizations, the formation of cost estimates, and the targeted and rational use of funds are analyzed. The mechanisms for distributing state budget funds, forms of financing, and the importance of strengthening control over their implementation are also indicated. The article presents proposals and conclusions on strengthening budget discipline, ensuring financial transparency, and developing sustainable activities of budget organizations.*

Keywords*: Budget organizations, financial planning, financing, state budget, cost estimates, budget funds, financial control, budget discipline, efficiency, transparency.*

KIRISH

Hozirgi davrda davlat boshqaruvi tizimida budjet tashkilotlarining o‘rni va ahamiyati tobora ortib bormoqda. Aholiga ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, ijtimoiy himoya va boshqa muhim xizmatlarni ko‘rsatuvchi ushbu tashkilotlar faoliyatining barqarorligi, avvalo, ularning moliyaviy ta’minotiga bevosita bog‘liqdir. Budjet tashkilotlarida rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish davlat mablag‘laridan samarali foydalanish, moliyaviy intizomni mustahkamlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu bois, budjet tashkilotlarida moliyaviy rejalashtirish va moliyalashtirish mexanizmlarini chuqur o‘rganish, ularning amaldagi tizimini tahlil qilish va takomillashtirish masalalari dolzarb hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Budjet tashkilotlari — bu davlat budjeti mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan va notijorat faoliyatini amalga oshiruvchi muassasalardir. Ularning asosiy vazifasi foyda olish emas, balki jamiyat ehtiyojlarini qondirishdan iboratdir. Shuning uchun ham budjet tashkilotlarida moliyaviy faoliyatni rejalashtirish alohida ahamiyatga ega.



Budjetdan tashqari mablag‘larning shakllanish manbalari

Budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag‘lari quyidagi manbalar hisobidan shakllanadi:



1. Pullik xizmatlardan tushumlar

- Ta’lim muassasalarida — kontrakt asosidagi o‘qitish
- Tibbiyot muassasalarida — pullik tibbiy xizmatlar
- Madaniyat muassasalarida — pullik tadbirlar, ko‘rgazmal



Ijaradan tushgan mablag‘lar

- Bo‘sh turgan bino, inshoot va jihozlarni ijaraga berishdan olingan daromadlar

Grantlar va subsidiyalar

- Xalqaro tashkilotlar, fondlar va davlat dasturlari doirasida ajratiladigan mablag‘lar

Homiylik va xayriya mablag‘lari

- Yuridik va jismoniy shaxslarning beg‘araz ko‘magi

Tejash natijasida qolgan mablag‘lar

- Smeta doirasida iqtisod qilingan mablag‘lar (belgilangan tartibda)

Qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa manbalar

- Jarimalar, badallar va boshqa tushumlar

Moliyaviy rejalashtirish — bu kelgusi davr uchun daromad va xarajatlarni oldindan belgilash, mablag‘lardan maqsadli foydalanishni ta’minlash jarayonidir. Budjet tashkilotlarida rejalashtirish asosan xarajatlar smetasini tuzish orqali amalga oshiriladi. Xarajatlar smetasida tashkilotning bir yil davomida amalga oshiradigan faoliyati uchun zarur bo‘lgan barcha xarajatlar aniq yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rsatiladi.

Rejalashtirish jarayonida tashkilotning funksiyalari, xizmat ko‘rsatish hajmi, xodimlar soni, moddiy-texnik bazasi va boshqa omillar inobatga olinadi. To‘g‘ri tuzilgan reja budjet mablag‘laridan oqilona foydalanishning asosiy kafolati hisoblanadi.

Budjet tashkilotlarini moliyalashtirish asosan davlat budjeti hisobidan amalga oshiriladi. Moliyalashtirish jarayoni tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq ravishda olib boriladi. Budjet mablag‘lari maqsadli xarakterga ega bo‘lib, ularni belgilangan yo‘nalishlardan tashqari ishlatishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Moliyalashtirishning asosiy shakllariga quyidagilar kiradi:

- ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar;
- tovarlar va xizmatlar uchun xarajatlar;
- kapital xarajatlar;
- ijtimoiy to‘lovlar va transfertlar.

So‘nggi yillarda budjet tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini oshirish maqsadida qo‘shimcha moliyalashtirish manbalari ham joriy etilmoqda. Jumladan, pullik xizmatlar ko‘rsatish, homiylik mablag‘lari, grantlar va boshqa qonun bilan taqiqlanmagan manbalar shular jumlasidandir. Bu esa budjet tashkilotlarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va xizmatlar sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Budjet tashkilotlarida moliyalashtirish jarayonining muhim jihatlaridan biri moliyaviy nazoratni ta’minlashdir. Moliyaviy nazorat budjet mablag‘larining maqsadli sarflanishi, smeta intizomiga rioya etilishi hamda moliyaviy qonunchilik talablarining bajarilishini tekshirishga qaratilgan.

Nazorat tizimi quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- dastlabki nazorat;
- joriy nazorat;
- yakuniy nazorat.

Moliyaviy nazorat natijasida aniqlangan kamchiliklar va qonunbuzarliklar budjet intizomini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, moliyaviy samaradorlikka erishish uchun natijaga yo‘naltirilgan budjetlashtirish usullarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu usul budjet mablag‘larining faqat sarflanishini emas, balki ularning ijtimoiy-iqtisodiy natijasini ham baholash imkonini beradi.

Budjet tashkilotlarida rejalashtirish va moliyalashtirish jarayoni juda aniq tartibga solingan zanjirdir. Ushbu tizimni tushunish uchun uni bosqichma-bosqich, mantiqiy jadval ko‘rinishida ko‘rib chiqamiz.

Budjet Tashkilotlarida Rejalashtirish va Moliyalashtirish Tizimi

Bosqich	Jarayon nomi	Asosiy harakatlar va mazmuni
1-bosqich	**Prognozlash va Rejalashtirish**	Kelgusi yil uchun xarajatlar smetasi loyihasi tuziladi. Bunda ish haqi, soliqlar va kommunal to‘lovlar hisoblanadi.
2-bosqich	**Budjet so‘rovini topshirish**	Tashkilot o‘z ehtiyojlarini yuqori turuvchi vazirlikka yoki Moliya vazirligiga asoslangan holda taqdim etadi.
3-bosqich	**Tasdiqlash (Limiitlar)**	Moliya organlari tomonidan har bir xarajat moddasi bo‘yicha ajratiladigan mablag‘lar (limitlar) tasdiqlanadi.
4-bosqich	**G‘aznachilikda ro‘yxatdan o‘tkazish**	Tasdiqlangan xarajatlar smetasi va shtat jadvali g‘aznachilik bo‘linmalarida hisobga olinadi.
5-bosqich	**Moliyalashtirish (Ijro)**	Mablag‘lar maqsadli ravishda (masalan, oylik yoki to‘lov topshiriqnomalari orqali) yo‘naltiriladi.
6-bosqich	**Nazorat va Hisobot**	Sarflangan mablag‘lar bo‘yicha choraklik va yillik hisobotlar topshiriladi.

Budjet tashkilotlarida rejalashtirish va moliyalashtirish tizimi davlat mablag‘laridan samarali foydalanishni ta’minlovchi muhim mexanizm hisoblanadi. To‘g‘ri tashkil etilgan moliyaviy rejalashtirish, asoslangan xarajatlar smetasi va shaffof moliyalashtirish jarayoni budjet tashkilotlari faoliyatining barqarorligini ta’minlaydi. Moliyaviy nazoratni kuchaytirish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish hamda qo‘shimcha moliyaviy manbalardan oqilona foydalanish orqali budjet tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish mumkin. Bu esa o‘z navbatida, davlat xizmatlari sifatining oshishiga va jamiyat farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi.

Budjet tashkilotlarida rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonlarini doimiy ravishda takomillashtirib borish davlat moliya siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning rivojlanishi, ijtimoiy ehtiyojlarning ortib borishi hamda budjet resurslarining cheklanganligi mavjud tizimni yanada samarali va moslashuvchan qilishni talab etadi. Shu nuqtai nazardan, budjet tashkilotlarida moliyaviy boshqaruvning zamonaviy mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Avvalo, rejalashtirish jarayonida real ehtiyojlar va amaldagi moliyaviy imkoniyatlar o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash zarur. Ko‘plab hollarda smetalar formal tarzda tuzilishi yoki avvalgi yillardagi ko‘rsatkichlar asosida shakllantirilishi samaradorlikni pasaytiradi. Shu sababli, rejalashtirish jarayonida aniq hisob-kitoblar, statistik ma’lumotlar va ehtiyojlarning chuqur tahliliga asoslangan yondashuvdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Budjet tashkilotlarida rejalashtirish va moliyalashtirish bo‘yicha statistik jadval

№	Ko‘rsatkichlar	2023-yil	2024-yil	2025-yil (reja)	Izoh
1	Davlat budjetidan ajratilgan mablag‘lar (trln so‘m)	210,3	238,1	270,5	Yillik o‘sish tendensiyasi mavjud
2	Ta’lim sohasi ulushi (%)	33 %	34 %	35 %	Eng katta moliyalashtiriladigan soha
3	Sog‘liqni saqlash ulushi (%)	18 %	19 %	20 %	Tibbiy xizmat sifati oshirilmoqda
4	Madaniyat va sport ulushi (%)	5 %	5,5 %	6 %	Aholi bandligi va sog‘lom turmush tarzi
5	Ijtimoiy soha (nafaqalar, yordamlar) (%)	28 %	27 %	26 %	Maqsadli ijtimoiy yordamlar
6	Kapital qo‘yilmalar (mlrd so‘m)	38 500	45 200	52 000	Qurilish va rekonstruksiya
7	Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar (%)	52 %	54 %	55 %	Budjet xarajatlarida asosiy ulush
8	Kommunal va xo‘jalik xarajatlari (%)	11 %	10 %	9 %	Energiya tejamkorlik natijasi
9	Dasturiy-rejali moliyalashtirish ulushi (%)	41 %	47 %	52 %	Natijaga yo‘naltirilgan budjet
10	Budjet intizomi buzilishi holatlari	4,2	3,6	3,0	Nazorat kuchaygan

№	Ko‘rsatkichlar (mingta)	2023-yil	2024-yil	2025-yil (reja)	Izoh

So‘nggi yillarda raqamli texnologiyalarning rivojlanishi budjet tashkilotlarida moliyaviy jarayonlarni boshqarishda yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Elektron budjet tizimlari, avtomatlashtirilgan hisob va hisobot dasturlari rejalashtirish jarayonining aniqligi va shaffofligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Raqamlashtirish orqali xarajatlar smetasini shakllantirish, moliyalashtirishni monitoring qilish va hisobotlarni tayyorlash jarayonlari soddalashadi. Bu esa inson omili ta’sirini kamaytirib, xatoliklarning oldini olish imkonini beradi. Bundan tashqari, elektron tizimlar orqali mablag‘lar harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyati yaratiladi, bu esa moliyaviy nazorat samaradorligini oshiradi.



O‘zbekistonda amaliyotda keng qo‘llaniladigan davlat budjet tashkilotlarida xarajatlar 4 ta guruhga bo‘linadi



Guruh	Guruh nomi	Mazmuni (nimalar kiradi)
1-guruh	Ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar	Xodimlar ish haqi, ustamalar, mukofotlar, rag‘batlantirish to‘lovlari
2-guruh	Ijtimoiy to‘lovlar va ajratmalar	Yagona ijtimoiy to‘lov, pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy sug‘urta ajratmalari
3-guruh	Tovarlar va xizmatlar xarajatlari	Kommunal xizmatlar (elektr, gaz, suv), aloqa, yoqilg‘i, ofis jihozlari, xizmat safarlari
4-guruh	Kapital qo‘yilmalar va boshqa xarajatlar	Asosiy vositalar xaridi, binolarni qurish va ta’mirlash, jihozlar, hamda transferlar

Raqamli texnologiyalar budjet mablag‘laridan foydalanish ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Ochiq ma’lumotlar orqali fuqarolar davlat mablag‘larining qayerga va qanday maqsadlarda sarflanayotganini bilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.





Asosiy xarajat yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Miqdor
Ijtimoiy sohalar (jami)	153,3 trln so‘m
– Ta’lim	71,2 trln so‘m
– Sog‘liqni saqlash	36 trln so‘m
Iqtisodiy rivojlanish (jami)	38,4 trln so‘m
– Gaz subsidiyalari	9,5 trln so‘m
– Suv xo‘jaligi	9,2 trln so‘m
– Uy-joy va kommunal xizmatlar	4,1 trln so‘m
– Shaharsozlik	5,1 trln so‘m
Davlat investitsiyalari	28,5 trln so‘m
Davlat boshqaruvi	17,9 trln so‘m
Davlat qarziga xizmat	14,5 trln so‘m
Byudjet tashkilotlari ish haqi	125,4 trln so‘m
Tovar va xizmatlar xaridi	24,8 trln so‘m
Ijtimoiy nafaqalar va yordam	15,4 trln so‘m

Budjet tashkilotlarida rejalashtirish va moliyalashtirish samaradorligi, avvalo, budjet intizomiga rioya etilishiga bog‘liq. Budjet intizomi — bu tasdiqlangan moliyaviy rejalarga qat’iy amal qilish, mablag‘lardan belgilangan maqsadlar asosida foydalanish va moliyaviy majburiyatlarni o‘z vaqtida bajarishni anglatadi.

Budjet intizomini mustahkamlash uchun rahbar va mas’ul xodimlarning moliyaviy savodxonligini oshirish muhim hisoblanadi. Moliyaviy boshqaruv sohasida yetarli bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lgan mutaxassislar rejalashtirishda xatolarga yo‘l qo‘ymasdan, mavjud resurslardan maksimal darajada samarali foydalana oladilar.

Shuningdek, moliyaviy intizomni buzganlik uchun javobgarlik mexanizmlarini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Bu budjet mablag‘lariga nisbatan mas’uliyat hissini oshiradi va noqonuniy yoki samarasiz xarajatlarning oldini olishga xizmat qiladi.

Zamonaviy sharoitda budjet tashkilotlarida faqat xarajatlarni rejalashtirish bilan cheklanib qolmasdan, erishiladigan natijalarga e’tibor qaratish zarur. Natijaga yo‘naltirilgan rejalashtirish budjet mablag‘larining samaradorligini baholash imkonini beradi.

Ushbu yondashuvda har bir moliyaviy resurs ma’lum ijtimoiy yoki iqtisodiy natijaga erishishga qaratiladi. Masalan, ta’lim yoki sog‘liqni saqlash sohasida ajratilgan mablag‘lar faqat sarflanishi emas, balki ularning sifat ko‘rsatkichlariga ta’siri ham baholanadi. Bu esa budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Natijaga yo‘naltirilgan rejalashtirish budjet tashkilotlarining faoliyatini yanada ochiq va hisobdor qiladi, boshqaruv qarorlarini qabul qilishda aniq mezonlarga tayanishga imkon yaratadi.

Budjet tashkilotlarida rejalashtirish va moliyalashtirish tizimini doimiy takomillashtirish davlat moliya siyosatining muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Raqamli texnologiyalarni joriy etish, budjet intizomini mustahkamlash, natijaga yo‘naltirilgan rejalashtirish usullaridan foydalanish orqali budjet mablag‘laridan samarali foydalanish imkoniyatlari kengayadi. Bu jarayonlar budjet tashkilotlari faoliyatining barqarorligini ta’minlabgina qolmay, aholiga ko‘rsatilayotgan davlat xizmatlari sifatining oshishiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Budjet tashkilotlari faoliyatida moliyaviy barqarorlikni ta’minlash muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlik tashkilotning o‘z funksiyalarini uzluksiz va

sifatli bajarishi, majburiyatlarini o‘z vaqtida ado etishi hamda budjet mablag‘laridan oqilona foydalanishini anglatadi. Ushbu barqarorlikni ta’minlashda rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonlarining to‘g‘ri tashkil etilishi muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy barqarorlikka erishishda tashkiliy tuzilmaning samaradorligi alohida ahamiyat kasb etadi. Budjet tashkilotlarida moliya bo‘limlari, buxgalteriya xizmatlari va rejalashtirish bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar o‘zaro uzviy hamkorlikda ishlashi zarur. Ushbu hamkorlik moliyaviy resurslarni taqsimlashda aniqlik va izchillikni ta’minlaydi.

Shuningdek, moliyaviy risklarni oldindan aniqlash va baholash ham muhim hisoblanadi. Xarajatlarning oshib ketishi, rejalashtirilmagan majburiyatlarning yuzaga kelishi yoki mablag‘larning kechikib ajratilishi budjet tashkilotlari faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Shu bois, risklarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish moliyaviy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Budjet tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan har bir moliyaviy operatsiya bevosita jamiyat manfaatlariga xizmat qiladi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy himoya sohalariga ajratilayotgan mablag‘lar aholining turmush darajasi va hayot sifati bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu sababli, budjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish ijtimoiy ahamiyatga ega masala hisoblanadi.

Maqsadli foydalanish deganda mablag‘larning faqat belgilangan yo‘nalishlar asosida sarflanishi emas, balki ularning kutilgan ijtimoiy natijalarni berishi ham tushuniladi. Masalan, ta’lim muassasalariga ajratilgan mablag‘lar bilim sifati va ta’lim infratuzilmasining yaxshilanishiga olib kelishi lozim. Agar bu natijalar ta’minlanmasa, moliyalashtirish samaradorligi past hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan, budjet tashkilotlari faoliyatida monitoring va baholash tizimlarini joriy etish zarur. Bu tizimlar orqali ajratilgan mablag‘larning real ta’siri aniqlanadi va keyingi rejalashtirish jarayonlarida hisobga olinadi.

Budjet tashkilotlarida rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonlarining sifati ko‘p jihatdan kadrlar salohiyatiga bog‘liq. Moliyaviy boshqaruv bilan shug‘ullanuvchi xodimlarning bilim darajasi, tajribasi va mas’uliyati mablag‘lardan foydalanish samaradorligini belgilaydi.

Zamonaviy sharoitda moliya xodimlaridan nafaqat hisob-kitoblarni bilish, balki tahliliy fikrlash, normativ-huquqiy hujjatlarni chuqur tushunish ham talab etiladi. Shu sababli, budjet tashkilotlarida xodimlarning malakasini oshirish, doimiy o‘quv va treninglar tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, budjet tashkilotlarida rejalashtirish va moliyalashtirish jarayonlari davlat moliya tizimining muhim bo‘g‘ini hisoblanadi. Ushbu jarayonlarning samarali tashkil etilishi budjet mablag‘laridan oqilona foydalanish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va ijtimoiy sohalarning rivojlanishiga xizmat qiladi. Raqamlashtirish, natijaga yo‘naltirilgan rejalashtirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish hamda kadrlar salohiyatini oshirish orqali budjet tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining rasmiy normativ-huquqiy hujjatlari.
3. Davlat budjeti va budjet tizimi bo‘yicha o‘quv qo‘llanmalar.

4. Moliyaviy boshqaruv va budjet rejalashtirish masalalariga oid ilmiy maqolalar to‘plami.
5. O‘zbekiston Respublikasida davlat moliyasini boshqarish bo‘yicha metodik qo‘llanmalar.
6. Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazorat bo‘yicha darsliklar.

ANDIJON VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHINING IQTISODIY TAHLILI

Xolmirzayev Furqatbek Muxtarjonovich
“Alfraganus” NOTM katta o‘qituvchisi, TDIU mustaqil tadqiqotchisi,
ORCID: 0009-0009-1373-3979
https://doi.org/10.5281/zenodo.18656100

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanish ko‘rsatkichlari va unga ta’sir qiluvchi omillar statistik baholanib, hudud rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni iqtisodiy-statistik tahlil usullari yordamida baholangan.*

Kalit so‘zlar: *iqtisodiyot, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar, yalpi hududiy mahsulot,iqtisodiy tarmoqlar, kichik biznes, iqtisodiy-statistik tahlil usullari, statistik guruhlash, ekspert baholash, tahlil va sintez.*

Аннотация. *В данной статье статистически оценены показатели развития малого бизнеса и частного предпринимательства в Андижанской области и факторы, влияющие на это, а также оценена роль малого бизнеса и частного предпринимательства в развитии региона с использованием методов экономико-статистического анализа.*

Ключевые слова: *экономика, макроэкономические показатели, валовой региональный продукт, отрасли экономики, малый бизнес, методы экономико-статистического анализа, статистическая группировка, экспертная оценка, анализ и синтез.*

Abstract. *This article statistically evaluates the indicators of the development of small business and private entrepreneurship in Andijan region and the factors affecting it, and the role of small business and private entrepreneurship in the development of the region is evaluated using the methods of economic and statistical analysis.*

Keywords: *economy, macroeconomic indicators, gross regional product, economic sectors, small business, methods of economic-statistical analysis, statistical grouping, expert assessment, analysis and synthesis.*

Jahonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy rivojlanishning asosiy omillaridan biri bo‘lib, ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda YaIMning katta qismini tashkil qiladi. 2024-yilgi ma’lumotlarga ko‘ra, AQShda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaIM dagi ulushi 44% ini tashkil qiladi. Germaniya, Yaponiya, Fransiya kabi rivojlangan davlatlarda 50-55% ni tashkil qiladi. O‘zbekistonda 2024-yilda KBXT ning YaIMdagi ulushi 54.3% dan iborat bo‘ldi (www.andvilstat.uz, n.d.). Bu mamlakatda qulay iqtisodiy muhit yaratilganidan dalolat beradi. Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznes iqtisodiyotning yarmidan ko‘prog‘ini tashkil etadi. O‘zbekiston ham bu borada rivojlanishda davom etayotgan bo‘lib, kelajakda kichik biznesning yanada o‘sishi kutilmoqda.

Andijon viloyati O‘zbekistonning eng rivojlangan sanoat va tadbirkorlik markazlaridan biri hisoblanadi. Hudud geografik joylashuvi, aholi zichligi va ishlab chiqarish salohiyati bilan ajralib turadi. Ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) viloyat iqtisodiyotining

asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo‘lib, aholining bandligini ta’minlash va turmush darajasini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. So‘nggi yillarda Andijonda KBXTni rivojlantirish uchun davlat tomonidan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Kredit resurslariga qulay shartlarda ega bo‘lish, soliq imtiyozlari va infratuzilmani rivojlantirish kabi choralar tufayli viloyatda yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilmoqda. Xususan, yengil sanoat, qishloq xo‘jaligi, avtomobilsozlik va xizmat ko‘rsatish sohalarida kichik biznesning hissasi ortib bormoqda. Ushbu maqolada Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hozirgi holati, muammolari va rivojlanish istiqbollari tahlil qilinadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, uning iqtisodiyotdagi o‘rni, rivojlanishi va yo‘nalishlarini tadqiq qilgan, xorijiy olimlardan Marshall (2010) kichik biznes va tadbirkorlikni bozor kuchlari, talab va taklif, raqobatbardoshlik borasida o‘rgangan. Uning qarashlariga ko‘ra, kichik biznes yirik korxonalarga qaraganda moslashuvchanlik va innovatsionlik darajasi yuqori hisoblanadi. Shumpeter (2010) innovatsion tadbirkorlik va “ijodiy buzilish” nazariyasi bilan mashhur. Uning fikricha, kichik biznes iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchlardan bo‘lib, yangi g‘oyalar asosan kichik biznes tarmog‘ida vujudga keladi. Marshall, Shumpeter, Valeslar (2013) tadbirkorlikning ilmiy asoschilari hisoblanadi. O‘zbekistonda Mahalliy olimlarimizdan: Bayxonov (2019) tarmoqlar faoliyatini ishlab chiqilgan ekonometrik modellar orqali tahlil qilib, prognozlash asosida investisiyalar samaradorligini baholashda, zamonaviy uslubiy yondashuvni qo‘llash mumkinligini ta’kidlaydi. Abulqosimov va Qulmatovlar O‘zbekistonda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o‘rni va uni rivojlantirish yo‘llarini o‘rgangan. G‘oyibnazarov va boshqalar (2011) tomonidan KBXT faoliyatini takomillshtirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, sohada mavjud kamchiliklar va ularni bartaraf etish usullari, kichik biznes sub’ektlarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari o‘rganilgan.

Andijon viloyati iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rolini statistik jihatdan baholashga qaratilgan bo‘lib, bu muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega mavzudir. Tadqiqotning obyekti – Andijon viloyati iqtisodiyoti, ayniqsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasi hisoblanadi. Tadqiqot maqsadi-kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning viloyat iqtisodiyotidagi o‘rnini statistik jihatdan baholash, ularning faoliyati samaradorligini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining samaradorligini KBXTning yalpi hududiy mahsulot hajmi, sanoat, aholi bandligi kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardagi ulushi orqali baholash mumkin.

Andijon viloyatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri hisoblanadi. Bandlik, sanoat ishlab chiqarishi va qurilish sohalarida KBXT muhim o‘rin tutib, yillar davomida sezilarli o‘sish sur’atlarini namoyon etdi. 2010-2025-yillar davomidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlili sohaga oid kuchli va zaif tomonlarni aniqlashga yordam beradi. Quyidagi tahlilda kichik biznesning asosiy iqtisodiy tarmoqlarga ta’siri, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralari va barqaror rivojlanish yo‘nalishlari muhokama qilinadi.

Andijon viloyatida KBXTning YAHMdagi ulushini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2016-yilda eng yuqori darajaga yetgan ya’ni 83,6% ni tashkil etgan, bu kichik biznesning iqtisodiy faol o‘sganini anglatadi. 2019-yildan boshlab pasayish tendensiyasi kuzatilgan, 2022-yilda 67,1% ni tashkil etgan.. 2024-yilda kichik biznesning YAHMdagi ulushi 69,5% bo‘lib, o‘tgan yildagiga nisbatan biroz ortgan. So‘nggi yillarda kichik biznesning YAHMdagi ulushi

pasaymoqda, bu esa yirik ishlab chiqarish va davlat investitsiyalarining ortib borayotganidan dalolat beradi.

Hudud sanoatida kichik biznes ulushini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, 2016-yilda eng yuqori ko‘rsatkich 50,4% kuzatilgan. 2019-yilda ulush keskin kamaygan 17,7% bu yirik sanoat korxonalarining rivojlanishi yoki kichik biznesning sanoatga kiritayotgan investitsiyalarining pasayishini ko‘rsatadi. 2024-yilda kichik biznesning ulushi 29,9% natija ko‘rsatgan, sanoatda kichik biznesning ulushi sezilarli darajada o‘zgaruvchan bo‘lib, so‘nggi yillarda pasayish kuzatilgan. Bu yirik korxonalarning sanoat sohasida barqaror bo‘lib borayotganidan darak berishi mumkin.

Qurilish tarmog‘ida kichik biznesning ulushi 2018-yilda eng yuqori 96,9% kuzatilgan. 2024-yilda ulush 92,8% ga kamaygan bo‘lsa ham, qurilish sektori kichik biznes uchun eng barqaror soha bo‘lib qolmoqda, lekin ulushning pasayishi yirik qurilish kompaniyalarining ahamiyati ortayotganini ko‘rsatadi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda band bo‘lganlar ulushi 2016-yilda eng yuqori 84,4% ko‘rsatkichni tashkil etgan**.** 2022-yilda 80,2% gacha tushgan**,** 2024-yil bo‘yicha bandlik ma’lumotlari mavjud emas**.** Kichik biznesning bandlikdagi ulushi asta-sekin pasaymoqda, bu esa korporativ va davlat ish o‘rinlarining ahamiyati ortayotganidan darak beradi. 2024-yilda kichik biznesning sanoatdagi ulushi ortgani tiklanish belgisidir**,** ammo hali ham 2016-yil darajasiga yetmagan.YAHMdagi ulushning pasayishi kichik biznesning yirik korxonalar bilan raqobatda zaiflashayotganini ko‘rsatishi mumkin. Andijon viloyatida kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash uchun sanoat va xizmatlar sektorlarida imtiyozli kreditlar, soddalashtirilgan soliq tizimi va startaplarni rivojlantirish dasturlari zarur.

Andijon viloyatining 2015–2024 yillardagi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini tahlil qilinganda quyidagi tendensiyalarni ko‘rishimiz mumkin: YHMning o‘sish sur’ati yillar kesimida nisbatan o‘zgarib borgan. 2015-yildan 2024-yilgacha: 2018-yilda eng yuqori o‘sish 110,1% kuzatilgan, bu esa investitsiyalar va ishlab chiqarish hajmining ortishi bilan bog‘liq. 2016-yilda o‘sish eng past darajada 100,6% bo‘lib, bu iqtisodiy sekinlashuv yoki tashqi omillar bilan izohlanishi mumkin. 2024-yilda dastlabki ma’lumotlar asosida 106,6% o‘sish kuzatilgan, bu 2023-yildagi ko‘rsatkichdan yuqori.

2017-2018-yillarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning sezilarli o‘sishi 126,8% va 130,6% kuzatilgan. 2016-yilda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish keskin pasaygan 74,8% ni tashkil etgan, 2024-yilda sanoat ishlab chiqarishning o‘sish sur’ati 107,3% bo‘lib, barqaror o‘sish kuzatilgan.

Asosiy kapitalga investitsiyalar yildan-yilga o‘sib borgan, ayniqsa 2019-yilda 129,0%, 2023-yilda 121,2%, 2024-yilda esa 136,9% bo‘lgan. Bu viloyatga investitsiya jalb qilish hajmining ortib borayotganligini ko‘rsatadi. 2018-yilda qurilish ishlari eng yuqori darajaga yetgan 121,8%. 2019-yilda pasayish kuzatilgan (99,3%), ammo keyingi yillarda o‘sish tiklangan. 2024-yilda qurilish sektori 111,0% o‘sish ko‘rsatgan.2015-2024-yillarda chakana savdo barqaror o‘sib kelgan, eng past o‘sish sur’ati 2017-yilda (101,8%), eng yuqori o‘sish esa 2015-yilda (113,5%) bo‘lgan. 2024-yilda 108,5% o‘sish kuzatilgan, bu iqtisodiy faollikning yuqoriligini ko‘rsatadi.

Bugungi kunda Andijon viloyatida 2025- yanvar holatiga 47358 ta kichik tadbirkorlik subektlari ro‘yhatdan o‘tgan bo‘lib, ulardan 19967 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 27391

tasi faoliyat ko‘rsatmayapti, jamidan 4122 ta sub’ekt yangi tashkil etilgan. 1646 ta kichik sub’ekt faoliyati tugatilgan.

Andijon viloyatida kichik biznesning iqtisodiy-statistik tahlili bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida sohaga tegishli statistik ko‘rsatkichlar tizimini ishlab chiqish va ma’lumotlar bazasini yaratish quyidagi yo‘nalishlarning rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlangan: viloyatning yalpi hududiy mahsulot (YaHM) hajmi tadqiq etilgan yillarda barqaror o‘sib kelgan, shuningdek, sanoat, qishloq xo‘jaligi, asosiy kapitalga investitsiyalar va xizmatlar sohasida ham o‘sish tendensiyasi kuzatilgan. Bu esa hududning iqtisodiy salohiyatini oshirish uchun kichik biznes subyektlariga qulay sharoitlar yaratish zaruratini asoslaydi.

Eksport hajmining ortishiga nisbatan import hajmining yuqori sur’atlarda o‘sishi Andijon viloyatida mahalliylashtirish dasturlarini keng miqyosda amalga oshirish va kichik biznesning ulushini oshirish imkoniyatlarini qayta baholashni talab etadi. Shuningdek, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar shuni ko‘rsatadiki, investitsiyalar 2024-yilda sezilarli darajada o‘sgan (136.9%), bu esa hududda biznes muhitining yaxshilanayotganidan dalolat beradi.

Andijon viloyatida 2024-yilda ro‘yxatga olingan korxonalar sonining ortishi bilan birga, nofaol va tugatilgan korxonalar sonining ham o‘sishi kichik biznesga ajratilayotgan maqsadli imtiyozlardan foydalanish darajasini oshirish zarurligini anglatadi. Bunda, kichik biznes korxonalarining faoliyat yuritishi, ularning to‘xtalish sabablari va biznesning barqarorligini ta’minlash omillarini tahlil qilish orqali sohaga oid strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati yuzaga keladi. Moliyaviy imkoniyatlarni kengaytirish, raqamli transformatsiyani rag‘batlantirish va bizneslarni barqaror yuritish bo‘yicha siyosatni takomillashtirish orqali Andijon viloyati o‘zining iqtisodiy rivojlanishini yanada mustahkamlashi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Aysachev A, Xonboboyeva M. (2024). Qishloq xo‘jaligi maxsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda iqtisodiy samaradorlikka erishishning ba’zi masalalari. International Conference on Modern Science and Scientific Studies, 72-77. https://econfseries.com/index.php/5/article/view/77
2. Bayxonov B.T. (2019), “O‘zbekiston iqtisodiyotida investisiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiyatini takomillashtirish”. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati, Toshkent – 76 b.
3. G‘oyibnazarov B.K. va boshqalar (2011), Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini yuksaltirish omili, Monografiya. – T.: Fan, – 184b.
4. Kholmirzaev F, (2023), Creation Of Production Strategy In Industrial Enterprises, Academia Science Repository, P 852-854.
5. Kholmirzaev F, (2025), Ways to Maximize Profit in Textile Industry Enterprises, Polska Miasto Przyszłości 56;P 159-161
6. Vales W.J. (2013), Empirical research on entrepreneurial orientation: An assessment and suggestions for future research / W.J. Wales, V.K. Gupta, F.T. Mousa // International Small Business Journal. №31(4). – P. 357-383.
7. www.andvilstat.uz (n.d.) rasmiy sayt ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi.
8. Айсачев А. А. (2024). Экономико-статистический анализ региональных тенденций развития сельского хозяйства в разрезе территории региона. Web of Discoveries:

Журнал анализа и изобретений, 2 (6), 119–127. Получено с https://webofjournals.com/index.php

9. /3/article/view/1618
10. Айсачев А. А. (2024). Ахоли миграцияси: статистика ва унинг идтимой иктисодий тасири. Международная конференция по экономике, финансам, банковскому делу и менеджменту, 124-130. https://econfseries.com/index.php/6/article/view/139
11. Айсачев, А. (2021). Статистический анализ экономического развития сельского хозяйства на региональном уровне. Экономика и инновационные технологии, (4), 197–208. извлечено от https://inlibrary.uz/index.php/economics_and_innovative/article/view/11938
12. Маршалл А., (2010), Принципы политической экономии, М.: Прогресс; С.415-416. Шумпетер Й. (2010), Теория экономической развития, М.: Прогресс; С. 159.

SUN’IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISH ZAMONAVIY MENEJMENT JARAYONLARIGA TA’SIRI

Xudoyberdiyeva Ma'rifat Umarovna[1], Ergasheva Dildora Karimovna[2], Suvonova Jangul Baxriddinovna[3], Umarova Xushnura Jamol qizi[4]

[1]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti assistenti,

[2,3]Pastdarg‘om 5-son maxsus fan o‘qituvchisi,

[4]Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.18656128

Annotatsiya. *Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) va avtomatlashtirish texnologiyalarining zamonaviy menejment tizimlariga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Asosiy e’tibor ushbu innovatsion texnologiyalarning qaror qabul qilish, resurslarni boshqarish, mijozlar bilan munosabatlar (CRM), strategik rejalashtirish va inson resurslari boshqaruvi kabi asosiy menejment funktsiyalaridagi o‘zgarishlarga qaratilgan.*

Maqolada quyidagi jihatlar yoritiladi:

1. *Sun’iy intellekt asosida qaror qabul qilish tizimlarining analitik imkoniyatlari.*
2. *Raqamli transformatsiya jarayonida menejerlar rolining o‘zgarishi.*
Xulosa. Kichik biznes sub’yektlarida logistikani to‘g‘ri tashkil etish — bu faqat yuk tashish emas, balki biznesning moslashuvchanligini oshirish demakdir. Autsorsing xizmatlaridan keng foydalanish, jarayonlarni raqamlashtirish va hamkorlikda ishlash modellari kichik tadbirkorlarga yirik kompaniyalar bilan raqobatlashish imkonini beradi. Davlat tomonidan logistik infratuzilmaning yaxshilanishi va kichik biznes uchun imtiyozli logistik markazlarning tashkil etilishi ushbu soha rivojiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ballou, R. H. "Business Logistics/Supply Chain Management".
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari.
3. Logistika sohasidagi mahalliy va xorijiy ekspertlarning tahliliy maqolalari.
4. Muxammadkulovna, Y. D., Rabbimovna, R. U., & Bakhtiyorovna, N. G. (2023). Organization of Teaching Economics at the University. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 18, 30-32.
5. Rabbimovna, R. U., Baxtiyorovna, N. G., & Muxammadkulovna, Y. D. (2024). AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILKASHTIRISH. WORLD OF SCIENCE, 7(3), 140–146.

O‘ZBEKISTONDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Yorbekova Dilorom Muxammadkulovna
Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik, va biotexnologiyalar universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18656402

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasining 2018–2025-yillar oralig‘idagi rivojlanish dinamikasi, tarkibiy o‘zgarishlari hamda iqtisodiy o‘sishga ta’siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, xizmatlar sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotida tobora muhim o‘rin egallab bormoqda. Xususan, 2018-yilda xizmatlar hajmi 19 mlrd AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 65 mlrd dollarga yetdi. 2025-yil uchun esa 82 mlrd dollarlik hajm va 15 foizlik o‘sish sur’ati prognoz qilinmoqda. Tadqiqot davomida statistik ma’lumotlar, davlat dasturlari va sohaviy tahlillar asosida xizmatlar sektorining asosiy yo‘nalishlari — savdo, transport, aloqa, turizm va raqamli xizmatlarning iqtisodiy rivojlanishga ta’siri baholandi. Shuningdek, sohani yanada rivojlantirishga doir amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi.*

Kalit so‘zlar: *xizmatlar sohasi, iqtisodiy o‘sish, raqamli xizmatlar, savdo va logistika, turizm, innovatsion xizmatlar, raqobatbardoshlik.*

Abstract. *This article comprehensively analyzes the dynamics of the development of the services sector in the Republic of Uzbekistan in 2018-2025, its structural changes, and its impact on economic growth. According to the results of the study, the services sector is increasingly playing an important role in the country's GDP. In particular, while in 2018 the volume of services amounted to 19 billion US dollars, by 2024 this figure reached 65 billion dollars. For 2025, a volume of 82 billion dollars and a growth rate of 15 percent are forecast. During the study, based on statistical data, state programs, and sectoral analyses, the impact of the main areas of the services sector on economic development - trade, transport, communications, tourism, and digital services - was assessed. Practical proposals and recommendations for further development of the sector were also developed.*

Keywords: *services sector, economic growth, digital services, trade and logistics, tourism, innovative services, competitiveness.*

Bugungi global iqtisodiy sharoitda xizmatlar sohasi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlovchi asosiy tarmoqlardan biriga aylangan. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sektorining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi ortishi bandlik darajasining oshishi, innovatsiyalar joriy etilishi va aholining turmush sifati yaxshilanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, moliyaviy xizmatlar, transport-logistika, turizm va raqamli servislarning kengayishi ushbu sohaning strategik ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda.

O‘zbekistonda ham xizmatlar sohasini rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida shakllandi. 2018-yildan boshlab amalga oshirilgan iqtisodiy liberallashtirish, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash, raqamli transformatsiya va xalqaro integratsiya jarayonlari xizmatlar sektorining tez sur’atlarda kengayishiga zamin yaratdi. Natijada xizmatlar hajmi ortib, YaIMdagi ulushi sezilarli darajada oshdi, yangi ish o‘rinlari yaratildi va eksport salohiyati kuchaydi [1].

Shu bilan birga, xizmatlar sohasida hududlararo tafovutlar, kadrlar salohiyati yetishmasligi va xizmatlar sifati bilan bog‘liq muammolar saqlanib qolmoqda. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi — xizmatlar sohasining rivojlanish dinamikasini chuqur tahlil qilish va uni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi va axborot bazasi

Tadqiqotda sifat va miqdoriy tahlil usullari uyg‘un holda qo‘llanildi. Jumladan, statistik ma’lumotlarni dinamik va solishtirma tahlil qilish, o‘sish sur’atlarini baholash [2], hududlar kesimidagi taqqoslash, shuningdek, normativ-huquqiy hujjatlar va ilmiy adabiyotlar asosida kontent tahlil metodlari qo‘llandi. Tadqiqot ob’ekti sifatida O‘zbekiston Respublikasining xizmatlar sohasi, predmeti sifatida esa 2018–2025-yillarda ushbu sohaning rivojlanish ko‘rsatkichlari tanlandi [3].

Xizmatlar sohasining umumiy rivojlanish dinamikasi

Statistik tahlillar shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasining YaIMdagi ulushi 2018-yildagi 35 foizdan 2024-yilda 47,4 foizga yetdi. 2025-yilda ushbu ko‘rsatkich 50 foizdan oshishi kutilmoqda. Bu esa xizmatlar sektorining sanoat va qishloq xo‘jaligi bilan bir qatorda iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘iga aylanayotganini anglatadi [4].

Xizmatlar hajmi ham jadal sur’atlarda o‘sdi:

- 2018-yil — 19 mlrd AQSh dollari
- 2024-yil — 65 mlrd AQSh dollari
- 2025-yil (prognoz) — 82 mlrd AQSh dollari

2024-yilda xizmatlar sohasi 11,4 foizlik yillik o‘sishni qayd etib, 1,5 milliondan ortiq aholini doimiy daromad bilan ta’minladi. Ushbu o‘sish xizmat ko‘rsatish korxonalari sonining ko‘payishi, iste’mol talabining ortishi, raqamlashtirish va davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar bilan izohlanadi [5].

Hududiy kesimda xizmatlar sohasining rivojlanishi

2024-yilda O‘zbekistonda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 818 428,3 mlrd so‘mni tashkil etdi. Hududlar bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar hajmining katta qismi Toshkent shahriga to‘g‘ri keladi — 298 825,6 mlrd so‘m yoki umumiy hajmning 36,5 foizi. Bu holat poytaxtda infratuzilmaning rivojlanganligi, aholi zichligi va biznes faolligi bilan izohlanadi.

Samarqand, Farg‘ona va Toshkent viloyatlari ham xizmatlar hajmi va o‘sish sur’atlari bo‘yicha yetakchi hududlar sirasiga kiradi. Ayni paytda, Sirdaryo, Jizzax va Navoiy viloyatlarida xizmatlar hajmi nisbatan past bo‘lsa-da, ayrim hududlarda yuqori o‘sish sur’atlari istiqbolli imkoniyatlar mavjudligini ko‘rsatmoqda [6].

1-jadval

Xizmatlar sohasining asosiy hududiy ko‘rsatkichlari (2024-yil)

Hudud	Hajmi (mlrd so‘m)	Ulushi (%)	O‘sish sur’ati (%)
Toshkent shahri	298 825,6	36,5	116,8
Samarqand	58 875,7	7,2	114,1
Farg‘ona	55 200,7	6,7	112,3
Surxondaryo	28 505,9	3,5	110,9
Sirdaryo	11 609,1	1,4	112,2

Xizmatlar sohasining tarmoqlar bo‘yicha tarkibi

Xizmatlar sohasining tarkibiy tahlili sektor ichida qaysi yo‘nalishlar iqtisodiy o‘sishga eng katta hissa qo‘shayotganini ko‘rsatadi. Mavjud ma’lumotlarga ko‘ra, eng katta ulush **yashash va ovqatlanish xizmatlariga (22,4%)** to‘g‘ri keladi. Bu turizm faolligining ortishi, mehmonxona va umumiy ovqatlanish infratuzilmasining kengayishi bilan bog‘liq.

Savdo xizmatlari (18,3%) ichki iste’mol bozorining kengayishi va elektron savdoning rivojlanishi hisobiga barqaror o‘smoqda. Chakana savdo tarmog‘ining raqamlashtirilishi va logistika tizimining yaxshilanishi ushbu yo‘nalishning samaradorligini oshirdi [7].

Transport xizmatlari (17,7%) hududlararo iqtisodiy aloqalarni ta’minlovchi asosiy yo‘nalish bo‘lib, avtomobil transportining yuqori ulushi ichki tovar va xizmatlar harakatining faollashganini ko‘rsatadi. Transport-logistika xizmatlarining rivoji eksport va ishlab chiqarish zanjirlarining uzluksiz ishlashini ta’minlamoqda [8].

Moliyaviy xizmatlar (16,5%) iqtisodiy faollik va investitsiyalarni rag‘batlantiruvchi muhim omil hisoblanadi. Raqamli bank xizmatlari, mobil to‘lovlar va fintech mahsulotlar moliyaviy xizmatlar hajmining tez o‘sishiga sabab bo‘ldi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari eng yuqori o‘sish sur’atini ko‘rsatib, **125,8%** ga yetdi. Bu raqam raqamli iqtisodiyotning kengayishi, IT-xizmatlarga talabning ortishi va iqtisodiyotning texnologik transformatsiyasini ifodalaydi.

Natijalar xizmatlar sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatga ega va texnologiyaga asoslangan xizmatlar ulushi oshib borayotganini ko‘rsatadi [9].

2-jadval

Xizmatlar sohasining turlari bo‘yicha tarkibi (2024-yil)

Xizmat turlari	Hajmi (mlrd so‘m)	Ulushi (%)	O‘sish (%)
Yashash va ovqatlanish	183 314,5	22,4	110,6
Savdo xizmatlari	149 599,8	18,3	111,8
Transport xizmatlari	145 124,4	17,7	108,6
Moliyaviy xizmatlar	135 509,5	16,5	120,6
Aloqa va IT xizmatlari	56 174,2	6,9	125,8

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, xizmatlar sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining eng tez rivojlanayotgan va strategik ahamiyatga ega tarmoqlaridan biriga aylandi. 2018–2025-yillar davomida xizmatlar hajmining keskin oshishi, yalpi ichki mahsulotdagi ulushining 35 foizdan 50 foizga yaqinlashishi hamda bandlikka qo‘shayotgan hissasining ortib borishi ushbu sektorning iqtisodiy o‘sishdagi yetakchi rolini tasdiqlaydi. Xizmatlar sohasi iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, ichki talabni rag‘batlantirish va aholi daromadlarini barqarorlashtirishda muhim mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda [10].

Xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishiga to‘sqinlik qilayotgan asosiy omillardan yana biri — malakali kadrlar yetishmovchiligi hisoblanadi. Ayniqsa, raqamli xizmatlar, moliyaviy texnologiyalar, IT-outsourcing, turizm va logistika yo‘nalishlarida zamonaviy bilim va

ko‘nikmalarga ega mutaxassislarga bo‘lgan talab taklifdan yuqori bo‘lib qolmoqda. Ta’lim tizimi bilan xizmatlar bozori o‘rtasidagi uzviy aloqani kuchaytirmasdan turib, yuqori qo‘shilgan qiymatga ega xizmatlarni rivojlantirish imkoniyati cheklangan bo‘lib qoladi.

Shuningdek, xizmatlar sohasida raqobat muhitining yetarli darajada shakllanmaganligi, ayrim normativ-huquqiy mexanizmlarning eskirganligi va xizmatlar sifati bo‘yicha standartlarning hududlar kesimida bir xil qo‘llanilmasligi ham sektor samaradorligini pasaytiruvchi omillar sirasiga kiradi. Xizmatlar eksporti salohiyati mavjud bo‘lsa-da, til kompetensiyasi, xalqaro sertifikatlash va marketing mexanizmlarining yetarli rivojlanmaganligi ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish uchun quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq:

Birinchidan, xizmatlar sohasida **yuqori qo‘shilgan qiymatga ega yo‘nalishlar** — IT-xizmatlar, moliyaviy texnologiyalar, muhandislik va konsalting xizmatlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat berish lozim. Bu yo‘nalishlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, xizmatlar eksporti hajmini ham kengaytiradi.

Ikkinchidan, **hududiy xizmatlar infratuzilmasini rivojlantirish** orqali hududlararo tafovutlarni qisqartirish zarur. Raqamli xizmatlarni chekka hududlarda keng joriy etish, transport-logistika xizmatlarini rivojlantirish va mahalliy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash ushbu jarayonning asosiy yo‘nalishlari bo‘lishi kerak.

Uchinchidan, **kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish** muhim vazifa hisoblanadi. Xizmatlar sohasiga mos amaliy ta’lim dasturlarini kengaytirish, IT va servis yo‘nalishlarida xalqaro standartlarga mos mutaxassislar tayyorlash zarur.

To‘rtinchidan, **raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish** orqali xizmatlar sifati va tezkorligini oshirish lozim. Elektron hukumat, onlayn xizmatlar va platforma iqtisodiyotini rivojlantirish xizmatlar sektorining shaffofligi va samaradorligini ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, xizmatlar sohasi O‘zbekiston iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlovchi asosiy drayverlardan biri bo‘lib, uni tizimli rivojlantirish iqtisodiy samaradorlik, bandlik va aholi farovonligining oshishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Mazkur sohada izchil siyosat, raqamli transformatsiya va inson kapitaliga yo‘naltirilgan yondashuv xizmatlar sektorini mamlakat iqtisodiyotining uzoq muddatli tayanch tarmog‘iga aylantirish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.
2. Muxammadkulovna, Y. D., Rabbimovna, R. U., & Bakhtiyorovna, N. G. (2023). Organization of Teaching Economics at the University. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 18, 30-32.
3. Rabbimovna, R. U., & Farxodovna, E. D. (2023). MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI, ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI. Научный Фокус, 1(7), 709-714.
4. Rabbimovna, R. U., Baxtiyorovna, N. G., & Muxammadkulovna, Y. D. (2024). AGROKLASTERLARDA TOVAR-MODDIY QIYMATLIKLAR HISOBI VA AUDITINI TAKOMILKASHTIRISH. WORLD OF SCIENCE, 7(3), 140–146.

5. Narzieva, G. B., (2025). FINANCIAL LITERACY OF CLIENTS: CURRENT ISSUES IN BANKING PRACTICE. American Journal of Interdisciplinary Research and Development 38. 24-27
6. Narziyeva Guzal Baxtiyorovna, Isroilov Laziz, Hakimov Daler, Mamadiyorov Husniddin., IMPROVING COST ACCOUNTING BASED ON INTERNATIONAL STANDARDS: OPPORTUNITIES FOR ENHANCING ENTERPRISE PERFORMANCE. European Journal of Pedagogical Initiatives and Educational Practices ISSN (E): 2938-3625 Volume 3, Issue 12, December – 2025
7. Narziyeva, G., & Raximova, U. (2023). Superior directions, modern trends and prospects for the development of the financial market.
8. Muxammadkulovna, Y. D., Rabbimovna, R. U., & Bakhtiyorovna, N. G. (2023). Organization of Teaching Economics at the University. Periodica Journal of Modern Philosophy, Social Sciences and Humanities, 18, 30-32.

THE IMPORTANCE OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY IN UZBEKISTAN

Yuldashev Shamsiddin Qiyamiddinovich[1], Boliyeva Baxora Farxodovna[2]
[1]Samarkand State University named after Sharof Rashidov Associate Professor of the Department of "Sectoral Economics," Candidate of Economic Sciences
[2]Samarkand State University named after Sharof Rashidov Institute of Human Resources and Mahalla Development Management 2nd-year student
https://doi.org/10.5281/zenodo.18656843

Abstract: *This article examines the role of electronic payment systems in the economy of Uzbekistan, the stages of their development and prospects. The active development of digital financial technologies in the country contributes to the expansion of non-cash payments, increased convenience for users and ensuring transparency of the economy. The article analyzes such systems as UzCard, HUMO, Click and Payme, and offers recommendations for improving their efficiency.*

Keywords: *electronic payment systems, digital economy, financial technologies, financial inclusion, cash circulation, tax revenues.*

The rapid development of the digital economy worldwide has sharply increased the importance of financial technologies, particularly electronic payment systems. Uzbekistan, actively implementing reforms in this area, has been gradually expanding its digital payment infrastructure. Specifically, payment systems such as UzCard, HUMO, Payme, and Click enable financial transactions between the population and entrepreneurs to be conducted more quickly, conveniently, and securely. The development of electronic payment systems not only creates convenience in daily life but also directly impacts economic indicators, such as reducing cash circulation, increasing tax revenues, and enhancing financial inclusion.

After gaining independence, Uzbekistan faced the necessity of modernizing its financial system and aligning it with international standards. In particular, digitizing and simplifying banking services provided to the population became a key requirement of the time. These needs laid the foundation for electronic payment systems. In 2004–2005, UzCard cards, the national payment system, were introduced. This system made it possible to receive payments such as salaries, pensions, and scholarships via plastic cards and to make payments at retail outlets. Initially, the system was used only in banks and large enterprises, but over time it became widely adopted among the general population.

In the early 2010s, technology developed rapidly, creating opportunities to provide services via mobile communication. The first private payment systems, Click (2011) and Payme (2012), began operating. These platforms allowed people to make payments from home using mobile applications, providing significant convenience and sharply increasing demand for electronic payment systems. In 2019, the Central Bank introduced the HUMO card. Alongside HUMO, new technologies such as contactless payments (tapping the card on a terminal), QR

code payments, and mobile wallets began to spread widely. Today, electronic payment systems are widely used not only in major cities but also in remote regions of Uzbekistan.

Although electronic payment systems are rapidly developing in the process of Uzbekistan's digital economic transformation, there are still unresolved issues in this area. In recent years, as digital financial services have become more widespread, problems such as cybercrime attempts exploiting their vulnerabilities have also increased. According to the Uzbekistan Banking Association, more than 3,000 cases of cyberattacks were recorded in 2023, the majority of which were carried out through online payment platforms.

As solutions, it is proposed to implement two-factor authentication, biometric verification, tokenization, and artificial intelligence-based automated risk detection systems on electronic payment platforms; to develop and enforce National Cybersecurity Standards for financial institutions and payment systems; and to organize widespread public campaigns to promote digital hygiene and financial literacy among users.

Infrastructure deficiencies in remote regions indicate that the infrastructure required for electronic payment systems—quality internet access, POS terminals, and physical proximity to banking services—is still insufficient in many districts and villages. This limits financial inclusion and creates digital inequality. Solutions to this problem include introducing mobile (portable) POS terminals and offline payment functions for remote areas; encouraging financial institutions and fintech companies to provide services jointly through "digital partnership zones"; and attracting the private sector to digital infrastructure projects through subsidies from the state budget and tax incentives.

Low levels of financial literacy, particularly among the elderly, rural populations, and low-income groups, indicate that the culture of using electronic payment systems is not yet well-established. Many users remain unaware of the capabilities of payment systems, safe usage methods, and the economic advantages they can gain by using them. To address this complex issue, it is proposed to implement step-by-step financial literacy programs for students, entrepreneurs, and ordinary citizens; organize practical and interactive projects such as "Financial Technology Week" in cooperation with banks and fintech companies each quarter; and carry out mass educational campaigns through social media, television, and radio using visual materials, animated videos, and interactive guides.

These challenges hinder the full realization of the role of electronic payment systems in the economy. However, by addressing them, Uzbekistan can achieve:

- Increased access to financial services (financial inclusion);
- Accelerated growth of the digital economy;
- Strengthened payment culture and trust among citizens;
- Enhanced transparency of state fiscal policy.

These solutions not only address current needs but also lay the foundation for long-term digital economic stability. With the rapid development of the digital economy, the effective functioning and widespread use of electronic payment systems also give rise to a range of challenges. Addressing these issues through a systematic approach is of vital importance for Uzbekistan's financial inclusion, economic stability, and digital transformation.

Currently, electronic payment systems such as UzCard, HUMO, Payme, and Click are not sufficiently integrated with each other. This creates difficulties for users in making the same payment across different platforms, slows down transactions, and limits financial inclusion. At

present, the Central Bank is working on linking these systems, and mobile applications have been developed to allow payments for various services. Recommended measures include establishing unified interoperability standards, ensuring seamless transactions across all cards and payment platforms, and integrating fintech companies and banks into a single ecosystem through API and technological integration.

Alongside the rapid development of electronic payment systems, the number of online fraud and cyberattacks is increasing. This reduces users' trust in security. Currently, two-factor authentication, SMS verification, and banking monitoring systems have been implemented. Recommended measures include developing biometric authentication, tokenization, and AI-based automated risk detection systems, as well as conducting public awareness campaigns to improve digital hygiene and financial literacy among users.

Rural populations, the elderly, and low-income groups often lack a culture of using electronic payment systems. Currently, this issue is partially addressed through simplified user interfaces in mobile applications and financial literacy courses in certain schools and higher education institutions. Recommended measures include implementing step-by-step financial literacy programs for all age groups, organizing interactive practical projects such as "Financial Technology Week," and conducting mass awareness campaigns using visual educational materials.

There is currently no single regulatory mechanism or sufficient legal framework for electronic payment systems. This hinders fintech companies from implementing innovative solutions and makes it difficult to protect users' rights. Currently, some fintech projects have been licensed by the Central Bank, and preliminary cybersecurity standards have been developed. Recommended measures include strengthening a unified regulatory and legislative framework, promoting and financing innovative fintech projects through public-private partnerships, and enhancing systematic audit and monitoring.

In the present period, when the digital transformation of Uzbekistan's economy is progressing steadily, electronic payment systems are becoming an integral part of the financial sector. They not only simplify daily payments but also contribute to formalizing the economy, increasing tax revenues, improving the quality of public services, and shaping the overall digital economy. Addressing these challenges requires a systematic approach and collaboration between the state and private sector.

In conclusion, the full development of electronic payment systems is a strategic priority in the digital transformation of Uzbekistan's economy. Every reform in this area directly serves the welfare of the population and the country's global competitiveness. Through their consistent development, Uzbekistan's economy will achieve a high-tech, transparent, and inclusive financial environment, aligning with the vision of a New Uzbekistan with sustainable, open, and citizen-focused economic policies.

REFERENCES

1. Decree PQ–81 of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 28, 2022 — "On the Development Strategy of the New Uzbekistan for 2022–2026."
2. Official reports of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan — www.cbu.uz
3. Information portal of the Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan — www.mitc.uz

4. Data from the World Bank’s “Global Findex Database 2021” — www.worldbank.org
5. Qosimova M., Xoliqov M. *Banking and Payment Systems*, Tashkent, 2021.
6. Akramova N. “Fintech: Development and Challenges of Digital Payments,” *Economics and Finance Journal*, 2023, No. 2.
7. Data from the State Statistics Committee — www.stat.uz

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIYOT, BUXGALTERIYA HISOBI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH

Yusupova Gulasal Axmedjanovna
MCHJ buxgalter
https://doi.org/10.5281/zenodo.18656873

Annotasiya. *Mazkur maqolada noyob ilmiy g‘oyalar asosida vujudga kelgan raqamli iqtisodiyot xususiyatlari, uning rivojlanishi va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishdagi ahamiyati yoritib berilgan. Shu bilan birgalikda tijorat banklari faoliyatida raqamli iqtisodiyotning o‘ziga xos axamiyati va urni xamda uning istikbllari kursatib berilgan.*

Kalit so‘zlar: *rakamli iktisodiyot, axborot texnologiyalari, elektron xisob kitob, onlayn buxgalteriya, 1C programma, suniy intellekt.*

Kirish. Hozirgi globallashuv va raqamlashtirish davrida iqtisodiyotning barcha sohalari jadal rivojlanmoqda. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi mamlakatlarning iqtisodiy taraqqiyotida muhim o‘rin tutmoqda.

Raqamli iqtisodiyot axborot texnologiyalariga asoslangan iqtisodiy munosabatlar tizimi bo‘lib, u ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol jarayonlarida raqamli texnologiyalarni keng qo‘llashni nazarda tutadi.

Bunday sharoitda iqtisodiyotni boshqarishda, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarni yuritishda axborot texnologiyalarining o‘rni tobora ortib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalar buxgalteriya hisobi tizimini soddalashtirish, ma'lumotlarni qayta ishlash tezligini oshirish va qaror qabul qilish jarayonini yaxshilash imkonini beradi.

Raqamli iqtisodiyot (internet iqtisodiyoti, elektron iqtisod)–bu elektron biznes va elektron tijorat bilan bog‘liq bo‘lgan raqamli texnologiyalarga hamda ular tomonidan ishlab chiqarilgan va sotiladigan raqamli tovarlar xizmatlardir. Elektron iqtisodiyotning vujudga kelishi o‘tgan asrning 90-yillariga to‘g‘ri keladi. Bu vaqtga kelib Internet global axborot tarmog‘ining rivojlanishi natijasida birinchi Internet magazinlar vujudga keldi va rivojlana boshladi. Keyinchalik iqtisodiyotning barcha jabhalarini qamrab ola boshladi. Raqamli iqtisodiyot o‘zining virtualliligi bilan boshqa xo‘jalik faoliyatidan tubdan farqqiladi. Virtuallik bu geografik nuqtai nazardan makonni, axborotlarning saqlanishi imkoniyatlarining kattaligi nuqtai nazardan esa zamonni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bugungi globallashuv jaryonida milliy iqtisodiyomizda ham raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

Ushbu tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalarini rivojlantirishning ahamiyati, imkoniyatlari va muammolari tahlil qilinadi.

Raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy taraqqiyotdagi ahamiyati.

Raqamli iqtisodiyot iqtisodiy o‘sishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar orqali ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, xarajatlarni kamaytirish va mahsulot sifatini oshirish mumkin.

Korxonalar raqamli platformalardan foydalangan holda bozor talabini tezkor o‘rganishi, mijozlar bilan samarali aloqa o‘rnatishi va o‘z faoliyatini rejalashtirishi mumkin. Bu esa raqobatbardoshlikni oshiradi.

Shuningdek, raqamli iqtisodiyot davlat boshqaruvida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron hukumat tizimi, elektron soliq va bojxona xizmatlari iqtisodiy jarayonlarni shaffof qilishga xizmat qiladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining o‘rni. Buxgalteriya hisobi korxona faoliyatini aks ettiruvchi asosiy axborot manbai hisoblanadi. Raqamli iqtisodiyot sharoitida buxgalteriya hisobining vazifalari kengaymoqda.

Elektron hisob-kitob tizimlari orqali barcha moliyaviy operasiyalar avtomatik ravishda qayd etiladi. Bu xatolar sonini kamaytiradi va hisobotlarning ishonchliligini oshiradi.

Onlayn buxgalteriya dasturlari orqali hisobotlarni real vaqt rejimida tayyorlash mumkin. Bu rahbariyatga tezkor qaror qabul qilish imkonini beradi.

Shuningdek, elektron hujjat aylanmasi qog‘ozbozlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Barcha hujjatlar elektron shaklda saqlanib, kerakli paytda oson topiladi.

Axborot texnologiyalarining buxgalteriya sohasida qo‘llanilishi. Hozirgi kunda buxgalteriya sohasida turli axborot tizimlari qo‘llanilmoqda. Jumladan, 1C buxgalteriya dasturi, ERP tizimlari, elektron soliq hisobot tizimlari va bank platformalari buxgalteriya ishlarini avtomatlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

Bulutli texnologiyalardan foydalanish orqali ma'lumotlarni masofadan turib saqlash va qayta ishlash mumkin. Bu esa ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlashga yordam beradi.

Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar hisob-kitoblarni tahlil qilish, xato operasiyalarni aniqlash va moliyaviy prognozlar tuzish imkonini beradi.

Muammolar va ularni hal etish yo‘llari. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish jarayonida bir qator muammolar mavjud. Avvalo, malakali kadrlar yetishmasligi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. Buxgalter va iqtisodchilar zamonaviy dasturlar bilan ishlash ko‘nikmasiga ega bo‘lishi lozim.

Shuningdek, axborot xavfsizligi masalalari ham dolzarbdir. Kiberhujumlardan himoya qilish uchun kuchli himoya tizimlarini joriy etish talab etiladi.

Texnik infratuzilmani rivojlantirish ham muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Barcha tashkilotlarni zamonaviy kompyuter texnikasi va internet bilan ta'minlash zarur.

Bu muammolarni hal etish uchun kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish va davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash choralarini kuchaytirish zarur.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida iqtisodiyot, buxgalteriya hisobi va axborot texnologiyalarini rivojlantirish o‘zaro bog‘liq jarayon hisoblanadi. Axborot texnologiyalarini joriy etish orqali buxgalteriya hisobi samaradorligini oshirish, moliyaviy nazoratni kuchaytirish va iqtisodiy qarorlarning sifatini yaxshilash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bektemirov A. Raqamli iqtisodiyot sharoitida milliy iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish istiqbollari. // Raqamli texnologiyalarning nazariy va amaliy masalalari xalqaro jurnali. –2022. – No 1(1). –B. 80-88.

2. Ayupov R.H., Baltaboeva G.R. (2019) Raqamli iqtisodiyot: muammolar va yechimlar.// «Xalqaro moliya va xisob» ilmiy elektron jurnali. № 1.
3. Primova N. Raqamlashtirishning buxgaleriya faoliyatiga tasiri. 2023 y. Tashkent

ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТОРСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ: МОДЕЛИ, КЛАССИФИКАЦИЯ И БАРЬЕРЫ ВНЕДРЕНИЯ

Уразов Давлат Комилович
Самаркандский институт экономики и сервиса
https://doi.org/10.5281/zenodo.18753132

Аннотация. *В статье рассматриваются теоретико-прикладные аспекты внедрения технологий искусственного интеллекта (ИИ) в практику аудиторских организаций. Актуальность исследования обусловлена четвертой промышленной революцией и переходом к цифровой экономике, где традиционные методы аудита теряют эффективность. На основе анализа мирового опыта («Большая четверка») и специфики развивающихся рынков (на примере Республики Узбекистан) автором разработана процессная модель интеграции ИИ в аудит. Предложена классификация уровней автоматизации (от RPA до генеративных моделей) с оценкой экономического эффекта. Отдельное внимание уделено системе барьеров внедрения и механизмам их нейтрализации. Статья вносит вклад в развитие методики цифрового аудита и может быть полезна исследователям и практикующим аудиторам.*

Ключевые слова: *искусственный интеллект, аудит, большие данные (Big Data), машинное обучение, RPA, NLP, цифровая трансформация, эффективность аудита, барьеры внедрения.*

Abstract: *The article examines the theoretical and applied aspects of integrating artificial intelligence (AI) technologies into the practice of audit firms. The relevance of the study is determined by the Fourth Industrial Revolution and the transition to a digital economy, where traditional audit methods are losing their effectiveness. Based on the analysis of global experience (the "Big Four") and the specifics of emerging markets (using the Republic of Uzbekistan as an example), the author develops a process model for AI integration into auditing. A classification of automation levels (from RPA to generative models) with an assessment of the economic effect is proposed. Special attention is paid to the system of implementation barriers and mechanisms for their neutralization. The article contributes to the development of digital audit methodology and may be useful for researchers and practicing auditors.*

Keywords: *artificial intelligence, audit, Big Data, machine learning, RPA, NLP, digital transformation, audit efficiency, implementation barriers.*

Введение

Современный этап развития экономики характеризуется четвертой промышленной революцией, где ключевую роль играют данные и способы их обработки. Аудит, как вид профессиональной деятельности, исторически основанный на анализе информации, не может оставаться в стороне от этих процессов. Традиционная модель аудита, базирующаяся на выборочных методах проверки и значительном объёме ручного труда,

всё чаще демонстрирует свою недостаточную эффективность в условиях цифровой экономики. Клиенты ожидают не просто подтверждения достоверности отчётности «задним числом», но и аналитики, прогнозов, выявления скрытых рисков в режиме, приближенном к реальному времени[41].

Цель данной статьи — разработать теоретико-прикладные основы интеграции искусственного интеллекта в практику работы аудиторских организаций и оценить его влияние на эффективность услуг. Для достижения поставленной цели в работе решаются задачи систематизации технологических направлений, разработки авторской модели аудиторского процесса с использованием ИИ, классификации уровней автоматизации и идентификации барьеров внедрения.

Технологические основы трансформации аудита

Внедрение цифровых технологий в аудит проходит несколько этапов — от простой автоматизации рабочих мест до создания интеллектуальных систем, способных обучаться и принимать решения. Анализ современной практики позволил выделить ключевые технологические направления, формирующие новый облик аудита:

1. **Технологии обработки больших данных (Big Data).** Аудитор получает возможность анализировать не выборочную совокупность, а все 100% операций компании. Это кардинально меняет подход к оценке рисков — они выявляются не на основе предположений, а на основе анализа всей генеральной совокупности данных[42].

2. **Искусственный интеллект и машинное обучение (AI/ML).** Алгоритмы ML используются для построения предиктивных моделей, позволяющих предсказывать участки учёта с наибольшим риском искажений.

3. **Роботизированная автоматизация процессов (RPA).** Программные роботы автоматизируют рутинные операции: выгрузку данных, сверку, формирование стандартных отчётов, высвобождая время аудитора для аналитики.

4. **Обработка естественного языка (NLP).** Технология обеспечивает автоматический анализ текстов договоров и первичных документов для выявления потенциальных налоговых или юридических рисков.

5. **Облачные технологии.** Обеспечивают коллективную работу с данными в реальном времени и доступ к мощным вычислительным ресурсам без крупных капитальных затрат.

Анализ практики ведущих аудиторских сетей («Большой четвёрки») подтверждает, что инвестиции в эти технологии являются стратегическим приоритетом. Например, KPMG использует IBM Watson для когнитивного анализа данных, Deloitte применяет RPA для автоматизации рутинных проверок, а EY разрабатывает собственные облачные платформы для непрерывного аудита[43].

Модель интеграции ИИ в аудиторский процесс

На основе изучения мирового опыта и анализа специфики развивающихся рынков, нами предлагается авторская модель интеграции ИИ в аудиторский процесс. Модель

[41] **Кеворкова, Ж. А., & Савин, А. А.** (2022). Трансформация методологии аудита в условиях цифровой экономики. *Аудиторские ведомости*, (2), 15-22.

[42] **Appelbaum, D., Kogan, A., & Vasarhelyi, M. A.** (2017). An introduction to data analysis for auditors and accountants. *Auditing: A Journal of Practice & Theory*, 36(4), 1-13.

[43] **Kokina, J., & Davenport, T. H.** (2017). The emergence of artificial intelligence: How automation is changing auditing. *Journal of Emerging Technologies in Accounting*, 14(1), 115-122.

структурирована по ключевым этапам аудиторской проверки и соотносит каждый этап с наиболее релевантными технологиями (Рисунок 1).

Представленная модель демонстрирует сквозное применение ИИ: от стратегических решений о начале проверки до итогового документирования.

Классификация и оценка эффективности применения ИИ

Для систематизации подходов к автоматизации нами разработана классификация задач аудита в зависимости от глубины внедрения ИИ. Данная классификация (таблица 1) позволяет аудиторским организациям выбирать стратегию цифровизации, соответствующую их масштабу и ресурсам, а также прогнозировать экономический эффект.

Рисунок 1. Модель интеграции ИИ на этапах аудиторского процесса (разработано автором)



Таблица №1 – Классификация и оценка эффективности применения ИИ в аудите[44]

Уровень автоматизации	Характеристика	Примеры задач	Экономический эффект (оценка)
Базовый уровень (RPA + OCR)	Автоматизация простых, повторяющихся действий без	Сверка банковских выписок с учётными данными,	Снижение трудозатрат на 15–25% на рутинных операциях

[44] Разработано *автором*

Уровень автоматизации	**Характеристика**	**Примеры задач**	**Экономический эффект (оценка)**
	использования сложных алгоритмов	распознавание отсканированных накладных	
Средний уровень (ML + NLP)	Применение алгоритмов для анализа данных, выявления закономерностей и аномалий	Кластеризация контрагентов по степени риска, автоматический анализ текстов договоров	Снижение трудоёмкости аналитических процедур на 30–40%, повышение качества выборки
Продвинутый уровень (Предиктивные модели + Генеративный ИИ)	Построение прогнозов, автоматическая генерация отчётов и рекомендаций	Прогнозирование вероятности банкротства клиента, автоматическое формирование раздела отчёта о ключевых рисках	Сокращение общего времени проверки на 20–30%, повышение точности прогнозов, рост удовлетворённости клиентов

Система барьеров внедрения и механизмы их нейтрализации

Проведённый анализ позволил выявить специфические барьеры, характерные для внедрения ИИ в аудиторскую практику (на примере Республики Узбекистан). Они носят системный характер и требуют комплексного решения. Нами разработана классификация этих барьеров и предложены механизмы их преодоления (Рисунок 2).

Рисунок 2. Система барьеров внедрения ИИ и механизмы их нейтрализации (разработано автором)



Заключение

Проведённое исследование позволяет сделать вывод, что интеграция искусственного интеллекта в аудиторскую деятельность является объективной необходимостью, продиктованной требованиями цифровой экономики. Разработанные автором модель интеграции ИИ в аудиторский процесс и классификация уровней автоматизации создают теоретическую базу для формирования практических методик цифрового аудита.

Экономический эффект от внедрения ИИ выражается не только в снижении трудоёмкости (до 40% на отдельных участках), но и в качественном повышении глубины анализа и достоверности выводов. Однако успешная цифровая трансформация невозможна без преодоления системных барьеров — нормативных, организационных, кадровых и финансовых. Предложенные механизмы нейтрализации этих барьеров, учитывающие специфику развивающихся экономик, могут служить основой для дорожной карты внедрения ИИ в аудиторских организациях.

Дальнейшие исследования должны быть направлены на разработку детализированных стандартов цифрового аудита и методов оценки качества работы ИИ-систем в условиях конкретных юрисдикций.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

1. **Кеворкова, Ж. А., & Савин, А. А.** (2022). Трансформация методологии аудита в условиях цифровой экономики. *Аудиторские ведомости*, (2), 15-22.
2. **Appelbaum, D., Kogan, A., & Vasarhelyi, M. A.** (2017). An introduction to data analysis for auditors and accountants. *Auditing: A Journal of Practice & Theory*, 36(4), 1-13.

3. **Kokina, J., & Davenport, T. H.** (2017). The emergence of artificial intelligence: How automation is changing auditing. *Journal of Emerging Technologies in Accounting*, 14(1), 115-122.
4. **ISA 315 (Revised 2019)**. Identifying and Assessing the Risks of Material Misstatement through Understanding the Entity and Its Environment. IAASB.
5. **Плотников, В. С., & Плотникова, О. В.** (2023). Развитие методического обеспечения аудита на основе цифровых технологий. *Международный бухгалтерский учет*, 26(1), 42-59.

TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI

Absamatov Asqar Ergashevich
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
https://doi.org/10.5281/zenodo.18753171

Annotatsiya. *Mazkur maqolada raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish yo‘llari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda bank aktivlarini boshqarishning an’anaviy usullari hamda raqamli texnologiyalar asosida shakllanayotgan zamonaviy yondashuvlar o‘zaro solishtiriladi. Xususan, aktiv va passivlarni birgalikda boshqarish, resurslarni taqsimlash, diversifikatsiya hamda kredit skoringi usullarining bank aktivlari samaradorligiga ta’siri yoritiladi. Raqamli texnologiyalar, jumladan avtomatlashtirilgan skoring tizimlari va ma’lumotlarga asoslangan boshqaruv mexanizmlarining joriy etilishi kredit portfeli sifatini yaxshilash va muammoli aktivlar ulushini kamaytirishda muhim omil sifatida asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari bank aktivlarini boshqarish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish imkonini beradi.*

Kalit so‘zlar: *tijorat banklari, bank aktivlari, aktivlar samaradorligi, raqamli transformatsiya, kredit skoringi, risklarni boshqarish.*

Аннотация. *В статье проводится научно-теоретический и практический анализ путей повышения эффективности активов коммерческих банков в условиях цифровой трансформации. Рассматриваются традиционные методы управления банковскими активами и современные подходы, формирующиеся на основе внедрения цифровых технологий. Особое внимание уделяется совместному управлению активами и пассивами, распределению ресурсов, диверсификации и применению кредитного скоринга. Обосновывается роль автоматизированных скоринговых систем и управления на основе данных в повышении качества кредитного портфеля и снижении доли проблемных активов. Полученные результаты могут быть использованы при совершенствовании системы управления активами коммерческих банков.*

Ключевые слова: *коммерческие банки, банковские активы, эффективность активов, цифровая трансформация, кредитный скоринг, управление рисками.*

Abstract. *This article provides a theoretical and practical analysis of ways to improve the efficiency of commercial banks’ assets in the context of digital transformation. The study examines traditional asset management methods alongside modern approaches emerging from the adoption of digital technologies. Particular attention is paid to asset-liability management, resource allocation, diversification, and the application of credit scoring techniques. The role of automated scoring systems and data-driven management in improving credit portfolio quality and reducing non-performing assets is substantiated. The research findings offer practical insights for enhancing asset management systems in commercial banks.*

Keywords: *commercial banks, bank assets, asset efficiency, digital transformation, credit scoring, risk management.*

Kirish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliya tizimi, xususan tijorat banklari faoliyati tubdan o‘zgarib bormoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi bank

xizmatlari ko‘rsatish shakllari, boshqaruv mexanizmlari va moliyaviy resurslardan foydalanish yondashuvlarini yangilashni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonda bank aktivlari samaradorligini oshirish masalasi bank tizimining barqarorligi, raqobatbardoshligi va iqtisodiy o‘sishga qo‘shayotgan hissasini belgilovchi muhim omil sifatida namoyon bo‘lmoqda [1]. Chunki bank aktivlari nafaqat kreditlash hajmini, balki banklarning daromadliligi, likvidligi va risklarga bardoshliligini ham bevosita ifodalaydi [2].

O‘zbekiston Respublikasida bank tizimini modernizatsiya qilish va raqamli transformatsiyani jadallashtirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilangan. Xususan, 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasida tijorat banklari faoliyatiga zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etish, masofaviy bank xizmatlarini kengaytirish, aktivlar va risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish hamda moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash asosiy vazifalar sifatida qayd etilgan [3]. Ushbu hujjatda bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirish raqamli transformatsiyaning ajralmas tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi.

Bank sektorida kuchayib borayotgan raqobat muhiti, mijozlar ehtiyojlarining tezkor o‘zgarishi va moliyaviy bozorlardagi beqarorlik sharoitida aktivlarni boshqarishning an’anaviy usullari o‘z imkoniyatlarini to‘liq namoyon eta olmayapti. Kredit risklarining ortishi, muammoli aktivlar ulushining ko‘payishi hamda operatsion xarajatlarning yuqoriligi bank aktivlari samaradorligini cheklovchi asosiy omillar sifatida maydonga chiqmoqda [4]. Shu bois aktivlarni joylashtirish va boshqarishda raqamli texnologiyalar, jumladan avtomatlashtirilgan kredit skoringi, katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish (Big Data) va sun’iy intellekt asosidagi qaror qabul qilish tizimlaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda [5].

Raqamli transformatsiya bank aktivlarini boshqarishda nafaqat texnologik, balki institutsional va tashkiliy o‘zgarishlarni ham talab etadi. Aktiv va passivlarni birgalikda boshqarish, resurslarning muddatlar va risklar bo‘yicha muvofiqligini ta’minlash, kredit portfeli sifatini real vaqt rejimida monitoring qilish imkoniyatlari bank aktivlarining aylanish tezligi va daromadliligini oshirishga xizmat qilmoqda [6]. Shu bilan birga, raqamli yechimlar bank faoliyatida shaffoflik va axborot ishonchliligini kuchaytirib, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilashga imkon bermoqda [7].

Shu munosabat bilan, raqamli transformatsiya jarayonida tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish yo‘llarini ilmiy jihatdan asoslash, aktivlarni boshqarishning an’anaviy va zamonaviy usullarini solishtirish hamda O‘zbekiston bank tizimi sharoitida samarali boshqaruv mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanmoqda [8].

Adabiyotlar tahlili. Tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish masalasi bank menejmenti va moliyaviy iqtisodiyot nazariyasida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinmoqda. Dastlabki ilmiy ishlarda bank aktivlarini boshqarish muammolari asosan likvidlik, daromadlilik va tavakkalchilik o‘rtasidagi muvozanatni ta’minlash nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan. Xususan, O.I. Lavrushin va V.V. Kovalev tadqiqotlarida bank aktivlari tarkibini optimallashtirish, kredit portfeli sifatini yaxshilash va aktivlar diversifikatsiyasi bank faoliyati samaradorligini oshirishning asosiy shartlari sifatida asoslab berilgan [1], [2]. Ushbu yondashuvlar an’anaviy bank modeli sharoitida muhim bo‘lsa-da, raqamli transformatsiya omili yetarli darajada e’tiborga olinmagan.

Xorijiy adabiyotlarda bank sektorining raqamli transformatsiyasi va uning aktivlar samaradorligiga ta’siri masalalari so‘nggi yillarda alohida ilmiy yo‘nalish sifatida shakllandi. J.

Van Horne va J. Wachowicz moliyaviy menejment doirasida raqamli axborot tizimlari qaror qabul qilish tezligi va aniqligini oshirish orqali aktivlardan foydalanish samaradorligini kuchaytirishini ta’kidlaydi [3]. Jahon banki va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar tadqiqotlarida esa raqamli banking, masofaviy xizmatlar, kredit skoringi va “Big Data” texnologiyalarining kredit risklarini pasaytirish hamda muammoli aktivlar ulushini qisqartirishdagi roli empirik jihatdan asoslab berilgan [4]. Ushbu ishlarda raqamli texnologiyalar bank aktivlari samaradorligiga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatuvchi muhim omil sifatida baholanadi.

O‘zbekiston va MDH mamlakatlari bo‘yicha olib borilgan ilmiy izlanishlarda bank aktivlari samaradorligini oshirish masalalari ko‘proq bank tizimini isloh qilish, kapital yetarliligi va kredit portfeli sifati bilan bog‘liq holda o‘rganilgan. Sh.X. Toshmatov, N.E. Sokolinskaya va boshqa tadqiqotchilar ishlarida bank aktivlarini joylashtirish samaradorligi, kreditlash mexanizmlari va risklarni boshqarish muammolari yoritilgan bo‘lsa-da, raqamli texnologiyalar asosan yordamchi omil sifatida talqin qilingan [5], [6]. So‘nggi normativ-huquqiy hujjatlarda, jumladan 2020–2025-yillarga mo‘ljallangan bank tizimini isloh qilish strategiyasida esa raqamli transformatsiya bank aktivlari samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilandi [7]. Bu holat mazkur mavzuni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida qayta ko‘rib chiqish va raqamli texnologiyalarni bank aktivlarini boshqarish tizimi bilan integratsiyalashgan holda tadqiq etish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tijorat banklarida raqamli transformatsiya jarayonida bank aktivlari samaradorligini oshirish yo‘llarini ilmiy asoslashga qaratilgan bo‘lib, unda kompleks metodologik yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqotning nazariy-uslubiy asosi bank aktivlari va passivlarini boshqarish nazariyasi, moliyaviy barqarorlik konsepsiyasi, shuningdek, raqamli iqtisodiyot sharoitida bank faoliyatini transformatsiya qilishga oid zamonaviy ilmiy qarashlardan iborat. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining bank tizimini isloh qilishga oid farmonlari, Markaziy bankning prudensial talablari hamda xalqaro moliyaviy institutlar tavsiyalari metodologik manba sifatida qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus ilmiy usullar majmuasidan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez usullari orqali bank aktivlari samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar tizimlashtirildi, taqqoslama tahlil yordamida an’anaviy va raqamli bank boshqaruvi sharoitidagi aktivlardan foydalanish samaradorligi solishtirildi. Tizimli yondashuv asosida bank aktivlarini boshqarish, raqamli texnologiyalar (kredit skoringi, Big Data, sun’iy intellekt) va risk-menejment o‘rtasidagi funksional bog‘liqliklar aniqlab berildi. Strukturaviy-dinamik tahlil usuli orqali bank aktivlari tarkibi va ularning samaradorlik ko‘rsatkichlaridagi o‘zgarishlar vaqt kesimida baholandi.

Empirik tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining rasmiy statistik ma’lumotlari, tijorat banklarining ochiq moliyaviy hisobotlari hamda xalqaro tashkilotlar (Jahon banki va boshqalar) e’lon qilgan axborotlar tahlil qilindi. Bank aktivlari samaradorligi aktivlar rentabelligi (ROA), kredit portfeli sifati, aktivlar aylanish tezligi va operatsion xarajatlar darajasi kabi ko‘rsatkichlar orqali baholandi. Shuningdek, kredit skoringi usulining bank aktivlari sifatiga ta’siri alohida metodologik yo‘nalish sifatida ko‘rib chiqildi.

Tadqiqot metodologiyasining muhim jihati shundaki, bank aktivlari samaradorligi faqat moliyaviy natijalar bilan cheklanib qolmay, balki raqamli transformatsiya sharoitida boshqaruv qarorlarining tezkorligi, axborot shaffofligi va risklarni oldindan aniqlash imkoniyatlari bilan

kompleks tarzda baholandi. Natijada mazkur metodologik yondashuv tijorat banklari aktivlarini boshqarishning zamonaviy, raqamli va integratsiyalashgan modelini ilmiy asoslash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Tahlil va natija. Zamonaviy dunyoda umuman moliya tizimi va xususan bank sektori raqamli iqtisodiyot talablariga muvofiq rivojlanmoqda. Raqamli transformatsiya munosabati bilan biznes modellari va bank sektorini rivojlantirish konsepsiyalari takomillashtirilmoqda. Bank faoliyati bank sektoridan tashqariga chiqib, moddiy va nomoddiy xizmatlar sohasiga kirib boradi. "Raqamli" bankning yangi modeliga o‘tish jarayonida mahalliy bank muassasalarining asosiy yo‘nalishlarini tahlil qilish va imkoniyatlarini baholash shuni ko‘rsatadiki, xarakterli tendentsiyalar: masofaviy xizmatlarga yo‘naltirish; sun'iy intellekt texnologiyalariga sarmoya kiritish va kiberxavflarni kamaytirish. Raqamli o‘zgarishlarning ushbu jarayonida banklar deyarli barcha korporativ jarayonlarni moslashtirishni talab qiladigan yangiliklarga duch kelishmoqda. Raqamli transformatsiya moliya-kredit faoliyatining barcha jihatlarini, shu jumladan bankni boshqarish mexanizmlarini qamrab oladi, shuning uchun bank sektorining raqamli transformatsiyasi samaradorlikni oshirishga yordam beradigan echimlarni ishlab chiqish uchun boshqa rivojlanish strategiyalari bilan muvofiqlashtirilishi kerak. Banklararo raqobat muhitining rivojlanib borishi bank aktivlarini joylashtirish, samaradorligini oshirishning an’anaviy usullaridan voz kechish, bank amaliyotiga samaradorlikni baholashning yangi va zamonaviy usullarini joriy etishni rag‘batlantirmoqda **Aktiv va passivlarni birgalikda boshqarish usullari** tijorat banki uchun yuqori foyda marjasini ta’minlovchi optimal aktiv va passivlar tuzilmasini shakllantirishni nazarda tutadi.

Mablag‘larning umumiy fondi usuli bankning o‘z va jalb qilingan mablag‘larini birlashtirishni nazarda tutadi. Bunda bankda dastlab birlamchi va ikkilamchi zahiralar shakllantiriladi. Ushbu usul jalb qilingan resurslarni imkon qadar bankning daromadli aktiv amaliyotlariga yo‘naltirishni nazarda tutadi. Bunda bankdan likvidlik va foydalilik tamoyillariga alohida e’tibor qaratish talab qilinadi. Negaki, resurslarni foyda olish uchun aktiv amaliyotlarga, xususan, ko‘p miqdorda yuqori daromad keltiruvchi sohaga yo‘naltirish, o‘z navbatida, tavakkalchilik darajasini nazoratdan chiqishiga yoki likvidlik tavakkalchiligini yuzaga kelishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli mazkur usulni asosan, resurslar ortiqchaligida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. *Aktivlarni taqsimlash usuli* jalb qilinayotgan resurslarning manbalarini tahliliga asoslanadi. Mazkur usulda resurlarning manbalari bo‘yicha taqsimlashda resurslarning aylanuvchanligi bilan bog‘liq bo‘lgan muayyan cheklanishlar yuzaga keladi. Ya’ni jalb qilingan qisqa muddatli resurslar qisqa muddatli aktiv amaliyotlarga, uzoq muddatli resurslar esa uzoq muddatli aktiv amaliyotlarga yo‘naltiriladi. Mazkur usulning afzalligi shundaki, bu usulni qo‘llash jarayonida resurslarni toifalariga qarab taqsimlash orqali likvid aktivlar (kassadagi naqd pullar)ning jami aktivlardagi ulushini qisqartirish imkoniyati yuzaga keladi. Ushbu ikkala usulning kamchiligi shundaki, bu holatlarda mijozlarning kreditlarga bo‘lgan talabi va ehtiyoji yetarlicha qondirilmaydi, ya’ni kreditlashda mijozlarning kreditlarga bo‘lgan mavsumiy talablari to‘liq e’tiborga olinmaydi.

Aktivlarni diversifikatsiyalash usuli bank aktivlar portfelini optimal tarkibiy tuzilmasini shakllantirishni nazarda tutadi. Mazkur usulda aktiv amaliyotlarning tarmoq riskini pasaytirish, barqaror daromadlikni ta’minlash dolzarb hisoblanadi. Aktivlar portfeli va omillar tahlili usullari jumlasida *kredit skoringi usuli* jismoniy shaxslarga iste’mol kreditlarini ajratishda ularning moliyaviy holatini aniqlash, maqbul qarz oluvchini tanlab olish muammosini hal etish maqsadida

1940 yillarda amerikalik iqtisodchi D. Dyuran tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur usul dastlab qarz oluvchi jismoniy shaxslarning moliyaviy holatini baholash modeli sifatida shakllangan bo‘lsa-da, hozirgi kunda qarz oluvchilarning moliyaviy holatini baholashning ishonchli universal usuli sifatida keng foydalanilmoqda. Kredit skoringi usuliga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

– mazkur usulni qo‘llash orqali qarz oluvchilarning kredit reytingi ko‘rsatkichlari aniqlanadi;

– kredit reytingini aniqlash jarayonida mijozlar moliyaviy holatidan kelib chiqib muayyan toifalar (sinf)larga ajratiladi;

– kredit skoringi usuli qarz oluvchining moliyaviy holatini baholash ko‘rsatkichlarini ballik tizim asosida baholashni nazarda tutadi;

skoring tizimi qarz oluvchining kreditga layoqatlik ko‘rsatkichlarini baholashdan tashqari ularning defolt holatiga uchrash ehtimolini baholash, kreditni qisman qoplash bo‘yicha ehtimolli istiqbolni baholash jarayonlarini qamrab oladi.

Fikrimizcha, tijorat banklarida kredit skoringi usulini qo‘llash aktivlar samaradorligini oshirish bilan bog‘liq quyidagi *afzalliklar*ni beradi:

– mijozlarning kredit tarixini o‘rganish asosida yuqori salohiyatga ega qarz oluvchini aniqlash imkoniyati mavjud, mazkur mezon kredit sifatini ta’minlanishida muhim ahamiyatga ega;

– skoring tizimida qarzdorlikni undirishning uzoq muddatli istiqbolini aniqlashga e’tibor qaratilishi aktivlarning muammoga aylanish ehtimolini pasaytiradi.

Shu o‘rinda mamlakatimiz banklari amaliyotida kredit skoringini talab darajasida o‘tkazish bilan bog‘liq bir qator muammoli jihatlar mavjudligini qayd etish joiz.

Birinchidan, tijorat banklari kredit skoringi usulini, asosan, kredit siyosatida kreditlashning elementlaridan biri sifatida belgilash bilan cheklanib qolmoqda. Qarzdorlarning moliyaviy holatini baholash jarayonida esa kredit skoringi usulidan umumiy tartibda foydalanilmoqda.

Tijorat banklari ichki me’yoriy hujjatlarida kredit skoringi usuliga qo‘yiladigan talablar, kredit skoringini qo‘llash jarayoni atroflicha belgilanmagan.

Ikkinchidan, kredit skoringi usulini qo‘llashning samaradorligi qarz oluvchining moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlar manbasini kengligiga bog‘liq. Shu bois banklarda qarz oluvchi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni yig‘ish, tizimlashtirish va qayta ishlash usullarini ham takomillashtirish zarurati yuzaga keladi.

Uchinchidan, skoring tizimining mohiyati faqatgina qarz oluvchining moliyaviy holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni kompleks tahlil qila olishda namoyon bo‘lmaydi. Skoring tizimidan to‘laqonli foydalanish uchun tizimlashtirilgan ma’lumotlardan aniq bank kreditlash xulosasi tayyorlay oladigan malakali mutaxassislar xizmatiga ehtiyoj seziladi. Shu sababli banklarda malakali xodimlarning qo‘nimsizligini pasaytirgan holda malakali kreditlash xodimlarini tayyorlashga e’tibor qaratish zarur.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, bank sektorining raqamli transformatsiyasi sharoitida tijorat banklari aktivlari samaradorligini oshirish kompleks va ko‘p omilli jarayon hisoblanadi. Aktiv va passivlarni birgalikda boshqarish, aktivlarni diversifikatsiyalash hamda kredit skoringi mexanizmlarini joriy etish bank aktivlaridan foydalanish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, kredit skoringi tizimining to‘liq va tizimli joriy etilishi muammoli kreditlar ulushini kamaytirish, risklarni oldindan aniqlash va bank aktivlari sifatini yaxshilash imkonini beradi. Biroq ushbu mexanizmlarning samaradorligi axborot bazasining kengligi va malakali kadrlar salohiyatiga bevosita bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Umuman olganda, raqamli transformatsiya jarayonida bank aktivlari samaradorligini oshirish banklarning raqobatbardoshligini kuchaytirish, moliyaviy barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Shu sababli bank aktivlarini boshqarishning zamonaviy, raqamli va integratsiyalashgan yondashuvlarini joriy etish dolzarb ilmiy-amaliy vazifa bo‘lib qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020–2025 yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 13.05.2020-y., 10.06.2022-y., 06/22/152/0507-son.
2. Jeyms K. Van Xorn, Jon M. Vaxovich. Asosiy moliyaviy menejment: [ingliz tilidan tarjima] – M.: Vilyams, 2016. – 1232 b.
3. Efimova O.V. Moliyaviy tahlil: 4-nashr, qayta ishlangan va to‘ldirilgan. – M.: “Buxgalteriya hisobi” nashriyoti, 2002. – 528 b.
4. Kovalev V., Kovalev V. Korporativ moliya va hisob: tushunchalar, algoritmlar, ko‘rsatkichlar. O‘quv qo‘llanma. – M.: PROSPEKT, 2015. – 1006 b.
5. Toshmatov Sh.X. O‘zbekistonda bank tizimining shakllanishi va rivojlanishi. Doktorlik dissertatsiyasi. – T.: 2006. (16-bet).
6. Lavrushin O.I. Bank ishi: zamonaviy kredit tizimi: Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliyaviy akademiya. 4-nashr, stereotip. – M.: KNORUS, 2008. – B. 36–37.
7. Soklinskaya N.E. Zamonaviy sharoitlarda kredit portfelini boshqarish muammolari // Bank ishi. – Moskva, 1999. – №9. – B. 18–19.
8. www.worldbank.org rasmiy internet sayti ma’lumotlari.

SAMARQAND VILOYATIDA MOBIL VA YETKAZIB BERISH MAISHIY XIZMAT TURLARINI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI

Navruzbek Azimjonovich Rajabov
SamDVMChBU iqtisodiyot va menejment kafedrasi mudiri v.b. hamda SamISI mustaqil tadqiqotchisi

https://doi.org/10.5281/zenodo.18780773

Annotatsiya: *Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi sharoitida maishiy xizmatlar sohasini rivojlantirish uning yangi turlarini shakllantirish yoki kashf etish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Muallif maqolada tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, tahlil natijlariga tayangan holda Samarqand viloyatida mobil va yetkazib berish maishiy xizmat turlarini kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni va iqtisodiy asoslarini bayon etgan.*

Kalit so‘zlar: *raqamli iqtisodiyot, xizmat, aholi, kambag‘allik, maishiy xizmat, aholi turmush darajasi, barqaror rivojlanish, reja, qisqartirish, ijtimoiy, tadbirkorlik, bandlik, strategiya, mobil, keytering, yetkazib berish, xususiy, mahalla, byudjet, kuryer .*

Аннотация: *В условиях стремительного развития цифровой экономики развитие сферы бытовых услуг обуславливает необходимость формирования или открытия новых ее видов. Автор, на основе результатов исследования и анализа, описывает роль и экономические основы мобильных и доставочных бытовых услуг в сокращении бедности в Самаркандской области.*

Ключевые слова: *цифровая экономика, услуги, население, бедность, бытовые услуги, уровень жизни населения, устойчивое развитие, план, сокращение, социальные услуги, предпринимательство, занятость, стратегия, мобильные услуги, общественное питание, частные услуги, районные услуги, бюджетные услуги, курьерские услуги.*

Abstract. *In the context of the rapid development of the digital economy, the development of the sphere of household services necessitates the formation or discovery of new types of it. The author, based on the results of the research and the results of the analysis, describes the role and economic foundations of mobile and delivery household services in reducing poverty in the Samarkand region.*

Key words: *digital economy, service, population, poverty, household services, standard of living of the population, sustainable development, plan, reduction, social, entrepreneurship, employment, strategy, mobile, catering, private, neighborhood, budget, courier.*

Kambag‘allikni qisqartirish bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Prezidentimiz tashabbusi bilan 2020-yildan boshlab kambag‘allikni qisqartirish masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi va shu asosda “Kambag‘allikni qisqartirish dasturlari”, “Oilaviy tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash” hamda “Mahalla byudjeti” kabi tashabbuslar hayotga tadbiq qilindi.

Bunda maishiy xizmatlar sektori - iqtisodiyotning yuqori bandlik yaratish salohiyatiga ega bo‘lgan va aholining kundalik ehtiyojlarini qondirish orqali farovonlikni oshiradigan soha sifatida ajralib turadi. Xususan, Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasi YaIM tarkibida

2023-yilda 39,2 % ulushni tashkil etib, bu ko‘rsatkichning muhim qismini maishiy xizmatlar tashkil qilmoqda.

Hozirgi internet asrida aholi iste’mol xizmatlari ham iste’molchi talabidan kelib chiqib, xizmatlar bozorida iste’molchilarning bir qator yangidan yangi talablarini yuzga keltirmoqda. Binobarin biz, maishiy xizmatlarni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirish borasida so‘z yuritar ekanmiz, ushbu yo‘nalishda ham bugungi zamon talabidan kelib chiqib, iste’molchi talabi nuqtai nazaridan bu ham bir qator yangi, qulay va tez fursatda amalga oshirish lozim bo‘lgan xizmatlar turiga ehtiyoj paydo qilmoqda. Shu jumladan maishiy xizmatlarni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirishda **mobil (ko‘chma) maishiy xizmatlar** va **maishiy xizmatlar** ko‘rsatisda **yetkazib berish (dostavka) xizmatlari**ning o‘rni juda muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiy-nazariy jihatda olib qarasak:

Birinchidan. Mobil (ko‘chma) xizmatlar – bu xizmatlarni bevosita iste’molchilarning yashash joyida, jumladan shahar va qishloqlarda yoki uzoq hududlarda aholining aynan bir xizmat turiga joyida ko‘rsatish tizimidir. Masalan: mobil sartarosh, mobil shaxsiy xizmat, mobil ustachilik (maishiy texnika ta’miri va ko kazo), mobil ko‘rinishdagi to‘y va marosimlarni o‘tkazib berish va boshqalar.

Ikkinchidan. Yetkazib berish (dostavka) xizmatlari – iste’molchi buyurtma qilgan mahsulot, ish yoki xizmatni uyiga yoki aytilgan manzilga yetkazib berishdir. Bu oziq-ovqat, dori-darmon, kiyim-kechak, tikuvchilik buyumlari, maishiy texnika ehtiyot qismlari va shunga o‘xshash boshqa ish va xizmatlarga tatbiq qilinadi.

Bu ikkala xizmat turi ham o‘z navbatida ijtimoiy-iqtisodiy jihatan quyidagicha muhim ahamiyat kasb etadi.

- **Iqtisodiy jihatdan**: yangi ish o‘rinlari yaratadi, kichik biznes va hususiy tadbirkorlikni rivojlantiradi.
- **Ijtimoiy jihatdan**: aholining vaqtini, transport xarajatini tejaydi, past daromadli qatlamlar uchun xizmatlarni arzonlashtiradi.
- **Hududiy jihatdan**: uzoq va qamrab olinmagan qishloq hududlarida xizmatlarga teng imkoniyat yaratadi.

Misol uchun maishy xizmatlar turkumidan mobil sartarosh va tikuvchilik xizmatlari ayniqsa qishloq joylarda doimiy faoliyat olib boradigan go‘zallik saloni ochish bir muncha yuqori xarajat talab qiladi. Ushbu xizmat turiga ayollar, yosh xotin-qizlar va eng asosiysi nikoh to‘yi bo‘layotgan qizlarning aksariyat qismi ushbu xizmat turidan bevosita komleks ravishda foydalanishini inobatga olsak o‘z-o‘zidan mazkur xizmat turiga talab yuqori. Mobil sartaroshlik esa o‘sha marosim bo‘layotgan xonadon yoki joyning o‘ziga borib izte’molchi talab va istaklariga muvofiq bir vaqtning o‘zida bir nechta mijozga xizmat ko‘rsatishi mumkin. Yoki erkaklar uchun sartaroshlik xizmatlari ham o‘z navbatida ayrim imkoniyati cheklangan (nogironlar, qariyalar, yotoqdagi bemorlar va ho kazo) shaxslarga uyiga yoki mijoz extiyojidan kelib chiqib joyiga borib xizmat ko‘rsatishi mumkin. Natijada **xarajat kam, foyda ko‘p**, yoshlar uchun daromad manbai, ayollar, bolalar va imkoniyati cheklangan shaxslar uchun esa qulaylik yaratadi.

Mobil maishiy texnika ustachiligi ham qishloqlarda maishiy texnika (kir yuvish mashinasi, televizor, telefon) buzilganda shahar markaziga olib borish ortiqcha ovvoragarchilik va bir muncha xarajat talab qiladi. Mobil ustalar esa mobil ustachlikka ixtisoslashtirilgan mashinasi (avtobus yoki miniven ichida uskunalar bilan) joyida ta’mirlash orqali kuniga kamida

20-30 mijozga xizmat ko‘rsatishi mumkin. Bu ham o‘z navbatida kam ta’minlangan oilalarga katta yordam beradi.

Ilmiy jihatdan olib qaraganda **mobil (ko‘chma) xizmatlar** va **yetkazib berish (dostavka) xizmatlari** orqali kambag‘allikni qisqartirish quyidagicha natija berishi mumkin:

- **Mobil xizmatlar** kambag‘allikni qisqartirishning **“to‘g‘ridan-to‘g‘ri modeli”** sifatida ular iste’molchilarning vaqtini, pulini va resursini tejaydi.

- **Yetkazib berish xizmatlari** esa kambag‘allikni qisqartirishning **“bilvosita modeli”** sifatida ular bozorda narxni tushiradi va shu bilan birga iste’molchilar imkoniyatini kengaytiradi.

- BMTning “Barqaror rivojlanish maqsadlari” (SDG-1: Kambag‘allikka barham berish, SDG-8: Iqtisodiy o‘sish va mehnat bandligi) tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Samarqand viloyatidagi 2025-yil davomida “SAM MAISHIY SERVIS” maishiy xizmat birlashmasiga qarashli hududiy bo‘linmalari faoliyati tahlili va tadqiqot natatijalarimizdan kelib chiqib, Samarqand viloyatida maishiy ximat ko‘rsatish sohasini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida mobil (ko‘chma) xizmatlar va yetkazib berish (dostavka) xizmatlarini borasida taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Amaliy xarakterga ega ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalarimiz maishiy ximat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirishda mobil (ko‘chma) xizmatlar va yetkazib berish (dostavka) xizmatlarining biz tomonimizdan aniqlangan samarali iqtisodiy xususiyatlaridan kelib chiqadi va uning tamoyillariga asoslanadi . Ular quyidagilarni o‘z tarkibiga qamrab olgan .

1. Mobil (ko‘chma) maishiy xizmatlar:

- **Xarajat va vaqtni tejaydi.** Uyda ta’mirlash xizmatlari, odamlarni shaharga olib borish xarajatlari va vaqtini tejaydi.

- **On layn bozoiga ega va ishsizlar uchun to‘siqsiz yangi ish o‘rinlari yaratadi.** Texniklar, kuryerlar, servis bo‘limlari orqali yangi ish o‘rinlari yuzaga keladi.

- **Qishloq hududlariga ham taklif va reklama qilish mumkin .** Mobil servislar transport tarmoqlari chalasht bo‘lgan joylarda ham xizmatni kengaytirish imkonini beradi, bu esa kambag‘allik sharoitidagi oilalarni daromad olish ichun ko‘mak bo‘lishi mumkin .

2. Yetkazib berish xizmatlari (dostavka):

- **Bozor narxlarining barqarorlanishiga imkoniyar hozirlaydi . maishiy xizmatlarni** to‘g‘ridan-to‘g‘ri iste’molchiga yetkazish vositachilikni kamaytiradi va narxni elastic tamoyili asosida pasaytirishi yoki oshirishi mumkin.

- **Tez va qulaylik tamoyilaga bo‘y so‘nadi.** Vaqtni tejash bilan bir qatorda ortiqcha ovvoragarchiliklarni oldi olinadi. Aholi iste’mol talabidan kelib chiqib past daromadli oilalar uchun ayniqsa foydali.

- **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rag‘batlantiruvchi mexanizmlariga ega.** Uyda va xizmat ko‘rsatish markazlarida ko‘rsatiladigan ish va maishiy xizmatlarni onlayn buyurtma orqali qabul qilishi hamda kambag‘al va ishsiz oilalarni ish bilan band etish va yangi daromadga ega bo‘lish manbai bo‘ladi hisoblanadi.

- **Raqobatbardoshlikni oshiradi**, maishiy xizmatlar bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun samaradorlikni oshirish imkoniytlarini yaratadi.

- **Aholi o‘rtasida** o‘zini band etish motivatsiyasini tashqi ta’sirlarsiz namoyon etishi mumkin.

Maishiy xizmatlarni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirishda “mobil (ko‘chma) maishiy xizmatlar” va “yetkazib berish (dostavka)” xizmatlarining bog‘liqligini quyidagi jadvalda ko‘rishimiz mumkin. (1-jadval)

1-jadval

Maishiy xizmatlarni rivojlantirish asosida kambag‘allikni qisqartirishda “mobil (ko‘chma)” maishiy xizmatlar va maishiy xizmatlar ko‘rsatishda “yetkazib berish (dostavka)” xizmatlarining bog‘liqligi[45]

Yo‘nalish	Aholiga ko‘rsatilishi	Kambag‘allikka ta’sir
Mobil maishiy servislar	Uyda ta’mirlash (maishiy texnikalar)	Xarajatni tejaydi, yangi ish o‘rinlari yaratiladi va xizmat ko‘rsatish qulayligi
Yetkazib berish xizmatlari	Xizmat ko‘rsatilgan buyumlarni yetkazib berish (maishiy texnikalarni ta’mirlash, kimyoviy tozalash)	Narx barqarorligi, vaqt va transport tejash, tadbirkorlik imkoniyati

Raqamlarga etibor qaratigan bo‘lsak 2023-yil yakunlariga ko‘ra, viloyatda xizmatlar hajmi 35,7 trln so‘mni tashkil qilgan bo‘lib, shundan maishiy xizmatlar ulushi taqriban 9,8 % atrofida bo‘lgan. Aholining asosiy ehtiyojlari kiyim kechak tikish, maishiy texnika ta’miri, sartaroshlik, transport va uy jihozlarini ta’mirlash xizmatlariga to‘g‘ri kelgan. Qishloq joylarda esa xizmatlar yetarli emas. Viloyatdagi 14 ta tumanning 9 tasida aholining 60 % dan ortig‘i xizmat ko‘rsatishning “uy sharoitida” yoki “norasmiy” shakllaridan foydalanmoqda.[46]

Shuning maishiy xizmatlarning kambag‘allikni qisqartirishdagi ta’siri yuqori bo‘lib, bandlik salohiyatini oshirishda yuqori potensialga ega. Chunki sartaroshlik, tikuvchilik, ta’mirlash xizmatlari minimal investitsiya talab qiladi va ayollar, yoshlar uchun qulay.

Hozirgi kunda keng ommalashib borayotgan keytering xizmatlari ham maishiy xizmatlar tarkibidagi zamonaviy, ommabop bo‘lgan buyurtmachi va iste’molchi talabi sezilarli darajada oshib borayotgan zamonaviy xizmat turi sifatida xizmatlar bozoriga tezlik bilan kirib kelayotgan xizmat turi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Keytering — bu turli uchrashuvlar, tadbirlar, yig‘ilishlar , to‘y marosimlari, korporativ konferensiyalar, korporativ tadbirlar yoki boshqa shu va shunga o‘xshash jamoat marosimlari uchun ovqatlanish xizmatlarini tashkillashtirish, yetkazib berish va ushbu jarayon bilan bog‘liq kompleks tizimidir.

Keytering xizmatlari esa iste’molchi talabidan kelib chiqib umumovqatlanish jarayonini tashkil etish bilan bog‘liq oziq ovqat mahsulotlarini pishirish, tez yetkazib berish, tashkillashtirish, taomlantirish jarayoniga taalluqli bo‘lgan nooziq ovqat xizmatlari ko‘rsatish hamda stol-bezaklari bilan birga kompleks xizmat ko‘rsatish ishlarini taqdim etishni o‘z ichiga oladigan tantanalar va oilaviy tadbirlar uchun mo‘ljallangan xizmat turidir. Bir so‘z bilan aytdanda keytering – ovqat tayyorlash, yetkazib berish emas, balki bu zamonaviy maishiy xizmatlar sohasidagi kompleks iqtisodiy jarayondir.

[45] Muallif ishlanmasi
[46] Samarqand viloyati Statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Keytering xizmatlari milliy gastronomik ta’minot, mehnat resurslari, logistika, tashkiliy boshqaruv, servis, dizayn va texnologik ta’minotni o‘z ichiga olgan komplekslashgan xizmatlar majmui sifatida O‘zbekiston ishlab xizmatlar sohasida so‘nggi besh yilda keskin rivojlanib, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yangi yo‘nalishlaridan biqiga aylanib bormoqda.

Xalqaro Mehnat Tashkiloti ma’lumotlariga ko‘ra, xizmatlar bozori 2023-yilda dunyo yalpi ichki mahsulotining 67 foizidan ortig‘ini tashkil etgan[1]. Bu jarayonning muhim yo‘nalishlaridan biri bu — **keytering xizmatlari**, ya’ni turli tadbirlar, to‘y marosimlari uchun ovqatlanish xizmatlarini tashkil etish, tayyorlash va yetkazib berish faoliyatidir. Xizmatlar sektorining kengayishi, urbanizatsiya jarayoni, daromadlarning o‘sishi, marosim xizmatlarining modernizatsiyasi hamda turizm rivoji keytering xizmatlariga bo‘lgan talabni oshirmoqda. Keytering xizmatlarining shakllanishi, iqtisodiy mazmuni, xalqaro tajribasi, O‘zbekistondagi rivojlanish tendensiyalari va kambag‘allikni qisqartirishga qo‘shayotgan hissasi beqiyosdir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60 sonli Farmoni balan tasdiqlangan “Harakatlar strategiyasidan — Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan yettita ustuvor yo‘nalishdan iborat 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va uni “Inson qadrini ulug‘lash va faol mahalla yili”da amalga oshirishga oid davlat dasturida ham ushbu masalaga alohida e’tbor qaratilgan. Chunonchi, “Shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo‘lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo‘yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta’mirlash, keytering kabi xizmatlarni ko‘rsatish punktlarini rivojlantirish [2].”

O‘zbekistonda ham bu xizmat so‘nggi 5–7 yilda sezilarli darajada o‘sib bormoqda. Mazkur yo‘nalish maishiy xizmatlar tarkibida zamonaviy rivojlanib borayotga xizmat sifatida kichik beznis va xususiy tadbirkorlik sektorni rivojlantirish bilan bir qatorda buyurtmachi va iste’molchi talab va istaklari asosida qo‘shimcha daromad shakllantirsh imkoniyatiga ega xizmat turi sifatida kambag‘al oilalar, yoshlar va ayollar bandiligi uchun kasb-hunarga o‘qitish hamda yangi ish o‘rinlari yaratish orqali kambag‘allikni kamaytirishga munosib hissa qo‘shadi.

GOLDEN PAGES O‘zbekiston korxona va tashkilotlarining biznes ma’lumotnomasi rasmiy sayti ma’lumotlariga ko‘ra bugungi kunda ushbu xizmat turi bilan shug‘ullanuvchi kompaniyalar 63 tani tashkil qiladi [3].

Kaytering professional ravishda ovqat va oziq ovqat tayyorlash, yetkazib berish, servis ko‘rsatish, tadbirni boshqarish, tashkil etish kabi faoliyatini o‘z ichiga olgan xizmat turi sifatida xususiyatlari orqali maishiy xizmatlarining kambag‘allikni qisqartirishga ta’sirini quyidagi 2-jadvalda ko‘rishimiz mumkin.

2-jadval.

Kaytring xizmatlarining kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri[47]

t/r	Xususiyatlari	Kambag‘allikni qisqartirishga ta’siri
1	Bandlik imkoniyatlari	Kaytering kichik jamoalar asosida ishlashi sababli 2-3 oshpaz, 10–15 ofitsiant, 2-3 idish yuvuvchi, 2–3 dekorator, 2 logist xodim, 1-2 haydovchi va 1 menejer bandligi ta’minlanadi.
2	Yoshlar va ayollar bandligi	O‘zbekiston sharoitida kaytering eng ko‘p talaba

[47] Muallif ishlanmasi

		yoshlar, uy bekalari, vaqtinchalik ish qidirayotgan ayollar va yoshlar uchun qulay bandlik turidir.
3	Oilaviy tadbirkorlikning rivojlanishi	Uy oshxonalari asosida somsa, pishiriqlar, milliy taomlar hamda to‘y va shu kabi boshqa marosimlar uchun tayyor maxsulotlar tayyorlash orqali daromad topish imkoniyati kengayadi.
4	Kichik biznesning o‘sishi	Kaytering sohasi bilan bog‘liq xizmatlar dekor va floristika, foto-video xizmatlar, logistika, musiqa, dizayn, idish tovoq ijarasi kabi 10 dan ortiq xizmat tarmoqlarini rivojlantiradi.

Yuqoridagi jadval asosidagi tahlillar shuni ko‘rsatdiki, keytering xizmatlari O‘zbekiston xizmatlar sektorining eng istiqbolli tarmoqlaridan biri sifatida xizmatlar bozorini rivojlanishiga ma’lum darajada hissa qo‘shadigan maishiy xizmat turidir. U nafaqat iqtisodiy o‘sishga, balki yangi ish o‘rinlari yaratishga, kambag‘allikni qisqartirishga, ayollar va yoshlar bandligini oshirishga, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga, xizmatlar sektori modernizatsiyasiyalashga hamda turizm infratuzilmasining kengayishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Bir so‘z bilan aytganda keytering xizmatlari jahon amaliyotida xizmatlar sektorining eng tez rivojlanayotgan yo‘nalishlaridan biridir. Shu bilan birga xizmatlar sohasini, ayniqsa maishiy xizmatlarni raqamlashtirish, servis sifati va mijozga yo‘naltirilgan yondashuv sifatida global bozorning asosiy yo‘nalishiga aylanib ulgurdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Elektron tijorat sohasidagi regulyator - Istiqbolli loyihalar milliy agentligi (ILMA) 2025-yil 18-iyun kuni kuryerlik xizmatlarining ish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqladi.

Hujjatga ko‘ra, kuryer ham o‘zini o‘zi band qilgan shaxs, ham tadbirkorlar yoki yetkazib berish operatorlari bilan mehnat yoki fuqarolik-huquqiy shartnoma asosida ishlovchi fuqaro bo‘lishi mumkin.

Nizomda ta’kidlanishicha, yetkazib berish xizmati operatorlari va kuryerlar xaridorlardan tovarlar va yetkazib berish xizmatlari uchun, shu jumladan naqd pulda ham to‘lov qabul qilishlari mumkin, biroq bunda chek berish - elektron yoki qog‘oz shaklida bo‘lishi majburiydir.

Oziq-ovqat mahsulotlari va tayyor taomlarni yetkazib berish uchun alohida talablar belgilangan:

- transport va termokonteynerlar toza va soz holatda bo‘lishi, muntazam yuvilishi va dezinfeksiya qilinishi kerak;
- qadoqlash oziq-ovqat mahsulotlari bilan aloqa qilish uchun mos materiallardan tayyorlanishi va ifloslanish, hasharotlar va hayvonlardan himoyani ta’minlashi lozim.

Bundan tashqari, turli xil oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazib berishda ularning alohida tashilishi - ajratilgan seksiyali yoki termoizolyasion to‘siqli alohida termokonteynerlarda ta’minlanishi kerak. Bu quyidagilarga taalluqli:

- xom va tayyor mahsulotlar;
- sovutilgan, muzlatilgan va issiq ovqatlar;
- oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari;
- o‘tkir hidli mahsulotlar va boshqa tovarlar.

Yetkazib berish xizmatlari operatori kuryerni (agar shartnomada nazarda tutilgan bo’lsa) uskunalar: termokonteynerlar, fiskal qurilmalar, shuningdek, yetkazib berish xizmatlarining

identifikasiya belgilari va qorong‘u vaqtda ishlash uchun yorug‘lik qaytaruvchi elementli maxsus kiyim bilan ta’minlashi shart.

Kuryerlarning majburiyatlariga qonunchilikka, shu jumladan yo‘l harakati qoidalari va sanitariya normalariga rioya qilish, shuningdek, ozoda tashqi ko‘rinishni saqlash kiradi. Ular, shuningdek, yetkazib berish xizmatlarining mobil ilovasi, navigator va to’lov terminalidan foydalanishni bilishlari kerak.

Bundan tashqari, kuryerlar yetkazib berilayotgan tovarlarga ehtiyotkorlik bilan munosabatфвда bo’lishlari shart, ularga tovarlarning qadog’ini o’zboshimchalik bilan ochish taqiqlanadi. Ularga xaridorlarning shaxsiy ma’lumotlarini va yetkazib berilayotgan tovar haqidagi ma’lumotlarni uchinchi shaxslarga oshkor qilish, xaridordan buyurtma summasi va yetkazib berish qiymatidan tashqari qo’shimcha to’lov talab qilish, shuningdek, mast holatda tovarlarni yetkazib berish taqiqlanadi.

Kuryer, agar uning bajarilishi qonunchilik talablarini buzsa, uning hayoti va sog‘lig‘iga tahdid solsa yoki taqdim etilgan tovarlar qonunchilik talablariga javob bermasa (masalan, qadog‘i shikastlangan yoki harorat rejimi buzilgan bo‘lsa), buyurtmani bajarishdan bosh tortishga haqli.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022 - 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” PF-60 sonli Farmoni 34-maqsad.
2. https://www.iloencyclopaedia.org/uz/part-iii-48230/resources-institutional-structural-and-legal/international-governmental-and-non-governmental-safety-and-health/item/225-international-labour-organization
3. https://www.iloencyclopaedia.org/uz/part-iii-48230/resources-institutional-structural-and-legal/international-governmental-and-non-governmental-safety-and-health/item/225-international-labour-organization
4. Pardayev M.Q., Pardayeva O.M., Pardayev O.M. Iqtisodiyotni strategik rivojlantirishning innovatsion modellari. Monografiya. - T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi” 2022. - 228 bet.
5. Ronald S. Anna S. David N. Urike S. Vocational education and training and employment services in malta. Monograph. 2021. European training foundation. 2021. 86 pp
6. Razomasova Ye.A. Sfera uslug: teoriya, sostoyaniye i razvitiye: monografiya/. NOU VPO Sentrosoyuza RF “Sibirskiy universitet potrebitelskoy kooperatsii”.-Novosibirsk, 2011.-S.53-54.

TOSHKENT VILOYATI O‘TLOQI-ALLYUVIAL TUPROQLARI SHAROITIDA MOSH VA LOVIYA EKINIDA GERBITSIDLAR QO‘LLASHNING TUPROQNING AGROKIMYOVIY XUSUSIYATLARIGA TA’SIRI

Sattorov Shoximardon Xushmamatovich[1], Xalikov Baxodir Meylikovich[2]
[1]O‘simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti,
https://orcid.org/0009-0000-0012-4714
[2]Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti
https://orcid.org/0000-0002-7323-4516
https://doi.org/10.5281/zenodo.18780794

Аннотация. *В статье комплексно исследовано влияние гербицидов, применяемых против сорных растений при возделывании маша и фасоли в условиях лугово-аллювиальных почв Ташкентской области, на агрохимические свойства почвы. В процессе исследований проанализированы изменения основных агрохимических показателей почвы, в том числе содержания гумуса, подвижных форм питательных элементов (азота, фосфора и калия), а также других важных показателей, возникающие в результате применения гербицидов.*

Ключевые слова*: Маш, фасоль, лугово-аллювиальная почва, гумус, азот, фосфор, калий, сорные растения, гербицид.*

Annotation. *The article presents a comprehensive study of the effect of herbicides applied for weed control during the cultivation of mung bean and common bean under the conditions of meadow-alluvial soils of the Tashkent region on the agrochemical properties of the soil. In the course of the research, changes in the main agrochemical indicators of the soil were analyzed, including humus content, mobile forms of nutrients (nitrogen, phosphorus, and potassium), as well as other important parameters resulting from the application of herbicides.*

Key words*: Mung bean, common bean, meadow-alluvial soil, humus, nitrogen, phosphorus, potassium, weeds, herbicide.*

Kirish. Qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishning eng muxim sharti tuproq unumdorligiga bog‘liqdir. Hozirgi kunda tuproqqa ishlov berish ekologik tizimda tuproq-o‘simlik-atmosfera muvozanatini buzilishi va shu bilan birga biosferada biogeokimyoviy moddalar almashinuvi va energiyani o‘zgarishi natijasida, ko‘p xollarda tuproqning unumdorligi pasayishiga hamda degradatsiya jarayonini tezlashishiga olib kelishi olimlar tomonidan aniqlangan [2].

Ma’lumki, dukkakli-don ekinlari tuproqdagi o‘simlik uchun zarur bo‘ladigan oziqa moddalari miqdorini oshirish imkoniyatiga ega. Dukkakli-don ekinlarini parvarish qilishning agrotexnik qoidalariga to‘liq amal qilinganda mazkur o‘simliklar turkumi tuproq unumdorligini oshirishda o‘zining bor potensial imkoniyatlaridan foydalanadi.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlarni bajarishda umumqabul qilingan «Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari», «Gerbitsidlar bilan tajribalar qo‘yish uslublari», tuproqning agrokimyoviy

hamda agrofizikaviy tahlillari «Sug‘oriladigan paxtachilik hududlarida agrokimyoviy, agrofizik va mikrobiologik tadqiqot usullari» kabi uslublari asosida olib borildi.

Tadqiqot natijalari. Toshkent viloyatining o‘tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida olib borilgan 1-tajribadan olingan dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, tajribaning 2019 yil amal davri boshida tuproqning 0-30 sm qatlamidagi gumus miqdori 1,300% ni, umumiy azot miqdori 0,116% ni, fosfor miqdori esa 0,155% ni, 30-50 sm qatlamda esa mos ravishda 0,980; 0,105; 0,122% ni tashkil etdi. Tajribaning 2021 yil amal davri oxirida olingan ma’lumotlarga ko‘ra, tajribaning nazoratdan tashqari deyarli barcha variantlarida gumus va azot miqdorini oshganligi, fosfor miqdorini kamayganligi aniqlandi. Tajribaning mosh ekilgan nazorat variantida gumus miqdori dastlabki miqdorga nisbatan 0,008% ga, umumiy azot miqdori 0,005% ga, fosfor miqdori esa 0,007% ga kamayganligi kuzatildi.

Qolgan variantlarda esa gumus miqdori 0,001-0,009% gacha, azot miqdori 0,001-0,005% gacha oshganligi qayd etildi. Ayniqsa, Stomp va Shansgrad gerbitsidlarining yuqori, gektariga 4,0 litr me’yori qo‘llanilgan 5 va 9-variantlarida mazkur ko‘rsatkichlar yuqori ko‘rsatkichni namoyon etib, gumus va umumiy azot miqdorlari mos ravishda 0,009; 0,005% ga oshganligi aniqlandi. Ammo, tajribaning barcha variantlarida fosfor miqdorini kamayganligi kuzatildi. Bunda bu ko‘rsatkich nazorat variantida 0,007% ga kamaygan bo‘lsa, qolgan barcha variantlarda 0,001-0,006% gacha kamaydi.

1-jadval

Toshkent viloyati o‘tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida mosh va loviyadagi begona o‘tlarga qarshi kurashning tuproqdagi umumiy oziqa moddalar miqdoriga ta’siri,

1-tajriba

№	Ekin turlari	Gerbitsid turlari	Me’yori, l/ga	Tuproq qatlam-lari, sm	Amal davri boshida, 2019 yil, %			Amal davri oxirida, 2021 yil, %		
					Gumus	**N**	**P**	**Gumus**	**N**	**P**
1.	Mosh	Nazorat, (gerbitsidsiz)	-	0-30	1,300	0,116	0,155	1,292	0,111	0,148
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,974	0,098	0,118
2.		Zorro, 33% em.k. (andoza)	4,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,303	0,116	0,151
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,984	0,105	0,118
3.		Stomp, 33% em.k.	2,5	0-30	1,300	0,116	0,155	1,305	0,117	0,152
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,982	0,104	0,117
4.		Stomp, 33% em.k.	3,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,305	0,117	0,153
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,982	0,106	0,118
5.		Stomp, 33% em.k.	4,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,308	0,121	0,154
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,984	0,109	0,117
6.		Gezagard 50, 50% n.kuk. (andoza)	4,0	0-30	1,300	0,116	0,155	0,304	0,117	0,152
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,982	0,106	0,116
7.		Shansgard sus.k. 500 g/l.	2,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,305	0,118	0,151
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,982	0,106	0,116
8.		Shansgard sus.k. 500 g/l.	3,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,304	0,119	0,152
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,983	0,108	0,117
9.		Shansgard sus.k. 500 g/l.	4,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,309	0,120	0,154
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,985	0,108	0,118

10.	Loviya	Nazorat, (gerbitsidsiz)	-	0-30	1,300	0,116	0,155	1,290	0,109	0,148
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,971	0,096	0,117
11.		Zorro, 33% em.k. (andoza)	4,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,301	0,116	0,151
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,980	0,106	0,116
12.		Stomp, 33% em.k.	2,5	0-30	1,300	0,116	0,155	1,302	0,118	0,151
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,981	0,106	0,118
13.		Stomp, 33% em.k.	3,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,303	0,117	0,150
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,982	0,106	0,116
14.		Stomp, 33% em.k.	4,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,305	0,119	0,152
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,982	0,108	0,116
15.		Gezagard 50, 50% n.kuk. (andoza)	4,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,304	0,117	0,150
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,981	0,106	0,115
16		Shansgard sus.k. 500 g/l.	2,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,305	0,118	0,151
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,983	0,106	0,117
17		Shansgard sus.k. 500 g/l.	3,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,304	0,118	0,151
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,983	0,107	0,118
18		Shansgard sus.k. 500 g/l.	4,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,307	0,120	0,151
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,984	0,109	0,116

Tajribaning loviya ekilgan variantlarida ham shunga yaqin ma’lumotlar olinib, nazorat variantida gumus miqdori dastlabki miqdorga nisbatan 0,010% ga, umumiy azot miqdori 0,007% ga, fosfor miqdori esa 0,007% ga kamayganligi kuzatildi. Tajribaning qolgan variantlarida esa moshdagi singari gumus miqdori 0,001-0,007% gacha, azot miqdori ham 0,001-0,004% gacha oshganligi qayd etildi. Loviya o‘simligida ham Stomp va Shansgrad gerbitsidlarining yuqori, gektariga 4,0 litr me’yori qo‘llanilgan 14 va 18-variantlarida mazkur ko‘rsatkichlar yuqori ko‘rsatkichni namoyon etib, gumus miqdori 0,005-0,007% ga, umumiy azot miqdori esa 0,003-0,004% ga oshganligi qayd etildi. Mazkur o‘simlikda ham tuproqdagi fosfor miqdorini kamayganligi aniqlanib, unda bu ko‘rsatkich nazorat variantida 0,007%ga kamaygan bo‘lsa, qolgan barcha variantlarda 0,003-0,007% gacha kamaydi.

Toshkent viloyatining o‘tloqi-allyuvial tuproqlarida o‘tkazilgan 2-tajriba, ya’ni gerbitsidlarni mosh va loviyaga o‘suv davrida qo‘llash bo‘yicha o‘tkazilgan tajribadan olingan ma’lumotlarga ko‘ra, bu tajribada ham nazoratdan tashqari deyarli barcha variantlarda gumus va azot miqdorini oshganligi, fosforni kamayganligi qayd etildi. Tajribaning mosh ekilgan nazorat variantida gumus miqdori dastlabki miqdorga nisbatan 0,005% ga, umumiy azot miqdori 0,006% ga, fosfor miqdori esa 0,008% ga kamayganligi kuzatildi. Gerbitsidlar qo‘llanilgan variantlarda esa gumus miqdori 0,001-0,005%gacha, umumiy azot miqdori esa 0,001-0,005% gacha oshganligi kuzatildi. Bunda gerbitsidlardan Fyuzilad forteni gektariga 1,5 l me’yorda qo‘llanilganda tuproqdagi gumus miqdorini 0,005% ga, azot miqdorini 0,005% ga oshishiga olib keldi.

Tajribaning barcha variantlarida fosfor miqdorini kamayganligi kuzatildi. Bunda bu ko‘rsatkich nazorat variantida 0,008% ga kamaygan bo‘lsa, qolgan barcha variantlarda 0,005-0,007% gacha kamayganligi aniqlandi.

Tajribaning loviya ekilgan nazorat variantida gumus miqdori dastlabki miqdorga nisbatan 0,009%ga, umumiy azot miqdori 0,008% ga, fosfor miqdori esa 0,009%ga kamayganligi kuzatildi. Tajribaning qolgan variantlarida esa moshdagi singari gumus miqdori 0,001-0,005% ga, azot miqdori esa 0,001-0,004% gacha oshganligi qayd etildi. Mazkur o‘simlikda Fyuzilad

forte, gerbitsidini gektariga 1,5 litr me’yori qo‘llanilgan 10-variantida mazkur ko‘rsatkichlar yuqori ko‘rsatkichni namoyon etib, gumus miqdorini 0,005% ga, umumiy azot miqdorini esa 0,003% ga oshirganligi kuzatildi. Mazkur o‘simlikda ham tuproqdagi fosfor miqdorini kamayganligi aniqlanib, unda bu ko‘rsatkich nazorat variantida 0,009% ga kamaygan bo‘lsa, qolgan barcha variantlarda 0,005-0,008% gacha kamaydi.

2-jadval

Toshkent viloyati o‘tloqi-allyuvial tuproqlar sharoitida mosh va loviyadagi begona o‘tlarga qarshi kurashning tuproqdagi umumiy oziqa moddalar miqdoriga ta’siri

2-tajriba

№	Ekin turlari	Gerbitsid turlari	Me’yori, l/ga	Tuproq qatlam-lari, sm	Amal davri boshida, 2019 yil, %			Amal davri oxirida, 2021 yil, %		
					Gumus	**N**	**P**	**Gumus**	**N**	**P**
1.	Mosh	Nazorat, (gerbitsidsiz)	-	0-30	1,300	0,116	0,155	1,295	0,110	0,147
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,974	0,099	0,115
2.		Ramon super, 104 g/l. em.k. (andoza)	1,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,300	0,116	0,149
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,981	0,106	0,115
3.		Zellek super, 104 g/l. em.k.	1,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,304	0,120	0,150
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,982	0,108	0,117
4.		Legion super, 12,5% em.k. (andoza)	1,5	0-30	1,300	0,116	0,155	1,304	0,117	0,149
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,983	0,105	0,116
5.		Fyuzilad forte, 15% em.k.	1,5	0-30	1,300	0,116	0,155	1,305	0,121	0,149
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,983	0,108	0,117
6.	Loviya	Nazorat, (gerbitsidsiz)	-	0-30	1,300	0,116	0,155	1,291	0,108	0,146
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,972	0,097	0,117
7.		Ramon super, 104 g/l. em.k. (andoza)	1,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,299	0,116	0,150
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,980	0,105	0,116
8.		Zellek super, 104 g/l. em.k.	1,0	0-30	1,300	0,116	0,155	1,304	0,117	0,150
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,980	0,107	0,117
9.		Legion super, 12,5% em.k. (andoza)	1,5	0-30	1,300	0,116	0,155	1,300	0,118	0,147
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,981	0,106	0,116
10.		Fyuzilad forte, 15% em.k.	1,5	0-30	1,300	0,116	0,155	1,305	0,119	0,149
				30-50	0,980	0,105	0,122	0,982	0,109	0,117

Xulosa. Olingan ma’lumotlardan xulosa qilish mumkinki, o‘tloqi-allyuvial tuproq sharoitida ham moshni parvarish qilishda begona o‘tlarga qarshi ekish bilan birga Shansgrad gerbitsidini gektariga 4,0 litr me’yorda qo‘llash gumus miqdorini 0,005-0,009% ga, umumiy azot miqdorini 0,003-0,004% ga, loviyada Stomp gerbitsidini gektariga 4,0 litr me’yorda qo‘llash gumus miqdorini 0,002-0,005%, umumiy azot miqdorini 0,003% oshiradi. Moshni o‘suv davrida Fyuzilad forte gektariga 1,5 litr, loviyada Zellek super gektariga 1,0 litr me’yorlarda qo‘llash esa

gumus, umumiy azot miqdorlarini moshda 0,003-0,005%; 0,003-0,005% ga, loviyada 0,004%; 0,001-0,002% ga oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Иминов А., Усмонов И., Холдаров Д. Мош экинида нитрагин ва минерал ўғитлар қўллашнинг тупроқ унумдорлигига таъсири// Ж. Агро кимё ҳимоя ва ўсимликлар карантини. - Тошкент, 2019. - №5. - Б. 53-55.

2. Карабайев И.Т., Ботирова Н.Т. Турли усул ва муддатларда тупроққа асосий ишлов бериб, серҳосил биопрепаратини қўллашни тупроқнинг агрокимёвий хусусиятлари ҳамда ғўза ҳосилдорлигига таъсири // Ж. Ўзбекистон қишлоқ ва сув хўжалиги. - Тошкент, 2025. - №8. - Б. 49 - 52.

3. Методы агрохимических, агрофизических и микробиологический исследований в поливных хлопковых районах. СоюзНИХИ. - Ташкент, 1963. С. 1-253.

4. Нурматов Ш. ва бошқалар. Дала тажрибаларини ўтказиш услублари. ЎзПИТИ, Т. 2007. Б. 1-131.

SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNES SOHASINING “YASHIL IQTISODIYOT” GA O‘TISH HOLATI VA UNING TAHLILI

Mohichexra Melikovna Mo‘minova
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18780814

Annotatsiya. *Jahonda yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish salohiyatiga ega hududlarda sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun ijtimoiy-iqtisodiy tamoyillarni takomillashtirish, ekologik talablarga javob beradigan modellarni ishlab chiqish va mahalliy aholi manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan samaradorligini oshirish bo‘yicha qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ushu ilmiy izlanishlardan kelib chiqqan holda muallif maqolada olib borgan taddqiqotlari davomidagi natijalardan kelib chiqib Samarqand viloyatida xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes sohasining “yashil iqtisodiyot” ga o‘tish holatini tahlili etgan va rivojlanish darajasini ilmiy asoslab bergan.*

Kalit so‘zlar: *xizmat, yashil iqtisodiyot, kichik biznes, tadbirkor, qayta tiklanuvchi, energiya, resurs, globallashuv, chiqindisiz texnologiya, chiqindi, standart, texnologiya, ekologiya.*

Аннотация. *Для обеспечения устойчивого развития сектора в регионах, обладающих потенциалом предоставления услуг в условиях «зеленой экономики», проводится ряд научных исследований, направленных на совершенствование социально-экономических принципов, разработку моделей, отвечающих экологическим требованиям, и повышение их эффективности в защите интересов местного населения. На основе этих научных исследований автор, опираясь на результаты своей работы, проанализировал состояние перехода малого бизнеса в сфере услуг Самаркандской области к «зеленой экономике» и научно обосновал уровень развития.*

Ключевые слова: *сервис, зеленая экономика, малый бизнес, предприниматель, возобновляемая энергия, ресурсы, глобализация, безотходные технологии, отходы, стандарт, технология, экология.*

Abstract. *In order to ensure the sustainable development of the sector in regions with the potential for providing services in the conditions of a green economy, a number of scientific studies are being conducted to improve socio-economic principles, develop models that meet environmental requirements, and increase their effectiveness in protecting the interests of the local population. Based on these scientific studies, the author, based on the results of his research, analyzed the state of transition of small business in the service sector in the Samarkand region to a "green economy" and scientifically substantiated the level of development.*

Key words: *service, green economy, small business, entrepreneur, renewable, energy, resource, globalization, waste*-free technology, waste, standard, technology, ecology.

Mamlakatimizda ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘lida muhim qadamlar tashlanmoqda. Bu borada davlatimiz rahbari tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish va

ekologik toza texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan bir qator farmon va qarorlar qabul qilinmoqda.

2016-yil 2-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-son qarorida “O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida “yashil” va inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish, shuningdek, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida resurslarni tejashni yanada kengaytirish maqsad qilib belgilangan”[1].

Bizningcha, ushbu chora-tadbirlar ekologik barqarorlikni ta’minlash, energetika samaradorligini oshirish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Shuningdek, ular mamlakatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu yondashuvlar respublikaning yashil iqtisodiyotga o‘tish yo‘lidagi asosiy qadamlarini belgilab, kelajak avlodlar uchun sog‘lom va toza atrof-muhitni ta’minlash imkonini yaratadi.

Jahon tajribasi borasida olb borilgan tadqiqotlar xizmat ko‘rsatish sohasida kam xarajat bilan tez muddatda biznesni yo‘lga qo‘yish, daromadlarining real o‘sishini ta’minlash hamda yangi ish o‘rinlarini boshqa tarmoqlarga nisbatan ko‘proq tashkil etish mumkinligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda Yangi O‘zbekistonning iqtisodiy rivojlanish bosqichida xizmatlar sohasini jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

2024-yilning yakunlariga ko‘ra, YaIM tarkibida katta bo‘lmagan o‘zgarishlar kuzatilgan bo‘lsada, YaIM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 46,2 % dan 47,4 % ga oshganini ko‘rishimiz mumkin. YaIMning boshqa tarmoqariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, jumladan, qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining ulushi 20,9 % dan 20,1 % ga, sanoatning ulushi 28,0 % dan 26,3 % ga, qurilish tarmog‘ining ulushi 7,0 % dan 6,5 % ga kamaydi[2].

Respublikada tashish va saqlash korxonalari soni o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lsada jami korxonalardagi ulushi yillar davomida kamaygan. Ularning ijobiy yoki salbiy ekanligini jadvalda keltirilgan oxirgi 7 ta ko‘rsatkich orqali bilib olish mumkin. Bu ko‘rsatkichlarni Respublika uchun va har bir viloyat uchun alohida hisoblash, ularni respublikadagi o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan qilish orqali mavjud va yo‘qotilgan imkoniyatlarni ko‘rish mumkin.

Yashil iqtisodiyotga o‘tishda va xizmat ko’rsatish sohasini rivojlantirishda globallashuvning ta’siri katta ahamiyatga ega. Globallashuv iqtisodiy, madaniy va siyosiy aloqalarni mustahkamlab, xizmat ko’rsatish va boshqa sohalarning rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu jarayon xalqaro miqyosdagi aloqalarni kuchaytirib, xizmat ko’rsatish ning yangi imkoniyatlar yaratishi, madaniy almashinuvni qo‘llab-quvvatlashi va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shishini ta’minlaydi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida globallashuv jahon iqtisodiyotining asosiy xususiyatlaridan biriga aylandi. Texnologiyalar, aloqa vositalari, ilm-fan, transport va sanoat sohalaridagi yutuqlar tufayli global integratsiya jarayonlari tezlashdi va chuqurlashdi.

“Globallashuv” tushunchasi dastlab 1990-yillarda sotsiologlar orasida paydo bo‘lib, 1992-yilda britaniyalik sotsiolog Roland Robertson tomonidan keng ommaga kiritilgan. U “global lokallashuv” konsepsiyasiga e’tibor qaratib, global jarayonlarning mahalliy sharoitlarga moslashishini va ularning tovar va xizmatlar orqali ifodalanishini tushuntiradi. Shuningdek, u mahalliy sharoitlarga xos ma’lumotlarning global tizimga uzatilishini ham anglatadi. 1992-yilda chop etilgan R.Robertsonning “Globallashuv: Ijtimoiy nazariya va global madaniyat”

(Globalization: Social Theory and Global Culture) asarida globallashuvning madaniy, iqtisodiy va siyosiy ta’sirlari chuqur tahlil qilingan hamda ushbu jarayonning butun dunyo bo‘ylab qanday yoyilgani tasvirlangan [3].

Jahon banki ta’rifiga ko‘ra, ““Globallashuv” dunyo bo‘ylab iqtisodiyotlar va jamiyatlarning tobora kuchayib borayotgan integratsiyasini anglatadi” [4]. Bu tushuncha, iqtisodiy faoliyatning milliy chegaralardan tashqariga kengayib, global darajadagi kuchlarning shakllanishini ifodalaydi. Globallashuv savdo, investitsiyalar, texnologiyalar va inson resurslarining xalqaro oqimlari orqali dunyo iqtisodiyotidagi dinamik jarayonlarni tavsiflaydi. Xalqaro savdo va texnologiya oqimlari iqtisodiy o‘sish uchun muhim omillar bo‘lib, ular rivojlanayotgan mamlakatlarning global qiymat zanjirlariga kirishida yordam beradi.

So‘nggi yillarda viloyatda quyosh energiyasidan foydalanayotgan kichik sanoat korxonalari soni keskin oshgani kuzatilmoqda. Bu holat dunyo bo‘yicha e’tirof etilgan “kichik biznes – ekologik innovatsiyalar drayveri” konsepsiyasiga mos keladi[5]. Kichik biznesning moslashuvchanligi va texnologik yangiliklarni tez qabul qilishi bunga asosiy sabab bo‘lib xizmat qilmoqda (1-jadval)

1-Jadval

Samarqand viloyati bo‘yicha 2020-2025-yillarda xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes sohasining “yashil iqtisodiyot” ga o‘tish holati va darajasi , (foizda,%)[6]

T/r	Yillar	Kichik biznes subyektlari soni (birlik)	Yashil loyihalarga jalb etilganlar soni (birlik)	Investitsiyalar hajmi (mln so‘mda)	Band aholi soni	Yashil iqtisodiyotga o‘tish darajasi, %
1	2020	12000	400	250	1200	3
2	2021	12500	600	400	1500	5
3	2022	13000	900	600	1800	7
4	2023	13500	1200	900	2100	10
5	2024	14000	1600	1300	2500	13
6	2025	14500	2000	1800	3000	16

Samarqand viloyatida 2020-yildan 2025-yilgacha “yashil iqtisodiyot” modeliga o‘tish jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes subyektlarining ishtiroki sezilarli darajada oshgan. 2020-yilda viloyatda taxminan 12 000 kichik biznes subyektlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lib, ularning faqat 400 tasi yashil loyihalarga jalb qilingan. Shu yil davomida investitsiya hajmi 250 mln so‘mni tashkil qilgan va 1 200 yangi ishchi o‘rin yaratildi. Yashil iqtisodiyotga o‘tish darajasi esa atigi 3% bo‘lgan. 2021-yilda subyektlar soni 12 500 ga yetgan, yashil loyihalarga jalb qilingan subyektlar soni 600 taga ko‘tarilgan va investitsiya hajmi 400 mln so‘mni tashkil qilgan. Bu yil ishchi o‘rinlar soni 1 500 ga yetib, yashil iqtisodiyotga o‘tish darajasi 5% ga ko‘tarilgan.2022-yilda kichik biznes subyektlari soni 13 000 ga yetgan, ular orasida yashil loyihalarda qatnashganlar soni 900 ga yetgan. Investitsiya hajmi 600 mln so‘mni tashkil qilgan, ishchi o‘rinlar soni esa 1 800 ga yetgan. Yashil iqtisodiyotga o‘tish darajasi 7%

bo‘lgan. 2023-yilda kichik biznes subyektlarining soni 13 500 ga yetgan, yashil loyihalarda qatnashgan subyektlar soni 1 200 ni tashkil qilgan. Investitsiya hajmi 900 mln so‘m, ishchi o‘rinlar soni 2 100 ga yetgan va yashil iqtisodiyotga o‘tish darajasi 10% ni tashkil qilgan.2024-yilda kichik biznes subyektlari soni 14 000 ga yetgan va ularning 1 600 tasi yashil loyihalarda faol ishtirok etgan. Shu yilgi investitsiya hajmi 1 300 mln so‘mni tashkil qilgan, ishchi o‘rinlar soni 2 500 ga yetgan va yashil iqtisodiyotga o‘tish darajasi 13% ni tashkil qilgan.2025-yilda kichik biznes subyektlari soni 14 500 ga yetgan, ular orasida 2 000 tasi yashil loyihalarda jalb qilingan. Investitsiya hajmi 1 800 mln so‘mni tashkil qilgan va ishchi o‘rinlar soni 3 000 ga yetgan. Shu yil oxirida yashil iqtisodiyotga o‘tish darajasi 16% ga yetgan.

Samarqand viloyatidagi xizmat ko‘rsatish sohasida kichik korxonalar chiqindilarni qayta ishlash yoki chiqindisiz texnologiyalarga o‘tish jarayonida ham faol ekanini amaliy misollarda ko‘rish mumkin. Masalan, xizmat ko‘rsatish sohasidagi maishiy xizmatlar yo‘nalishidagi ayrim korxonalar tekstil chiqindilaridan qayta foydalanish texnologiyalarini joriy etgan bo‘lib, bu ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish bilan birga ekologik yuklamani kamaytirgan. Bu jarayon Porter va Linde tomonidan ilgari surilgan “ekologik innovatsiya nafaqat tabiat, balki iqtisod uchun ham foydali” degan nazariyani amalda tasdiqlaydi[7,8]. Boshqa tomondan, viloyatda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayonida aniqlangan ayrim jihatlar kelgusida rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab olish imkonini bermoqda. Tadqiqot natijalari ekologik texnologiyalar bo‘yicha investitsiya hajmlarining nisbatan yuqoriligi kichik biznes uchun yangi moliyaviy instrumentlarni joriy etish zaruratini ko‘rsatmoqda. Xorijiy tajribalar ham ushbu segmentda imtiyozli kreditlash, subsidiyalar va grant dasturlarini kengaytirish orqali yashil modernizatsiya sur’atlarini sezilarli darajada oshirish mumkinligini tasdiqlaydi[9].Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasida ekologik standartlar bo‘yicha axborot maydonini kengaytirish va malakali kadrlar tayyorlash yo‘nalishlarini rivojlantirish istiqbolda jarayonning yanada izchil va to‘liq amalga oshirilishiga turtki beradi. Mazkur yo‘nalishlarning bosqichma-bosqich takomillashuvi viloyatda yashil iqtisodiyotga o‘tish samaradorligini oshirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.Hududiy omillar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Samarqand viloyati tabiiy resurslari, qishloq xo‘jaligi salohiyati va xizmat ko‘rsatish sektorining kengligi sababli yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun qulay mintaqa hisoblanadi. Viloyatda quyosh radiatsiyasi darajasi yuqori bo‘lgani uchun ko‘plab kichik biznes korxonalari qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga qiziqish bildirmoqda. Bu jarayon UNEP tomonidan taklif qilingan “tabiiy resurslarga tayanib barqaror o‘sish modeli”ning mahalliy ko‘rinishi sifatida baholanishi mumkin [10] . Mahalliy olimlar tadqiqotlarida ko‘tarilgan fikrlar ham ushbu jarayonni qo‘llab-quvvatlaydi. Masalan, Mahmudov va Jo‘rayev ekologik modernizatsiyaning iqtisодий samaradorligi bo‘yicha o‘tkazgan tahlillarida O‘zbekistonda kichik biznesning yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o‘rni katta ekanini ta’kidlaydi[11] . Yormatova esa viloyatlar miqyosida ekologik innovatsiyalarni joriy etishda hududiy infratuzilmaning ahamiyatini alohida qayd etadi [12] . Samarqand viloyatidagi amaliy holatlar ushbu ilmiy qarashlarni to‘liq tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, Samarqand viloyatida yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining muvaffaqiyati xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesning infratuzilmaviy sharoitlarga tez moslashishi, hududiy innovatsion resurslardan foydalanish darajasi va mahalliy boshqaruv organlari bilan o‘zaro hamkorlikning samaradorligiga ham bevosita bog‘liqdir. Viloyatda ekologik toza ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash, energiya tejamkor qurilish materiallarini ishlab chiqarish kabi yo‘nalishlar bo‘yicha salmoqli imkoniyatlar mavjud bo‘lib,

ularni to‘g‘ri boshqarish kichik biznesning iqtisodiy faolligini yanada kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, kichik xizmat ko‘rsatish sohasida biznes korxonalarida ekologik innovatsiyalarni joriy etish faqat iqtisodiy samaradorlikni oshirmaydi, balki mintaqada ekologik xavfsizlikni ta’minlashga, aholi salomatligi va hayot sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Bu esa “yashil iqtisodiyot”ning asosiy tamoyillaridan biri bo‘lgan iqtisodiy o‘sish va ekologik barqarorlikning uyg‘unlashuvini amalda namoyon etadi.

Kelgusida ushbu jarayonni yanada jadallashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlar dolzarb hisoblanadi: xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznes uchun imtiyozli kreditlar va grantlar sonini oshirish, ekologik standartlarga mos ishlab chiqarish jarayonlarini sertifikatlash tizimini rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo‘lgan talabni rag‘batlantirish va ekologik innovatsiyalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini kengaytirish. Shuningdek, tadbirkorlar uchun ekologik menejment, energiya samaradorligi va chiqindilarni boshqarish bo‘yicha o‘quv dasturlarini yo‘lga qo‘yish ham o‘tish jarayonini tezlashtirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, Samarqand viloyatida yashil iqtisodiyot modeliga o‘tish jarayonida xizmat ko‘rsatish sohasida kichik biznesning iqtisodiy faolligi hududning uzoq muddatli iqtisodiy rivojlanishi, ekologik xavfsizligi va ijtimoiy farovonligini ta’minlashda hal qiluvchi o‘rin tutadi. Shu boisdan, kichik biznesni ekologik innovatsiyalarni joriy etishga keng jalb etish, ular uchun qulay iqtisodiy muhit yaratish va ekologik modernizatsiya jarayonini tizimli qo‘llabquvvatlash mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida muhim hissa bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.2016-yil 2-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli Qarori. lex.uz/uz/docs/-6303230.

2.www.stat.uz sayti ma’lumotlari asosida muallif tomonidan jamlangan va hisoblangan.

3.Robertson R. “Globalization: Social Theory and Global Culture” // London; Newbury Park, CA: Sage Publications, 1992. – 211 p. – ISBN: 9780803981874. https://archive.org/details/globalizationsoc0000robe.

4.Jahon Bankining tadqiqot hisobotlari // Globallashuv, o‘sish va qashshoqlik. 2002-yil. https://www.un.org/ru/youthink/globalization.shtml

5.World Bank. Greening Growth in Central Asia: Opportunities for Renewable Energy and SME Development.
Washington, D.C., 20

6.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida hisoblangan.

7.European Commission. Green Action Plan for SMEs: Enabling SMEs to Turn Environmental Challenges into Business Opportunities. Brussels, 2014

8.World Bank. Greening Growth in Central Asia: Opportunities for Renewable Energy and SME Development.
Washington, D.C., 20

9.Porter, M., van der Linde, C. Toward a New Conception of the Environment-Competitiveness Relationship. Journal of Economic Perspectives, 1995, 9(4), 97–118

10.UNDP Uzbekistan. Sustainable Development and Green Transition in Uzbekistan: Regional Perspectives. Toshkent: UNDP Office, 2022.

11.Yormatova, M. Hududiy iqtisodiyotda ekologik innovatsiyalarni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari. — “Iqtisodiy tadqiqotlar” jurnali, 2021, №3, 45–53

12.Yormatova, M. Hududiy iqtisodiyotda ekologik innovatsiyalarni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari. — “Iqtisodiy tadqiqotlar” jurnali, 2021, №3, 45–53

YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI VA TAMOYILLARI

Mohichexra Melikovna Mo‘minova
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.18780847

Annotatsiya. *Ushu maqolada muallif yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini oshirishgning istiqbolli yo‘nalishlari va tamoyillarini ishlab chiqqan va xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda mavjud bir qator muammolarni ko‘rsatib bergan.*
Kalit so‘zlar: *raqamli xizmat, yashil iqtisodiyot, kichik biznes, tadbirkor, qayta tiklanuvchi, energiya, resurs, innovatsiya, chiqindisiz texnologiya, chiqindi, standart, texnologiya, ekologiya, servis.*

Аннотация. *В данной статье автор разрабатывает перспективные направления и принципы повышения эффективности сектора услуг в контексте зеленой экономики и указывает на ряд проблем в развитии сектора услуг.*
Ключевые слова: *цифровые услуги, зеленая экономика, малый бизнес, предприниматель, возобновляемая энергия, ресурсы, инновации, безотходные технологии, отходы, стандарт, технология, экология, услуги.*

Abstract. *In this article, the author develops promising directions and principles for increasing the efficiency of the service sector in the context of a green economy and indicates a number of problems in the development of the service sector.*
Key words: *digital service, green economy, small business, entrepreneur, renewable, energy, resource, innovation, zero-waste technology, waste, standard, technology, ecology, service.*

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasidek iqtisodiyotning boshqa tarmoq va sohalarning rivojlanishiga bevosita va bilvosita ta’sir o‘tkaza oladigan, keng qamrovli sohani barqaror rivojlantirishda faqatgina ijtimoiy va iqtisodiy nuqtai nazardan rivojlantirish bilan cheklanish biroz noto‘g‘ri. Chunki, bugungi shiddat bilan rivojlanib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning hozirgi bosqichida iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarini innovatsion va raqamli texnologiyalarsiz tasavvur qilish qiyin. Shuningdek, mamlakatda yashil iqtisodiyot xizmat ko‘rsatish sohasini barqaror rivojlantirishga subyektlar faoliyatini jadal rivojlantirishnining innovatsion va texnologik jarayonlarga moslashuvchanligini kuchaytirmasdan erishib bo‘lmaydi. Chunki, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasining barqaror rivojlanishiga innovatsion va raqamli texnologiyalarning ta’siri transport, qurilish, sanoat, savdo, qishloq xo‘jaligi, va shu kabi boshqa segmentlarda seziladi. Shu bilan birga, bugungi zamon talablaridan biriga aylangan sun’iy intellektga asoslangan dasturlardan tizim faoliyatini samarali boshqarish va tuzatish yo‘nalishlarida, xizmat ko‘rsatish sohasini tahlil va tadqiq qilish yo‘nalishlarida samarali foydalanish soha amaliyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, yashil iqtisodiyot sharoitida xizma ko‘rsatuvchi korxona subyektlar faoliyatini texnologik transformatsiya asosida jadallashtirish ularning doimiy tahlili va

monitoringini yuritishni ham talab qiladi hamda faoliyat samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan tahlillar va fikr-mulohazalardan kelib chiqib, BMTning iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha dasturi, YUNESKO dasturlari bugungi global iqtisodiyot davrida xizmatlar ko‘rsatish sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi rolini mustahkamlash, sohada faoliyat olib borayotgan xizmat ko‘rsatish korxonalarning rivojlanish ko‘rsatkichlarini yaxshilash hamda mamlakatda yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasining barqaror rivojlanish tendensiyalarini ta’minlashda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishni “raqamli xizmatlar ” va “innovatsion xizmatlar ” tamoyillarini qo‘shish orqali xizmat ko‘rsatish sohasini samaradorligini oshirishgning istiqbolli yo‘nalishlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

1-javdal

Yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi samaradorligini oshirishgning istiqbolli yo‘nalishlari va tamoyillari[48]

№	Yo‘nalishlar	Tamoyillar	Ustuvor vazifalar
1.	**Yashil iqtisodiyot xizmatlari**	**Ekologik muhitning barqarorligi**	• energiya sarfi, ifloslantiruvchi moddalar va maishiy chiqindi emissiyasi, ichimlik suvi va oqova suvlaridan foydalanish tizimi muvozanatlash; • xizmat ko‘rsatish va mahsulotlarnining ekologik standartlarga muvofiqligi ta’minlash; • ekologik mas’uliyat va javobgarlikni oshirish; • xizmat ko‘rsatish korxonalarida tabiiy hududlarning biologik xilma-xilligini saqlash; • xizmat ko‘rsatish korxonalarida ekologik toza texnika va transport vositalaridan foydalanish;
2.	**Servislashgan iqtisodiyot xizmatlari**	**Ijtimoiy-madaniy farovonlik**	• mahalliy jamoatchilik bilan yaqin aloqalarni o‘rnatish va ularning ijtimoiy, madaniy tashabbuslarini qo‘llab quvvatlash; • xorijiy va mahalliy sayyohlarning xavfsizligi, huquq va manfaatlarini himoya qilishning zamonaviy mexanizmlarini tashkil etish; • xizmatlardan foydalanishning teng sharoitlarini ta’minlashda ijtimoiy mas’uliyat va javobgarlikni oshirish; • xorijiy tajriba asosida kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish.

[48] Muallif ishlanmasi.

3.	**Raqobatbardosh va samarali xizmatlar**	**Uzoq muddatli iqtisodiy o‘sish**	• uzoq muddatli rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish; • bozor risklarini boshqarish, moliyaviy zahiralarni yaratish va daromadlarni diversifikatsiya qilish asosida aylanma mablag‘lar barqarorligini ta’minlash; • xalqaro darajadagi marketing tadqiqotlarini yuritish va xalqaro turizm tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash asosida faoliyatning turistik jozibadorligini oshirish; • zamonaviy turizm infratuzilmasini shakllantirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga ustuvorlik berish;
4.	**Raqamli xizmatlar**	**Texnologik transformatsiya**	• raqamli platformalar va bulutli texnologiyalar tizimini joriy qilish; • faoliyatga suniy intelekt integratsiyasini amalga oshirish; • mobil texnologiyalar va naqd pulsiz to‘lovlardan foydalanish imknoyatini ta’minlash; • mijozlarning shaxsiy ma'lumotlari va biznes jarayonlarini himoya qilish uchun kiberxavfsizlik strategiyalarini ishlab chiqish; • innovatsion startaplar bilan doimiy hamkorlik o‘rnatish.
5.	**Innovatsion xizmatlar**	**Tadqiqot va monitoring**	• faoliyatga asosiy samaradorlik ko‘rsatkichlarini (KPI) joriy qilish; • ijtimoiy va iqtisodiy tadqiqotlarni yuritish; • ijtimoiy va iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘g‘risidagi hisobotlarni yuritish (Global Reporting Initiative (GRI) kabi hisobot standartlariga muvofiqligi ta’minlash) • faoliyatga qayta aloqa tizimini joriy qilish asodida iste’molchi fikrini doimiy monitoring qilish; • Tahlillar va tadqiqotlarning uzluksizligini ta’minlash.

Respublikamiz yashil iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi rivojlanishini aniqlash bo‘yicha hisob-kitoblar 2022-yil va istiqboldagisi esa 2030 yilgacha mo‘ljallangan holda o‘tkazildi. Buni amalga oshirishda 2010-2024 yillar davomodagi milliy iqtisodiyotning asosiy statistik ko‘rsatkichlari, “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-sonli hamda “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining Innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2022 yil 6-avgustdagi PF-165-sonli farmonlari asosida mamlakatimiz makroiqtisodiy rivojlanishining asosiy ko‘rsatkichlari axborot bazasi bo‘lib xizmat qildi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlari ulushini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Ularning ulushi yalpi ichki mahsulotda, davlat byudjetiga to‘lanadigan soliqlarda, iqtisodiyotda band bo‘lganlarning tarkibida, mamlakatimiz xizmatlar bozorini rivojlantirishda, yangi ish o‘rinlarini yaratish kabi eng muhim masalalarda muttasil oshib bormoqda. Keyingi vazifa ular samaradorligini oshirishga qaratilishi lozim. Vaholanki, aynan yashil iqtisodiyot sharoitida samarali faoliyat olib borayotgan xizmat ko‘rsatish subyektlarigina yuqorida sanab o‘tilgan ijobiy natijalarni ko‘rsatishmoqda. Bundan ko‘rish mumkinki, xizmat ko‘rsatish sohasi subyektlari, jumladan infratuzilmaning xizmat ko‘rsatish faoliyati va uning subyektlarini iqtisodiy samaradorligini oshirish obyektiv zaruriyat hisoblanadi. Bizningcha, xizmat ko‘rsatish faoliyati va uning subyektlarini iqtisodiy samaradorligini oshirishda iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Har qanday xo‘jalik yurtuvchi subyekt normal amal qilishi uchun yaxshi tashkil qilingan xo‘jalik mexanizmi zarur. U o‘zida korxonaning oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishini ta’minlovchi xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy shakl va usullarini ifodalaydi. Iqtisodiy mexanizmning mohiyati uning mazmuni, tarkibi va elementlari bilan belgilanadi. Bozor mexanizmining asosiy elementlariga, iqtisodiy qiziqish, tijorat hisobi, moddiy manfaatdorlik, tahlil va rejalashtirish, soliqa tortish, xo‘jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy shakl va usullari kiradi.

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, yashil iqtisodiyot sharoitida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish va samaradorligini oshirish omili sifatida namoyon bo‘ladi va xizmat ko‘rsatish korxonalari oldidagi bir qator muammolarni bartaraf etish imkonini beradi. Bunday muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Bugungi kunda xizmat ko‘rsatish korxonalari kichiklashib ketgan. Natijada, xo‘jalik faoliyati samaradorligini baholashga e’tibor pasaygan. Faoliyat olib borayotgan korxonalarning aksariyatida faqatgina xarajatlarning qaytimigina hisoblanib, shu bo‘yicha xulosalar qilinmoqda va qarorlar qabul qilinmoqda;
2. Samaradorlikni baholashda nazariy asoslangan qator ko‘rsatkichlardan foydalanilmayapti;
3. Xizmat ko‘rsatish korxonalari aksariyatida rejalashtirish juda past darajada. Natijada bir qator ko‘rsatkichlarni tahlil qilish faqatgina o‘tgan yil ko‘rsatkichlari bilan solishtirish natijasida olib borilmoqda;
4. Samaradorlikka ta’sir etuvchi tashkiliy-iqtisodiy omillar umuman baholanmay qolmoqda;
5. Korxonalarda kadrlar siyosati yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan , ular zamon talablariga javob bermaydi. Xizmat ko‘rsatishda band bo‘lgan xodimlarning aksariyati kerakli bilim va ko‘nikmalarga, mutaxassislikka ega emas;
6. Mamlakatimizda statistik hisobotlar tizimida ayrim kamchiliklar mavjud. Bu soha samaradorlik ko‘rsatkichlarini baholashda zaruriy ma’lumotlarni olish imkonini bermaydi;
7. Xizmat ko‘rsatish korxonalari ishlab chiqarib sotayotgan mahsulotlari va ko‘rsatayotgan xizmatlari uchun standartlar belgilanmagan. Natijada, ayni bir turdagi mahsulot (taom) tarkibi, narxi turlicha shakllantirilmoqda;
8. Xizmat ko‘rsatish korxonalari soliqqa tortish tizimida ham ayrim kamchiliklar mavjud;

9. Mamlakatimizda xizmat ko‘rsatish korxonalari, ularning mol-mulki, xizmat davrida mijozlar salomatligi sug‘urtalanmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.2016-yil 2-dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-436-sonli Qarori. lex.uz/uz/docs/-6303230.

2..Yormatova, M. Hududiy iqtisodiyotda ekologik innovatsiyalarni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari. — “Iqtisodiy tadqiqotlar” jurnali, 2021, №3, 45–53

3..Yormatova, M. Hududiy iqtisodiyotda ekologik innovatsiyalarni joriy etishning ustuvor yo‘nalishlari. — “Iqtisodiy tadqiqotlar” jurnali, 2021, №3, 45–53

Mundarija

1 **Abdullayev Zafarbek Safibullayevich, Abdullabekova Noilaxon G‘ofurjon qizi,** THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY IN STATE-OWNED ENTERPRISES 5

2 **A.A.Ablaizov,** YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TRANSPORT XIZMATLARI INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY-IQTISODIY AHAMIYATI VA INFRATUZILMASIGA USLUBIY YONDASHUVLAR 9

3 **Akbarova Shaxnoza Yakub qizi,** RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUV RESURSLARINI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 15

4 **Aktamova Vasila Uktamovna,** “EKONOMETRIKA FANINING IJTIMOIY-IQTISODIY TAHLILLARDAGI AHAMIYATI” 20

5 **Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Yalgasheva Ruxshona Shoxrux qizi,** HUDUDLARNING INVESTITSION SALOHIYATINI IQTISODIY TAHLILI VA INTEGRAL BAHOLASH USULLARI 25

6 **Azizkulov Baxtiyor Xushvaktovich, Xamrokulova Mehrangiz Muzaffar qizi,** XO‘JALIK YURITUVCHI SUB`EKTLARGA JALB QILINGAN INVESTITSIYALARNI IQTISODIY TAHLILI 30

7 **Baxtiyarov Sherali Muzaffarovich,** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MINTAQADA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH YO‘NALISHLARI 34

8 **Baxtiyarova Nigina Baxtiyarovna,** TIJORAT BANKLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATINI RAG‘BATLANTIRISHDAGI ROLI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI 41

9 **Fayziyev Oybek Raximovich,** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA BALIQCHILIK XO‘JALIKLARIDA AYLANMA KAPITALNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH 44

10 **Ganiyeva Nasiba, Berdiqulova Manzura,** DAVLAT BUDJET DAROMATLARI VA XARAJATLARI 49

11 **Ibragimova Shohida Nazarbekovna,** MILLIY IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA MINTAQA SANOATNI YUKSALTIRISH YO‘NALISHLARI 56

12 **Iskandarova Munisa Hasan qizi,** ELEKTRON SAVDODA MOLIYAVIY MUNOSABATLARNING NAZARIY ASOSLARI VA ULARNI TARTIBGA SOLISH ZARURATI 62

13 **Isroilova Dildorakhon Tavakalovna,** APPLICATION AND EFFECTIVENESS OF SMART MANAGEMENT METHODS IN THE RECREATIONAL TOURISM SECTOR OF FERGANA REGION 68

14 **Isroilova Dildorakhon Tavakalovna,** THE USE OF MOBILE APPLICATIONS IN ORGANIZING MARKETING MANAGEMENT OF RECREATIONAL ENTERPRISES AND ITS EFFECTIVENESS 72

15 **Karimova Dilfuza Xatamjonovna,** STRATEGIC MANAGEMENT OF VOCATIONAL EDUCATION AND TRAINING: A REVIEW OF QUALITY AND LABOR MARKET ALIGNMENT LITERATURE 76

16 **Kazakova Zulayho Salaxiddinovna, Shopo‘latov Muxammadali Tal’at o‘g‘li, Babaxonova Gulzoda O‘ktamboy qizi, Bo‘matov Dilshodbek Fazliddin o‘g‘li,** KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI O‘ZBEKISTONDA RIVOJLANISHI 81

17 **Кобилова Шозода Тимуровна, Исхакова Сарвар Аюбовна,** ЎЗБЕКИСТОН ТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИНИНГ ЖАҲОН БОЗОРИДА РАҚОБАТБАРДОШЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА СТРАТЕГИК МАРКЕТИНГНИНГ РОЛИ 88

18 **Komiljonova Sarvinoz, Berdiqulova Manzura,** DAVLAT MOLIYASI: DAVLATNING MOLIYA TIZIMIDAGI O‘RNI 93

19 **Mamarajabov Abdisamad Saidmurot o‘g‘li,** TASHQI SAVDO FAOLIYAT KO‘RSATKICHLARINI REYTING DOIRASIDA IQTISODIY TAHLIL USULLARI YORDAMIDA TAHLIL QILISHNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI 100

20 **Matmuradova Nargiza Shomuradovna,** RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA ISLOM MOLIYASI XIZMATLARINING MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANISHGA TA’SIRI 104

21 **Mavlanov Azod Ulugbekovich,** THE IMPORTANCE OF THE DIGITAL ECONOMY IN STATE-OWNED ENTERPRISES 113

22 **Maxmudova Nargiza Azamat qizi,** OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH 116

23 **Muradova Ra’no Anvarovna,** RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O‘ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA XIZMAT KO‘RSATISH SIFATINI OSHIRISH OMILLARI 120

24 **Nazarov Jahongir Bahromovich,** RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MINTAQANI BARQAROR RIOJLANTIRISH OMILLARI 126

25 **Назарова М.Ш., Казакова З.С., Бердикулов Р.А.,** ТРАНСФОРМАЦИЯ РЫНКА ТРУДА:

ЗЕЛЁНАЯ ЭКОНОМИКА И ЗЕЛЁНАЯ ЗАНЯТОСТЬ 132

26 **Nishanova Aziza Mirzaxmadovna,** HAMKORLIK ASOSIDA TALABALARDA EKOLOGIK TARBIYA RIVOJLANTIRISH VA INTERAKTIV METODLARDAN FOYDALANISH 140

27 **Normurodov Bekruz Sunnatilla o‘g‘li, Tag‘aymurodov Sherzod Sherali o‘g‘li,** ELEKTRON TIJORATDA MIJOZGA TO‘G‘RIDAN-TO‘G‘RI YETKAZIB BERISHNING SHAHAR LOGISTIKASIGA TA’SIRI 144

28 **Nosirov Baxtiyor Nusratovich,** AHOLIGA ALOQA VA AXBOROT XIZMATLARI KO‘RSATISHNI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISHNING INDIKATIV REJALASHTIRISH 149

29 **Nuraliyev Saidolimxon Seyduvali o‘g‘li,** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI FAOLIYATI BARQARORLIGINI NAZARIY VA STATISTIK TAHLIL ASOSIDA BAHOLASH 153

30 **O‘zmanov Ixtiyor Ibragim o‘g‘li,** TURIZM KOMPANIYALARINING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI OSHIRISHDA KREDIT MEXANIZMLARIDAN FOYDALANISH 158

31 **Ochilova Mohigul Toshtemir qizi, Dustov Shohrux Iskandar o‘g‘li,** RAQAMLI IQTISODIYOT VA UNING O‘ZBEKISTON IQTISODIY RIVOJIGA TA’SIRI 165

32 **Ochilova Mohigul Toshtemir qizi,** KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING YUTUQLARI VA KAMCHILIKLARI 168

33 **Odilov Umid Abduxalimovich,** AHOLI XONADONLARI VA QISHLOQ XO‘JALIGINI RAQAMLASHTIRISH ORQALI UY XO‘JALIKLARI IQTISODIYOTI SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI 170

34 **Otoboyeva Aziza Shakirovna,** TEXNIK TIZIMLARDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARI – IQTISODIY SAMARADORLIKDA ASOSIY OMIL 177

35 **Pardayev Anvarjon Yusupovich,** O‘ZBEKISTONDA TIJORAT BANKLARI BARQARORLIGINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI 181

36 **Qudaybergenov Adilbay Abatbaevich, Qazimbetova Muxabbad Maxsetbaevna, Ispanova Jadira Paraxat qizi, Raxmatullayev Baxodir Jandulla o‘g‘li,** IRRIGATSIYA TARMOQLARIDA ISTE’MOLCHILAR UCHUN DEKADAVIY OPTIMAL SUV LIMITLARINI HISOBLASHNING GRAF VA CHIZIQLI DASTURLASH MODELI 187

37 **Qudaybergenov Adilbay Abatbaevich, Qazimbetova Muxabbad Maxsetbaevna, Ispanova Jadira Paraxat qizi, Raxmatullayev Baxodir Jandulla o‘g‘li,** GIDROMODULLI TUMANLASHTIRISH ASOSIDA FERMER XO‘JALIKLARINING DEKADAVIY SUV TALABINI HISOBLASH ALGORITMI 191

38 **Rajaboyev Shahboz Shodi o‘g‘li,** KORXONALARDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARIGA OID HISOBOTLARNING AXBOROT QAMROVINI KENGAYTIRISH 195

39 **Rasulbayeva Dinora, Berdiqulova Manzura,** DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH 199

40 **Ravshanov Sanjar Tolibjonovich,** "Z AVLOD VAKILLARINING RAQAMLI INTELLEKTINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROTNI QABUL QILISHNING TIZIMLI MUVOZANATI" 207

41 **Rustamova Zarina Rustamovna,** XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA OILAVIY KORXONA TUSHUNCHASI VA ULARNING IQTISODIY BARQARORLIGI MAZMUN-MOHIYATI 211

42 **Raxmatov Baxriddin Buriboevich, Muradov Qodir Quldoshevich,** O‘ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI 215

43 **Salamov Ibroxim, Boyjigitov Kamronbekmirzo Sobirjon o‘g‘li,** IJTIMOIY HIMOYA TIZIMI VA BANDLIK SIYOSATI: GERMANIYA TAJRIBASI 220

44 **Sulaymanov Samandarboy Adhambek ugli,** METHODOLOGICAL FOUNDATIONS OF COMMERCIAL BANK LIQUIDITY MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON THE ECONOMY IN THE CONTEXT OF THE DIGITAL ECONOMY 227

45 **Sulaymonov Mirobid Abduxolikovich,** SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI, TABIIY VA ANIQ FANLAR KAFEDRASI O‘QITUVCHISI 233

46 **Farhod Mahmudovich Tirkashev, Mehribon Xasan qizi Oltinkulova,** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TARIXIY OBIDALAR ASOSIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI 238

47 **Toxirov Faxribek Farhod o‘g‘li, Erkinov Mirodiljon Dilshodjon o‘g‘li, Jabbarov Kamoliddin Yo‘ldoshevich,** MOLIYAVIY OMMABOPLIK VA UNI BAHOLASH MEZONLARI 245

48 **Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Egamberdiyev Ma’mur, Qanoatov Doniyor, Xolmurodov**

Botir, YASHIL IQTISODIYOT TUSHUNCHASI VA UNING BARQAROR RIVOJLANISHDAGI O‘RNI 252

49 **Ulmasova Oygul Baxtiyorovna, Olloqulov Jahongir Shokir o‘g‘li,** YASHIL IQTISODIYOT ORQALI DAVLAT BYUDJETINING BARQARORLIGINI TA’MINLASH: EKALOGIK INVESTITSIYALAR, INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA SOLIQ SIYOSATI 258

50 **Ulmasova Oygul Baxtiyorovna,** O‘ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING IQTISODIY AHAMIYATI 265

51 **Urdushev Xamrakul, Shodiyeva Maftuna Dilshod qizi,** BIOTEXNOLOGIK KLASTERLAR: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI, JAHON AMALIYOTI VA O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI 271

52 **Xamdamova Guljaxon Ablakulovna,** O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUT ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI HUDUDLAR KESIMIDA SOLISHTIRMA TAHLILI 277

53 **Xaydarova Nilufar,** BOLLARNING TA’LIM JARAYONIDA TANQIDIY VA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH JARAYONLARI 282

54 **Хамраев Гуломжон Рахманович,** IQ-«АЙКЬЮ» ИНТЕЛЛИГЕНТ ИЛИ СУПЕР-ИНТЕЛЛЕКТ 286

55 **Xoldarova Zohida, Berdiqulova Manzura,** BUDJET TASHKILOTLARIDA: REJALASHTIRISH VA MOLIYALASHTIRISH 290

56 **Xolmirzayev Furqatbek Muxtarjonovich,** ANDIJON VILOYATIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK RIVOJLANISHINING IQTISODIY TAHLILI 298

57 **Xudoyberdiyeva Ma'rifat Umarovna, Ergasheva Dildora Karimovna, Suvonova Jangul Baxriddinovna, Umarova Xushnura Jamol qizi,** SUN’IY INTELLEKT VA AVTOMATLASHTIRISH ZAMONAVIY MENEJMENT JARAYONLARIGA TA’SIRI 303

58 **Xudoyberdiyeva Ma'rifat Umarovna,** OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI SAVDOSI XIZMATLARI BOZORINING JORIY HOLATI, RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA OMILLARI 311

59 **Yorbekova Dilorom Muxammadkulovna, Lutfullayev Qudratilla Xayrulla o‘g‘li, Abdibokiyev Sherzod Abdulaziz o‘g‘li,** KICHIK BIZNES SUB’YEKTLARIDA LOGISTIK XIZMATLARNI TASHKIL ETISH AMALIYOTI: MUAMMO VA YECHIMLAR 318

60 **Yorbekova Dilorom Muxammadkulovna,** O‘ZBEKISTONDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI 321

61 **Yuldashev Shamsiddin Qiyamiddinovich, Boliyeva Baxora Farxodovna,** THE IMPORTANCE OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY IN UZBEKISTAN 326

62 **Yusupova Gulasal Axmedjanovna,** RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIYOT, BUXGALTERIYA HISOBI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH 330

63 **Уразов Давлат Комилович,** ИНТЕГРАЦИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В АУДИТОРСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ: МОДЕЛИ, КЛАССИФИКАЦИЯ И БАРЬЕРЫ ВНЕДРЕНИЯ 332

64 **Absamatov Asqar Ergashevich,** TRANSFORMATSIYA JARAYONIDA BANK AKTIVLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI 339

65 **Navruzbek Azimjonovich Rajabov,** SAMARQAND VILOYATIDA MOBIL VA YETKAZIB BERISH MAISHIY XIZMAT TURLARINI KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI 345

66 **Sattorov Shoximardon Xushmamatovich1, Xalikov Baxodir Meylikovich,** TOSHKENT VILOYATI O‘TLOQI-ALLYUVIAL TUPROQLARI SHAROITIDA MOSH VA LOVIYA EKINIDA GERBITSIDLAR QO‘LLASHNING TUPROQNING AGROKIMYOVIY XUSUSIYATLARIGA TA’SIRI 352

67 **Mohichexra Melikovna Mo‘minova,** SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASIDA KICHIK BIZNES SOHASINING “YASHIL IQTISODIYOT” GA O‘TISH HOLATI VA UNING TAHLILI 357

68 **Mohichexra Melikovna Mo‘minova,** YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGNING ISTIQBOLLI YO‘NALISHLARI VA TAMOYILLARI 363

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI, CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI

“SCIENCE AND INNOVATION” XALQARO ILMIY JURNALI

“RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIYOT, BUXGALTERIYA HISOBI VA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLAR TO‘PLAMI

2026-YIL 30-31-YANVAR

1-qism

COLLECTION OF MATERIALS

OF THE REPUBLICAN SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE ON THE TOPIC “PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF ECONOMICS, ACCOUNTING, AND INFORMATION TECHNOLOGIES IN THE DIGITAL ECONOMY”

JANUARY 30-31, 2026

Part 1

Published: 20.02.2026. Font: «Times New Roman».

LLC «Science and innovation»
License Mass Media №:1597 27.04.2022
License Publisher №:038864 15.09.2022
Address: 100121, Tashkent, Yakkasaroy, st. Sh. Rustaveli 150,
Business center “Vega”, 6th floor, Office №:2
www.scientists.uz, info@scientists.uz, +998933549654, +998993319654